3- الجملة الفعلية والجملة : الاستعانة بالمعاجم العربية والمعلم لمعرفة معاني الكلمات وتراكيب الجمل في اللغة العربية مثل - الاسمية والرجوع إلى المعلم ليدر به على استخدام تلك التراكيب وتصحيحها هو استخدام في التحدث مع معلمه وزملاءه في الصف وغيرهم متانتاحتلها الفرصة.

4- المداومة على التحدث بالعربية داخل الصف وخارجهم معلمة وزملاءه، أو حتى مع أصدقائه أو أقاربه وأقرانه الذين لا يجيدون العربية بغرض تعليمهم وممارسة مهنة التعليم مما سيؤدي الى إتقانه العربية في وقت قصير (حيث أن الطالب هنا سيلجأ من تلقاء نفسه إلى إتقان بعض الدروس السهلة التي يستطيع أن يعلمها أو يتحدث بها خارج المنظومة التعليمية) وهذا يعد من أفضل التدريبات العملية لتطبيق القواعد التي درسها في الصف، لان التطبيق عن طريق الممارسة يرسخ فهم الطالب للقواعد واللغة فلا يكون في حاجة إلى مراجعتها باستمرار، كما يكسبه التطبيق تحدثاً فهم أفضل للكلمات والتراكيب الجديدة التي لم يدرسها في الصف وربما يصل إلى درجة من القدرة على استساغة وفهم القواعد التي صعبت عليه أثناء الدرس في الفصل ، كما أن التحدث في بعض الأحيان يذهب يهيبه وخوف الطالب من تعلم اللغة العربية، ويعده نفسياً إلى مزيد من الفهم والتحصيل والاطلاع .

5- كثرة الاستماع إلى العربية عن طريق الوسائل الحديثة للأعلام المسموع الناطق بالعربية الفصحى (من خلال مشاهدة الأفلام، البرامج التلفزيونية، المقابلات والوثائقيات وحتى فيديوهات اليوتيوب التي تساعدك على رؤية الطريقة التي يتحدث بها الناطقون الرسميون باللغة مع بعضهم البعض)²⁰ للتعود على العربية والشعور بالألفة تجاهها، كما أن السماع أحد التطبيقات الهامة التي تساعد الطالب على فهم العربية بصورة أفضل وأشمل، وهنا يكون الطالب قد استوفى الجوانب الأربعة في تعلم اللغة (القراءة - الكتابة - الاستماع - التحدث).

ما يتعلق بالمعلم:

إن المعلم هو الأساس في العملية التعليمية لذا يقع على عاتقه النصيب الأكبر في تحمل العبء وتحقيق الهدف الوحيد الذي يعمل من أجله وهو تعليم اللغة العربية لغير الناطقين بها، والذي ينتظر نتيجته التي تتمثل في إتقان الطالب للعربية بمهاراتها الأربع (القراءة – الكتابة – الاستماع – التحدث) فهما وعملاً.

1- من الضروري أن يتقن المعلم اللغة العربية لغة

وسبباً عند تدريس العربية للمستويات الأولى والثانية لئلا يتحدث فيها الطالب بالعربية أو في بداية تعلمه، علماً أنه يظهر لنا جلياً أن بعض المعلمين لا يمتلك هذه الميزة إلا أنه استطاع عنها بقدرته على إيصال المعلومة بطرق أخرى مثل الصور والفيديوهات ... الخ.

2- فهم وأدراك معلم العربية لغير الناطقين بها لدوره الهام في تعليم العربية وأهمية هذا التكليف الذي تحمله وأن يكون على قدر المسؤولية في قيامه بأداء المهام الملقاة على عاتقه، والإجادة التامة للعربية وقواعدها وأساليبها التي تميزها عن غيرها من اللغات.

3- الالتحاق بالدورات الخاصة بتأهيل معلمي العربية لتعليم اللغة العربية لغير الناطقين بها، والاطلاع على الكتب والأبحاث الخاصة بهذا المجال.

4- الاستفادة من خبرات من سبقوه والتي حققت نجاحاً في تعليم العربية لغير الناطقين بها وذلك عن طريق المشاركة بالحضور أو بالأبحاث في المؤتمرات والندوات والدورات التدريبية متى اتاحت له الفرصة.

5- الإلمام بطرق التدريس الحديثة وخاصة تلك التي تهتم بإيصال المعلومة وإتقانها للطالب والتي تراعى الفروق الفردية - بينا الطلاب ...

6- العمل بروح الفريق ونقل الخبرات بين أعضاء هيئة التدريس ومناقشة ما يطرأ من معوقات ووضع حلول جذرية لها واقتراح أساليب تعليم متطورة تلبي حاجة الطالب والعملية التعليمية.

7- استخدام وسائل التعليم المختلفة التي تؤدي إلى إتقان الطالب اللغة العربية مثل (استخدام حركات الوجه والجسد وتمثيلاً للمعنى بالصوت والمحو وتوزيع الأدوار على الطلاب وفتح الحوار والمناقشة بينهم، مع إقامة المسابقات والتحديات الحرة داخل الصف لزيادة المنافسة).

8- حث الطلاب على تطبيق القواعد النحوية التي فهموها بتطبيقات عملية وبكلمات أو جملة جديدة متعلقة بالدرس لتتمية مهارة الفهم والتحدث وعدم الاكتفاء بتدريبات مكتوبة بل لابد من تطبيقات عملية.

9- التنويه عن الدرس الجديد وتكليف طلاب بالتناوب فيما بينهما حتى يشمل كل الطلاب بشرح الدرس الجديد أو على الأقل تلخيصه لضمان اهتمام الطلاب للدروس وفهمها جيداً والذي يعد تدريباً عملياً في نفس الوقت للطالب على استخدام العربية في التحدث والتعليم وتأهيله إذا أصبح معلماً وهذا الأمر يفضل للمستويات المتقدمة.

10- استخدام المعلم طرق مختلفة في شرح الدرس لمراعاة الفروق الفردية في الفهم بين الطلاب، ومن أمثلة ذلك التكرار والتبسيط، والسماح للمتفوقين من الطلاب بشرح الدرس لزملائهم في الصف، ويركز المعلم على التصحيح والمساعدة في التدريس.

11- تقسيم الدرس بمشاركة الطلاب إلى فقرات متصلة والقيام بوضع العناوين الفرعية المتصلة بعنوان الدرس، والربط بين الدلالات التركيبية للجمل وبين دلالات العناوين الفرعية ثم العنوان الرئيسي للدرس ليفهم الطالب ما يصعب عليه من خلال سياق الشرح.

12- الاستعانة بالتكنولوجيا الحديثة في العملية التعليمية وإدراك الدور العام لها في العصر الحالي مما لها من دور

واضح في تسهيل العملية التعليمية ومتابعة الطلاب وأدائها للواجبات التي كلفوا بها مثل (الاختبارات الإلكترونية، والبرامج التعليمية المفيدة).

إعداد

أحمد محمود أحمد محمد

محاضر بكلية اللغات الأجنبية

معهد اللغات الأجنبية بسمرقند

VATAN KONSEPTINING BADIY MATNDA VERBALLASHUVI

*B.Sh. Shuxratovna, katta-o'qituvchi,
Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand*

Annotatsiya: *Konseptlarning umumiyliги ajralmas va makon sifatida yagona kontsept maydonni tashkil etadi. Har bir madaniyat olam madaniyat modelining bir qancha umumbashariy konseptlaridan iborat (masalan, vaqt, o'lov, muhabbat, axloqiy tushunchalar, aql, makon, unsurlarning mohiyati va boshqalar), ammo har bir millat ushbu konseptlar o'rtasida o'ziga xos munosabatlarga ega. Bu o'ziga xoslik milliy olam qarashining asosini tashkil qiladi. Bunday jihatlar Saida Zunnunova va Pak Van So asarlarida alohida ajralib turadi va Sharq hayotiy falsafasida katta o'rin tutadi. Sharq aholisi o'z ona yurtiga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lishini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ushbu dalilni tasdiqlovchi qayta ishlangan tasviriy materialga asoslanib, biz o'zbeklar va koreyslar uchun asosiy tarkibiy qismlarni birlashtirgan VATAN konseptini ajratib ko'rsatishni o'rinli deb hisoblaymiz.*

Kalit so'zlar: *milliy qadriyatlar, badiiy matn, ekzistensial toifa, metafizik tabiat, semiotik tizim, kognitiv- konseptual, konsentrik va eksentrik shahar*

Ko'pgina tadqiqotchilarni kuzatib, biz milliy kontseptual soha individual, guruh, sinf, milliy va umuminsoniy tushunchalar to'plamidan iborat, deb hisoblaymiz. Bu umuminsoniy qadriyat konseptlaridir. Umuminsoniy konseptlarga "Vatan", "ona", "oila", "erkinlik", "sevgi", "e'tiqod", "do'stlik" kabi asosiy konseptlar kiradi va ular asosida milliy madaniy qadriyatlar shakllanadi. "Vaqt", "makon", "sabab" va boshqalar kabi fundamental universal konseptlar shular jumlasidandir. Bu universal tushunchalarning mavjudligi xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, har bir millatning o'z dunyo qarashi va qadriyatlari miqyosi mavjud bo'lib, madaniyat esa olamni anglash asosida ong va xatti-harakatlarning o'ziga xos stereotiplarini shakllantiradi. Turli xalqlarda qadriyatlar tizimi turlicha. Milliy qadriyatlar tizimini bilish juda muhimdir, chunki bu quyidagilarga imkon beradi: 1) ma'lum bir millat vakillarining xatti-harakatlarini bashorat qilish; 2) turli millatlar o'rtasidagi aloqa natijasini modellashtirish; 3) millatlararo nizolardan qochish; 4) odamlarni samarali boshqarish; 5) ma'lum bir millat uchun narsalar va xizmatlarning reklamasini tuzish va h.k.

D.Ashurova konseptni verballashtiruvchi eng asosiy til birliklaridan biri badiiy matn ekanligini qayd etadi va "ijtimoiy – madaniy va hayotiy qadriyatlarni aks ettiruvchi tizim sifatida badiiy matn estetik qadriyatga aloqador, emotsional, madaniy axborot manbai va saqlovchisi" hamda "o'zida umumbashariy, milliy-madaniy va muallifning individual tajribasi, madaniyatini aks etuvchi olamning milliy manzarasini aks etadi"- deb ta'kidlaydi.

Ikki toifa - makon va zamon asosiy ekzistensial toifalarga kiradi, inson tomonidan ongli materiya mavjudligining ikkita eng muhim shaklni shakllantirish, koinotning eng murakkab sirlarini belgilash va insonning ma'lum bir joy va vaqtga yo'naltirilishining oddiy shakllarini tushunish maqsadida tilga kiritilgan [Makarova 2003: 9]. Bunday jihatlar Saida Zunnunova va Pak Van So asarlarida alohida ajralib turadi va Sharq hayotiy falsafasida katta o'rin tutadi. Sharq aholisi o'z ona yurtiga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lishini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ushbu dalilni tasdiqlovchi qayta ishlangan tasviriy materialga asoslanib, biz o'zbeklar va koreyslar uchun asosiy tarkibiy qismlarni birlashtirgan

“vatan” konseptini ajratib ko‘rsatishni o‘rinli deb hisoblaymiz. Saida Zunnunova va Pak Van Soning tahlilga tortilgan hikoyalarda voqealar asosan shaharda sodir bo‘ladi.

O‘zbekiston shahri – o‘ziga xos hodisa bo‘lib, u turli xil xususiyatlarni namoyon qiladi va butun mamlakatga xos bo‘lgan sharqona go‘zallik, o‘ziga xoslik, turmush tarzi va inson mavjudligining boshqa ko‘plab jihatlari hayotning turli tomonlarini birlashtiradi. Shahar turli madaniyatlarda yo‘llarning, savdo yo‘llarining kesishish nuqtasi, atrofdagi makonni nafaqat geografik, balki metafizik ma'noda ham birlashtiruvchi o‘ziga xos markaz sifatida qabul qilinadi. Shahar dunyo modelining aksi. Binobarin, shahar me'morchiligi, ko‘chalarning joylashishi, shahar devoridagi darvozalar, masjidlar, ibodatxonalar va bozorlarning nisbati - bularning barchasi asosan tizimiga muvofiq qurilgan. Shaharning metafizik tabiati uning toponimiyasini semiotik tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi, unda har bir tasvir-sxemaga ma'lum bir ramziy ma'no beriladi:

“... Shahar manzarasi boshlandi, shanba bo‘lgani uchunmi, ko‘chalarda odam ko‘p, choyxonalar ham gavjum...”, “Tanish choyxona uning xayolini bo‘ldi. Avtobus to‘xtab turar, odamlar tushib bo‘lishgan edi, sal bo‘lmasa o‘tib ketar ekan. Magazin oynalariga osilgan narsalarni tomosha qilganicha asta yurib ketdi. Katta imoratlar orqada qolib, anhor yoqalagan torroq yo‘ldan eski mahalla boshlandi”, “...Obod shaharda, shinam, qulay uylarda yashab, qishloqdagi sigir, buzoqlarni eslash noshukurlikmi?...”

Pak Van So hikoyalarining harakat joyi ham asosan - shahar, aniqrog‘i, poytaxt Seul. Qahramonlar shaharning kambag‘al va boy joylarida yashaydilar. Ba‘zida voqealar cheklangan maydonda, bir qatorda yoki uyda sodir bo‘ladi. Hikoya chizig‘ini tashkil qilish uchun ko‘pincha bo‘shliqlarni taqqoslash usuli qo‘llaniladi. Shahar turli qiyofada taqdim etilgan, qahramonlarning unga munosabati ham har xil:

“...Biz Beshinchi xiyobonga keldik. Xan meni ko‘nglimni biladigan savollar bilan o‘zini qiynamay, ikkinchi qavvatdagi choy uyiga ko‘tarila boshladi...”, “Hech qanday pastlash va ko‘tarilishsiz uzun asfalt yo‘l to‘g‘ri chiziq bo‘ylab universitet eshigigacha cho‘zilgan, ikki tomondan daraxtlar tartib bilan ekilgan”, “Qulay, shinam uylarda yashash barcha noqulayliklarni, hatto eng kichigini ham unutishga olib kelar ekan”.

Ma'lumki, Janubiy Koreyaning poytaxti Seul jahon madaniyatining eng katta va maftunkor shaharlaridan biri. O‘zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti hisobiga Seul hamisha turli-tuman odamlar: yaxshiroq hayotni izlovchi odamlardan tortib madaniyatning turli jabhalari namoyandalari, xususan shoir va yozuvchilarning e‘tiborini tortgan va tortib kelmoqda. Pak Van So hikoyalarining tahlili natijalari quyidagi kognitiv-konseptual ma‘nolarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ba‘zida voqealar cheklangan maydonda, bir qatorda yoki uyda sodir bo‘ladi. Hikoya chizig‘ini tashkil qilish uchun ko‘pincha bo‘shliqlarni taqqoslash usuli qo‘llaniladi. Shahar turli qiyofada taqdim etilgan, qahramonlarning unga munosabati ham har xil. Xarakterli jihati shundaki, tabiatning tavsifi bu erda kamdan-kam uchraydi va qoida tariqasida, u funktsional yukni ko‘taradi. Bunday holda, vaqtga bog‘liqlik muhim rol o‘ynaydi, xususan, yil fasli. Bitta hikoyada voqea qahramonlar ochiq bo‘sh joyda tabiiy hayot kechiradigan va tabiatning o‘zini, uning tabiiy go‘zalligini aks ettiradigan qishloqda sodir bo‘ladi. Pak Vanso asarlarida rangli tasvirlar keng tarqalgan emas. Muallifning dunyoqarashini ifodalash usuli sifatida rangdan foydalanadi. Insonni, uning tashqi ko‘rinishini va kiyimini tavsiflashda ishlatiladigan rang belgilari bir qarashda faqat rang berish ko‘rsatkichlari bozx‘lib tuyuladi, lekin aslida ular qahramonning ma'lum bir “dunyo” ga aloqadorligining ma'lum bir belgisini o‘z ichiga oladi. Ba‘zi hikoyalarda rangsiz muhit orasida rang bilan tasvirlangan bitta narsa yorqin nuqta sifatida ajralib turadi. Bunday hollarda rang ramz vazifasini bajaradi. Rangning yo‘qligi tabiiy hayot quvonchidan mahrum bo‘lgan dunyoning jonsizligini ko‘rsatadi, bunda sun‘iy hamma narsa tabiiy o‘rnini egalladi va aksincha, “rang tavsiflari” tabiiy insoniy munosabatlar maydoni bilan bog‘liq.

Yu.M.Lotman “Sankt-Peterburg ramzlari va shahar semiotikasi muammolari” maqolasida konsentrik va eksentrik shahar tushunchasini kiritadi: “Semiotik makonda shaharning konsentrik joylashuvi odatda tog'dagi (yoki tog'lardagi) shahar tasviri bilan bog'liq. Bunday shahar yer va osmon o'rtasida vositachi bo'lib, uning atrofida genetik reja haqidagi afsonalar to'plangan (qoida tariqasida, uning asos solinishida ma'budlar ishtirok etishgan), uning boshlanishi bor, lekin oxiri yo'q - bu “abadiy shahar”. Eksentrik shahar madaniy makonning “chekkasida” : dengiz qirg'og'ida yoki daryoning bo'yida Joylashadi. Bu yerda "yer/osmon" qarshiligi, balki "tabiiy/sun'iy" qarama-qarshilik kuchayadi. Bu tabiatga qarshi va u bilan kurashda yaratilgan shahar bo'lib, shaharni talqin qilish uchun ikki baravar imkoniyat beradi: bir tomondan aqlning unsurlar ustidan qozongan g'alabasi, ikkinchi tomondan esa tabiiy tartibning buzilishi.

Insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq inson va tabiat o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik kuzatiladi [Makovskiy 1996: 6]. Hatto ibtidoiy jamiyat davrida ham olamning antropomorf va zoomorfik modellari birlamchi hisoblangan (ular orasida dunyoni ilon va toshbaqa bilan identifikatsiya qilishni alohida ta'kidlash kerak) [Rushdie 1991:56-59] Bu tendentsiya ayniqsa Sharq madaniyatida yaqqol namoyon bo'lib, uning mohiyati tabiiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shunday qilib, Sharqda tabiat inson bilan sodir bo'ladigan barcha jarayonlarning o'lchovidir. Inson bunga bog'liq bo'lib, uning barcha faoliyati tabiat bilan bog'liq. Sharq madaniyatida o'simliklar katta rol o'ynaydi. Madaniyatning bu xususiyati Saida Zunnunovaning badiiy nasrida o'z ifodasini topgan. Yozuvchining badiiy adabiyotida O'zbekistonga xos ko'plab o'simliklar, masalan, anor, qovun, shaftoli, o'rik, paxta, o'sma va boshqalar qayd etilgan. Zero, Sharqning beg'ubor tabiatining g'ayrioddiy go'zalligi O'zbekistonga xosdir: “Bahor boshlanyapti. Oppoq uvada bulutlarni shamol haydaydi. Osmonning ko'ngillarga yorug'lik to'ldiradigan shaffof rangi ko'rinadi. Quyoshning issig'i nam tuproqdan, ivigan bo'g'otlardan hovur ko'taradi. Daraxtlarning badaniga ham yashillik yugurib qolgan. Qishdan zerikkan odamlar hovli tozalashga shoshiladilar”. “Vahobjon bir o'rtog'inikiga borganida otquloqdek bo'lib yotgan o'smaga ko'zi tushgandi” (25 b.). Surmarang osmonda yulduzlar juda tiniq porlar, kuzning muzdek, junjiktiruvchi shamoli esardi.

Quyosh qip-qizarib borliqqa anor suvi purkayotgandek bo'lib botardi. Muzdek shabada Vahobjonning yuzlariga mayin urilar, mo'rildan osmonga o'rimalayotgan tutunlar yangi ko'tarilgan tok poyalari ustida asta yoyilib ketar, allaqayerdan yangi yopilgan nonning hidi kelardi (28 b.).

Kuz boshlanyapti. Daraxtlarning bargi xira tortib qolgan. Osmon biram tiniq, bag'riga singib ketging keladi... Xazonlar tusha boshlabdi (29b.).

Bu madaniyatining o'ziga xos va noyob an'analari va xususiyatlarini saqlab qolishga yordam beradi. O'zbekiston boy va unumdor yer bo'lib, u yerda eng yaxshilari o'sadi va yashaydi.

Boshqa har qanday xalq singari, o'zbeklar ham o'z mamlakatlariga sevgi va hurmat bilan munosabatda bo'lishadi va uni eng yaxshi deb bilishadi. Ular uchun yer yuzida bundan jozibali joy yo'q. O'zbeklar uchun dala odatiy hodisa, shuning uchun o'zbeklarning vatani haqida gapirganda, mahalliy aholi uni dala bilan bog'laydi:

“...Mana shu ufqqacha tutashgan dalaga uning peshona teri ko'p to'kilgan” (28b.). Qishloq yo'lga kirgan abtobus oynasidan haydalgan, qorayib ko'pchigan yer ufqqacha cho'zilib yotar, tol barglari mayin tebranib bahor nafasini ufqayotganday edi (25b.).

Yozning oxiri kuzning boshi edi. Osmon tiniq, suvlar tingan. Yaproqlar hali sarg'aymagan. Ko'm-ko'k paxtazorning ustida shulami, havomi mayin, sokin jimirlaydi. G'o'zalar ko'sak tugib yotibdi. ()

Xarakterli jihati shundaki, tabiatning tavsifi Pak Van So hikoyalarida kamdan-kam uchraydi, funktsional yukni ko'taradi. Bunday holda, vaqtga bog'liqlik xususan, yil fasli muhim rol o'ynaydi, Bitta

hikoyada voqea qahramonlar ochiq bo'sh joyda tabiiy hayot kechiradigan va tabiatning o'zini, uning tabiiy go'zalligini aks ettiradigan qishloqda sodir bo'ladi. Pak Van So asarlarida rangli tasvirlar keng tarqalgan emas. Qoida tariqasida, u muallifning dunyoqarashini ifodalash usuli sifatida rangdan foydalanadi. Insonni, uning tashqi ko'rinishini va kiyimini tavsiflashda ishlatiladigan rang belgilari bir qarashda faqat rang berish ko'rsatkichlari bo'lib tuyuladi, lekin aslida ular qahramonning ma'lum bir "dunyo" ga aloqadorligining belgisini o'z ichiga oladi. Ba'zi hikoyalarda rangsiz muhit orasida rang bilan tasvirlangan bitta narsa yorqin nuqta sifatida ajralib turadi. Bunday hollarda rang ramz vazifasini bajaradi. Rangning yo'qligi tabiiy hayot quvonchidan mahrum bo'lgan dunyoning jonsizligini ko'rsatadi, bunda barcha sun'iy narsa tabiiy o'rnini egallagan va "rang tavsiflari" tabiiy insoniy munosabatlar maydoni bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Min Xyongi. Zamonaviy koreys nasrining tadqiqi. (민현기. 한국현대소설연구). Tery. 1998. –B. 60.
2. Kwon Young-Min. Modern Korean Literature (II). //Seoul Journal of Korean Studies. Vol.14. December, 2001, p. 55-65.
3. Kim Mixyon. Koreys ayollar nasri va feminizm. 김미현. 한국여성소설과페미니즘. Seul, 1996. B. 25-33.
4. Li San Su. Nasr haqida turli mavzularda suhbat (이상수. 테마별로읽는소설이야기. 집문당) Seul, 1995. - B. 100.
5. An Namyon. Zamonaviy jamiyat o'zgarishlarining nasrda ifodalash usullarining tadqiqi. (안남연. 현대사회의 변화와 소설의 대응방법에 대한 연구. // 현대소설연구. 한국현대소설학회). Seul. 1998. -B. 468.
6. Маковский — репин: история многолетней полемики // Акцент. 1996. № 2–3. С. 70–74; 5)
7. Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: Сб. науч. тр. Волгоград: Перемена, 2000. С.5–20.
8. Антология концептов / под ред. В.И. Карасика, И.А. Стернин. – М.: Гнозис, 2007. 10 с.
9. Макаров М. Л. Основы теории дискурса.— М.: ИТДГК «Гнозис», 2003.— 100 с

SINESTEZIYA - METAFORANING BIR TURI SIFATIDA

Sh.K.Eshimova

*Koreys filologiyasi kafedrası
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ma'lumki, beshta sezgi organimiz bizni o'rab turgan dunyo haqida ma'lumot olishimiz uchun muhim vazifani bajaradi. Aynan ular yordamida biz ob'yektlar va hodisalar haqida tasavvur hosil qilamiz. Ularning har biri ko'rish, eshitish, hidlash, teginish va ta'm kabi ma'lum bir sezgi vazifasini ifodalaydi. Biroq, idrok etishning ba'zi mexanizmlari tufayli turli sezgilar orqali olingan ma'lumotlar o'zaro ta'sir qilishi va o'zaro bog'lanishi mumkinligi isbotlandi. Bunday o'zaro ta'sir shakllaridan biri, sezgi modallari bir-birini to'ldiradigan «barcha sezgilar birgalikda ishlaydigan» sinesteziya hodisasidir. Sinesteziya (yunoncha synaisthesis - «aralash sezgi») - bu turli sezuvchanlik sohalari fazilatlarining o'ziga xos birikmasi bo'lib, bunda bir modallikning fazilatleri boshqasiga o'tadi. Ushbu maqolada shular bo'yicha batafsil ma'lumotlar va fikrlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *sinesteziya, kontekst, allegoriya, trop, tafakkur, assotsiatsiya, sinestetik metafora, lingvistik metafora, semantika.*

Sinesteziyaga dastlab psixofiziologik hodisa sifatida qaralgan. Biroq, XIX asrning 80-yillaridan boshlab tilshunoslikda ham unga faol qiziqish bildirila boshlandi. Tilshunoslik kontekstida «sinesteziya» atamasi sezgilararo assotsiatsiyalar jarayonini ham, uning natijalarini ham, ya'ni sezgi belgilarini bir sezgi a'zosidan ikkinchisiga o'tkazish asosida qurilgan leksik yoki frazeologik birliklarni anglatadi. Ko'pgina olimlar, xususan, rus olimi E.V. Klyuev, sinesteziyani metaforik troplarga bog'laydi. Biroq, sinesteziya o'xshashlik assotsiatsiyasiga (masalan, allegoriya, oksimoron, metafora va boshqalar) asoslangan boshqa troplar orasida ajralib turadi. Chunki u «bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi sohalari - aytaylik, ko'rish va eshitish, ta'm, hid yoki teginish, shuningdek, turli xil kombinatsiyalarni o'z ichiga oladi».²¹

Amerikalik tilshunos Benjamin Uorf sinesteziya hodisalariga alohida qiziqish bildirar ekan, ularga quyidagicha ta'rif beradi: «Sinesteziya bu bir sezgi a'zolari yordamida boshqa sezgilar sohasi bilan bog'liq hodisalarni idrok etish qobiliyati, masalan, rang yoki yorug'likni tovushlar orqali idrok etish va aksincha, fazoviy atamalar nuqtai nazaridan fazoviy bo'lmagan tasvirni bildiruvchi lingvistik metafora tizimi orqali yanada ongliroq qilish qobiliyatidir». Bundan ko'rinadiki fazoviy bo'lmagan idrok sohasiga tegishli bo'lgan fikrlar, his-tuyg'ular yoki tovushlar fazoviy elementlarni bildiruvchi leksemalar yordamida uzatiladi va shu bilan go'yo bizning fikrlarimiz, his-tuyg'ularimizga, tovushli hislarimizga xos bo'lmagan rang, shakl, kontur, tuzilish kabi xususiyatlarni beradi²². Muallifning sinestetik metaforaning bu xususiyati san'atda ulkan rol o'ynaydi, degan fikriga qo'shilmaslikning iloji yo'q.

Boshqa tomondan qaralganda, «sinesteziya o'quvchiga yozuvchi va shoirning dunyoqarashi va munosabatining o'ziga xos xususiyatlarini, uning tevarak-atrofdagi voqelikka qarashini ochib beruvchi

²¹ Ключев Е.В. Риторика. Инвенция. Диспозиция. Элокуция : учеб. пособие для вузов. – М.: ПРИОР, 1999.

²² Уорф Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в лингвистике. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960.

o'ziga xos stilistik belgidir»²³. Sinestetik metaforalarning qo'llanilishi «shoirning ichki dunyosi, tafakkurining o'ziga xos jihatlari, ehtirolari, mayllarini anglash imkonini beradi».²⁴ Sinesteziyaning adabiyot uchun ahamiyati beqiyos. Chunki bu trop yorqin tasvirlarni yaratishga va hatto eng murakkab his-tuyg'ularni yetkazishga yordam beradi, shuningdek, o'quvchida muallifning munosabati haqida tasavvurni shakllantiradi. Sinestetik metafora ko'pincha kutilmagan kombinatsiyalarni o'z ichiga oladi va shu bilan matn imkoniyatlarini, uni idrok etish chegaralarini kengaytiradi. Shu o'rinda o'zbek adabiyoti vakillari ijodidan sinestetik metaforaga oid bir nechta misollarni ko'rib chiqsak. O'zbek she'riyati sinestetik metaforalarga boy. Masalan, atoqli shoir Abdulla Oripovning «Aprel» she'rida quyidagi birikmani uchratish mumkin:

Borliq kiyib olgan moviy bir libos,
Yel esar-bahorning pildiroqlari.
Atrofnı chaqırar yashıl bazmga
Aprel osmonining qaldiroqlari
Shuningdek, Erkin Vohidovning
Favqulodda topishdilar ikkala yosh,
Qiz husnda tengsiz edi misli lola.
Ikkisin ham siylar edi saxiy quyosh,
Quyoshim,deb kuylar edi shoirbola,

kabi satrlarida ham sinestetik metaforaning mohirona ifodasini ko'ramiz. Sinesteziyaning yuksak ifodasini Zulfiyaning «Bahor keldi seni so'roqlab» she'rida ham uchratamiz.

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor .²⁵

O'zbek shoirlari ijodidagi sinestetik metaforalarning ko'pligini, birinchi navbatda, ular ramziylik belgilari bo'lishi bilan ham izohlash mumkin. Badiiy maqsadlarga erishish uchun sinesteziyadan faol foydalanish nafaqat o'zbek simvolistlariga, balki koreys ijodkorlari orasida ham urf bo'lgan.

Ko'plab mualliflarning fikriga ko'ra, koreys tilida hissiy holatlarni yetkazib berishda hissiyotlarga ko'proq e'tibor beriladi, ularni farqlash uchun koreys tilida leksik va grammatik iboralar anchagina. Shu bois sinesteziyadan foydalanishdagi misollarni koreys mualliflarining ijodida ham ko'p uchratish mumkin.

Koreys adabiyotida sinesteziya qo'llanilishiga misol sifatida koreys klassik adabiyoti namoyandasi 윤동주 (Yun Dong Ju) ijodini keltirishimiz mumkin. Adibning

죽는 날까지 하늘을 우러러
한 점 부끄럼이 없기를,
앞새에 이는 바람에도

²³ Сатретдинова, А. Х. Синестезия как основной стилеобразующий элемент поэтического текста Серебряного века // Известия ПГУ им. В.Г. Белинского. – 2012. – № 27. – С. 392-395.

²⁴ Уорф Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в лингвистике. – М.: Издательство ино-странной литературы, 1960. – 464 с.

²⁵ Zulfiya «Bahor keldi seni so'roqlab»

나는 괴로워했다.
별을 노래하는 마음으로
모든 죽어 가는 것을 사랑해야지
그리고 나한테 주어진 길을
걸어가야겠다.²⁶
오늘 밤에도 별이 바람에 스치운다

misralarida shoir tuyg'ulardan foydalangan holda inson obrazini yaratadi, uning mohiyatini tabiat hodisalari bilan qiyoslaydi. Koreys she'riyatida shuningdek 정호승 (Jeong Ho Seung) ham sinestetik metaforadan keng foydalangan. Shoirning

첫눈 오는 날 만나자
어머니가 싸리빚자루로 쓸어놓은 눈길을 걸어
누구의 발자국 하나 찍히지 않은 순백의 골목을 지나
새들의 발자국 같은 흰 발자국을 남기며
첫눈 오는 날 만나기로 한 사람을 만나러 가자

she'rida muallif oq rangning soyalaridan biri bo'lgan qor rangidan soflik, tozalikni ifodalab sevgining nozik ohanglarini tasvirlashda oq rangdan foydalanadi va taxmin qilish mumkinki, u ishqqa bo'lgan munosabatni mana shu sinestetik taqqoslash yordamida yetkazishga muvaffaq bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek inson ongi tashqi omillar ta'sirini asosan beshta sezgi a'zosi yordamida sezadi. Bular: ta'm bilish 미각, eshitish 청각, ko'rish 시각, hid bilish 후각 va teri orqali sezish 촉각. Barcha sezgi a'zolarimiz bizga atrof-muhitning turli xil ta'sirlarini seza olish, ularni ongimizda analiz-sintez qilish imkonini beradi. Ba'zi bir insonlarda shunday holat ham kuzatilishi mumkinki, bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi a'zolari birgalikda ishlaydi va ongda ma'lum bir holat kuzatiladi. Ushbu holat fanda o'z nomiga ega bo'lib, u sinesteziya deb nomlanadi.

Sinesteziyani tushunish uchun biz tavsiflash tamoyillarini tushunishimiz kerak. Ta'rifning asosi ikki xil ob'ektda muvofiqlikni topishdir.

Misol	Sinesteziya	Tarjima
동행 쪽빛 바람	촉각의 시각화 (Teri orqali sezish va ko'rish hissi)	Sharqqa tomon esgan shamol
매운 계절의 채찍에 갈겨	미각의 촉각화 (Ta'm sezish va teri orali sezish hissi)	Achchiq mavsumning qamchisi bilan kaltaklangan
내비 허리에 새파란 초당달이 시리다	시각의 촉각화 (Ko'rish va teri orqali sezish hissi)	Osmonning belidagi sovuq yarim oy

²⁶ 윤동주 (Yun Dong-ju)

고향의 저문 강물 소리가 묻어 있다	청각의 시각화 (Eshitish va ko'rish hissi)	Ona shahrimning tubida daryo suvining ovozi ko'milgan
매아리가 자맥질을 하는 곳	청각의 시각화 (Eshitish va ko'rish hissi)	Lochinlar chug'urlagan joy

Tilshunoslik sohasida sinesteziya odatda metafora nuqtai nazaridan tushuniladi. Ullmann (1963) 19 - asrda ingliz, fransuz va venger tillarida yozilgan she'rlarni tahlil qilib, u sinesteziya o'tkazishda uchta asosiy tendentsiyani keltirib chiqaradi. Birinchidan, «teginish → issiqlik → ta'm → hid → eshitish → ko'rish» yo'naltirilgan tendentsiyasi mavjud. Bu «ierarxik taqsimot» deb nomlanadi. Ammo, shuningdek, uning gipotezasi universal tarzda o'rnatilishi uchun ko'proq lingvistik misollarni yanada kengroq tekshirish zarurligini tan oladi. O'rganilgan til ob'ektlari ingliz tilidan xitoy, koreys, italyan va yapon kabi bir necha tillarga doimiy ravishda kengaytirildi. Biroq, ko'plab tillar, shu jumladan koreys tili ham tadqiqot mavzusi bo'lib qolmoqda.

Sinesteziya sohasiga qiziqish, asosan, XIX asrdan boshlangan. Dastlab u faqatgina psixofiziologik holat deb qaralgan. Ammo keyinchalik, sinesteziyaning tilshunoslik va badiiy adabiyot bilan uzviy ravishda bog'langanligi yaqqol oydinlashdi. Ko'plab olimlar bu sohaga qiziqish bildirganlar va o'z asarlarida, ilmiy izlanishlarida sinesteziyaga nisbatan ta'rif berib o'tganlar. Aslini olganda ham badiiy adabiyotlarda qo'llaniluvchi metaforik misollar va obrazlarni uchratishimiz mumkin. Fikrimizcha, aynan, sinesteziya, ya'ni metaforik o'xshatishlar o'quvchiga yozuvchining dunyoqarashi, uning ijodining o'ziga xos xususiyatlarini anglatib turadi. Chunki har qanday ijodkor o'xshatishlar qila oladi. Ammo badiiy jihatdan mukammal o'xshatishlar kamdan kam ijodkorlar asarida uchraydi. O'zbek tilshunosligida sinesteziya bo'yicha ma'lumotlar hali ko'p emas. Tilshunos olim M.Mirtojiyevning «O'zbek tili semasiologiyasi» asarida ushbu sohaga ta'rif berib o'tadi. Adabiyotshunos S.Quronov «Sinesteziya hissiy a'zolarining bir vaqtda faoliyat olib borishi, olingan hisning qorishib ketishi demakdir» degan edi. Aytish mumkinki, sinesteziya hodisasi badiiy obraz yaralishidagi murakkabliklar bilan ham uzviy bog'liq. Shu sababdan ham hozirgi zamon san'atshunosligida badiiy sintez masalasini ham o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni ijodkor asar yaratar ekan o'z qobiliyatiga monand sinkretik obrazlarni dunyoga keltiradi. Yevropada sinesteziyani insonlardagi noyob qobiliyat deb ham e'tirof etishgan. Sinesteziya haqida dastlabki tushunchalarni insonlar ongida shakllantirish uchun ham albatta u haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim. Ushbu holatdagi insonlarda badiiy tasavvur ancha kuchli bo'ladi, ehtimol, aynan shu tufayli ular orasidan yozuvchi va shoirlarni ko'proq uchratamiz.

Inson ongi tashqi omillar ta'sirini asosan beshta sezgi a'zosi yordamida sezadi. Bular: hid bilish, ta'm bilish, ko'rish, eshitish va teri orqali sezish. Barcha sezgi a'zolarimiz bizga tashqi muhitning turli xil ta'sirlarini seza olish, ularni ongimizda analiz-sintez qilish imkonini beradi. Ba'zi bir insonlarda shunday holat ham kuzatilishi mumkinki, bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi a'zolari birgalikda ishlaydi va ongda ma'lum bir holat kuzatiladi. Ushbu holat fanda o'z nomiga ega bo'lib, u sinesteziya deb nomlanadi.

O'zbek tilshunosligida ham sinesteziya mavzusiga alohida e'tibor qaratish lozim. Yevropada sinesteziyani insonlardagi noyob qobiliyat deb ham e'tirof etishgan. Sinesteziya haqida dastlabki tushunchalarni insonlar ongida shakllantirish uchun ham albatta u haqida yetarlicha ma'lumotga ega

bo'lishimiz lozim. Ushbu holatdagi insonlarda badiiy tasavvur ancha kuchli bo'ladi, ehtimol, aynan shu tufayli ular orasidan yozuvchi va shoirlarni ko'proq uchratamiz.

Umuman olganda, bu «달콤한 목소리 - shirin ovoz» va «따뜻한 색 - iliq rang» kabi bir hissiy soha boshqasiga bog'langan assotsiatsiyani anglatadi. Sinesteziya - bu inson tushunchasi haqidagi tadqiqot bo'lgan va keyinchalik taniqli jurnalda yanada aniqroq taqdim etilgan.

An'anaviy lingvistik tadqiqotlarda metafora odatda semantika yoki tushunchalar emas, balki so'z yoki tildan foydalanishga bog'liq deb hisoblangan. Lekin Lakoff va Jonson (1980) tomonidan bunday an'anaviy tushunchalar butunlay bekor qilingan, ya'ni metafora oddiygina til, u nafaqat texnik mahorat, balki inson tushunchalarini anglash mexanizmi ham chuqur aks etishi natijasida tan olinadi. Metaforik assotsiatsiya kontseptual darajada yuzaga keladigan ko'chirish munosabati bo'lib, bunday o'tkazish ikkita mustaqil kontseptual soha, manba va maqsad o'rtasida sodir bo'lib, ular aniqroq sohadan mavhumroq sohaga o'tadi. (Lakoff va Jonson 1980). Asosiy jihatlardan biri shundaki, she'riy metafora kundalik tilda qo'llaniladigan metaforalardan tubdan farq qilmaydi, ya'ni ularning barchasi bir xil bilish mexanizmlaridan foydalanadi, faqat kengayish, mahorat, assotsiatsiya va boshqalar bilan farqlanadi.

Shunday qilib, sinestetik metafora ikki yoki undan ortiq turli xil hissiy sohalarda ifodalangan an'anaviy yoki adabiy kontseptual o'tish sifatida belgilanishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, verbal sinesteziyada bir sezgi ikkinchisi bilan bog'liq bo'lgan leksik iboralar orqali tasvirlanadi. Masalan, yuqorida tilga olingan «달콤한 목소리-shirin ovoz» ga nazar tashlaydigan bo'lsak, so'zlovchi eshitish idrokini (목소리-ovoz) bildirish uchun ta'mga «달콤한-shirin») bog'liq iborani qo'llaydi. Misolda eshitish tushunchasi atamalarda tasvirlangan. Ta'm tushunchasi, bu yerda «목소리-ovoz» uzatishning maqsad sohasiga aylanadi va «달콤한-shirin» uning manba sohasiga aylanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, sinesteziyaning til vositasi sifatidagi ahamiyati, asosan, u ona tilida so'zlashuvchilarga turli xil sezgilardan olingan tuyg'ular va ma'lumotlar, tasavvurning o'zaro ta'siri natijasi bo'lgan mavhum tushunchalarni nutqda mustahkamlashga imkon beradi. Sinesteziyani aqliy va hissiy sohalarda aks etgan holda bevosita kuzatish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ключев Е.В. Риторика. Инвенция. Диспозиция. Элокуция: учеб. Пособие для вузов. – М.: ПРИОР, 1999
2. Уорф Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в лингвистике. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960.
3. Сатретдинова, А. Х. Синестезия как основной стилеобразующий элемент поэтического текста Серебряного века // Известия ПГУ им. В.Г. Белинского. – 2012. – № 27. – С. 392-395.
4. Уорф Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в лингвистике. – М.: Издательство ино-странной литературы, 1960. – 464 с.
5. Zulfiya "Bahor keldi seni so'roqlab"
6. 윤동주 (Yun Dong-ju). 2010

FILOLOG TALABALARNING XITOIY TILIDA DARAJA TO'LIQLOVCHILARINI
O'ZLASHTIRISH KO'RSATGICHI BO'YICHA TADQIQODLAR

Tilovov Ozod Zairjonovich

SamDCHTI, "Yaqin sharq tillari" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand davlat chet tillar instituti Xitoy tili yo'nalishi talabalari tomonidan Xitoy tilida daraja to'liqlovchilarini o'zlashtirishi va ulardan foydalanishi har tomonlama o'rganildi va ular tomonidan o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yiladigan odatiy xatolar bo'yicha tahlil o'tkazildi hamda xatolarni bartaraf etish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.

Kalit so'zlar: Daraja to'liqlovchilari, 得, 很, 非常, 十分.

Аннотация: В данной статье всесторонне изучено приобретение и использование дополнение степени по китайскому языку студентами отделения китайского языка Самаркандского государственного института иностранных языков, а также проведен анализ типичных ошибок, допускаемых ими в процессе была проведена комплектация и даны соответствующие указания по устранению ошибок.

Ключевые слова: Дополнение степени, 得, 很, 非常, 十分.

Abstract: In this article, the acquisition and use of Degree Complement in the Chinese language by the students of the Chinese language department of the Samarkand State Institute of Foreign Languages was comprehensively studied, and the analysis of the typical mistakes made by them in the process of acquisition. was conducted and appropriate instructions were given to eliminate errors.

Key words: Degree Complement, 得, 很, 非常, 十分.

KIRISH

Zamonaviy xitoy tilida daraja to'liqlovchilari, daraja ravishlari kabi, nisbatan yopiq sinf bo'lib, daraja to'liqlovchilari boshqa tur to'liqlovchilardan farq qiluvchi qator sintaktik va semantik xususiyatlarga ega. Sai Li (2011) daraja to'liqlovchilarining tasniflash asoslarini har tomonlama tahlil qilib, ushbu me'yorlarga muvofiq zamonaviy xitoy tilida daraja to'liqlovchilarning 43 ta a'zosini aniqladi va ko'p burchakli tasnifni amalga oshirdi. Sai Li (2012) Kompiyuter lingvistikasining avtomatik so'zlarni segmentlash texnologiyasidan foydalangan holda Pekin universitetining zamonaviy xitoy tili korpusidan olingan barcha tegishli til korpuslarini hisoblab va tahlil qilib chiqdi. U keng ko'lamlil til korpus statistik natijalari asosida 43 ta daraja to'liqlovchilari va predikat vazifasini bajaruvchi so'zlarning birikma xususiyatlarini tekshirgan va tahlil qilgan.

Ushbu maqolada Samarqand davlat chet tillar instituti talabalari tomonidan xitoy tilidagi daraja to'liqlovchilarini o'zlashtirish va ulardan foydalanishini o'rganish uchun talabalarning yozma ishlari o'tkazilgan tadqiqot testlaridan foydalaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Daraja to'liqlovchilari fe'l yoki sifat bilan to'liqlovchi o'rtasiga “得” ning qo'shilishi bilan tarkib topgan grammatik shakl hisoblanib, harakat erishgan ma'lum bir darajani ifodalaydi. Agar fe'l to'ldiruvchi olsa, u holda to'ldiruvchidan keyin fe'l yana takrorlanadi va “得” hamda to'liqlovchi qo'shiladi.

To'ldiruvchini fe'ldan oldin qo'llasa ham bo'ladi, to'liqlovchi to'g'ridan to'g'ri to'ldiruvchidan keyin qo'llab bo'lamydi. Daraja to'liqlovchilaridan oldin “很、非常、十分、不、不太” kabi daraja yoki inkor ravishlari qo'llanilishi mumkin. Ba'zi bir darajani ifodalovchi to'liqlovchilar bilan fe'l yoki sifat o'rtasiga “得” qo'llanilmasligi ham mumkin, bunday holatda to'liqlovchi to'g'ridan to'g'ri fe'l yoki sifatdan keyin keladi.

1. 动词 (fe'l) + 得 + 补语 (to'liqlovchi)

Bu xitoy tili daraja to'liqlovchilarining eng namunaviy shakli hisoblanadi. Ularning inkor formasi to'liqlovchidan keyin “不” qo'shiladi. E'tiborli bo'ling, to'liqlovchi vazifasida kelgan sifatdan oldin odatda “很、非常、十分” kabi daraja ravishlari qo'shilishi kerak bo'ladi, aks holda gapda taqqoslash forma yuzaga kelib qoladi.

萨沙跑得很快。

玛丽说得不流利。

2. 形容词 (sifat) + 得 + 补语 (to'liqlovchi)

Bu shakldagi daraja to'liqlovchilarining odatda inkor shakli bo'lmaydi.

她高兴得笑了起来。

这样做好得很。

3. 动词 (fe'l) + 宾语 (to'ldiruvchi) + 动词(fe'l) + 得 + 补语 (to'liqlovchi)

Bu bir xitoy tili grammatikasiga xos bo'lgan, lekin unchalik oson bo'lmagan grammatik shakl, og'zaki nutqda ko'pchilik 宾语 (to'ldiruvchi) + 动词 (fe'l) + 得 + 补语 (to'liqlovchi) holatda qo'llashni maqul ko'rishadi.

他们说英语说得很流利。

他打乒乓球打得非常好。

这个小伙子走路走得很快。

4. 宾语 (to'ldiruvchi) + 动词 (fe'l) + 得 + 补语 (to'liqlovchi)

Bu og'zaki nutqda eng keng qo'llaniladigan fe'l to'ldiruvchini va yana daraja to'liqlovchisini oladigan grammatik shakl hisoblanadi. Ba'zan to'ldiruvchi egadan oldin ham qo'llanilishi mumkin.

他字写得十分漂亮。

汉语他说得很不错。

5. 动词 (fe'l) + 补语 (to'liqlovchi) + (宾语 to'ldiruvchi) + 了

Bu shakldagi daraja to'liqlovchilari og'zaki nutqda keng qo'llanilib, semantik ifodalanishi ham sodda ham tushunarli. E'tiborli bo'ling, bu o'rinda qo'llaniladigan fe'llar odatda ruhiy faoliyat bilan bog'liq fe'llardan tarkib topgan bo'ladi. Bu turdagi shakl to'g'ri vaqtda qo'llanilishi kerak, har qanday vaziyatda ham foydalanib bo'lmaydi, aks holda qoniqarsiz natija yuzaga keladi.

他喜欢极了。

我讨厌死你了。

6. 形容词 (sifat) + 补语 (to'liqlovchi) + (宾语 to'ldiruvchi) + 了

Bu turdagi shakl va yuqoridagi shakl deyarli bir xil, chunki xitoy tilida sifat va ruhiy faoliyatni ifodalovchi fe'llar bir xil grammatik vazifaga ega. E'tiborli bo'ling, Bunday gaplarda to'ldiruvchi oladigan sifatlar fe'lga aylangan bo'ladi.

我累死了。

这回可高兴死他了。

7. Daraja to'liqlovchilarning tasdiq so'roq shakli.

Daraja to'liqlovchilar shakl jihatidan potensial to'liqlovchilar bilan o'xshash tomonlari mavjud, shuning uchun ko'pchilik o'quvchilar osonlik bilan xatoga yo'l qoyishadi. E'tiborli bo'ling, potensial to'liqlovchilarning tasdiq inkor so'roq shakli “动词+得+A+动词+不+A?”, daraja to'liqlovchilarning tasdiq inkor so'roq shakli esa “动词+得+A 不 A?”.

我写得对不对?

她长得漂亮不漂亮?

Samarqand davlat chet tillar instituti xitoy tili yo'nalishi talabalarining yozma ish va testlarini tahlil qilish.

(1) 听说北京一刮风天气就会变很冷。

Tahlil: “很冷” ushbu gapda “变” ning natijasi yoki darajasi hisoblanadi, agar gapda natijaga urg'u berilsa faqat “冷”ni qo'llash kifoya qiladi, agar gapda darajaga urg'u berilgan bo'lsa “很冷” oldidan “得” qo'llanilishi kerak. To'g'ri javob quyidagicha:

听说北京一刮风天气就会变冷。

听说北京一刮风天气就会变得很冷。

(2) 我们班老师上课开头得很有意思。

Tahlil: “开头” fe'l-to'ldiruvchili forma hisoblanadi, grammatik talablarga muvofiq, fe'l-to'ldiruvchi shaklli so'zlar o'zidan keyin yana to'ldiruvchi va to'liqlovchi olmaydi. Agar shu turdagi so'zlardan keyin to'liqlovchi kelishi kerak bo'lsa, u holda fe'l yana takror holatda qo'llaniladi va to'liqlovchi fe'ldan keyin qo'llaniladi. Berilgan ushbu gapni talab asosida to'g'irlab chiqish oson bo'lmaydi, shuning uchun gap shaklini o'zgartirish eng samarali yo'l hisoblanadi. Quyida berilgan uchta javobni tahlil qilamiz:

我们班老师上课，开头很有意思

我们班老师上课开头讲得很有意思。

我们班老师上课，头儿开得很有意思。

(3) 下次作业我一定要写得清楚。

Tahlil: Ushbu gap ham 5-darsning 14-gapi bilan bir xil, ikkalasida ham “一定要” dan keyin potensial to‘liqlovchining shakli qo‘llanilib, xatoga yo‘l qo‘yilgan. “一定要” odatda so‘zlovchi o‘z qarorini ifodalaganda qo‘llaniladi va undan keyin natija to‘liqlovchi yoki daraja to‘liqlovchilari qo‘llanilishi kerak. To‘g‘ri javob quyidagicha:

下次作业我一定要写清楚。

下次作业我一定要写得很清楚。

(4) 她来到教室以后，我们班里的气氛变了很热闹。

Tahlil: Fe‘l va daraja to‘liqlovchilarini bir biriga bog‘laydiga belgi bu “得” hisoblanadi. Gapda qo‘llanilgan “了” mutlaqo nato‘g‘ri. Agar gapda albatta “了” qo‘llanilishi kerak bo‘lsa, gapning oxirida qo‘llanilib, “很” tushurib qoldiriladi. To‘g‘ri javob quyidagicha:

她来到教室以后，我们班里的气氛变得很热闹。

她来到教室以后，我们班里的气氛变热闹了。

她来到教室以后，我们班里的气氛热闹起来了。

(5) 你的鞋破着很厉害，应该换换了。

Tahlil: “了” kabi “着” ham fe‘l va daraja to‘liqlovchilari o‘rtasida qo‘llanilmaydi, ushbu gapda qo‘llanilgan “着” o‘rniga “得” qo‘llanilishi talab etiladi. To‘g‘ri javob quyidagicha:

你的鞋破得很厉害，应该换换了。

(6) 听说你们班张老师病得很。

Tahlil: “很” odatda sifat kesim oldidan qo‘llanilib, hol vazifasida keladi. Ba’zida “得” bilan birikib, “得很” shaklida ham keladi va bunday paytda sifat kesimning to‘liqlovchisi vazifasida qo‘llanilib, darajaning yuqoriligini ifodalaydi. Lekin yuqoridagi gapda “病” ot yoki fe‘l bo‘lib kelishi mumkin, shuning uchun “得很” birikkan shaklda “病” dan keyin qo‘llanilmaydi. To‘g‘ri javob quyidagicha:

听说你们班张老师病得很厉害。

听说你们班张老师病得很重

听说你们班张老师的病重得很。

(7) 他的英语不说得很流利。

Tahlil: Daraja to'liqlovchilarining inkor shakli odatda “动词+得+不形容词” shaklida bo'ladi, bunday holatda inkor shakl fe'lni emas, balki darajani ifodalagan to'liqlovchini inkor qiladi. To'g'ri javob quyidagicha:

他的英语说得不很流利。

他说英语说得不很流利。

(8) 他踢足球踢得很好极了。

Tahlil: “很好” va “好极了” ikkalasi ham “好”ning darajasi haqiqatdan ham yuqori ekanligini ifodalamoqda, shuning uchun ulardan faqat birinigina qo'llab, yetarli natijaga erishishimiz mumkin. Ikkala shaklni ham bitta gapda qo'llab bo'lmaydi. To'g'ri javob quyidagicha:

他踢足球踢得很好。

他踢足球踢得好极了。

XULOSA

Samarqand davlat chet tillar instituti xitoy tili yo'nalishi talabarlari tomonidan yuqorida aytib o'tilgan daraja to'liqlovchilaridan foydalanish va xatolar tahlili natijalariga asoslanib, tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi. Talabalar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, batavsil tushuntirib o'tildi. Umid qilamizki ushbu maqola orqali talabalar ma'lum miqdordagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

1. 陆庆和. “实用对外汉语教学语法”. 北京大学出版社, 北京-2006年. 501页.
2. 朱庆明. “现代汉语实用语法分析”. 清华大学出版社, 北京-2012年. 246页.
3. 刘月华. “实用现代汉语语法”. 商务印书馆, 北京-2004年. 915页.
4. 徐枢著. “宾语和补语”. 黑龙江人民出版社, 哈尔滨-1985年. 196页.
5. 李德津. “外国人实用汉语语法”. 北京语言大学出版社, 北京-2008年. 668页
6. 孙德金. “汉语语法教程”. 北京语言大学出版社, 北京-2002年. 298页.
7. 李禄兴. “汉语语法百项讲练”(初中级). 北京语言大学出版社, 北京-2011年. 100页.
8. 杨玉玲. “现代汉语语法答问”, 北京大学出版社, 北京-2011年. 276页.
9. 张百慧. 对外汉语中的时量补语教学研究. 重庆: 重庆大学, 2015:20-26.
10. 周小兵. 外国人学汉语语法偏误研究. 北京: 北京语言大学出版社, 2010年



TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
ISTIQBOLLARI

Radjabov D.R.
Jo'ramurodov D.
SamDChTI

Kalit so'zlar: Globallashuv, internet, pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, kommunikativ-axborot vositalari, o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda chet tillarni o'qitilishida yangicha bosqich, yangucha davr boshlandi. Chet tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklessiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin. Ta'lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi. Bugungi kunda innovatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiiq qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish

nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi. Ta'lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o'quvchilarga yetkazib berishda eng muhim vositalardan hisoblanadi. Bir mavzuni yoritishda bir necha xil grafik organayzerlardan foydalanish ham mumkin. Chet tilini o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so'zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali bular berilsa, yodda saqlanib qolishi ham oson bo'ladi. Chet tilini o'qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta'lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o'quvchilar ma'lum bir grammatik qoidani, masalan, zamonlardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so'zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi.

Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarining yangi avlodini bajarishda Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida og'zaki nutqning quyidagi pedagogik texnologiyalarni qo'llanish tavsiya etilishi mumkin. 1) og'zaki nutqning kreativ texnologiyasi; 2) loyihalar metodini qo'llanib og'zaki nutqni oshirish texnologiyasi; 3) muammoli og'zaki nutqni oshirish texnologiyasi; 4) og'zaki nutqning ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi; 5) og'zaki nutqning informatsion va telekommunikatsion texnologiyasi; 6) avtomatlashtirilgan og'zaki nutq oshirish tizimi; 7) programmalanadigan og'zaki nutqni oshirish texnologiyasi; 8) og'zaki nutqni amalga oshirishdagi innovatsion texnologiyalari. Bu texnologiyalar prof. L.B.Perigudov tomonidan taklif etilgan. Bular ilmiy-pedagogik bilimlarning zamonaviy darajasiga, og'zaki nutqning samarali metodlariga, shuningdek og'zaki nutqni oshirishda zarur bo'lgan texnik vositalarga tayangan holda oldindan belgilangan og'zaki nutqni oshirish maqsadlariga erishishni kafolatlashi lozim. Tabiiyki, og'zaki nutqni oshirish texnologiyalari og'zaki nutqni oshirish sifatini tekshirish mexanizmi va metodlari bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Har qanday til o'rganishdan maqsad pirovardida shu tilda erkin va ravon muloqot, ya'ni kommunikatsiya olib borishga erishishdir. Shu nuqtai nazardan kommunikativ metod bevosita barcha til aspektlarining, jumladan fonetikadan tortib, to grammatikagacha aynan shu kommunikatsiyaga hizmat qilishini taqozo etadi. Muloqot malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda talabalar uchun o'qituvchining namunali nutqi, muloqot madaniyati, chuqur bilimi, uning barcha muloqot turlarini olib borishga layoqatligi, o'qituvchi tomonidan mavzuning obdon o'ylab o'rta qo'yilishi ko'p jihatdan mazkur muloqotning muvafaqqiyatli kechishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari muloqot malaka va ko'nikmalarni, shuningdek, layoqatligi va madaniyatini shakllantirishda video, audio va boshqa o'quv vositalaridan foydalanish, qolaversa, til egalari bilan jonli muloqot olib borish imkoniyatlarining yaratilishi ham muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda chet tili o'qitish metodologiyasi nazariy asoslari o'tmishda to'plangan barcha samarali o'qitish usullari - metodlarining hamma foydali jihatlarini o'zida mujassamlantirgan, zamonaviy, ilg'or va istiqbolli metodlar ishlab chiqishni va amaliyotda qo'llanishi kun tartibiga qo'yimoqda.

Adabiyotlar ro'yxati



1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Vazirlar mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. - Toshkent-2104-yil 14-yanvar

2. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. - Toshkent- 2016-yil 7-dekabr

3. J.Jalolov – Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent 1996 y.

4. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta'lim metodlari” o'quv-uslubiy qo'llanma, “Navro'z” nashriyoti, Toshkent – 2017

5. Kurbonova, Gulnoza, & Borankulova, Samal (2022). 平安時代の子女教育・教養論の研究. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 24), 85-95.

6. Курбонова, Г. (2021). Сравнительный анализ узбекских и японских народных сказок (На примере сказок «Золотой арбуз» и 『雀報恩の事』 – «О благодарности воробья»). Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80), 62–66. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/1784



XITOIY XALQ MAQOLLARINING SEMANTIK, G'OYAVIY-POETIK XUSUSIYATLARI

Ochilova Hilola Husan qizi

SamDChTI

"Yaqin sharq tillari" kafedrası

Gmail: hilolaochilova90@gmail.com

Xitoyliklar aytadilarki: 美丽的季节是春节, 美丽的语言是谚语 (meilide jije she chunjie, meilide yuyan she yanyu) ya'ni, fasllar ko`rki – bahor, so`zning ko`rki – maqol.

Maqol – oddiygina, ammo juda mazmun mohiyati ulkan bo`lgan birikmadir. Odamlar xalqni o`ylab bekilgan buloq ko`zini ochadilar, daraxt ekadilar. Mendan keyin dunyoga keluvchilar tashnalik azobini ko`rmasinlar, ochlikdan, oftob tig`idan qiynalmasinlar, deya shunday qiladilar.

Bobolar hikmati ana o`sha buloq, ana o`sha daraxtdir. Maqollar biz uchun asrlar sadosi, uzoq o`tmish bilan hamnafaslik hissini uyg`otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko`prikdir.

Maqol ma`lum bir ritmga tushirilgan va qofiya bilan quvvatlangan grammatik va mantiqiy yaxlitlikka ega bo`lgan ixcham shakldagi hikmatli so`zdir. Maqollar kishilarning dunyoqarashidan kelib chiqib atrofiga bo`lgan munosabati, turli narsa va hodisalar borasida chiqargan hukm va xulosalarini o`zida mujassamlaydi. Uning yaratilishi va sayqal topishida avlodlarning juda katta badiiy mehnati, iqtidori sarf bo`lgan.

Xalq donoligini ko`rsatib beruvchi Xitoy xalq maqollari o`zining zohiran ixchamligi, purma'noli-yu lo`ndaligi, zarrada quyosh aks etganidek yorqinligi, Xitoy xalqining orzu-umidi, teran aql-zakovati, o`ziga xos milliyligini ifodalashi bilan boshqa xalq maqollaridan ajralib turadi. Xitoy xalq maqollarida aql-idrok, quvonch va g`am, muhabbat va makr, ishonch va ishonchsizlik, haqiqat va bo`xton, to`g`rilik va yolg`on, mehnatsevarlik va tanballik, go`zallik va majruhlik, kasallik va salomatlik, odob-axloq kabi turli mavzudagi maqollarni uchratishimiz mumkin.

Bilmasang uyalma,
O`rganmasang uyal.

Quyosh nurin to`sib bo`lmas
Adolat o`tin o`chirib.

Yurakdagi buyuk maqsad
Tog`ning egilmas cho`qqisidek.

Xitoy xalq maqollari xalq og`zaki ijodining kichik turiga mansub bo`lsa-da jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy masalalar haqidagi xulosalari bilan katta epik asarlarga syujet bo`la oladigan xususiyatga egadir. Xitoy maqollari mavzu va fikrni qamrab olish jihatidan boshqa janrlaridan farq qiladi. Xitoy xalqining tarixini aks ettiruvchi, inson his tuygularini ifodalovchi she'r-qo`shiqlar, mavzusi rang-barang bo`lgan folklorning epik janrlarida tasvirlangan voqealar tafsiloti oxir-oqibat ma`lum bir xulosaga olib keladi. Shunday xulosalar maqollar mazmunida aks etadi. Maqollar bevosita xalqning jonli tilida yasharkan, amalda so`zlashuv nutqda ham doimo qo`llanaveradi. Bunda Xitoy xalq maqollaridagi jamoaviylik xususiyatini ko`rishimiz mumkin. Ko`pchilik xitoyliklar oddiy kundalik hayotda turli

masalalarga oid maqollarni bema'lol qo'llashadilar.

Masalan:

在家靠父母，出门靠朋友。(Zai jia kao fumu, chu men kao pengyou)

Tarjimasi: Uyda ota-onaga suyan, tashqarida do'stlaringga.

三天打鱼，两天晒网。(San tian da yu, liang tian shai wang)

Tarjimasi: Uch kun baliq tutib, ikki kun to'rni quritish yaxshimas.

好借好还，再借不难。(Hao jie hao huan, zai jie bu nan)

Tarjimasi: Vaqtida olib vaqtida qaytarsang yana olishing qiyin bo'lmaydi. Xitoy xalq maqollarining bu xususiyatlaridan kelib chiqib ularni uch guruhga kiritish mumkin:

1. Maqollar – frazeologik birliklar
2. Maqollar og'zaki nutq namunasi
3. Maqollar tayyor jumlar

Xitoy xalq maqollari frazeologik birliklar deyilishiga sabab shundaki, tarkibi doimiy, o'zgartirib bo'lmaydigan, qoliplanib qolgan so'zlardan iborat.

Xitoy xalq maqollari aynan kitoblarida yoritilib emas, og'izdan og'izga o'tib bizga qadar yetib kelganligi maqollarning folklor namuna ekanligini ko'rsatib beradi.

Xitoy xalq maqollarining tayyor jumla ekanligiga to'xtalsak, tarkibida katta izoh talab qiladigan, keng manoni o'ziga singdirgan va kishilar aynan bir maqoldan butun boshli ma'no mazmunni anglashi mumkin bo'lgan xususiyati tushuniladi. Bunga misol tariqasida quyida Xitoy xalqining durdona maqolini keltirishimiz mumkin:

小时偷针，大时偷金。

(Xiao shi tou zhen, da shi tou jin)

Tarjimasi: Kichik vaqt igna o'g'irlaydi,

Katta vaqt oltin o'g'irlaydi.

Yoki quyidagi tarjimoni ham bersa bo'ladi:

Kichikligida igna o'g'irlagan, katta bulganda oltin o'g'irlaydi

Bu maqolni majozan tahlil qiladigan bo'lsak, "Kuchli odamning unchalik ovora bo'lmay, birpasda qilgan ishini kuchsiz odam urinib, ovora bo'lib bajaradi" degan ma'noda qo'llaydilar.

O'zbekcha muqobili:

Katta changal bir dasta qiladi,

Kichik changal ikki dasta qiladi.

Yoki: Temirchining bir urgani – ninachining ming urgani.

Shuningdek, Xitoy xalq maqollari umummilliy xususiyatga ham ega. Bir xalqdagi bir maqol boshqa bir xalqda ham mavjud. Faqat u xalqning makon va zamonda mavjudligi, milliy mentalitetiga qarab o'ziga moslashtirib olingan holda namoyon bo'ladi.

种瓜得瓜，种豆得豆。

(Zhong gua de gua, zhong dou de dou)

Tarjimasi: Qovoq eksang qovoq o'rasan, loviya eksang loviya o'rasan.

O'zbekcha muqobili: Nima eksang, shuni o'rasan.

好话一句三冬暖，恶语伤人六月寒。

(Hao hua yi ju san dong nuan, e yu shang ren liu yue han)

Tarjimasi: Yaxshi soʻz uch qishda ham iliq,

Yomon gap olti oy qishdek sovuq.

Oʻzbekcha muqobili: Yaxshi soʻz jon oʻzigʻi, yomon soʻz jon qozigʻi.

花美在外边，人美在里边。

(Hua mei zai waibian, ren mei zai libian)

Tarjimasi: Gul koʻrki tashida,

Inson koʻrki ichida.

黄金买不到好名誉。(Huang jin mai bu dao hao ming yu)

Tarjimasi: Oltin sotib olib shon-sharafga yetolmaysan.

Maqollar oʻz maʼnosida va koʻchma maʼnoda ham qoʻllanadi. Oʻz maʼnosida qoʻllaniladigan xitoy xalqining qimmatli maqollari mavjud:

百闻不如一见。(Bai wen bu ru yi jian)

Tarjimasi: Yuz marta eshitgandan bir marta koʻrgan yaxshi.

一举两得。(Yi ju liang de)

Tarjimasi: Bir harakat bilan ikki yutuq.

Oʻzbekcha muqobili: Bir oʻq bilan ikki quyonni otmoq.

趁热打铁。(Chen re da tie)

Tarjimasi: Temirni qizigida bos.

聪明人有错即改，糊涂人见错就瞒。

(Cong ming ren you cuo ji gai, hutu ren jian cuo jiu man)

Tarjimasi: Aqlli odam xatoyingni yuzingga soladi,

Ahmoq odam xatoyingni yashiradi.

Oʻzbekcha muqobili: Doʻst achitib gapirar, dushman kuldirib.

谁怕打，谁就一定挨打。

(Shei pa da, shei jiu yiding ai da)

Tarjimasi: Kimki qoʻrqsa, albatta oʻziga azob berar.

Oʻzbekcha muqobili: Qoʻrqqanga qoʻsh koʻrinar.

Maqollar jonli xalq tilida keng qoʻllanila borgan sari undagi asl maʼno koʻchma maʼnoda ham anglashila bordi. Vaqt oʻtishi bilan baʼzi Xitoy xalq maqollari oʻz manosi yoʻqotib, koʻchma maʼnoda ham qoʻllanila boshlandi.

拔苗助长，揠苗助长。

(Ba miao zhu zhang, ya miao zhu zhang)

Tarjimasi: Maysa tez unishi uchun quloqlaridan tortmoq.

Oʻzbekcha muqobili: Qosh qoʻyaman deb koʻz chiqarmoq.

不三不四。(Bu san bu si)

Tarjimasi: Uch ham emas, toʻrt ham emas.

O`zbekcha muqobili: Bir gap ko`p, yarim gap kam.

不入虎穴焉得虎子。(Bu ru hu xue yan de hu zi)

Tarjimasi: Yo`lbarsning iniga kirmasdan, yo`lbars bolalariga erishib bo`lmaydi.

O`zbekcha muqobili: Jon kuydirmasang jonona qayda,

Toqqa chiqmasang do`lana qayda.

Yana bir qator shunday Xitoy xalq maqollari borki, o`z ma`nosida ham, ko`chma ma`noda ham birdek qo`llanilaveradi:

不闻不问。(Bu wen bu wen)

Tarjimasi: Eshitmaslik, ko`rmaslik.

O`zbekcha muqobili: Och qornim, tinch qulog`im.

2) diqqat bn ishlamoq

以毒攻毒。(Yi du gong du)

Tarjimasi: Zaharni zahar bilan kesmoq.

O`zbekcha muqobili: Achchiqni achchiq kesadi.

弱肉强食。(Ruo rou qiang shi)

Tarjimasi: Kuchsizning go`shti kuchli uchun taom.

O`zbekcha muqobili: Katta baliq kichkina baliqni yeydi.

Xitoy xalq maqollarida davr ruhi, ijtimoiy-madaniy munosabatlar, insonni xarakteri hayvon obrazi orqali yoritib beriladi. Maqollarda aks topgan tabiat hodisalari xitoy xalqining hayot haqidagi tasavvurlari kengligini ko`rsatib beradi. Xitoy xalq maqollarida yovvoyi hayvonlar orasida – yo`lbars, uy jonivorlaridan – ot, qushlardan – xo`roz, mifologik mavjudotlaridan – ajdarho eng ko`p qo`llanilgan. Xitoy tili maqollarga juda boy. Bu maqollar asrlar qanotida avloddan-avlodga og`izdan og`izga o`tib, sayqallanib jilolangan. Xitoy xalqining ba`zi bir noyob maqollaridan saralarini keltirsak:

好马不在鞍，人美不在衫。

(Hao ma bu zai an, ren mei bu zai shan)

Tarjimasi: Ot yaxshisi egarda emas,

Inson ko`rki libosda emas.

远亲不如近邻。(Yuan qin bu ru jin lin)

Tarjimasi: Uzoqdagi qarindoshdan yoningdagi qo`shning afzal.

O`zbekcha muqobili: Uzoqdagi jigardan yoningdagi o`pka afzal.

最好的节约是珍惜时间，最大的浪费是虚度流年。

(Zui hao de jieyue shi zhen xi shijian, zui da de langfei shi xu du liunian)

Tarjimasi: Eng yaxshi tejamkorlik vaqtni qadrlash,

Eng katta isrof vaqtinni o`tkazish.

O`zbekcha muqobili: Vaqtdan yutding – Baxtdan yutding.

一个人不听劝告不好，但是什么人的话都听，则是一千倍的不好。(Yi ge ren bu ting quan gao bu hao, danshi shenme ren de hua dou ting, zeshi yi qian bei de bu hao)

Tarjimasi: Bir odamni tinglamay maslahat berish yomon, ammo duch kelganni gapiga kirish ming

marta yomon.

O`zbekcha muqobili: Axmoq odam ortiq qilaman deb tirtiqli qiladi.

树小扶真易，树大扶真难。

(Shu xiao fu zhen yi, shu da fu zhen nan)

Tarjimasi: Novdani tik ustirish oson

Daraxt bo'lgach qiyin.

O`zbekcha muqobili: Bola boshdan.

Dono fikrni, o`tkir haqiqatni, teran mazmunni, so`z xazinasining dur-u javohirlarini o`zida mujassam etgan rang-barang Xitoy xalq maqollari eng ta`sirchan, eng esda qoluvchi kishini o`ylashga, fikr-mulohaza yuritishga chorlaydigan darajada kuchlidir. Shu tariqa yana asrlar osha kelajak avlodlarga ham yetib boradi va ularni betakror maqollarning muattar bo`yidan bahramand qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 符淮青 《现代汉语词汇》，北京：北京大学，2004 年。P.-254. Fu Huai-qing. Hozirgi xitoy tili leksikasi. – Pekin: Pekin universiteti, 2004. B.-254.
2. 胡裕树 《现代汉语》，商务印书馆香港馆，1979 年。P.-373. Hu Yu-shu. Hozirgi xitoy tili. – Shangwu yinshuguan xianggang guan, 1979. B.-373.
3. 李雅梅, Ochilov O 《乌汉-汉乌熟语词条对照辑录》，北京：人民出版社 2011 年。P.-256. Li Yamei, Ochilov O. O`zbekcha-xitoycha, xitoycha-o`zbekcha maqollar, ibora va matallar lug`ati. Pekin: Xalq nashriyoti, 2011. B.-256.
4. 马国凡 《汉语的成语》，呼和浩特：内蒙古人民出版社，1958 年。P. -28. Ma Guo fan. Xitoy idiomalari, - Huhehaote: Neiminggu xalq nashriyoti, 1958. B. -28.
5. 马国凡、高歌东 《惯用语》，呼和浩特：内蒙古人民出版社，1982 年。P. -234. Ma Guo fan, Gao Gedong. Guanyongyu. -Huhehaote: Neiminggu xalq nashriyoti, 1982. B. -234.
6. 马国凡 《谚语，歇后语，惯用语》，呼和浩特：内蒙古人民出版社，1954 年。P.-299. Ma Guo-fan. Yanyu, xiehouyu, guanyongyu. -Huhehaote: Neiminggu xalq nashriyoti, 1954. B.-299.
7. 司马迁 《史记》，北京：古籍出版社，1980 年。P. -142. Si Ma qian. Tarixiy bitiklar. - Pekin: Tarixiy asarlar nashriyoti, 1980. B.-142.
8. 孙维张 《汉语熟语学》，长春：吉林教育出版社，1989 年。P. -216. Sun Wei zhang. Xitoy tili frazeologizmi. Changchun: Jilin ta'lim nashriyoti, 1989. B. -216.
9. 孙维张 《汉语惯用语学》，吉林：吉林教育出版社，1989 年。P. -156. Sun Wei zhang. Xitoy tili. Jilin: Jilin ta'lim nashriyoti, 1989. B. -156.

SHAXS KONSEPTI ATAMASINING BADIY ADABIYOTDA IFODALANISHI

Elmuratova Umida Mamadiyorovna
Samarqand davlat Chet tillar instituti
Sharq tillari fakulteti koreys filologiyasi
kafedrasi stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada badiiy adabiyotda “Shaxs konsepti” va uning qo‘llanilishi haqida fikrlar teranligiga izoh berish bilan bir qatorda uning asl mohiyatini anglab yetish bilan bir vaqtda tushuncha orqali butun bir koinot tilsimini idrok qilish mumkinligi ochib berilgan va yana konsept terminini tushuncha bilan sinonim sifatida badiiy adabiyotlarda ifodalanishi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Kangnitologiya, Konseptsiya, konsept, shaxs, tushuncha, so‘z, antropologiya, leksika, frazeologiya.*

Keyingi yillarda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi haqida gumanitar yo‘nalishda tadqiqot olib borayotgan olimlar ko‘plab uchratishimiz mumkin. Bu tabiiy jarayon, chunki madaniyat inson va jamiyatning eng muhim ko‘rsatgichi, belgisi bo‘lsa, til esa inson va jamiyat hayotida muloqot vositasi sifatida eng zarur va muhim o‘rin egallaydi. Tilning ko‘plab aspektlarini tushunish uning ijtimoiy-antropologik tabiatini o‘rganish bilan bog‘liq. XIX asrning birinchi yarmida V.Gumbold tomonidan zamonaviy antropologik tilshunoslikka asos solindi. U bir necha bor, “Til - bu shunday organki, inson u yordamida o‘z fikrini ifodalaydi”, - deb ta’kidlagan. Bundan tashqari, nemis olimi ko‘p marta til millat ruhini ifodalaydi va shakllantiradi, olam haqidagi milliy tasavvumi ko‘rsatadi hamda turli tillarning mavjudligi, turli xalqlarda tafakkur obrazining xilma xilligi asosida bo‘lishini aytadi. V.Gumbold tillarni qiyoslashga alohida e’tibor qaratishga chaqiradi, zero uning fikricha, “Ularning farqi - bu nafaqat tovush va belgilarda, balki dunyoqarashda hamdir. Bunda, barcha til tadqiqotlarining yakuniy maqsadi va mazmuni yotadi”.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib tilni ijtimoiy hodisa deyish mumkin. Uning o‘rni butun xalqning dunyoqarashi va ma’daniyatini belgilaydi. Shunday ekan xalq insonlardan, ya’ni jamiyat a’zolaridan tashkil topgan. Shuning uchun ham yozuvchilar muayyan bir jamiyatga tegishli bo‘lgan insonlar haqida, ularning yashash tarzi haqida asarlar yaratishadi. Inson ya’ni shaxs jamiyat bilan o‘zaro bo‘g‘liq ekan uning muammolari, qiyinchiliklarini ham boshdan kechirib kelishgan. Adabiyot turlarini ichida nasr, she’r, badia, roman, hikoya, ocherk, doston, ertak, mif va afsona kabi turlari bo‘lib, ularning ichiga tanqidiy yo‘nalish ham kirib ketadi.

Adabiyotda har xil badiiy to‘qimalar va real hayvonlardan foydalanib, ular nimagadir ishora qilish va ibrat olish uchun yaratilgan. “Shaxs konsepti” ham shunga bog‘liq, lekin bu murakkabroq tushuncha bo‘lib u ko‘proq psixologik terminga o‘xshab ketadi. Bir qarashda shunchaki borliq, hayvonlar, o‘simliklarning mavjudligini, ularning bir-biriga ta’sirini ko‘rishimiz mumkin yoki umuman olganda insonning o‘zi, yurish turishini ham tasavvur qilishimiz mumkin. Lekin buni kengroq tushunsak bu termin chuqurroq ma’no anglatishini bilib olishimiz mumkin. Badiiy adabiyot terminalri ham boshqa soha terminlari kabi izohlashni talab qiladi. Chunki ba’zi so‘zlar eski adabiyotdan, ba’zilari esa chet el so‘zlaridan o‘zlashgan bo‘ladi.

“Konsept” termini birinchi marta S.N. Askoldovning “Konsept va so‘z” maqolasida 1928-yilda ishlatilgan. Konseptlarga berilgan ta’rif va ularning tipologiyasi, ularni o‘rganishga oid yondashuvlar har xil. Biroq hozirgi zamon tilshunosligida “konsept” termini dunyo haqidagi bilimlarni o‘rganish, ularni

namoyon etish shakllaridan biri sifatida ishlatiladi. Biroq bir necha olimlarning ta'kidlashicha tilshunoslikda konsept terminining olam haqidagi bilimlarni namoyon etuvchi turli talqinlari mavjud. Sh. Safarovning fikricha, "konsept" tushunchasining o'ta mavhum hodisa ekanligi, uning zamiridagi "struktura" aniq moddiy ko'rinishga ega bo'lmasdan, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo'ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligi unga (konseptga) to'liq javob berishni qiyinlashtiradi.

N. Mahmudov ham terminologiya masalasida to'xtalib, "Ular haqida tilshunoslikda juda ko'p yozilgan bo'lishiga qaramasdan, hali-hamon ularning ayrimlari, masalan: "lisoniy shaxs", "konsept" terminlari talqinida bir xillikka erishilgan emas", - deb yozadi. Bundan tashqari, "konsept" bilan "tushuncha"ni bir-biridan ajratish muammosi ham o'z yechimini to'liq topgan, deb bo'lmaydi. Qadim va zamonaviy tadqiqotlarda turli nuqtai nazarlarning mavjudligi ham buni ko'rsatib turibdi. Jumladan, o'rta asrlardayoq P. Abelyar: "Tushuncha ongli va ratsional bilim bilan bog'liq, konsept - ma'nolarni ijodiy talqin qilishga qodir yuksak ma'naviyat, ong hosilasi", - deb yozgan bo'lsa, V.N. Yarseva "tushuncha" va "konsept" terminlarini sinonim sifatida keltiradi [1, 23].

Demak "konsept" atamasi "tushuncha" atamasi bilan bir xil ma'noni anglatar ekan. Badiiy adabiyotda ham shaxs tushunchasini keltirish orqali ma'lum bir voqea ochib beriladi. Chunki ushbu terminning ma'nosidan ham aniqki u muayyan obraz haqida tasavvur qilishga undaydi. Obrazni shakllantirishda yozuvchi turli hil belgilardan, sifatlardan foydalanib inson miyyasida va tasavvurida shaxsni yaratadi. Buni so'z san'ati ham deyishadi. Chunki uni ishlatish orqali juda ko'p narsalar, tabiat, o'simliklardan tortib insonning qalbini titratadigan holatlarni ham tasvirlash va o'quvchiga yetkazib berish mumkin.

Funksiyalari. Metafora nominativ, obrazli va ekspressiv funksiyasidan tashqari, yana konseptual vazifani ham bajaradi. Konseptual metaforaning roli ayniqsa, mavhum tushunchalarni belgilashda yaqqol ko'rinadi. Metaforaning mazmuni asosiy va ko'makchi komponentlarning o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Metafora borliqdagi turli sohalarda mavjud bo'lgan ob'ektlarni nomlab, shu bilan tilning leksik va frazeologik qatlamlarini boyituvchi vositadir. Bunda "konseptual metafora" avval lisoniy aks ettirilmagan hodisalarni verballashtiradi va unga borliqni yanada chuqurroq ifodalovchi vosita sifatida qaraladi [2, 2].

Sh. Safarovning fikricha, "Kognitiv tilshunoslik uchun eng muhim vazifa tafakkur birligi bo'lgan konseptning tilda (aniqrog'i, nutqda) aks etishini ta'minlovchi strukturalar, harakatlar, qoidalarni aniqlashdir."

Koreys adabiyoti, umuman jahon adabiyotida shaxs yoki hayvon konseptini ko'rsatishda metoforik uslublardan foydalanish qadim zamonlardan boshlab muxim ahamiyat kasb etgan. Buning uchun esa kognitiv tilshunoslik yordamga keladi. Chunki uning vazifasi aynan konsept atamasining vazifasini bajarishdir. Konseptning lisoniy voqelanishini ta'minlovchi bunday tuzilmalar lingvokognitologiyada freym, skript, ssenariy, propozitsiya, vaziyat modeli, obraz, sxema, ramz, shakl kabi nomlar ostida o'rganib kelinmoqda. Bu birliklar ichida shakl, aniqrog'i grammatik, shakl, mental jarayonlarni hosil qilishda muhim rol o'ynaydi va konseptual funksiyani bajarib inson ongida shakillanadi.

Shaxs konseptining verballashuvida "shakl" obrazidan foydalanadigan bo'lsak, yozuvchi asar yaratayotganida avvalo uning tashqi ko'rinishi haqida ma'lumot beradi.

Shaxs konseptining yasalishi Morfologik sathda "shaxs" konsepti bilan assotsiativ bog'lanuvchi birliklar ichida shaxs otlari va ismi foillar muhim o'rin tutadi. Hozirgi o'zbek tilshunosligida ismi foil sifatida [fe'l+-(u)vchi = fe'l anglatgan harakatni bajaruvchi], [ot+ -chi = ot anglatgan harakatni bajaruvchi], [ot+fe'l+ -ar = ot (keng ma'noda) anglatgan narsa-buyum ustida fe'l anglatgan harakatni bajaruvchi] qoliplarining nutqiy hosilalari tushuniladi. Koreys tilida ham shunga o'xshash lekin ulardan uchala turni

oʻrniga ham koreyschada sifat yasovchi qoʻshimchadan foydalaniladi. Misol uchun: Fel, [qurmoq+ - (u)vchi = quruvchi], kim? soʻrogʻi bilan ifodalanadi. Ot, [ish= -chi =ishchi]kim? savoli bilan ifidalanadi. Sifat, [bogʻ + bon = bogʻbon] qanday odam? Boqqa qaraydigan odam degan maʼnoda izohlanadi.

Ijtimoiy-siyosiy nutqda "kontsept" soʻzini tavsiflash uchun, birinchi navbatda, eng yangi lugʻatlardan foydalangan holda, bir nechta lugʻat maʼlumotlariga asoslangan murakkab leksikografiyadan foydalanish kerak. A.G. Berdnikova taʼkidlaganidek, "Leksik birliklarni tavsiflash lugʻati ular dunyoning til rasmiga murojaat qiladilar, dunyoning til rasmi, aslida, shakllanadigan qurilish bloklarini tasvirlaydi. Ular maʼlum bir tabiiy tilda soʻzlashuvchilarning lingvistik mentalitetini aks ettiradi. Shuday ekan badiiy adabiyotdagi bu tushuncha mintalitetga ham mosdir.

Adabiyot obrazlarsiz boʻlmagani kabi yozuvchilar ham badiiy qahramonlarsiz roman yoki biron hikoya yoza olmaydi. Maqolada badiiy adabiyotdagi shaxs konseptsiyasi haqida maʼlumot berish orqali shaxs konseptining badiiy obrazlari deganda hayolimizga faqatgina insonlar qatnashgan muayyan bir hikoya keladi. Lekin badiiy obrazga hasharotlar, oʻsimliklar, daraxtlar, hayvolar, umuman borliqdagi barcha narsa kiradi. Shaxs konseptsiyasining ham badiiy adabiyotda oʻrni katta boʻlib ijtimoiy, siyosiy, ahloqiy mavzularni ularsiz adabiyotda tasavvur qilib boʻlmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aʼzamjonova M. S., "Lisoniy manzara tasvirida konsept va konseptosfera" Oʻzbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 15-son 2023.
2. Abduazizov A. Tilshunosligimiz istiqbollari // Filologiya masalalari – T., 2011.
3. Chudakov A. P. "Slovo – veshchʻ – mir: ot Pushkina do Tolstogo" - M: Sovremennyi pisatel; 1992. Russian
4. Demyankov V. Z., "Ponyatie i koncept v hudozhestvennoj literature i v nauchnom yazyke" [Notion and concept in literature and in scientific language] - Questions of Philology. 2001,
5. Frumkina R. M., "Konseptual'nyj analiz s tochki zreniya lingvista i psihologa" [Conceptual analysis from the point of view of the linguist and psychologist] // Nauchno-tehnicheskaya informatsiya – Scientific and technical information. 1992.
6. Karasik V. I. YAzykovoij krug: lichnost', koncepty. Diskurs [Language circle: personality, concepts. Discourse]. M. Gnosis. 2004.

TALABALARDA YAPON TILIDA MAQOLLAR TUSHUNCHASI SHAKLLANISHIDA
ZAMONAVIY IT METODLARINING O'RNI

Soleyeva Mubina Raxmatovna

SamDCHTI Sharq tillar fakulteti Yapon filologiyasi o'qituvchisi

Bakayeva Nilufar Abdulloyevna

SamDCHTI Sharq tillar fakulteti Yapon filologiyasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada IT vositalari yordamida yapon tilidagi maqollar tushunchasini shakllantirishga doir ma'lumotlar berilgan. Zamonaviy metodlar yordamida lingvomadaniy aspektlardan biri sanalgan maqolar tushunchasini qiziqarli va mazmunli tarzda talabalarga o'rgatish asosiy vazifa sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: IT vositalari, maqollar va ularning ma'nolarini tushuntirish, maqol va ibora

Аннотация: В данной статье представлена информация о формировании концепции японских пословиц с помощью ИТ-инструментов. Используя современные методы, главной задачей считается научить студентов концепции статьи, которая является одним из лингвокультурологических аспектов, в интересной и содержательной форме.

Ключевые слова: ИТ, пословиц и их значений, пословиц и поговорок

Annotation: This article provides information on the formation of the concept of Japanese proverbs with the help of IT tools. Using modern methods, the main task is to teach students the concept of articles, which is one of the linguistic and cultural aspects, in an interesting and meaningful way.

Key words: IT tools, proverbs and their meanings, proverbs and sayings

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil organib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi.

Kompyuter texnologiyalarini qo'llashda esa ularning ta'lim beruvchi funksiyasini yetarli darajada ochib bera olish lozim. Aks holda o'quvchilarda tashqi motivatsiya kuchayib, bilimga intilish motivlari o'z ustuvorligini yo'qotishi mumkin. Dars jarayonida berilayotgan nazariy bilimlarni ko'proq amaliyot bilan bog'lab olib borishga harakat qilish kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu metodlarni qo'llashda o'qituvchida kutiladigan natijalar sifatida yangi bilimlarni bera olish, zeriktirmaslik, doimiy nazorat va adolatli baholash kabilarni aytishimiz mumkin. Talabalarda esa yangi bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash, baho olish, yakka va guruh bo'lib ishlash ko'nikmasini hosil qilish kabi ijobiy natijalarga erishiladi. Tavsiya sifatida shuni aytish mumkinki, o'qituvchi va talaba doimo ijodiy izlanishi, yangi mavzu bilan oldindan tanishishi, yuqori aqliy salohiyatga ega bo'lishi lozim. Shundagina

ko'zlangan maqsadga erishiladi. Hozirgi ayni kunda tarjimashunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri o'zbek tilidan yapon tiliga va aksincha tarjima qilish jarayonida qo'llaniladigan usullarni o'rganish, aniqlash, ularni qiyosiy tahlil qilish va bevosita tarjimada matn stilistikasiga qanday yondashish lozimligini aniqlash hisoblanadi. Maqsad tarjima va asliyat matni o'rtasidagi kommunikativ tenglikni yoki qisman moslikni ta'minlash yo'llarini belgilashdir.

Sharq xalqlari o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi milliy mentalitetining tarixiy negizlari, umuminsoniy tushunchalarning shakllanishida tarixiy shart sharoit va siyosiy jarayonlarning ta'siri masalasini o'rganish badiiy asar tarjimoni uchun o'zbek tilidan chet tillariga tarjima qilishda til bilishdan hech kam bo'lmagan ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR

Milliy mentalitet millatning aqliy-intellektual imkoniyatlari va ruhiy-psixologik o'ziga xosliklarni badiiy asarlar tarjimasida uslubiy tasviriy vositalar o'z mazmuni doirasida qamrab oladi.

Asliyat tilidagi uslubiy tasviriy ifodalarning o'ziga xosliklarning negizini esa shu xalqning tarixiy tajribalari, urf-odatlarini, marosim va ma'rakalarining yaxlit tizimi tashkil etadi.

Tarjimon nafaqat o'z ona tilini, balki asliyat tilini ham mukammal bilishi talab etiladi. Shu bilan birga asliyat tilining adabiyshunosi bo'lishi ham zarur. Chunki asliyat adabiy tili va badiiy adabiyoti normalarini yaxshi bilmagan holda mukammal tarjimoni amalga oshira olmaydi, ya'ni adekvatlikka erisha olmaydi.

Yapon maqollarini o'zbek tiliga yoki o'zbek maqollarini yapon tiliga tarjima qilish va maqollarning muqobil variantlarini keltirish jarayonida aynan ma'no mazmunini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham maqollar bilan ishlash avvalo ularning semantik xususiyatlarini, har bir maqolning asl ma'no-mazmunini chuqur o'rganib chiqishni talab qiladi. Aks holda xato tahlil qilingan maqol boshqa tilda o'zining asl ma'nosi butunlay yetkaza olmasligi mumkin.

O'zbekistonda tarjimashunoslikning bugungacha bosib o'tgan tarixiy yo'li, o'zbek tarjimachiligining shakllanishiga asos bo'lgan. Badiiy asar tarjimoni amalga oshiradigan dastlabki ish o'zbek xalqining tarixi va ma'naviy negizlari bilan tanishuv bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Ammo asliyat tilining ma'no nozikliklar, uning milliy mentaliteti tarjimon ongida shakllanib, uning qon qoniga singib ketgandagina badiiy adabiyotning har qanday uslubiy tasviri vositalarini to'g'ri va mukammal darajada yetkaza oladi. Yapon xalqi va o'zbek xalqining milliy mentaliteti va urf odatlarining bir-biriga o'xshash va o'ziga xos jihatlari ega.

MUHOKAMA

O'zbek milliy mentaliteti, o'zbekona fikrlash yapon xalqi uchun ham nihoyatda qiziq va ochilmagan orol desa ham bo'ladi. Shunday ekan, jamiyat hayotida muhim o'rin tutuvchi milliy mentalitetimizga oid tushunchalarni yaponiyalik kitobxonning ongiga yetkazib berish muhim vazifalardan biridir.

Buning uchun esa tarjimon dastlab milliy mentalitetning jamiyat hayotidagi rolini tadqiq etishi lozim ko'rinadi. O'zbek xalq maqollari xalq og'zaki ijodining paremiologiya sohasi bo'yicha o'rganiladi va o'ziga xos bir qancha xususiyatlari bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan farqlanib turadi.

Ya'ni ularda fikr aniq, tugal xulosa, lo'nda hukm tarzida ifodalanadi, muayyan hukmni mantiqiy izchillikda, keskin qutbiylikda ifodalash yetakchilik qiladi va o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llana olish imkoniga ega.

Yapon tili badiiy asarlari uchun ham tarkibida realiyalar mavjud frazeologizmlarni stilistik vosita sifatida qo'llash xos bo'lib, tarjima qilish, tarjimondan yuksak mahoratni talab etadi. Chunki, tarkibida realiyasi mavjud frazeologizmlarning avlogik yo'l bilan tarjima qilinishi kitobxonda asarning stilistik

vositalarining ma'no nozikligini noto'g'ri talqin qilinishi yoki umuman tushunmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Tarjima jarayonida ana shu o'ziga xoslikni ikkinchi til mentalitetiga moslashtirilishi yoki tushirib qoldirilishi mumkin emas. Badiiy matn ijodkori asar mazmunini anglatishda qo'llagan tasviriy ifodalar va ko'pgina stilistik vositalar badiiy tarjimada ham o'z aksini topishi lozim.

Asliyat muallifi va tarjimani o'qiydigan kitobxon o'rtasidagi kommunikativ muloqotning saqlab qolingani, shu millat mentalitetiga oid nazariy axborotlarning adekvat talqin qilinganligiga bog'liq.

Shuningdek badiiy matndagi har bir so'z leksik yoki frazeologik birikmalar har bir kitobxon tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin.

Bu har jihatdan reseptorning dunyoqarashi, etnik kelib chiqishi, psixologiyasi, mentaliteti, yashash sharoiti kabi ko'plab omillarga bog'liq.

Tarjimon adekvatlik sari intilar ekan, tarjimani asl nusxa bilan taqqoslanganda nafaqat uning psixologik, balki tematik, emosional, stilistik, ritmik-intonasion qiyofasiga ham e'tibor berishi lozim.

O'zbek va yapon maqollarining lingvomadaniy jihatlarini tahlil qilish jarayonida har ikkala xalqning tili va madaniyatining bir – biriga bo'g'liq ekanligi juda muhimdir. Shunga ko'ra, lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan ayrim maqollar ba'zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi.

Shu o'rinda yapon va o'zbek maqollarida xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lgan barcha o'zbek va yapon millatiga xos urf-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi.

O'zbek va yapon xalqining mentalitetiga xos jihatlarni o'rganishda o'zbek va yapon maqollari bu ikki xalqning o'ziga yarasha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib bera oladi.

O'zbek va yapon xalq maqollarini mavzu jihatdan tahlil qilib, o'zbek tilida mavjud bo'lgan maqollardagi mavzularning barchasi yapon xalq maqollarida ham uchrashi mumkin degan xulosaga keldik.

Har ikkala tildagi maqollarning bir xil mavzudagi bir-biriga o'xshash ekvivalentlarini topish mumkin. Natijada har qanday mavzudagi maqolni olmag, u har ikkala tilda o'z muqobil variantiga egadir.

Xullas, yapon va o'zbek maqollarining mavzu doirasi rang-barang va har ikki tilda deyarli bir xil mavzular mavjud. Biroq ayrim mavzudagi maqollar bir tilda ikkinchi tilga nisbatan ko'proq uchrashi mumkin.

Buning sababi ko'p sonli maqollarni qamrab oluvchi mavzular xalq hayotining asosiy bo'g'inini tashkil qilishidir.

Har ikki tildagi maqollarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi.

XULOSA

Yapon va o'zbek tilidagi mehnatsevarlik mavzusidagi maqollarning katta ko'pchiligi semantik jihatdan bir-birini ta'minlaydi.

Har ikki tildagi mehnatsevarlik mavzusidagi maqollarda insonni mehnatkash bo'lishga undash, dangasalik va ishyoqmaslik insonning eng jirkanch illati sifatida qaraladi. O'zbek va yapon tillaridagi ko'pchilik yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar ham deyarli bir xil ma'no- mazmunga maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo'lsa, yomonlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko'rsatiladi; yapon va o'zbek xalq maqollarining ko'pchilik qismida

hayvon obrazlari ifodalangan bo'lib, ularning asosiy funksiyasi inson xarakterini ifodalashdir va hayvon obrazlari qatnashgan maqollar insonlarning asosan ijobiy va salbiy xarakterlarini tavsiflaydi.

Bundan tashqari muloqot ijtimoiy muhit bilan bog'liq bo'lib, uning rasmiy va norasmiy muhitda kechayotganligi ham tarjimon tomonidan inobatga olinadi, kommunikantlarning ijtimoiy madaniy statusiga munosib so'z va iboralar tanlangan. Muloqot muhiti, madaniyati nuqtai nazaridan olib tahlil qilganda, tayyor performativlar (nutqiy tuzilmalar) har bir millatda o'ziga xos tarzda voqealanishi va tarjimada qay yo'sinda tahlil qilinishi tahlil qilindi.

Darhaqiqat, mazkur mezonlar badiiy tarjimaning asliyatga yaqinligini aniqlashdagi asosiy o'lchov me'yorlaridir. Yuqori darajadagi lingvistik muvofiqlik va kommunikativ muvozanatning ta'minlanganligi tarjimaning badiiy yetuk chiqqanligini anglatadi.

Bugungi kunda amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik usullar va zamoanaviy kompyuter dasturlaridan foydalanib o'rgatish kutilgan natijalarni beradi. Xususan CEFR talablari bo'yicha talabalar tayyorgarliklarida matnlarda yapon xalq maqollari uchraydi. Shunday vaziyat agar talaba to'g'ri tarjima qilib ma'nosini tushunsa matn mazmunini tushunadi. Shu nuqtai nazardan ham o'rgatish usullari to'g'ri tarjimani berishga va tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Алпатов В.М. Япония. Язык и общество, М., 1988. 212 б.
2. Аникин В.П. Мудрость народов // Пословицы и поговорки народов востока. – М.: Наука, 1961. – 136 с.
3. Киеда М. Грамматика японского языка. -М.: Едиториал УРСС, 2004. - 240 с
4. ことわざ辞典 小柳 昇 (Oyanagi Noboru). ニューアプローチ II (New approach II). – Tokio: こぶも研究者 (kobu mokenkyuusha), 2002. - 268 б.
5. ミニことわざ辞典— 研究者 (kobu mokenkyuusha). 1993.-152 б.
6. みんなの日本語 II. Tarjima va gramatik tahlil Toshkent: 2007. 186 б.
7. O'zbek xalq maqollari, 1-tom T.: Fan. 1987. – 370 б.
8. O'zbek xalq maqollari 2-tom T.: Fan. 1987. – 365 б.
9. Yangi pedagogik texnologiyalar. Xalliyeva G.I. Toshkent 2010.
10. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi (o'quv-uslubiy qo'llanma), Namangan . 2008. – 120 б.
11. Sherov. S.X. Yaponcha-o'zbekcha-ruscha lug'at. T. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti. 2004. 250 б.
12. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi (o'quv-uslubiy qo'llanma), Namangan . 2008. –120 б.
13. Sirojiddinov Sh. S., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. T. 2011. 140 б.

Internet saytlari

1. <https://fayllar.org/>
2. <http://www.tilvaadabiyot.uz>
3. <https://www.academia.edu/>
4. <http://www.uzbekistan.org/news/archive/>
5. <http://www.phrases.org.uk/meanings/proverbs.html>



TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MUAMMOLAR VA YECHIMLAR RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI



6. <http://www.uzbekistan.org/news/archive/>
7. <https://baxtiyor.uz/>
8. <https://my.bimm.uz/>

KOREYS TILIDA PREDIKATIV VAZIFASIDA QO'LLANILADIGAN FE'LLAR

Kamalova Shirin

SamDChTI o'qituvchisi

Izzatzoda94@mail.ru

Annotasiya: Ushbu ilmiy maqola o'zbek va koreys tillaridagi predikativ haqida tushuncha va xususiyatlariga ko'ra turlari va ularning chet tillarni o'qitishdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: predikat, predikativlik, fe'l, kesim, yordamchi fe'llar, ko'makchi fe'llar, davomiylik, tugallanganlik ma'nolari

Hozirda tilshunoslik fanning taraqqiyoti barcha sohalarda o'z aksini topgan. Til birliklarining nutqda real qo'llanishi, matn tushunchasi, matnning birliklari singarilar hozirgi zamon tilshunoslik fani uchun, xususan, o'zbek tilshunosligi uchun keng ko'lamli o'rganish sohasi bo'lib qolmoqda. Predikativlik hodisasi tilshunoslik adabiyotlarida turlicha izohlangan bo'lib, aslida bu termin (praedicativus) lotin tilidan olingan bo'lib-tasiqlovchi, qat'iy degan ma'noni bildiradi. Tilshunoslikda- gapni shakllantiruvchi sintaktik kategoriya bo'lib, gap mazmuniga obektiv borliqning u yoki bu hodisasi haqida habar berish xususiyatini baxsh etadi. Predikativlik belgi, harakat, sifat va xususiyat bilan predmetning zamon va maylda anglashiladigan o'zaro munosabatini ifodalaydi va shu tariqa gapni alohida fikrni shakllantiruvchi va u haqida xabar beruvchi birlikka aylantiriladi. Masalan: olma gulladi; doim tinchlik bo'lsin. Madomiki, gap mazmunining borliqqa munosabati uni muayyan zamonaviy va modal (real yoki noreal) darajaga qo'yishni taqozo qilar ekan, predikativlik ham ikki sintaktik kategoriyaning zamon va maylning birligidan iborat bo'ladi. Ikki tarkibli gaplarda-kesim, bir tarkibli gaplarda esa uning bosh bo'lagi predikativlikning ifodalovchisi hisoblanadi.[1,25]

Koreys tilida fe'l ma'no xususiyatiga ko'ra asosiy va yordamchi fe'llarga bo'linadi. Asosiy fe'l alohida holda mustaqil ma'no bera oladigan ya'ni predikativ vazifasida qo'llanadigan fe'ldir. Asosiy fe'llar odatda faqat o'z ma'nosida keladi.

Quyida bir qancha asosiy fe'llarni ko'rishimiz mumkin. 적다 yozmoq, 먹다 yemoq, 나가다 chiqmoq, 가다 bormoq, 타다 minmoq(yonmoq), 찾다 topmoq, 따라하다 qaytarmoq, 기다리다 kutmoq, 읽다 o'qimoq, 끝나다 tugamoq, olmoq, 울다 yig'lamoq, 웃다 kulmoq, 받다 olmoq, 듣다 eshitmoq va boshqa asosi fe'llar predikativ vazifasida qo'llaniladigan fe'llardir. Quyida bir qancha asosiy fe'llarga yordamchi fellarni qo'shilgan holatini ko'rishingiz mumkin.[3,156]

예: 주서를 적어두다. Manzilgohni yozib qo'ying.

(두다 yordamchi fe'l) (적다 asosiy fe'l)

빵을 먹고 싶다. Non yeyishni xohlayman

(싶다 yordamchi fe'l) (먹다 asosiy fe'l)

그는 밖으로 나가버렸습니다. U ko'chaga chiqib ketdi.

(버리다 yordamchi fe'l) (나가다 asosiy fe'l)

Yordamchi fe'llar esa odatda asosiy fe'lga qo'shib qo'shimcha grammatik ma'no beradigan fe'llar hisoblanadi. Yordamchi fe'llar yana o'z mustaqil ma'nosini yo'qotib, asosiy fe'l bilan birikib, asosiy

qismidagi ma'noga qo'shimcha (tugallik, boshlanish, to'satdanlik, tezlik, takroriylik. davomiylik kabi ma'nolarni beradi.

Ma'nosi 의미	yordamchi fe'llar 조동사
Davomlilik 계속	가다, 오다
Tugallik 완료	내다, 버리다, 말다
Xizmat 봉사	주다, 드리다
Istak 시도	보다
Takroriylik 반복	쑤다, 태다
Saqlash 보유	놓다, 두다, 가지다
Umid 희망	싶다
Holat 상태	있다
하다 bilan yasalgan fe'llar	-어야하다, -기는 하다,-니하다,- 니양하다,니척하다,르뻥하다,르만하다,- 려고하다,-고자하다,-곤하다,-는가하다,- 르까하다,-도록하다.

Izchillik bilan davom etadigan harakat va holatni ifodalovchi yordamchi fe'llar 가다, 오다 bu yordamchi fe'llar: bir joydan boshqa joyga ko'chishni ifodlaydi. Ular yordamchi fe'l sifatida ishlatilganda, asosiy fe'lga davomlilik, takrorlanishi ma'nolarini bildiradi. Agar harakat yo'nalishi so'zlovchiga qaratilgan bo'lsa -아(어,여)오다 shaklidan foydalaniladi. Agar harakat yo'nalishi so'zlovchidan boshqa qaratilgan bo'lsa 아(어/여) 가다 iborasi (birikmasi) ishlatiladi.[3,180]

예:얼마 동안 그 사람과 사귀어 왔습니까?Qachondan beri u odam bilan do'stsiz?

우리는 지금까지 놀라운 경제 발전을 이루어 왔습니다. Biz shu vaqtgacha hayratlanarli iqtisodiy rivojlanishga erishib keldik.

Asosiy fe'lning harakatini tugallanganligi ma'nosini anglatuvchi ko'makchi fe'llar (내다, 버리다, 말다) Bu tugallanishdan tashqari asosiy fe'lga modal ma'no beradi.-아(어/여)내다 Asosiy fe'lga qo'shilib subektiv ma'noni amalga oshirishga erishishni ifodalaydi. 예:

경찰은 테러범들은 찾아냈습니다. Militsiya teroristni qidirib topib, uni ushladi.[6,58]

네가 그 일을 해 냈구나! Sen bu ishni qilib qo'yibsanda !

-아(어/여) 버리다.Yetakchi fe'ldan anglashilgan harakat va holatda bo'lishni ifodalaydi. 예:

그 친구는 화를 내며 집에 가 버렸습니다. U do'stim jahl qilib uyiga ketib qoldi.

남기지 말고 다 먹어 버려라. Qoldirmasdan oxirigacha yeb qo'ying.

O'zaro xizmat ma'nolarini anglatuvchi ko'makchi fe'llar. (주다, 드리다)

-아(어/여) 주다, 드리다. Yetakchi fe'llar bilan birikib,kimningdir ma'nfatini ko'zlab ish qilishni, asosiy harakatni bildiradi. 드리다 so'zi 주다 ning hurmat shaklidir. 예:

친구들이 저를 도와주었습니다. Do'stlarim menga yordam berdi.

이 책을 형에게 가져다 드리세요. Bu kitobni akangizga olib borib bering.

Ya'ni bundan kelib chiqib aytish mumkinki, kesim ega bilan birga gapni yasashni amalga oshirishda eng ko'p ishlatiladigan tarkibiy qismdir. Ega to'g'risida nima qilmoq, qanday qilib, qanday qilmoqqa mos keladigan tushunchani beradigan gapdir. Eganing harakati yoki holati, hususiyatini ifodalovchi gap bo'lagi hisoblanadi. Kesim bayon qilish holatida egani kesimlik qilish imkoniyatiga ega bo'lib, to'ldiruvchi yoki kirish so'z bo'lib keladi. Shunga asoslanib kesim gapning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Turniyozov N. Matn lingvistikasi.-Samarqand,2005
2. Turniyozov N.Q. Xorijiy mamlakatlarning lingvistik nazariyalari.-Samarqand, 2006.
3. 한국어 문법 1 대한민국 서울 커뮤니케이션박스 2005.
4. 한국어 문법 2 대한민국 서울 커뮤니케이션박스 2005.
5. 한국어 문법 맞춤법 발음법. 2006.
6. 한국어 문법 강의안. 2007.
7. Koreyscha-o'zbekcha lug'at. 30000 도서출판문예림 2009.
8. Koreyscha-o'zbekcha lug'at. 40000. Kim Chun Sik.Toshkent 2002.
9. Kamalova, Shirin, & Nazarova, Maxliyo (2022). KOREYS TILIDA KO'MAKCHI FE'LLAR TASNIFI VA XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 24), 284-291.
10. Sh. Kamalova (2022). KOREYS TILIDA FE'LLARDA NISBAT KATEGORIYASI VA QO'LLANISH XUSUSIYATLARI. Ученый XXI века, (4 (85)), 10-13.
11. Kamalova Shirin, & Nazarova Maxliyo Ruzikulovna. (2023). COMPARATIVE TEACHING METHODS OF "ADJECTIVE DEGREES" IN THE KOREAN LANGUAGE CLASSES WITH UZBEK LANGUAGE. International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 34-38.
<https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue03-07>

Foydalanilgan internet veb sahifalari

1. <http://koreanbooks.ucoz.ru>.
2. <http://www.Koreaaward.com>.

JANUBIY KOREYADA KOREYS TILI TA'LIMI ASOSLARI, MUAMMOLARI VA
VAZIFALARI HAQIDA

Kamarova Maftuna Umar qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada avvalo xorijiy til sifatida koreys tili ta'limi tushunchasi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Bunda Janubiy Koreya oliy ta'lim muassasalaridagi koreys tili ta'lim yo'nalishlari, koreys tili ta'limining o'ziga xos elementar xususiyatlari, koreys tili ta'limining buguni va bu jarayonda amalga oshirilayotgan bir qator ishlar sanab o'tilgan. Hamda ushbu o'rganishlardan kelib chiqib, koreys tili ta'limi muammolari va vazifalari sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar va iboralar: koreys tili ta'limi, koreys tili ta'lim yo'nalishi, ta'lim jarayoni, ta'lim beruvchilar, ta'lim oluvchilar

Koreys tili ta'limi tushunchasi va asosini quyidagi ikki asosiy terminlar tashkil etadi. Bular ona tili(koreys tili) ta'limi va koreys tili ta'limidir. Bu ikkala terminning qanday farqlanishi haqida esa ularning obyekti, ya'ni, kimga qaratilganligi bilish kifoya qiladi. Ona tili(koreys tili) ta'limi: koreys tili ona tilisi bo'lgan, koreys tilini ona tili sifatida o'rganuvchilarga qaratilgan ta'limdir. Koreys tili ta'limi esa, koreys tilini chet tili yoki ikkinchi til sifatida o'rganayotgan xorij fuqarolari yoki xorij fuqarolari bo'lgan koreys fuqarolariga qaratilgandir. Bu yerda yana bir savol tug'ilishi tabiiy hol: chet tili va ikkinchi tilning farqi nimada? Chet tili bu - ona tilidan boshqa tilni o'z ona tili muhitida o'rganilayotgan maqsadli til, ikkinchi til esa, o'zi yashayotgan muhit tilini emas, boshqa bir tilni o'z ona tili sifatida egallagan kishining o'zi yashayotgan muhitda ishlatiladigan tilni o'rganayotgan maqsadli til sifatida farqlanadi.

Yuqoridagi farqli jihatlardan kelib chiqqan holda Janubiy Koreya oliy ta'lim muassasalaridagi koreys tili ta'lim yo'nalishlarini 3turga bo'lib ko'rib chiqamiz. Birinchisi, koreys tilshunosligi yo'nalishi bo'lib, unda nazariy tilshunoslik: (fonetika, grammatika, morfologiya, sintaksis, semantika, nutq, til normalari, til tarixi (koreys tili tarixi), tilshunoslik tarixi va boshqalar) hamda amaliy tilshunoslik (tilni o'zlashtirish, qiyosiy tilshunoslik, xato tahlili, til ta'limi, ijtimoiy lingvistika, psixolingvistika, lingvistik mantiq, lingvistik falsafa va boshqalar) o'rganiladi.

Ikkinchisi, koreys tili ta'lim nazariyasi yo'nalishi bo'lib, unda funksional ta'lim sohasi (nutq ta'limi nazariyasi, tinglash ta'limi nazariyasi, o'qish ta'limi nazariyasi, yozma ta'lim nazariyasi), grammatik ta'lim sohasi (fonetik ta'lim nazariyasi, orfografik ta'lim nazariyasi, leksik ta'lim nazariyasi, sintaktik ta'lim nazariyasi, semantik ta'lim nazariyasi, muloqot ta'limi nazariyasi va boshqalar), madaniy ta'lim sohasi (koreys tili adabiyoti ta'lim hamda koreys madaniyati ta'lim nazariyasi) o'rganiladi.

Uchinchisi, koreys tili o'quv dasturi yo'nalishi bo'lib, bunda ta'limning asosiy sohalari (koreys tilini o'qitish dasturi, koreys tilini o'qitish jarayoni, koreys tili darsliklari nazariyasi, koreys tili ta'limini baholash nazariyasi), ta'lim siyosati sohasi (koreys tili ta'lim siyosati, koreys tilini ommalashtirish, koreys tili ta'limi tarixi, koreys tili ta'limi yo'nalishi tarixi) va amaliyot sohasi (koreys tili ta'limi amaliyoti nazariyasi (kuzatish va dars)) mavjud.

Koreys tili ta'limining o'ziga xos elementar xususiyatlari esa ikki jihatda ko'rinadi: koreys tili ta'limi sifatida va unga bog'liq ta'lim faoliyati sifatida.

Koreys tili (obyekt)	Ta'lim (faoliyat)
Fundamental bilimlar, talaffuz, lug'at, grammatika, nutqdan foydalanish shakllari, tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish	O'quv dasturi, o'qituvchi, o'quvchi, darslik, sinf, o'qitish usuli, baholash

Koreys tili ta'limi koreys tili orqali muloqot ko'nikmalarini yaxshilashga qaratilganligi sababli, koreys tilidagi ta'lim xorijiy til sifatida konseptual bilimlarga emas, balki foydalanishga yo'naltirilgan protsessual bilimlarga urg'u beradi.

Koreys tili ta'limi umumiy ta'lim toifasiga kiritilgan, ta'lim jarayoni esa ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar o'rtasida belgilangan tartib-qoidalar bo'yicha bir qator tadbirlardir. Ularga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin:

1) Koreys tili ta'limida o'quv jarayoni – ta'lim faoliyati bilan bog'liq barcha masalalarni, maktab tizimi kabi tizimli jihatlardan tortib, ta'lim maqsadlari, usullari, mazmuni va baholashgacha bo'lgan ta'lim jarayoniga oid barcha holatlarni tartibga soladi.

2) Koreys tili ta'limida ta'lim beruvchi: undan muayyan malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligi va umume'tirof etilgan malakalar talab qilinadi. Koreys tili ta'limida ta'lim oluvchilar esa yoshi, kasbi va ona tilisi jihatidan juda xilma-xildir.

3) Ta'lim beruvchi darslikni ta'lim oluvchining ehtiyojlari va o'quv maqsadiga mos ravishda tashkil qiladi, darsni ma'lum bir o'qitish tartibi bo'yicha olib boradi va uni baholaydi.

Koreys tili ta'limining buguni va bu jarayonda amalga oshirilayotgan ishlar quyidagilardan iborat.

1) 1990-yillarning o'rtalaridan boshlab xorijdagi koreyslar (aynan faqat koreys millatiga mansublar) uchun qo'llanilib kelingan koreys tili ta'limi XXI asr boshlariga kelib xorijliklar uchun amaliy kengaytirildi.

2) Koreys tili o'rganuvchilarini guruhlarga bo'lsak, koreys tilini maxsus maqsadlarda, masalan, xalqaro talabalar va ishchilar kabi maqsadli ravishda o'rganmoqchi bo'lganlar soni ortib bormoqda.

3) Koreys tilini o'qitish nafaqat Koreyada, balki xorijiy ta'lim muassasalarida ham sezilarli darajada faollashdi.

4) 1998-yildan boshlab Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan nazorat qilinadigan "Koreys tilini globalashtirish loyihasi" doirasida koreys tilini o'qitish bo'yicha malaka imtihonlari (KPT) va koreys tilini o'rgatish bo'yicha sertifikatlashtirish imtihonlari amalga oshirilmoqda.

5) 2005-yil iyul oyidan boshlab "Koreys tilining asosiy qonuni"ning ishlab chiqilishi bilan koreys tili o'qituvchilarini tayyorlash va ta'lim qobiliyatini sinovdan o'tkazish tafsilotlari belgilandi. So'nggi yillar davomida koreys tili ta'limini sifat jihatdan yuqoriga ko'tarish, ommalashtirish va boshqa masalalar yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Shunday bo'lsa ham, hali bu sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlar talaygina. Yuqoridagi o'rganishlarimizdan kelib chiqib, koreys tili ta'limi muammolari va vazifalari sifatida quyidagilarni sanab o'tamiz.

1) Koreys tili ta'limiga nazariy yondashuvlar, o'qitish metodikasi, darsliklarga oid tadqiqotlar yetarli emas. Bu borada turli iste'molchilarning o'quv maqsadlari va sharoitlarini o'rganib chiqish, ularga mos keladigan darsliklar va o'qitish usullarini ishlab chiqishni kengaytirish kerak;

2) Ta'lim maqsadlari va mazmuni standartlashtirilmaganligi sababli, har bir ta'lim muassasasida turli tizimlar va o'quv mazmuni mavjud.

3) Koreys tilini o'qitish bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi, ya'ni, koreys tili ta'limi sohasida maxsus bilim va o'qitish usullaridan foydalana oladigan o'qituvchilarni tayyorlashning yetishmasligidir. Bu borada koreys tili o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha tizimli o'quv dasturi va ta'lim maqsadlarini belgilash va shunga muvofiq amaliy ta'lim berish zarur.

4) Nikoh muhojirlari yoki ko'p madaniyatli oila farzandlari uchun koreys tilini professional va tizimli o'qitishni kengaytirish zarur.

5) Hukumat koreys tilini ommalashtirish bo'yicha yanada faolroq siyosatni yo'lga qo'yishi, dadil sarmoya kiritishi va qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Xulosa.

Koreys tili ta'limi yillar davomida har taraflama rivojlanib kelayapti. Bunda koreys tili ta'limining asosiy yo'nalishlari belgilanib olingan hamda koreys tili ta'limining obyektlari aniqlashtirib olingan. Asosiy e'tibor dunyo bo'ylab koreys tilini yanada yoyishda tizimli ravishda harakat qilinayotganini ko'rsatadi. Bunga koreys tili ta'limining buguni va bu jarayonda amalga oshirilayotgan ishlar yaqqol misol bo'ladi. Bundan tashqari, yuqorida keltirilgan bu sohadagi muammolar va oldiga qo'yilgan vazifalar yuzasidan ham kerakli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 국립국어원(2022), 2021 한국어교육 정책 현황과 제안, 국립국어원. National Institute of Korean Language(2022), Current Status and Proposal of Korean Language Education Policy in 2021, National Institute of Korean Language.

2. 박성민(2020), 공공언어로서의 한국어 보급 정책 현황과 미래: 세종학당재단 사업을 중심으로, 나라사랑 130, 외솔회, 170-190 쪽. Park, S. M.(2020), The Present Situation and Future of Korean Language as a Public Language: Focused on the Sejong Institute Foundation, Narasarang(love for one's country), Vol. 130, pp. 170-190.

3. 조남호(2009), 한국어 교육 정책의 이해, 우리말교육현장연구 3-1, 우리말교육현장학회, 155-176 쪽. Cho, N. H.(2009), Understanding the Policy on the Korean Language Education, Field Studies in Korean Language Education, Vol. 3-1, pp. 155-176.

4. 조태린(2011), 국가 브랜드와 한국어 교육 정책: '세종학당' 공동 브랜드화 사업을 중심으로, 한글 294, 한글학회, 199-224 쪽, Cho, T. R.(2011). Nation Brand and Korean Language Education Policy, HAN-GEUL, Vol. 94, pp. 199-224.

5. 조항록(1999), 한국어 교육 정책의 현황과 과제, 국제한국어교육학회 국제학술발표논문집 1999-2, 국제한국어교육학회, 39-51 쪽. Cho, H.R. Current Status and Challenges of Korean Language Education Policy, The International Association for Korean Language Education Workshop Presentation File, Vol. 1999-2, pp. 39-51.

6. 조현용(2018), 한국어 교육을 위한 한국어 교육 정책 연구, 우리말연구 54, 우리말학회, 213-251 쪽. Cho, H. Y.(2018), A Study on Educational Policy on Korean as a Foreign Language (KFL), Woorimal Research, Vol. 54. pp. 213-251.



7. 세종학당재단 홍보협력팀, '재외동포재단과 동포 차세대 한국어 교육 나선다',
세종학당재단, 2020년 10월 15일 보도 자료.

https://www.ksif.or.kr/cop/bbs/selectBoardArticle.do?nttId=9220000002095&bbsId=BBSMSTR_00000000011&pageIndex=1



KOREYS VA O'ZBEK MAQOLLARIDA MILLIYLIKNI IFODA ETILISHI JIHATIDAN
O'XSHASHLIGI

Turakulova Sitora Fazlidinovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
Qo'shma ta'lim dasturlari fakulteti
Qo'shma ta'lim dasturlari
kafedrasi o'qituvchisi

O'zbek va koreys maqollarining o'xshash jihatlari haqida gapirganda eng avvalo bu ikki xalqlarning maqollari o'z turmush tarzi va urf-odati, geografik o'rni, hayvonot olami va tabiatidan kelib chiqqanligini aytib o'tishimiz lozimdir. Garchi O'zbekiston va Koreya davlatlari O'rta Osiyo materigida joylashgan bo'lsada, ularning iqlimi va tabiati, hayvonot olami va turmush tarzi o'zgacha va farqlidir. Lekin shunga qaramasdan ularning madaniyati va urf-odatlarini, dunyoqarashi bir-biriga yaqin va o'xshashdir. Bizga ma'lumki maqollar har bir xalqning madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi va urf- odatidan kelib chiqadi. Aynan mana shu tomondan o'zbek va koreys maqollari bir-biriga o'xshashdir. Mashhur rus yozuvchisi L.Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi va turmush tarzi bilan naqadar yaqinligi haqida o'z maqollarining birida to'xtalib: "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'raman",- deb yozgan edi. Albatta, har bir xalq maqollari negizida o'sha xalqning milliy turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati yotadi va bu narsa yozuvchi L.Tolstoy takidlaganidek, shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'rsatib turadi. Bu holatni quyida keltirilgan koreys va o'zbek maqollari tahlili misolida ko'rishimiz mumkin.

Masalan : 작은 고추가 맵다. Kichkina qalampir achchiq (ya'ni, o'zbek tilidagi "kichkina demang, bizni ko'tarib uramiz sizni") maqolida ham kuzatishimiz mumkinki, koreyslarning tanavvul qilish jarayoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ko'pincha, achchiq narsalarni iste'mol qilishiga amin bo'lamiz.

Masalan: "Eski choponim rohat-u jonim". Ushbu o'zbek milliy maqolida esa, millatimizga xos xususiyat, sof o'zbekona milliy libos "chopon" e'tirof etilayotgani fikrimizning yaqqol dalilidir. Ammo shu kunlarda globallashgan jamiyatda maqollarda ham modern so'zlardan va kundan-kunga o'zgarib, zamonaviylashib borayotgan davrga xos maqollar vujudga kelmoqda. Ular tobora taraqqiy etayotgan davr texnologiyalari, jahon standartlaridagi kiyinish, axloq hamda rasm-rusumlar va an'analarga xos tarzda o'zini namoyon etmoqda.

Masalan: "Eldan chiqsang ham, xizmat doirasidan chiqma" va hako'zohk. Ular ma'lum hajviy ruhda bo'lishi bilan ham boshqa maqollardan ajralib turadi

Masalan, "금강산도 식후경" koreys maqoli "Kim Kang tog'i Koreyaning joy nomi bilan bog'liq maqol bo'lib, tarjimasida "Kimkang tog'i taom yegandan keyin manzaralidir" degani. Koreys millati maqollarining ko'pi deyarli milliylikka juda katta ahamiyat berilgan bo'lib, ushbu maqolni izohlarsiz o'zga millat vakiliga aytganda uning uchun hech qanday ma'no kasb etmasligi mumkin. Lekin koreys millati uchun bu Kimkang tog'i juda ahamiyatli bo'lib, boshqa tog'lardan yil fasllarini o'zgacha jilolantira olishi bilan farq qiladi. Shuni inobatga olib koreys millati shunday manzarali, chiroyli tog' ham taom yegandan keyingina tomoshabop bo'lishi mumkinligini nazarda tutishgan. Ushbu maqolning o'zbek tilida "avval taom, badaz kalom" tarzida ifodalanishi aynan maqolning muqobili emasligi lekin qo'llanishi jihatdan bitta

nuqtada tutashadi. Maqolda “iqtisod, siyosat”, “taom, kalom” iboralari sa’j badiiy san’atida mohirlik bilan topilganligi maqol qadri va ta’sirdorligini yanada oshirgan.

Misol :

가: 제주도에 오니까 경치도 좋고 공기도 좋고 바다도 정말 예쁩니다.

나: 한라산부터 올라갈 겁니까?

가: 일찍 일어나 준비하느라고 아침밥을 굶었습니다. 금강산도 식후경이라고 우선 밥부터 먹고 구경하러 갑시다²⁷.

Yana bir koreys maqolli bo’lmish “서당 개 삼 년이면 풍월을 읊는다” maqoli o’zbek tiliga “Sotangdagi it uch yilda she’r yodlagan” deb tarjima qilinadi. Bu maqoldagi Sotang Koreyada mavjud bo’lgan qadimgi uquv muassasalaridan birining nomi bo’lib, Sotangda yurgan it uch yil davomida shu yerda doim aytiladigan sherni yod olgan, ya’ni bu maqol alohida o’rganmasdan ham, ko’p ko’rish va eshitish orqali ko’p narsalarni ma’lum darajada o’rganish mumkinligini ifodalaydi. Quyidagi misol orqali bu maqolning ma’nosini yanada aniqroq bilib olamiz:

Misol:

요고: 에릭 씨, 손에 들고 있는 게 뭐예요? 그거 혹시 징이예요?

에릭: 아니예요. 이것보다 큰 게 징이고, 이걸 팽과리예요.

요고: 아, 그거 사물놀이 할 때 사용하는 악기지요?

에릭: 네, 맞아요. 민수 건데 잠깐 쳐 보고 있었어요.

요고: 공부하느라 바빴을 텐데 언제 팽과리까지 배웠어요?

에릭: 그냥 민수가 연습하는 것을 자주 봤어요. 겨우 흉내만 내는 정도예요.

요고: 서당 개 삼 년이면 풍월을 읊는다더니 팽과리 치는 솜씨가 꽤 좋은 것 같네요²⁸.

Yuqoridagi koreys maqollariga o’xshash, O’zbek tilida ham milliylik ufurib turgan va o’zbek xalqiga xos bo’lgan maqollar ham mavjud bo’lib ulardan biri “Hizrni yo’qlasa bo’larkan” maqolidir. Ushbu maqoldagi Hizr obrazi o’zbek xalqining milliy dini bo’lgan islom diniga borib taqaladi. Hazrati Hizr obrazi butun musurmon diniga ma’lum va mashhur afsonaviy obraz bo’lsada, lekin yuqoridagi maqol faqat o’zbek xalqi va millatigagina xosdir. Bu maqol orqali o’zbek millatining o’ziga xos xususiyatlaridan biri bo’lgan, islom diniga etiqot qilishi yaqqol namoyon bo’ladi.

Koreys milliy maqollariga yana ko’plab misollar keltirish mumkin ”불난 집에 부채질한다”. Uni tarjima qilganimizda “olov chiqqan uyga yelpimoq” ma’nosini beradi. Bundan ko’rinib turibdiki, olov chiqqan joy alanga olib yonishga moyil bo’ladi. U kichik bahona bilan ham lovullab ketishi mumkin. Garchi yelpig’ich boshqa Sharq davlatlarning milliyligini anglatsa-da, koreys xalqida u orqali asosan raqs tushilgan va u ayollar pardoz jihozlaridan o’rin olgan. Bu maqol ko’pincha, insonlar haqida ekanligini anglab yetish mushkul emas. Zero, inson xom sut emgan banda bo’lib, xato qilish unga xosdir. Jahl ham uning kamchiliklaridan biridir. Kishining jahli chiqsa unga gapirmaslik, yoki indamaslik afzal, lekin shunday insonlar bor, uning fig’onini osmonga chiqarish uchun gijgijlaydi. Bu o’rinda ushbu maqolni ishlatish xato bo’lmaydi. O’zbek tili ham so’zga boy ekanligi bizga sir emas. Bunday maqollar bu tilda juda ko’p uchraydi, masalan, “yaraga tuz sepmoq”, “olovga kerasin sepmoq” misol bo’la oladi. Jarohat maydami yo katta, u

²⁷ 살아있는 한국어 속담 -B.46

²⁸ 살아있는 한국어 속담 -B.250



baribir jarohat. O'sha holda yaraga tuz sepilsa, bu og'nqqa hech kim chiday olmaydi . Ichi qora, g'iybatga o'ch , odamlarga doim g'arazli kishilarga nisbatan yaraga tuz sepma deb yuborganimizni sezmay qolamiz, gohida. Bundan ko'rinadiki, o'zi bo'lar ish bo'lgan vaziyatlarda ushbu maqoldan foydalanish nutqimizni ixcham va sarmazmun qiladi. Ushbu maqollarda qo'llanilayotgan so'zlar funksional jihatdan ikki xil bo'lsada, ularning qo'llanilish sohasi bittadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kang Bong Kyu. Traditional Korean life styles. –Seul: Tehaksa , 1995. -219 b.
2. 살아있는 한국어 속담 -Seul , 2007. -260 b.
3. Kim Jong Suk, Pak Dong Ho. Koreys tili grammatikasi. 1 qism. –Seul: Tehaksa, 2005. - 570 b.
4. Shomaqsudov SH., Shoraxmedov SH. Ma'nolar maxzani. 2001,B.45
5. И Ик Соп. Лексикология корейского языка. –Сеул: Сингумунхваса, 2003. -258

KOREYS TILIDA KOMPOZITSION USUL ORQALI SO'Z YASALISHI

Xudoyberdiyeva Zamona Salahiddinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompozitsion usul orqali so'z yasalishi tadqiqiga oid mulohazalar haqida fikr yuritiladi va shu bilan birga mazkur leksemani tilshunoslikka kirib kelishi bilan bog'liq olimlarni izlanishidan namunalar bilan boyitilgan. Kompozitsion usul orqali so'z yasalishining mavjud zamiriga nazar tashlasak, koreys tilida aksariyat leksimalarning yasalishida fan-texnikaning rivoji, Koreyaga boshqa davlatlarning ta'siri ostida kirib kelib o'zlashgan so'zlar mavjudligi ma'lum bo'ldi.

Kalit so'zlar: leksema, tilshunoslik, so'z yasalishi, mustaqil so'z turkumlari

“Til lug‘at tarkibining yangi yasalgan so‘zlar hisobiga boyib borishi, so‘z ma‘nosining o‘zgarishi, uni boshqa ma‘noda ishlatish yo‘li bilan yangi so‘z hosil qilish – bular so‘z yasalishining leksikologiya bilan aloqasini ko‘rsatadi. So‘z yasalishiga oid asosiy tushunchalarni to‘la va to‘g‘ri belgilash, ulardan har birining mohiyatini to‘g‘ri aniqlash so‘z yasalishi tizimi bilan bog‘liq barcha hodisalarning mohiyatini to‘laligicha, to‘g‘ri yoritish imkonini beradi.”[Hojiyev A.2010.6].

Koreys tili agglyutinatív tillar guruhiga kiradi, shuning uchun bu tilda so‘z yasalishi hamda so‘zning o‘zgarish hollarida so‘zning o‘zagi o‘zgarmaydi, so‘z o‘zgarishi affikslar yordamida bo‘ladi. Bu koreys tilining xususiyati hisoblanadi.

Kompozitsiya yo‘li bilan so‘z yasash birdan ortiq yasovchi asosni ma‘no va mazmun jihatdan biriktirib yangi leksik birlik – qo‘shma so‘z hosil qilishdir. Qo‘shma so‘zning sodda so‘zdan farqi shundaki, sodda so‘zda mustaqil ma‘noli 9 qism bitta, qo‘shma so‘zda esa bittadan ortiq bo‘ladi. So‘z yasashning bu turi o‘zbek tilidagi eng faol usullardan biri sanaladi. Qo‘shma so‘z bir butun leksik ma‘no- bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish- grammatik tushunchaning ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi. Demak u bir so‘zdir. Qo‘shma so‘zlar tarixan so‘z birikmalaridan o‘sib chiqqan. Til taraqqiyoti jarayonida so‘z birikmasi qismlarining ma‘no va grammatik jihatdan yaxlit bir holga kelishi, uning qismlari orasidagi sintaktik munosabatning yo‘qolishi hamda ularning bir ma‘no markaziga birlashishi natijasida qo‘shma so‘zga aylanadi. Bu vaqtda birikmaning har ikkala qismi ham o‘zining alohida so‘zlik xususiyatini yo‘qotadi, har ikkalasi birgalikda yangi tushunchani anglatadi. Masalan, osh va qozon so‘zlarining qo‘shilib ketishi natijasida shu so‘zlarning yakka holatda anglatgan ma‘nolaridan farq qilgan yangi ma‘noli so‘z – oshqozon hosil bo‘ladi.

Koreys tilida qo‘shma so‘zlar 합성어 (hapsongo) ni yasash koreys tilining o‘tmishiga borib taqaladi. So‘zlarning yasalishida xitoy ieroglifining ta’siri katta. Shu o‘rinda qo‘shma so‘zni 5 guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

Mustaqil qo‘shma so‘z (병렬하성어)

Tobe qo‘shma so‘z (종속하성어)

Qotishma qo‘shma so‘z (융합하성어)

Teng qo‘shma so‘z (대등하성어)

Xitoy ieroglifi qatnashgan qo'shma so'z (한자 합성어)

Mustaqil qo'shma so'z (병렬하성어)

Mustaqil yasalgan qo'shma so'zda ikkita so'z o'z ma'nosini saqlab qolgan holda yasalishiga aytiladi. Masalan,

마소 (말+소) ot, sigir, 흑백 oq, 뉘푸르다 to'qko'k, 오가다 kelib ketmoq. [naver.com. 2021]. 밤색 tim qora, 잠옷 tungi kiyim, 옷장 kiyim javon 목소리 ovoz (odam), 꽃병 guldon, 다녀오다 qatnab kelmoq, 밀가루 un, 거춧가루 ezilgan qalampir [koreyscha –ruscha lug'at 2005. 25.149.286].

Tobe qo'shma so'z (종속합성어)

Ikkita so'z bir biriga tobe holda qo'shma so'z yasalishiga aytiladi.

소나무(솔+나무) bambuk daraxti,

국밥 (국+밥) sho'rva (bu yerda sho'rva va ovqat ma'nosidagi so'zlar bir biriga tobe bog'langan).

봄비 bahor yomg'iri, 꽃게 gul bargi, 돌다리 tosh ko'pri va boshqalar.

손가방 qo'l sumka, 손수건 qo'l rumolcha.

Qotishma qo'shma so'z (융합합성어)

Ikkita so'z asl ma'nosini yo'qotib yangi so'z hosil bo'lishiga aytiladi:

밤낮, 상, 춘추, 세월, 시간 넘어가다, 속다

Teng qo'shma so'z (대등합성어)

Ikkita so'z teng bog'lanib yagona so'z hosil bo'lishiga aytiladi. Masalan,

앞뒤 손발 한두 옷밥 까막까지 여기저기

Xitoy ieroglifi qatnashgan qo'shma so'z (한자 합성어)

Ikki va undan ortiq qo'shilgan ieroglifdan hozil bo'lgan yangi ma'noli so'zlarga aytiladi. 생명수, 동식물 인물 교실 [naver.com.dictionary 2021]

Koreys tilida ham so'zning kompozitsion bog'lanishini yuqoridagi usullar orqali ko'rib chiqdik. Shu usullar orqali misollarni tahlil qilib ko'ramiz:

아버지는 아침 일찍 마소에 먹이를 주셨다 [Korea Univ.Korean Dict.2021].

Tarjimasi: Otam erta tongdan mol-holga yemish berdi.

Ushbu gapda, mol-hol koreys tilida esa to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilsak ot-qo'y boladi. Ot 말 (mal), sigir 소 (so). 말+소=마소 qo'shma so'z fonetik jihatdan assimilyatsiyaga uchrab ㄹ (l) undoshi tushib qolgan.

소나무 숲에서 진한 송진 냄새가 풍겨 왔다[standart Korean Dic.2021].

Tarjimasi: Bambuk o'rmonda juda o'tkir hid taratib turardi. Bu yerda ham bambuk va daraxt qo'shilib bambuk so'zi hosil qilingan.

어제부터 해갈하는 봄비가 내렸다[standart Korean Dic.2021].

Tarjimasi: kechadan boshlab shiddatli bahor yomg'iri yog'ishni boshladi. Ushbu gapda "bahor yomg'ir"i o'zbek tilida qo'shma so'z emas so'z birikmasi bo'lib kelsada, koreys tilida qo'shib yozilganligi sababli qo'shma so'z hisoblanadi.

Demak so'z birikmasi qo'shma so'zga aylanganda, birikma tarkibidagi so'zlarning aniqlovchilik aloqasi yo'qoladi, ularning biri ikkinchisini aniqlab kelmaydi, balki har ikki qism birgalikda bir so'z holatiga keladi, bitta tushunchani anglatadi: tomorqa, gulg'uncha, otto'rva, oqqush, muzyorar, Oltinqo'l kabi.

Qo'shma so'z bilan so'z birikmasining shaklan o'xshash tomonlari bor, ammo ular orasida ham farq bor. Ular quyidagilar: a) qo'shma so'zning qismlari morfema, so'z birikmasining qismlari esa so'z bo'ladi; b) qo'shma so'zning qismlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi, so'z birikmasining qismlari alohida-alohida leksik ma'no ifodalaydi; c) qo'shma so'zning qismlari orasida sintaktik aloqa bo'lmaydi, so'z birikmasining qismlari orasida sintaktik aloqa bo'ladi tuyaqush, oybolta, xushfe'l qo'ziqorin qo'shma so'z, qush qanoti, oy yorug'i, asalari uyasi, qora portfelli(yigit) so'z birikmasidir; d) qo'shma so'z qismlari o'z mustaqilligini qisman yoki to'laligicha yo'qotadi, so'z birikmasining qismlari esa o'z mustaqilligini saqlaydi; e) qo'shma so'z qismlari yaxlit bir savolga javob bo'ladi, so'z birikmasi qismlari esa alohida savolga javob bo'ladi va bir gap bo'lg'i vazifasida keladi. Qo'shma so'zning ma'nosi bir holatda uning qismlari ma'nosi bilan bog'langan bo'ladi, shu ma'nolardan rivojlanib chiqadi: asalari, otto'rva, tokqaychi, anjirshaftoli, oqqush kabi.[Hojiyev A. 2010.36]

Koreys tilida qo'shma fe'l va uning imlosi

Koreys tilida qo'shma fe'llar asosan fe'l+fe'l yoki ot+fe'l shaklida yasaladi.

오가다=오다+가다 kelib ketmoq, 내려오다=내리다+오다 tushib kelmoq,

가져가다=가지다+가다 olib ketmoq, 들다+오다=들어오다 kabilar.

Undan tashqari xitoy ierogliflari orqali ham fe'l yashash mumkin. Masalan, 일하다=일+하다 ish+qilmoq= ishlamoq,

공부하다=공부+하다 o'qish+qilmoq=o'qimoq.

소개+하다=소개하다 tanishtirmoq. Bunda asosan otga 하다 (hada) harakat fe'li qo'shilishi orqali hosil bo'ladi.

Misollar,

내 손으로 돈이 많이 들어왔다[코너우드만 2009.34]. Mening qo'limga ko'p miqdorda pul kelib tushdi.

수단에서 온 남자를 소개했다. Sudandan kelgan yigitni tanishtirdi[코너우드만 2009.36].

Shu o'rinda o'zbek tilida qo'shma fe'llar ajratib yozilasa-da, koreys tilida ular qo'shib yozilishi kuzatiladi.

"Birdan ortiq asosdan tashkil topib, asoslar orasiga boshqa qo'shimchalarni qo'shib bo'lmaydigan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi fe'llar qo'shma fe'l sanaladi. Qo'shma fe'llar ot, sifat, son, olmosh va taqlid so'zlarga qil, et, bo'l singari so'zlarni, fe'l shakllariga kelmoq, ketmoq singari fe'llarni qo'shish bilan hosil bo'ladi.[Mahmudov N. va b.2005.68]"

Koreys tilida qo'shma ot yasalishi va uning imlosi

Qo'shma ot qismlari orasida quyidagi sintaktik munosabatlarning yo'qolishi natijasida hosil bo'ladi:

잠옷 pijama, tunggi ko'ylak, 밤소리 tunggi ovoz, 불고기 qovurilgan go'sht, Pulgogi

Qo'shma ot quyidagi usullar asosida yasaladi:

Ot+ot = 눈물 ko'z+yosh, 돌다리 tosh+ko'prik

Sifat+ot = 큰아버지 katta+ota(amaki), 애호박 yangi pishgan qovoq

Ot+fe'l = 집들이 uy+kirmoq (uy to'yi), 전화 elektr+gaplashmoq=telefon

Fe'l+ot = 불고기

Qo'shma otlar ham qo'shma fe'llarga o'xshab sintaktik aloqasiz yoki aksincha yasalishi mumkin.

Qo'shma otlar ham koreys tilida qo'shilib yoziladi

Kompozitsiya yo'li bilan so'z yasash qo'shma so'zlar yaratish bo'lib, bunda ikki yoki undan ortiq so'zning qo'shilishi yangi leksik birlik - leksemani hosil qiladi. So'z yasashning bu usuli ham koreys tilida faol usullardan biri hisoblanadi.

Qo'shma so'zning komponentlari, tarkibidagi qismlari, ayrim so'z (tub so'z yoki yasama so'z) tusida bo'ladi: bu element shu ko'rinishida boshqa kombinatsiyalarda o'zak yoki negiz vazifasida kela oladi. Koreys tilida qo'shma so'z bir butun leksik ma'no - bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish - grammatik strukturasi ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi: demak, u bir so'zdir, uning komponentlari - qismlari orasida grammatik aloqa yo'q, lekin semantik aloqa mavjud, u har qanday so'z qo'shilmasida - gapda, so'z birikmasida - bir sintaktik vazifani bajaradi. Qo'shma so'z, sodda so'zlar kabi, tilning bir birligi bo'lib, undan nutqda har gal tayyor leksik material sifatida foydalaniladi, so'z birikmasi esa bunday tayyor hodisa emas: u nutq jarayonida ma'lum qoidalar asosida hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. O'zbek morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasashining nazariy masalalari.- Toshkent: Fan,2010.
2. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi.-Toshkent:"O'qituvchi",2007.
3. Hojiyev A. O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar (yilini topolmadim)
4. Mahmudov N. va boshqalar.6-sinf darsligi-Toshkent:Fan,2005.
5. Chve Mi Ok. Koreys tili o'zbek tilida-Samarqand,2005.
6. 코너우드먼.나는 세계 일주로 경제를 배웠다.-갤리온:서울,2009

XITOIY MIFOLOGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yalgasheva Shoxsanam Faxridinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada Xitoy davlatining qadim zamonlardagi an'anaviy madaniyati mahsuli hisoblangan xitoy mifologiyasi, qadimgi odamlarning tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot haqidagi ibtidoiy fantaziyasi haqida fikr yuritiladi. Xitoy mifologiyasi, odatda, qadimgi jamiyatda og'zaki hikoyalar, ertaklar, romanlar, marosimlar, raqslar yoki operalar orqali tarqaladigan qadimgi afsonalar, tarixlar, dinlar va marosimlar to'plamini anglatadi. Ayrim jihatdan qadimiy miflar haqiqiy tarixning bir qismi sifatida qabul qilinadi. Odatda, diniy mifologiya bilan bog'liq rivoyatlar tabiat va tirik jonzotlarning paydo bo'lishi va shu asosda hayot jarayonining boshlanishi turli asoslarda talqin qilingan. Mazkur maqolada diniy mifologiyalarning ana shu jihatlariga to'xtab o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *mifologiya,*

KIRISH

Ma'lumki, adabiyot qayerda va qaysi sharoitda shakllangan bo'lmasin, uning ibtidosi doim xalq mifologiyasiga asoslanadi. Qadimgi Xitoy mifologiyasi ibtidoiy jamiyatning turli tabiat hodisalarini tafakkur va tasavvur orqali oqilona tushuntirishga urinishlari natijasida vujudga kelgan. Ammo o'sha davrda odamlar tushunchasining hozirgi davrga nisbatan takomil etmaganligi tufayli u ko'pincha sirli rangga burkangan holda tavsiflanadi. Boshqa tomondan, antik miflar ham qadimgi jamiyatning timsoli hisoblanadi. Afsonaviy qahramonlarning aksariyati ibtidoiy odamlarning tasavvurlaridan kelib chiqqan. Ovchilik rivojlangan qabilalar orasida yaratilgan miflarning aksariyati ovchilik bilan; dehqonchilik rivojlangan qabilalar orasida yaratilganlari esa, asosan, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq miflar bo'lgan. Miflarning qahramonlari o'lmas bo'lib, ular turli xil tabiiy xudolar va ilohiy qahramonlarni o'z ichiga oladi. Mif sujeti odatda o'zgarish, ilohiy kuch, latifa, urush, muhabbat va hokazolar tarzida ifodalanadi. Xitoy adabiyotida olamning yaralishi haqidagi miflarda osmon va yerning yaratilishi, inson va barcha narsalarning kelib chiqishi haqidagi voqea-hodisalar haqida hikoya qilinadi. Olamning yaralishi bilan bog'liq miflar tabiat va olamni inson bolaligidagi fantaziya shaklida sodda tushuntirish va tasvirlash bo'lib, ibtidoiy odamlarning olam hamda insonlarning kelib chiqishi haqidagi asl tushunchalarini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qadimgi Xitoydagi olamning yaralishi bilan bog'liq miflar Pangu hikoyasi bilan mashhur. Olamning yaralishi haqidagi miflar asosan ikki jihatga ega:

1. Osmon va yerning yaratilishi, jumladan, dunyo va barcha narsalarning vujudga kelishini tushuntiradi va tasvirlaydi;
2. Insonning, jumladan, millatning kelib chiqishini tushuntiradi.

Osmon va yerning ochilishi haqidagi afsona turli etnik guruhlarda deyarli bir xil shakl-shamoyilga, ma'noga ega. Ibtidoiy odam ishlab chiqarish quvvati va aql-idrokining takomil topmaganligi tufayli tabiiy olamning kelib chiqishini tushuna olmagan. Ular faqat o'zlarining sodda hayotiy tajribalari asosida tasavvur va taxmin qilishlari mumkin edi. Shunday qilib, olamning yaralishi haqidagi miflar paydo bo'lgan. Osmon va yerning yaratilishi haqidagi afsonani uch toifaga bo'lish mumkin:

- osmon va yerning xudolar tomonidan yaratilishi;

- barcha narsaning devlar tomonidan o'zgartirilishi;
- tabiiy evolyutsiya natijasida dunyoning shakllanishi.

Gigant metamorfoz - masalan, xan millatiga mansub Pangu haqidagi afsonada betartib dunyoda Pangu osmonning ko'tarilishi va yerning qalinlashishi bilan cheksiz bo'y ko'targanligi tasvirlangan. Uning ko'zlari, sochlari, oyoq-qo'llari, qon tomirlari mos ravishda quyoshga, oy va yulduzga, tog' va daryoga, o't va daraxtga, dengiz va daryoga aylanganligi aytiladi. Bu turdagi miflarda dunyodagi hamma narsa xudolar va odamlardan tug'ilganligi tasvirlanadi.

Tabiiy evolyutsiya - bu xayoliy osmon va yerning tabiiy shakllanish jarayoni haqidagi, na kashshof xudolarning yaratilishi, na gigantlarning o'zgarishini tasvirlaydi, bu mutlaqo tabiiy evolyutsiya natijasida olamning yaralishini tushuntiradi. Olamning yaralishi bilan bog'liq miflarda insoniyatning kelib chiqishini tushuntirish va millatning kelib chiqishi mazmuni ko'pincha birlashtirilib, xalqning hamda insoniyatning kelib chiqishi bir vaqtda ko'rib chiqiladi.

Miflarda xudolarning inson qo'lidan kelmaydigan xatti-harakatlari haqida hikoya qilinadi. Agar odamlar olamdagi hamma narsaning kelib chiqishini tushuntirmoqchi bo'lsalar, ular nafaqat dunyoning yaratuvchisi, balki butun insoniyatning ajdodi bo'lgan buyuk ma'buda Nyuvani tasavvur qilishadi.

Qadimgi mifologiyada qahramon xudolar haqida ham bir qancha hikoyatlar mavjud bo'lib, bu qahramon xudolarning avlodi ham ibtidoiy inson fantaziyasi mahsulidir. O'sha davrda mehnat unumdorligi past bo'lganligi sababli odamlar kuchli tabiiy kuchlar ta'sirida yuzaga kelgan har xil ofatlarni yengib o'ta olmas edilar, shuning uchun odamlar g'ayritabiiy qobiliyatga ega bo'lgan qahramon xudolar yaratilishini tasavvur qilganlar. Bu qahramon xudolar ularni tabiatni mag'lub etishga, zabt etishga yetaklovchilar hisoblanib, ularning fantaziyasida odamlarning himoyachisi va do'sti bo'lgan.

Darhaqiqat, odamlarning tasavvurlari va fantaziyalarida yaratilgan bu qahramon xudolar ko'pincha qabila ichida ajoyib donishmandlik va iste'dod bilan paydo bo'lgan va qabilani qahramonlik yutuqlarini yaratishga olib kelgan. Ko'rinib turibdiki, bunday afsonalarning paydo bo'lishi, bir tomondan, insonning qandaydir mehnat tajribasi va donishmandligini umumlashtirish va jamlash, ibtidoiy xalqlarning to'plangan mehnat tajribasi va donoligi uchun maqto'vni ko'rsatishi, g'alaba qozonishga bo'lgan kuchli intilish va ishonchini ko'rsatgan.

Bundan tashqari, qadimgi miflarda ibtidoiy odamning ma'lum tabiiy to'siqlarni yengib o'tishga, mehnat qilish jarayonidagi qiyinchiliklarni kamaytirishga va mehnat unumdorligini oshirishga intilishi aks ettirilgan o'zga sayyoraliklar va begona narsalar haqida hikoyaning bir turi ham mavjud bo'lgan.

Ibtidoiy jamiyatda odamlar o'zlarining tor hayotiy tajribasiga tayanib, tasavvur va fantaziya orqali shaxslashgan xudolar qiyofasini yaratadilar, sodda tafakkuriga ko'ra, tabiat hodisalarini tushuntirish, tabiiy kuchlarni zabt etish va ularga hukmronlik qilish uchun xudolar haqidagi ko'plab hikoyalarni yaratadilar. Bu hikoyalar qadimgi odamlar orasida og'zaki ravishda keng tarqalgan va keyingi avlodlar ularni miflar, afsonalar deb atashgan. Umuman, miflar tabiat hodisalari, ibtidoiy insonning tabiat bilan kurashi, ijtimoiy hayotning keng badiiy umumlashmalarida aks ettirilishidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Adabiyotshunoslik sohasidan ma'lumki, adabiy janrlarda turli obrazlar, ramzlar uchrashi kuzatiladi. Adabiy janrlarda uchraydigan obrazlar har bir xalqning mentalitetidan, uning urf-odatlaridan kelib chiqqan holda turli xususiyatlarni ifodalaydi. Xususan, xitoy adabiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning uzoq vaqtlar mobaynida shakllanib, sayqallanib borganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, xitoy mifologiyasining qahramonlari, ulardagi diniy qarashlarning shakllanishi va rivojlanib borish bosqichlari

e'tiborni tortadi. Xitoy xalqi diniy marosimlarining o'zgachaligi, jozibadorligi bilan madh etilgan bir qancha asarlarni ham tahlil qilib chiqish jarayonida o'zbek xalqi diniy marosimlaridan ko'pgina farq qiladigan jihatlari ham o'rganildi. Xitoy xalqi bayramlarining bizning bayramlardan farqi shundaki, har bir bayram o'zining hanuzgacha, aynan shunday, hanuzgacha xalq ishonib keladigan afsonaviy tarixiga ega. Bayramlarning kelib chiqish tarixi nihoyatda afsonaviy hamda mifologik qarashlarga boy bo'lsa-da, xitoy xalqi mazkur afsonalarga ishonib, afsonalar voqealarida aks etgan holatlarni o'z hayot tarziga uyg'unlashtirib kelmoqda, afsonalarda mavjud madaniyatni hozirda ham o'z milliy qarashlarida va milliy madaniyatiga o'rnatib kelmoqda. Hozirga qadar bayram afsonalarini avlodlarga xuddi yaqin o'tmishda bo'lib o'tgandek, mazkur afsonalarning guvohi bo'lgandek o'zgacha zavq va ishonch bilan aytib kelishmoqda. So'nggi yillarda sinologlar tomonidan xitoy mifologiyasining o'ziga xos xususiyatlari yanada mukammal holda yoritib berilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida xitoy mifologiyasi, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida biroz tanishib chiqdik. Keling, miflardagi o'ziga xoslik va ular bilan biroz tanishish maqsadida quyida bir nechta miflarni o'qib uni tahlil qilib chiqaylik.

Fusi haqidagi afsona

Imperator Fuxi nomi bilan tanilgan afsona juda qiziqarli bo'lib, unda asosan Fusining ko'plab ixtirolari haqida gap boradi. U haqidagi mif va afsonalar voqealaridan ma'lum bo'lishicha, Fusi o'rgimchak to'rlariga taqlid qilib, baliq ovlash to'rlarini yasagan. Bundan tashqari, Fusi va Nyuva turmush qurganligi haqida afsonalar mavjud. Bu turdagi miflar, asosan, G'arbiy Xan sulolasi davrida paydo bo'lgan.

Nyuva haqidagi afsona

Nyuva - Xitoy mifologiyasida yaratilish ma'budasi bo'lib, bu ibtidoiy jamiyatdagi matriarxal urug'aymoq davridan qolgan buyuk ma'buda obrazidir.

Nuva afsonasining ikkita asosiy jihati bor. Ulardan biri odamlarning yaratilishi bo'lib, afsonalarga ko'ra, Nyuva insonni sariq loydan yaratgan. Keyinchalik arqonini loyga botirib sachratadi va sachragan har bir loy ko'p odamlarga aylanadi. Ikkinchisi esa osmonni yaratishdir. Rivoyatlarda aytilishicha, qadim zamonlarda osmon qulab, olov yonib, suv toshqini, yovvoyi qushlar, jonivorlar odamlarga zarar yetkazgan. Nyuva osmonni tiklash uchun besh rangdagi toshni eritadi: toshbaqaning oyoqlarini kesib, osmonni ushlab turish uchun uni yer atrofida o'rnatadi. Nyuva, shuningdek, Xitoy miflari va afsonalarida toshqinga qarshi kurashning eng qadimgi qahramoni sifatida ham gavdalangan. Bundan tashqari, Nyuva odamlar uchun nikoh tizimini o'rnatgan, ya'ni yigit va qizlarning turmush qurishi va ko'payishiga imkon bergani haqidagi afsonalar ham mavjud. Uni nikoh ma'budasi deyishimiz ham mumkin. Xitoy mifologiyasi xalqning ishonch-e'tiqodi, dunyoqarashi, hayot tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ming yillar davomida xalq xotirasida saqlanib kelmoqda.

Umuman olganda, xitoy tilini, xitoy madaniyati va adabiyotini o'rganuvchilar xitoy xalqi miflarini, rivoyat va afsonalari haqidagi ma'lumotlarini bilishlari ham muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nizomiddinov N.G'. "Qadimgi xitoy tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati". – Toshkent.: 2014, -B. 333.
2. Tilovov O.Z "Xitoy tilini o'rganuvchi talabalar tomonidan natija to'liqlovchilarini o'rganish jarayonidagi duch kelinayotgan muammolari va ularning yechimi" // ijssr. 2023. №5.
3. Ziyamuxamedov J. "Xitoy adabiyoti tarixi janrlar tipologiyasi". -Toshkent.: 2015, -B. 156.



4. Ziyamuxamedov J. “Xitoy dramaturgiyasi”. -Toshkent.: 2010, -B. 30.
5. Lun Yuy. “Suhbat va mulohazalar”. -Toshkent.: 2014, -B. 67.
6. “汉语外来词词典”， 商务印书馆。北京。岑麒祥： 1990。
7. 翻新明。外交使用文书大全。-北京： 世界知识出版社， 1994。
8. Xitoycha-o'zbekcha rasmlilug'at.

https://scholar.google.com/citations?user=4_YzbJoAAAAJ&hl=ru

ХИТОЙ ТИЛИДА ТАЪМ СИФАТЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ТАРЖИМА МУАММОСИ

Маматова Дилшоода Машираб қизи

Тошкент Кимё халқаро университети

Таржима назарияси ва амалиёти кафедраси ўқитувчиси

tamatovadilmamatova@gmail.com

Аннотация: мазкур илмий ишда ҳозирда мавжуд хитой тили дарсликларида таъм-маза сифатлари мавзуси етарлича, кенг қамровда ёритилмаганлиги сабабли талабалар таом дискурсида оид сифатларни ўзбек тилидан хитой тилига таржима қилиши жараёнида бир қанча муаммоларда дуч келаётганлиги таҳлилга тортилган. Тажриба-синов тариқасида ўзбек тилида бир қанча таом дискурсида оид сифатлар бўлган гаплар хитой тилига таржима қилиши учун талабаларга берилган. Тажриба-синов натижасида талабалар таъм-маза сифатларидан хитой тилида кенг қўлланилувчиларини таржима қилишида кам ҳолатларда хато қилишган бўлса, ўзбек тили таъсирида бир қанча сифатлар тўғридан-тўғри таржима қилиниши натижасида жузъий камчиликлар кузатилган.

Калим сўзлар: мазали, хушбўй, таъм-маза сифатлари, беш таъм, таржима муаммоси

Бугунги кунда ўзбек тилшунослигида Таом дискурси бўйича тадқиқотлар хориж тилшунослигида 1960-1970 йилларда К.Леви-Стросс, Р. Барт ва М.Дуглас томонидан ўрганилган [4,25]. Филология фанлари доктори Г.К.Одилова ўзининг “Глютоник дискурс асослари” номли монографиясида таом дискурсини Лингвистикада таом билан боғлиқ лисоний тушунчалар тадқиқи “глютоник дискурс таҳлили” дейилишини таъкидлаб ўтади [3,22].

Сифат сўз туркумига оид сўзлар таржимаси билан боғлиқ муаммолар олима Нафиса Аманликованинг “Ўзбек тилида сифатга оид лексемаларнинг лингвокултурологик тадқиқи масалалари” номли монографиясида кенг ёритилиб берилган [2].

Ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларида хитой тили дарслари Хитой халқ республикасида чет эллик талабалар учун мўлжалланган ҳамда нашр этилган дарсликлар ҳисобланмиш “标准教程” (HSK 1、2、3、4、5、6), “新实用汉语”, “博雅汉语”, “汉语教程”, “发展汉语”, “成功之路” каби бир қатор дарсликлардан фойдаланилади. Мазкур дарсликларда таъм сифатлари фақатгина матнлар ичида келтириб ўтилади. Тилшуносликнинг “Лексикология” ёки “Амалий ва назарий грамматика” фанларида сифат сўз туркумига оид мавзулар учун жуда кам соатлар (4 соат) ажратилиб, 7-8 саҳифада маълумотлар берилади. Мисол учун, хитойшунос олима, С.С. Ҳашимованинг “Хитой тили грамматикаси” китобида “Сифат” мавзуси 50-57 саҳифаларда бериб ўтилган[1]. HSK 4 даражасига оид 1200 та сўз орасида таъм билдирувчи сўзлар 甜 (ширин), 苦 (аччик), 辣 (ўткир аччик), 咸 (шўр), 酸 (нордон) беш асосий сифатгина мавжуд [5]. Бу эса хитой филологиясида таҳсил олаётган талабаларнинг хитой тилидаги таъм сифатларининг лексик-семантик жиҳатларини ўзлаштиришлари ва амалда қўллашлари учун етарли эмас. Бугунги кунда, Ўзбекистонда хитой тили таржимонлиги билан асосан хитой тилшунослиги йўналиши битирувчилари шуғулланаётганлигини ҳисобга олганда, ОТМлар учун мўлжалланган хитой тили

дарсликлари мавзуларини танқидий кўриб чиқиш керак деган фикрга келдик. Қуйида бу фикримизга сабаб бўлган экспериментимиз билан танишинг.

Эксперимент ўтказиш учун Ўзбекистондаги ОТМларнинг хитой филологияси йўналишида таҳсил олаётган HSK 4 даражасига эга 60 нафар талаба танлаб олинди. Талабаларга таржима учун қуйидаги 7 та гап берилди:

1. Денгиз ўтлари Хитойда энг машхур таомлардан бири бўлиб, енгил(колориясиз), тўйимли ва ажойиб таъмга эга.

2. Қовурилган лағмон Хитойнинг одатий таоми бўлиб, у ўзининг тайёрланиш усули ва хушбўй эканлиги билан бошқа таомлардан фарқланади.

3. Жуда осон тайёрланадиган таом бу- товук шўрва, у одатда, иссиқ ҳолда истеъмол қилинади.

4. Хитойга ташриф буюрган ҳар бир сайёҳ Нордон – аччиқ шўрвасидан татиб кўриши керак. Чунки Нордон – аччиқ шўрваси ўзининг аччиқ ва нордонлиги билан бошқа шўрвалардан фарқ қилади.


5. Сичуанликлар нордон таъмли шўрваларга бироз аччиқ қайла кўшиб истеъмол қилишади. Бу эса, шўрвага мазали таъм беради.

6. Ҳар йили “Қайиқлар фестивали”да барча хитойликлар ширин зонгзи таомини кўшнилари билан улашишади.

7. Хитойда ҳар йили Баҳор байрамида турли хил тансиқ таомлар пиширилади.

Юқоридаги гаплар таржимасида таржира-синов иштирокчилари сифат сўз туркумини ўрнига сўз бирикмаси, таъм-маза сифати + от, сифатларнинг синонимларини қўллаш орқали лексик-семантик таржима, функционал эквивалент сўзларни қўллаш, хатў таржима қилиш, таом дискурсига оид сифатларни баъзи ўринларда тушириб қолдириш ҳолатлари учрайди. Фақат ҲСК 4 даражасидаги таъм-маза сифатлари адекват таржима қилинганлигини кўришимиз мумкин. Сифатлар таржимасида ҳар бир гапда тўғри сифатдан фойдаланганлик даражаси қуйидаги диаграммада келтирилган:

СИФАТЛАР ТАРЖИМАСИНИНГ ТЎҒРИЛИК КОЭФФИЦЕНТИ:



Эксперимент натижаларини таҳлил қилиш жараёнида 60 та талабага ўзбек тилидан хитой тилига таржима қилиш учун 7 та гап бакалавр йўналишида таҳсил олаётган биринчи тили хитой тили бўлган талабаларга берилди. Талабалар филология йўналишининг 2-,3- босқичларида ўқишади. Таржима қилиш учун берилган ушбу сифатлардан 清淡 qīngdàn- енгил (таом) сифатини 11 % та адекват таржима усулида таржима қилган бўлса, 很容易让人报的/ 令人感到饱足的 hěn róngyì ràng rén bào de/ ling rén gǎndào bǎo zú de - тўйимли (таом) сифати 1 % ни, 鲜美的 xiānměi de - ажойиб (таъм) сифатини 4 % талаба, 香 xiāng - хушбўй (таъм) сифати 13 % талаба, 简单 jiǎndān- осон (таом тайёрланиш усули учун қўлланиладиган) сифати 2 % талаба, 热 rè- иссиқ (таом ҳолатини ифодалашда қўлланиладиган) сифат 9% талаба, 辣 là- аччиқ (таъм) сўзи 13% талаба, 酸 suān- нордон (таъм) сифати 15% талаба, 好吃 hào chī- мазали (таъм) сўзи 15% талаба, 甜 tián- ширин (таъм) сифати 14% талаба,

美味儿的 měiwèi er- тансиқ 3 % талаба томонидан аслиятга мос равишда таржима қилган. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, дарс ўтиш жараёнида талабалар хитойча-ўзбекча оддий луғатдан фойдаланиб таржима қилишади; шунингдек, хитой тилида таҳсил олувчи талабаларга ўтилатган дарсликларда ҳам ҳар бир сўзнинг лексик-семантик таҳлиллари мавжуд эмас. Талабалар интерференция ходисаси натижасида синонимларни қайси ўринда қўллашда адашадилар. Албатта, интерференция ҳар бир чет тилини ўрганувчи шахс нутқида учраши табиий ҳолат. Аммо, мутахассислиги таржимон ҳамда филолог бўлган талабалар таржима жараёнида, чет тилида суҳбатлашишда сўзни тўғри қўллай олиши талаб қилинади. Синонимия хусусияти мавжуд бўлган кўплаб сифатлар изоҳли таржимаси, таом дискурсига оид хитойча-ўзбекча ёки ўзбекча-хитойча луғатлар мавжуд бўлмаганлиги бу соҳада чуқур илмий изланишлар олиб бориш кераклигини кўрсатади. Хитойча синонимларнинг изоҳли луғати ҳамда таом дискурсида қўлланиладиган сифатлар луғатларини яратиш ўзбек талабалари ва хитой тилини ўрганувчилари учун жуда фойдали бўлади, деган хулосани беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Xitoy tili grammatikasi/ S. Hashimova.- Toshkent: "Extremum- Press" nashriyoti, 2017.-176 b.
2. O'zbek tilida sifatga oid leksemalarning lingvokulturologik tadqiqi masalalari [Matn] monografiya. N.R.Amanlikova – Toshkent. "Transport" 2021.– 136 bet.
3. Г.Одилова. Хусусий дискурслар лингвомаданий талқинининг назарияси ва амалиёти (глуттоник дискурс мисолида). Филол.фанлари.доктори.дисс.Тошкент: –281.б.
4. Капкан М.В.Феномин гастрономической культуры. Специфика форм репрезентации: Автореф.дисс.канд. культурологии: 24.00.01. – Екатеринбург: 2010.-22 с.
5. 新 HSK 5000 词分级词典。(四-五级) 李禄兴主编。- 北京: 北京语言大学出版社, 2014.6- 第 172 页

YAPON YOZUVINI O'RGANISH USULLARI

Alavxonova Gulnoza Solexonovna

Japanese teacher of Samarkand State Institute of Foreign Languages

gulnoza120793@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunga kelib, yapon ieroglifikasi nafaqat maktablar va universitetlardagi ieroglifikani o'rganayotgan yapon talabalari balki, yapon tilini o'rganayotgan chet elliklarga ham katta qiyinchilik tug'dirmoqda. Mazkur muammoni tasniflasak, yapon yozuvi so'zbo'g'inli aralash yozuv bo'lganligi sababli, murakkab yozuv turlaridan biri hisoblanib, uni o'rganish uchun har xil usul va metodlar, yondashuvlardan foydalanishni talab qiladi. Shunday uslublardan – butun kanji usuli hamda komponentli tahlil usuli bilan tanishish yodlanilayotgan ierogliflarni yodlab olishni yanada samaraliroq qilib, yapon yozuvini o'rganishni osonlashtiradi, deyishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: yapon yozuvi, ieroglif, butun kanji usuli, komponentli tahlil usuli, semantik birliklar, ierogliflarning grafik, semantik, fonetika va determinativ tushunchalari tizimi.

Абстракт: В настоящее время японские иероглифы представляют большую проблему не только для японских студентов, изучающих иероглифы в школах и университетах, но и для иностранцев, изучающих японский язык. Чтобы классифицировать эту проблему, поскольку японская письменность представляет собой слоговую смешанную письменность, считается одним из видов сложная письменность, и его изучение требует применения различных методов и подходов. Можно сказать, что знакомство с такими методами - метод всего кандзи и метод компонентного анализа - позволяет более эффективно запоминать иероглифы и облегчает изучение японской письменности.

Ключевые слова: японская письменность, иероглифы, метод целых кандзи, метод компонентного анализа, семантические единицы, система графических, семантических, фонетических и детерминативных понятий иероглифов.

Abstract: Nowadays, Japanese hieroglyphs pose a great challenge not only to Japanese students studying hieroglyphics in schools and universities, but also to foreigners learning Japanese. To classify this problem, since the Japanese script is considered a syllabic mixed and complex script, its study requires the use of various methods and approaches. We can say that getting acquainted with such methods - the whole kanji method and the method of component analysis make memorizing the hieroglyphs to memorize more efficiently and learn Japanese writing easier.

Key words: japanese writing, hieroglyphs, whole kanji method, component analysis method, semantic units, system of graphic, semantic, phonetic and determinative concepts of hieroglyphs..

Xorijiy tillarni o'rganuvchilarga yapon yozuvini o'rgatish borasida yondashuvlarini „Butun-kanji“ va „Komponentlarni tahlil qilish“ usuliga keng ajratish mumkin. „Butun kanji“ usuli kanjini birlik sifatida yodlashni o'z ichiga oladi. „Komponentlarni tahlil qilish“ usuli kanjini tarkibiy qismlarga ajratish, tarkibiy qismlarga ma'no berish va tarkibiy qismlarni bir-biriga bog'laydigan voqea yoki jarayonni yodlashni o'z ichiga oladi.

Ierogliflarni boshlang'ich o'rganuvchilari vazifasining nisbiy qulayligi yoki qiyinligi ko'p jihatdan o'rganilgan belgilarning xususiyatlari, shuningdek, ularning og'zaki nutqga bo'lgan munosabati orqali ta'sir qiladi .

Boshlang'ich o'rganuvchilarda og'zaki nutq va lingvistik birlik bilan skript birligining xaritasi paydo bo'lgan til darajasi bilan o'zaro bog'liqlik jihatidan tubdan farq qilsa ham yozuvning barcha asosiy tizimlari og'zaki nutq bilan bog'liq. Shu asosda, alifbo orfografiyasida asosiy skript birligi fonemaga mos kelishi, logografik orfografiyalarda u leksik birlikka yoki morfemaga mos kelishi logograflar alifboga qaraganda artografik birliklarda ko'proq namoyon bo'ladi .

Alifbo va logografik yozuv tizimlari turli xil kodlash va xotira mexanizmlarini faollashtirib, natijada logografik belgilar xotirada vizual ma'lumotlarni sezilarli darajada ko'paytiradi, alifbo so'zlari esa vizual, fonologik va semantik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yanada yaxlit kodni yaratishi tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topgan .

Biroq, logografik skriptlarni qayta ishlashda fonetik tasvirning ahamiyati masalasi to'liq yechimini topmagan .

Ayrim tilshunoslar fonetik kodlash darajasi ierogliflarni qayta ishlash bilan bog'liq degan fikrni bildirsa, boshqa tadqiqotchilar „vizual (grafik) kodlardan ma'noga (semantik kodlarga) to'g'ridan-to'g'ri ishlov berish mumkinligini“ ta'kidlaydilar .

Yuqoridagilardan kelib chiqib, artografik chuqurlik gipotezasi (AChG)da kanji kabi chuqur orfografiya yordamida to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishni faollashtirib so'z fonologiyasi leksik kirish orqali vujudga keladi. Ushbu gipotezani qo'llab-quvvatlash uchun dalillar bo'lib, xitoy va ingliz tillarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, barcha tillarda avtomatik fonologik kodlash mavjud bo'lsa ham, fonologik kodlashni takomillashtirish darajasida ortografik o'zgarish mavjud .

Yapon yozuvini o'rgatishning ko'plab usullarini yuqorida aytilganidek umumiy keng ikkita usulga bo'lishimiz va qaysi biri yaxshiroq, degan savol o'zida butun o'ttiz yillik tarixiy munozarani aks ettirib kelmoqda.

Butun-kanji usuli odatiy alifboni boshlang'ich sinf o'quvchilariga kanji o'rgatish jarayonida yapon o'qituvchilari tomonidan qo'llaniladigan usul hisoblanib, mazkur usulda o'quvchilar kanjini butun birliklar sifatida bir necha marta takroriy yozish va nazorat qilinadigan o'qish matnlarini o'qib yodlash mashqlarini bajaradilar.

Ierogliflarni bo'shliqda yozish (kusho) jarayonida o'ziga xos qarama-qarshilik mavjud bo'lib, u quyidagilardan iborat:

birinchidan, vosita yoki harakat asoslangan vakillik bilan ta'minlash;

ikkinchidan, ongli ruhiy jarayonga tashqi harakatlar tomonidan yordam berish .

Vizual xotira vositasi sifatida ishlatiladigan rasmlar, kanjilarni tahlil qilish (shunga o'xshash konseptual ma'noga ega bo'lgan murakkabroq tarkibiy element) va etimologik izohlar kanji o'rganishning dastlabki bosqichlarida yapon bolalarini rag'batlantirish uchun ishlatilishi mumkin, ammo keyingi bosqichlarda ko'proq kanjilarni o'ziga urg'u berib mazkur yondoshuvdan voz kechishgan .

Gorden va Lambert tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, AQShda o'rta maktabdan keyingi dasturlarda yapon tili va yozuvini o'rgatishda eng ko'p qo'llaniladigan darsliklar „Learn Japanese“ -Yapon tilini o'rganish va „Reading Japanese“- Yapon tilini o'qish kitoblari hisoblanadi. Mazkur ikkala darslik ham butun-kanji usulida yozilgan.

Bundan tashqari, kanji yozish va o'qitishning komponentli tahlil usulida har bir kanjini butunlay tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish uchun tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Kanjini o'rganish jarayonida komponentlarning har biriga ma'no qo'shib, o'quvchilar komponentlarni birlashtiradigan va kanjining muhim ma'nosini yodda tutishga chaqiradigan jarayon yoki hikoyani eslashadi .

Ayrim komponentli tahlil materiallarining hikoyalari qisman etimologik tushuntirishlar yoki qadimgi Xitoy hayotiga oid tarixiy tadqiqotlarga asoslansa-da, unga ko'proq yondashiladi.

Komponentli tahlil usuliga ko'ra o'rganuvchi "tarkibiy qismlardan alifbo tuzib, har biriga o'ziga xos tasvirni tayinlashi kerak, boshqa rasmlarni yaratish uchun ularni birlashtirib, xayolda murakkab jadval tuzishi kerak. Dastlabki taqdim etilgan 508 kanjining har biri uchun o'ziga xos hikoya beradi va o'quvchilarni boshqalar uchun "aqlning ko'zini qamashtiradigan" hikoyalarni yaratishni so'raydi. Shu orqali kanjining ma'nosi bilan tasviri o'rtasida chambarchas bog'liqlikni yaratish maqsad qilinadi .

Kanji yozish va o'qish jarayonida kanji komponentlarining hajmi va chastotasi o'rganilgan bo'lsada, hozirga qadar kanjilarni yaratish jarayonida mazkur yondashuvning rivojlanish darajasi tahlil qilingani yo'q. Chunki, xitoy tilida yozishni o'rganayotganda, alifboga odatlangan odam shunchaki yangidan boshlashi kerak . Kanjini o'rganishning butun kanji yondashuvi yoshi kattalarga mos kelmasligi mumkin. Ularga komponentli yondoshuv mos keladi, chunki o'zlarining ona tillarini o'rganish mexanizmini kanji yozuvini o'rganish jarayoniga olib kirishi natijasida, kanjini o'rganish mexanizmini rivojlantirish uchun foydali ko'prik bo'lishi mumkin.

Fikrimizcha, kanji yozuvini o'rganishda eng katta qiyinchilik ko'p hollarda o'qituvchilar o'z talabalariga psixologik to'siqdan o'tib, "kanji juda qiyin" degan tushunchani yengish uchun o'z takliflarini bermasligida, deb o'ylaymiz. Shuning uchun, kanji o'rganishda ikki usul bo'yicha ko'rsatma berib o'tamiz.

Butun kanji usuli: Til o'rganuvchilarga har bir kanjining nusxasi, chizilgan tartibda ko'rsatilib, yozuv panjarasi va tabiiy yapon tilida yozilgan bir qator jumlar beriladi, shundan so'ng ulardagi kanjilar o'rgatiladi. O'rgatuvchi ieroglifni yozgan vaqtda o'rganuvchilarning kanjiga qarashi talab qilinadi. Kanji shakli yozilgandan so'ng ketma-ket tartibli ravishda ovoz chiqarib o'qiladi. Keyin o'rganuvchilardan kanjilarni ovoz chiqarib takrorlashlari so'raladi. Mashg'ulot uchun ajratilib olingan barcha kanjilar tanishtirilgandan so'ng, tarqatilgan materiallarni avval ovoz chiqarmay o'qib chiqishni va keyin ovoz chiqarib o'qish vazifasi topshiriladi. Shundan so'ng kanji natijasida paydo bo'lgan ba'zi jummalarni o'qib, kanji sakkiz marta takrorlab yozdiriladi. Takrorlash jarayonida o'quv materiallarining birortasiga qarashga yo'l qo'yilmaydi, Shuning asosida, keyinchalik qiynlashib boradigan diktant mashqlari bajariladi.

Komponentlarni tahlil qilish usuli: O'rganuvchilar tomonidan har bir kanji uchun ikkita yozuv qatori bo'lgan varaq tayyorlanadi. Birinchi qatorga kanji butun shaklda yozilib, uning tarkibiy qismlari ikkinchi qatorga yoziladi. Shuningdek, ishchi varaqda talaffuzlar, birikmalar, birikmalarning nomlari va kanjining shakli va ma'nosini eslab qolishga yordam beradigan tarkibiy qismlarni bir-biriga bog'lab turgan jihatlar mavjudligiga e'tibor qaratiladi.

O'qituvchi tomonidan doskaga kanji yozilib, ko'rinish tartibi qayd etilib, keltirib o'tilgan kanji ish varag'iga bir marta yozib qo'yiladi, bunda kanji yozilgan chiziqlarning tartib raqami ovoz chiqarib o'qiladi. Kanjini o'z ichiga olgan har xil talaffuzlar va bitta birikma doskaga yoziladi, shundan so'ng o'quvchilar tomonidan ish varag'iga qayd etiladi. Qayd etishda asosan kanji va tarkibiy qismlari yoziladi.

Ierogliflarning tarkibiy qismlarini bir-biriga bog'laydigan mavzular tushuntirilib ishchi varaqalarda qayd etiladi. Keyin ulardan ish varaqlarini chetga surib qo'yish so'raladi. Ular, shuningdek, har bir tarkibiy qismni chizishganida, voqealarni takrorlab, kanjini ketma- ketlikda yozishadi. Ularga ruxsat berilgan vaqt

ichida istalgan kanjidan birini o'rganish jarayoni yoki hikoyasini xotirada tiklash uchun ko'rib chiqishga ruxsat beriladi.

Shunday qilib, yapon yozuvini o'rgatish yoki o'rganishda yuqorida ta'riflab berilgan ikki usuldan foydalangan holda, ilg'or bosqichda keltirib o'tilgan birliklar bilan tanishish yodlanilayotgan ierogliflarni yodlab olishni yanada samaraliroq qilib, yapon yozuvini o'rganishni osonlashtiradi, deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". Toshkent., 2010. B.10.
2. Inagaki S. Nihongo no kakikata hando bukku. — Tokyo: Kurosio, 2006. —92 s.
3. Kurbonova, Gulnoza, & Borankulova, Samal (2022). 平安時代の子女教育・教養論の研究. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 24), 85-95.
4. Курбонова, Г. (2021). Сравнительный анализ узбекских и японских народных сказок (На примере сказок «Золотой арбуз» и 『雀報恩の事』 – «О благодарности воробья»). Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80), 62–66. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/1784
5. Конрад Н.И.Комментарии // Хрестоматия японского языка, вып. 3. Образцы литературно-художественных текстов. М.: изд-во МИВ, 1949.
6. <https://www.lex.uz>
7. <https://www.nihongoshark.com>

ЎЗБЕК ВА КОРЕЙС ТИЛЛАРИДА ЛЕКСИК ДЕРИВАЦИОН ТИПЛАР КИЎСИЙ ТАҲЛИЛИ

Кадирова Феруза Турсунмуратовна

СамДЧТИ ўқитувчиси

feruzakadirova2022@gmail.com

Аннотация: Ушбу илмий мақола корейс ва ўзбек тилларида лексик деривацион типларнинг кийёсий таҳлили ҳақидадир. Сўз ўзлаштириш деганда бир тилдан иккинчи бир тилга бевосита лексема олиш тушунилади. Корейс тилида ҳам сўз ўзлаштириш лексикология, яъни 어휘론 – (ohwiron) бўлимида ўрганилади. Корейс тилларида ҳозирги (синхрон) сўз ясалишида камида иккита ясовчи компонент қатнашади. Булардан, ҳеч бўлмаганда биттаси мустақил маъноли (предмет, белги, ҳаракат) бўлади. Ясама сўзни юзага келтирувчи бу компонентлар ясовчилар, уларнинг ўзаро бирикишидан ҳосил бўлган бирлик ясама сўз дейилади.

Калит сўзлар: ясама сўзлар, ясовчи асос, ясовчи аффикс, ясалма, суффикс

Хар бир тилнинг сузлари, лексикаси доим ҳаракатда бўлиб, натижада, унинг таркиби турлитуман узгаришларга учрайди: баъзи сўзлар эскириб, фаол қўлланишдан чиқади, ёки қўлланиши чегараланиб, бора-бора истеъмолдан қолади. Янги сўзлар пайдо бўлиб, улар лексикани тулдиради. Айрим сўзларнинг маъноларида ўзгариш юз беради. Лексикадаги тараққиётнинг энг асосий йўллари бошқа тиллардан суз ўзлаштириш ва суз ясашидир. Сўз ўзлаштириш деганда бир тилдан иккинчи бир тилга бевосита лексема олиш тушунилади. Сўз ўзлаштириш сўз ясашга нисбатан анча фаол ҳисобланади, чунки сўз ўзлаштиришнинг қонун-қоидалари тилшуносликнинг лексикология бўлимида ўрганилади. Корейс тилида ҳам сўз ўзлаштириш лексикология, яъни 어휘론 – (ohwiron) бўлимида ўрганилади. Сўз ясалиши эса тилшуносликнинг алоҳида бўлими бўлиб, у икки хил маънода кулланади: 1) умуман янги лексик маъноли сўз ҳосил қилиш; 2) тилшуносликнинг сўз ясалиши билан боглик ходисаларни ўрганувчи бўлимини билдиради. Сўз ясалиши, умуман, қандай усул, қандай восита билан бўлмасин янги лексик маъноли сўз ҳосил қилишидир. Масалан, иш-чи (-чи қўшимчаси билан ясалган, гулбеор (иккита ясовчи асосларнинг бирикувидан ясалган) ва бошқалар. Сўз ясалиши тилшуносликнинг айрим бир бўлими сифатида сўзларнинг ясалишини (ясама сўз), янги лексик бирлик ҳосил қилишнинг қонун-қоидаларини, воситаларини, сўз ясалиши структурасини, яъни таркибини текширади. Демак, бу соҳанинг объекти сўз ҳисобланади. Ҳозирги ўзбек тилида ясама сўзлар миқдори лугат бойлигининг катта қисмини ташкил қилади. Бу ясалмалар ҳосил бўлишига кўра тарихий (диахрон) ва ҳозирги (синхрон) ясалишга алоқадор булиши мумкин. Сўз ясалишининг таҳлилида бу икки ходисани фарқлаш лозим. Сўз ясалиши ҳозирги (синхрон) аспектга таянади. Бунда тил тараққиётининг маълум бир даври кузда тутилади. Масалан, ҳозирги замон ўзбек тили. Бунда ясама сўзнинг қисмлари ўртасидаги муносабат жонли бўлади, яъни сўзнинг маъносини қисмларнинг маъно муносабати билан асослаш мумкин булади. Масалан, ўр +им, тер+им, темир-чи, дойра+чи, билим+ли, ақл+ли, ранда+ла, эгов+ла ва бошқалар.

Ҳозирги (синхрон) сўз ясалишида камида иккита ясовчи компонент (қисм) қатнашади. Булардан ҳеч бўлмаганда биттаси мустақил маъноли (нарса, белги, ҳаракат ва ш.к.) бўлади. Ясама сўзни юзага келтирувчи қисмлар ясовчилар, уларнинг ўзаро муносабатидан (бирикишидан) ҳосил бўлган бирлик

ясалма (ясама суз) дейилади. Ясалманинг юзага келишида қатнашувчи муस्ताқил маъноли қисм ясовчи асос (ясалманинг асоси) ҳисобланади. Бундай асос содда ясама сўзда битта, қўшма сўзда бирдан ортиқ бўлади: ишчи: иш - ясовчи асос, -чи – ясовчи қўшимча, ишчи - ясалма; тошқумир: ясовчи асос - тош ва қўмир, тошқўмир – ясалма.

Корейс тилида ҳам маъно муносабати аниқ сезилиб туради:

길+이-길이 (kiri) – узунлик;

많+이-많이 (manhi) – кўп;

Бу мисолларда сўз ясовчи қўшимчаларнинг ўзаро фарқини олиб қўрадиган бўлсак, суффикс янги сўз яшаш имконига эга. Қўшимча эса бундай вазифани бажара олмайди. Мисол учун 접미사 (суффикс) “-이” (i) қўшимчаси феълга қўшилса (масалан 놀이 (nori) - ўйин, 먹이 (mogi) – томоқ ва шунга ўхшаш бошқа отлар ясалади ва ясама отлар 놀 - (nol), 먹 - (mog) каби сўзлар луғатда бош сўз бўла олади. Бироқ бунга таққосан фақатгина қўшимча қўшилган ҳолатларда масалан, 놀다 - (nolda) ўйнамоқ, 놀고 - (nolgo) ўйнаб, 놀지 - (nolji) ўйнасангчи, 놀자 - (nolja) ўйнайлик ва шу каби сўзлар янги сўз саналмайди. Бундай сўзлар луғатларда бош сўзлар бўла олмайдилар.

길+게-길게 (kilge)– узун;

많+게-많게 (manhge) - кўп,

Суффикс ўзакга қўшилиб келади, қўшимча эса асосга қўшилади. Суффикс ўзакга қўшилганда чегараланиш имконияти кучаяди, лекин қўшимча асосга қўшилганда бошқа чегараланиш имконияти бўлмайди. 접미사 (суффикс) “-이”(i) қўшимчаси ўзакга боғланган кўринишда бўлса, “-게” (ge) қўшимчаси эса асосга қўшилган кўринишда бўлади. Юқоридаги мисоллардан билишимиз мумкинки суффикс ўзакга қўшилганда чегараланиш имкониятлари кучаяди. Шунингдек, суффикс ўзакга қўшилиб ўзакнинг сўз туркумини ўзгартиради, бироқ қўшимча асоснинг сўз туркумини ўзгартирмайди. 접미사 (суффикс)нинг қўшимчалари аниқ маънога эга бўлмай нотўғри феълларни ясайди, лекин маъносига эътибор берсак тўғри феълни ифодалай олади.

Тарихий (диахрон) ясаишда ясама сўзнинг маъноси ва шу маънонинг ифодаланиш усулини юқоридагидек асослаб бўлмайди. Бу маъно махсус текширишлар, тарихий кузатишлар орқали аниқланади. Масалан, ўт+лок, тош-лок, қум-лок қиш+лок, ов-лок сўзлари қуринишидан ўхшаш. Аммо буларнинг ҳаммаси аслида ўрин маъносини ифодаловчи -лок қўшимчаси орқали ясалган. Дастлабки уч сўз ясама саналиб, морфемаларга ажралади: ўтлок, - ўтли, ўт куп жой, тош+лок - тошли, тош куп жой, қум+лок -қумли, қум кўп жой. Кейинги иккита мисолимиз эса қишлоқ ва овлок бундай қисмларга ажралмайди, чунки буларда қисмларнинг семантик муносабати сезилмайдиган булиб қолган. Яъни қишлоқ сўзи фасл билдирувчи қиш сўзи билан боғланмайди, қиш-ла-қ, қишда яшайдиган жой, овлок сузи энди ов жойи, ов қилинадиган жой маъносида эмас, балки маъноси ўзгариб хилват жой деган маънони билдиради.

Диахрон ясаишда тилнинг тарихи ва унинг қандай ривожланиши муҳимдир. Корейс тили тарихида хитой ва япон тилларининг аҳамияти жуда катта. Уларда ҳар бир сўз ясаиши 3

мамлакатнинг тарихи, маданияти нуқтаи назаридан келиб чиққан. Шунинг учун корейс тилида диахрон ясалиш деганда, 3 мамалакат тил тарихидан келиб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Масалан: Равиш сўз туркуми ҳисобланган 동시에 (tongshie) – бир вақтнинг ўзида сўзи 동+시 шаклида ясалган деб айтиш мумкин. Ҳозирги корейс тилида 같은 때, 때, 바로, 시에 (kattin tte, tte, paro, shie) – бир вақтда, пайтда, ўша захоти, ўрта асрлар тилидаги равишдан ясалган.

Корейс тилларида ҳозирги (синхрон) сўз ясалишида камида иккита ясовчи компонент қатнашади. Булардан, ҳеч бўлмаганда биттаси мустақил маъноли (предмет, белги, ҳаракат) бўлади. Ясама сўзни юзага келтирувчи бу компонентлар ясовчилар, уларнинг ўзаро бирикишадан ҳосил бўлган бирлик ясама сўз дейилади. Ясама сўзнинг юзага келишида қатнашувчи мустақил маъноли қисм ясовчи асос ҳисобланади. Корейс тилида ясама сўзлар кўп учрайди:

깨끗하다: 깨끗 (kekit) – ясовчи асос, 하다(hada) - ясовчи аффикс, 깨끗하다 (kekithada - тоза) – ясалма;

새 별: 새 (se – янги) + 별 (pyol - юлдуз) - ясовчи асос, 새 별 (sebyol-янги юлдуз)- ясалма

Хуллас, ҳозирги сўз ясалишида икки ясовчи компонентнинг қатнашуви, булардан эса камида биттаси мустақил маъноли бўлиши шарт. Ясама сўзнинг (ясалманинг) маъноси ана шу ясовчи компонентларнинг маъно муносабатига асосланган бўлади. Мисол кчун: тер+им: тер – ясовчи асос, -им – ясовчи аффикс; белбоғ+ли: бел-боғ – ясовчи асос, -ли – ясовчи аффикс ва б. Корейс тилида ҳам мисол келтирамз: 깨끗하다: 깨끗 - ясовчи асос, 하다 - ясовчи аффикс, 깨끗하다(тоза) – ясалма; 돌다리: 돌 (тош) + 다리 (кўприк) - ясовчи асос, 돌다리 (тошкўприк) – ясалма ва б.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ш. Сафаров. Тил назарияси ва лингвометодология. -Т, 2015 й. 87 б, 89-90, б..
2. Kurilowicz J. Derivation lexicale et derivation syntaxique. – BSL, 1936.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи.-Т., 2002, 46-47-бетлар, 194-бет.
4. Звегинцев В.А. «Внутренняя форма» и лексическое значение слова // Семасиология. – М.,1957.-С.186. - С.191. – С.192.
5. Ҳожиёв А.Ўзбек тили сўз ясалиши.-Т.,1989.13-бет, 31-бет;
6. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. –Т., 1961. -С.92-97.
7. Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш.- Самарқанд, 1990. 5-бет.

РЕАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «МАТЬ» В КОРЕЙСКИХ ПОСЛОВИЦАХ

М.Т. Вахабова

преподаватель,

Самаркандский государственный институт иностранных языков, Самарканд

Аннотация. В данной статье проводится исследование концепта «мать» в корейском языке на примере пословиц. Целью данного исследования является выявление особенностей данного концепта в исследуемом языке. Данные знания позволят учащимся преодолеть трудности, возникающие при обучении корейскому языку.

Ключевые слова: корейский язык, концепт «мать», пословицы.

В настоящее время существует множество направлений, изучающих концепт и его структуру (логическое, психологическое, когнитивное, лингвокультурологическое и др.) [1]. Среди них можно выделить лингвокультурологическое направление, при котором концепт, изучаемый на материале того или иного национального языка и культуры, отражает специфику национального сознания. Концепт рассматривают как основную единицу культурной и межкультурной коммуникации.

Концепт «мать» относится к одному из наиболее значимых первообразных концептов любой культуры и народа. Являясь универсальным концептом, данный концепт имеет свою национальную специфику.

По мнению В.А. Масловой, «концепт – это ментальное национально-специфическое образование, планом содержания которого является вся совокупность знаний о данном объекте, а планом выражения – совокупность языковых средств» [2]. Иными словами, любой концепт лучше всего изучать через средства языка, т.к. именно язык является важнейшим инструментом материализации концепта. Одним из таких средств языка выступают пословицы. Они широко распространены в каждом народе и регулярно воспроизводятся им.

В корейской лингвокультуре существует достаточно большое количество пословиц о матери. В данной статье было решено выделить пословицы, отражающие отношение матери к ребенку, ее значимость в его жизни и воспитании.

В культуре любого народа ребенок является объектом любви и долга защищать и беречь, где ведущую и главную роль играет мать. Чувства матери к своему ребенку сосредоточены на любви и беспокойстве. Так например, в корейской пословице “아버지 뼈 어머니 살” (Кости от отца, мышцы (плоть) от матери) – ребенок наследует от отца род и семейные традиции, а от матери – подпитывается физически и духовно, получая любовь и заботу; в пословицах “어미는 제 자식이 가장 잘 난 줄 안다” (Мать считает, что ее ребенок лучше всех остальных) и “어미는 병신자식을 더 귀여워한다” (Мать больного ребенка больше любит чем остальных) – любовь матери к ребенку безгранична.

В пословице “어린아이 병엔 에미만 한 의사 없다” (Нет врача лучше матери для больного ребенка) - Искренность матери по отношению к своему больному ребенку настолько велика, что с ней не может сравниться даже самый известный врач, т.е. преданность матери своим детям несравнима ни с чем, и никто не в силах заменить ее. Значимость матери в воспитании ребенка

можно наблюдать и в таких корейских пословицах, как “자식은 어머니가 키운다”(Ребенка растит мать), “엄한 어머니 밑에 효녀 난다”(У строгой матери вырастает почтительная дочь).

Мать отдает всю свою любовь ребенку, но и в то же время ее душа беспокойна за него. Так в пословицах “자식 많은 어머니는 편할 날이 없다” (У многодетной матери не бывает спокойных дней), “자식 많이 둔 어머니는 허리 펼 날 없다” (У многодетной матери нет времени выпрямить спину), “아이 어머니 잠은 반 잠이다” (У матери сон наполовину) – ярко выражена повседневная забота матери о ребенке. Однако чрезмерная забота матери иногда может повлиять на воспитание ребенка и не всегда в лучшую сторону. Такую ситуацию можно наблюдать в таких корейских пословицах как “어머니 사랑이 지나치면 버릇없는 자식이 생긴다” (Чрезмерная любовь матери приводит к тому, что ребенок вырастает избалованным), “어미가 부지런하면 딸은 게을러진다” (Если мать усердна (все дела делает сама), то дочь становится ленивой) [3].

На основании вышесказанного, можно сделать следующие выводы.

1. Рассмотренные в данной статье пословицы указывают на то, что мать – это самое дорогое, что есть у человека, это уникальный человек в жизни каждого из нас.
2. Мать - символ заботы, ласки, надежности, защиты, человек, дающий заботу, ласку и поддержку.
3. В пословицах прослеживается безумная любовь матери к своему ребенку и готовность жертвовать собой ради его счастья и беззаботной жизни.
4. Подчеркивается важность и значимость роли матери в воспитании ребенка.
5. Отрицательным аспектом в воспитании ребенка выступает чрезмерная забота и опека матери.

Полученные в данной статье результаты позволят в дальнейшем продолжить изучение концепта «мать». Также благодаря полученным знаниям учащиеся смогут лучше понять культуру изучаемого языка, а также преодолеть трудности, возникающие при обучении корейскому языку.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Дзюба Е.В. Когнитивная лингвистика: учебное пособие для вузов, 2018. - С. 116.
2. Маслова, В. А. Введение в когнитивную лингвистику [Текст]: учебное пособие / В. А. Маслова. – М.: Флинта: Наука, 2007а. – С. 37.
3. 박정안(2001), 「속담의 국어교육적 의의와 지도방법」, 경기대학교 교육대학원, 석사학위논문.
4. 송재선(1983), 『우리말속담큰사전』, 서문당.
5. 원영섭(1993), 『우리속담사전』, 세창출판사.

BADIIY MATNLAR TARJIMASIDAGI BA'ZI MUAMMOLAR

Tursunova O.T.

Samarqand davlat chet tillar instituti til va tarjima kafedrasida o'qituvchisi

Аннотация: *Перевод каждого художественного текста требует отдельного внимания, так как художественный перевод является средством межкультурного общения. В статье анализируются некоторые проблемы, встречающиеся при переводе художественных текстов и рассматриваются несколько факторов усложняющих процесс перевода.*

Summary: *Each literary text requires a certain type of translation, since literary translation is considered to be a means of intercultural communication. The article analyzes main problems of literary translation and deals with some factors perplexing the process of translation.*

Kalit so'zlar: *Tarjima, badiiy tarjima, madaniyat, madaniy to'siq, grammatik tuzilish, tarjima metodlari*

Insonlararo nutqiy muloqot ham og'zaki ham yozma tarzda amalga oshiriladi. Bunda bir tilda so'zlashuvchilar o'rtasidagi muloqot jarayonida deyarli muammolar yuzaga kelmaydi, ammo turli tillarda so'zlashuvchilar muloqotini amalga oshiruvchi omil bu tarjima sanaladi. Matnlar tarjimasi xususida ular xoh badiiy, xoh ilmiy bo'lsin turli qarashlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar tarjima qilingan asarlar asl nusxaning ma'nosini, asar muallifining maqsadini to'liq ochib berolmaydi, deb hisoblashsa, boshqalari mukammal til bilan istalgan matn ma'nosini ochib berish mumkin deyishadi [Rashidova, 2015: 1675]

Tarjima bu aynan bir xil belgilarni turli tillarda ifodalash, ya'ni ma'lum bir tildagi matnni bir tildan boshqa tilga o'girishdir. Tarjima jarayonida ma'lum bir elementlar o'zgarishi mumkin, ammo mazmun o'zgarish kerak. Badiiy adabiyotlar tarjimasi esa boshqa tarjima turlaridan keskin farq qiladi. Chunki badiiy kommunikativ funksiyani saqlab qolish badiiy tarjimaning asosiy tamoyili hisoblanadi. Boshqa so'z bilan aytganda matn badiiy tarjimasi o'quvchiga nafaqat ma'lumot yetkazadi, balki ma'lum estetik vazifani bajaradi. Asarlarda yaratilgan badiiy obraz o'quvchiga ta'sir ko'rsata olishi kerakligini tarjima jarayonida unutmaslik kerak. Shuning uchun ham badiiy tarjimada ba'zan umumiy tarjima qoidalaridan chetga chiqish holatlari kuzatiladi, chunki so'zma-so'z tarjima badiiy asarlarning tub ma'nosini ko'rsatib berolmaydi. Badiiy matnlarda uchraydigan ifoda vositalari va usullarining ko'pligi, ba'zan esa ularda ishlatilgan eskirgan ibora va arxaizmlarning mavjudligi, qolaversa kop miqdora qo'llanilgan stilistik uslublar ushbu matnlar tarjimasini qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham original matndagi emotsional bo'yqadorlikni tarjimada bera olish uchun tarjimon o'ta mahoratli bo'lish bilan bir qatorda ijodkor ham bo'lishi zarur. Masalan, amerikalik yozuvchi Margaret Michelnig "Gone With The Wind" romani o'zbek tiliga "Shamollarda qolgan hislarim" tarzida tarjima qilingan, vaholanki "shamol bilan ketgan" qabilidagi so'zma-so'z tarjima asar nomining ma'nosini to'liq ochib berolmagan bo'lar edi. Shuningdek rus yozuvchisi Mixail Sholoxovning "Tinch Don" asari ingliz tiliga "And Quit Flows The Don" tarzida tarjima qilingan va bu bilan tarjimon asarning ruscha nomida berilgan nazmiy elementni saqlab qolgan.

Inglizcha grammatik konstruksiyalar va shakllarni o'zbek tiliga tarjima qilayotganda paydo bo'ladigan qiyinchiliklardan biri bu ushbu ikki til grammatik tuzilishining turlichaligidir. Ingliz tilida mavjud bo'lgan ba'zi grammatik qurilmalar o'zbek tilida mutlaqo mavjud bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, ingliz tilidagi artikllar gap remasini belgilash uchun ham ishlatiladi. Ya'ni ingliz tili artikllarida aniqlik (the) va noaniqlik (a/an) ma'nosidan tashqari ba'zi yondosh ma'nolar ham bor. Masalan, noaniq artikl (a/an) shaxs otlari bilan

ishlatilganda “qandaydir” degan ma’noni beradi va o‘zbek tiliga tarjima qilinganda “a Georgina” “qandaydir bir Jorjina” tarzida tarjima qilinadi. Shuningdek ingliz tilidagi “and” bog‘lovchisini ham tarjima qilganda odatdagi “va” yoki “hamda” ma’nosidan tashqari “esa” yoki “nahotki” kabi ma’nolar ham kelib chiqishi mumkin. Masalan, “Ann came in and I went out” – “En keldi, men esa ketdim”, “And you said it!” – “Nahotki sen shunday deding!”

Aynan bir grammatik konstruktsiya tarjimasini berish uchun bir necha bosqichli ish amalga oshiriladi. Avvalambor ushbu konstruktsiya orqali berilgan ma’no tushunilishi va so‘ngra ushbu ma’noni o‘zbek tilida ochib berish yo‘llari izlanishi lozim. Tarjima sohasi uchun alohida grammatika mavjud emas, shuning uchun ham badiiy tarjimada grammatik shaklni emas o‘sha grammatik shakl orqali nazarda tutilgan grammatik ma’noni bera olish muhim.

Badiiy tarjimada uchraydigan qiyinchiliklardan yana biri bu madaniyalar o‘rtasidagi farqdir. Ushbu farq ma’lum bir mavzularda gaplashish uchun ishlatiladigan lug‘at boyligida ham aks etadi. Madaniyatlar o‘xshash bo‘lganda tarjima jarayoni oson, madaniyatlararo farq juda katta bo‘lganda esa ekvivalent leksik birliklarni topish ham qiyin bo‘ladi va bu tarjimani murakkablashtiradi. Ayniqsa matn tili va tarjima qilinayotgan retsiyent tillar bir-biridan keskin farq qiluvchi madaniyatlarga tegishli bo‘lsa, tarjima jarayoni qiyinlashadi. Ammo tarjima jarayonida original matnda ishlatilgan kollokatsiyalar va iboralar tarjima qilinayotgan tildagi aynan shunday tabiiy so‘z birikmalari va iboralari yordamida berilishi kerak. Aks holda asar muallifi nazarda tutgan fikr ochib berilmay qoladi. Bunda mualliflik (original) matnida ishlatilgan barcha mualliflik innovatsiyalari ham to‘lig‘icha saqlanib qolinishi kerak. Yaxshi tarjima yaxshi adabiy va ifodali tilda yozilishi kerak.

Tarjimashunos Piter Nyumark tarjimaning ikki uslubini ajratib ko‘rsatadi : asl nusxaga asoslangan semantik tarjima – a source-oriented translation va adresatga mo‘ljallangan kommunikativ tarjima – a target-oriented translation. [Newmark, 1993: 100]. Badiiy matnni tarjima qilayotganda tarjimon ushbu matnni qaysi usulda tarjima qilishni o‘zi belgilab oladi. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, ba’zi holatlarda bu ikki tarjima metodlari bir biriga qorishib ketadi va bunday aralash uslub ham keng tarqalgan. Shuning uchun ham tarjimon muallif, o‘quvchi va matn kabi muhim omillarni unutmasligi, turli yondoshuvlar, ularning asosidagi srukturalarni bilishi va qo‘llay olishi kerak.

Shunday qilib, matnning asl nusxa tili badiiy nuqtaiyi nazardan qanchalik yetuk bo‘lsa, tarjima maksimal darajada original matnga yaqin amalga oshirilishi kerak. Bunda tarjimon nafaqat tarjima qilinayotgan tilga yangi so‘zlar, o‘zgacha konstruktsiyalar, iboralar kiritadi, balki o‘z tilining potensial imkoniyatlarini ishga solib uni boyitadi va kengaytiradi.

Foydaliniilgan adabiyolar:

1. Павлова М.К., Самарин А.В., Проблемы перевода художественных текстов .Журнал Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук 2017 г.
2. Riabtseva N. Translation as a professional and creative activity: A metalinguistic perspective // Across Languages and Cultures. Volume 13, Number 1/June 2012, ISSN 1585–1923.
3. Рашидова А. Ф. About some difficulties of literary translation. Молодой учёный № 11, 2015, 1887 с.-С. 1675-1676



4. Рябцева Н.К. Концепция художественного перевода Питера Ньюмарка и переводческая техника // Логический анализ языка: Перевод художественных текстов в разные эпохи. М., Индрик, 2012.
5. Newmark P. Paragraphs on Translation. Clevedon: Multilingual Matters, 1993.

“NASR UL-LAOLIY” MUALLIFI KIM?

U. J. Karayev

*Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
“Tillarni o'qitish metodikasi” kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asari vujudga kelishida asosiy manba vazifasini bajargan “Nasr ul-laoliy” risolasi va uning muallifi haqida so'z yuritiladi. XII asrda yashagan “Nasr ul-laoliy” muallifi Fazl ibn Hasan ibn Fazl Tabrisiy hayoti va ta'lifotlari bizda hali mukammal o'rganilmagan. “Nazm ul-javohir” asarini ilmiy jihatdan o'rganish maqsadida o'ib borilgan tadqiqotlarda Alisher Navoiy ruboiylari Ali ibn Abitolib qisqa hikmatlari asosida yaratilganligi ta'kidlangan bo'lsada, buyuk shoirning aynan qaysi manbadan foydalangani haqida bir-biriga zid fiklar bayon etilgan. Tabrisiyning “Nasr ul-laoliy” risolasini Alisher Navoiydan tashqari Ibn Sovajiy nomi bilan mashhur bo'lgan Abulmahosin Muhammad bin Sa'd Naxjevoni (8/14 asr) “Badratul-ma'oni (Durratul-ma'oliy”) fi tarjumat ul-laoliy”, Ashraf Marog'aiy (XV asr) “Nazmi nasr ul-laoliy”, Nadimiy (XV asr) “Ganji guhar” nomlari bilan she'riy tarjima qilganlar.

Kalit so'zlar: nazm ul-javohir, nasr ul-laoliy, risola, qisqa hikmatlar, she'riy tarjima, an'ana, ruboiy.

Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asarini nashrga tayyorlash va uni mumtoz adabiyot shaydolariga taqdim etish maqsadida zahmatkash olimlarimiz tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa S. G'anieva, A. Qayumov, M. Rashidova, M. Rajabova bu jarayonga salmoqli hissa qo'shganlar. Lekin shunga qaramay, bu tadqiqotlarda ba'zi bir savollarga javob topishimiz qiyin. Birinchi savol shundan iboratki, Navoiy bu asar muqaddimasida “laoliy mansura”, “karomat bahri laolisi”, “garonmoya gavharlar”, “samin (qimmatbaho) lu'lular”, “garonmoya injular”, “nasr ul-laoliy” (sochma la'lu-marvarid, qimmatbaho toshlar) iboralari bilan Payg'ambar (sav) yoronlaridan biri Ali ibn Abitolib (a) qisqa hikmatlariga ta'rif berganmi yo asar nomini keltirganmi? “Nazm ul-javohir” muqaddimasi ishora qilingan “ul valoyat daryosining g'avvosi har laolikim, durrfishon xomasidin nasr qilibdurur” degan so'zlardan haqiqatda ham Ali ibn Abitolib (a) shunday asar yozmaganmikan degan fikr paydo bo'ladi. Shu sababdan Alisher Navoiyning yigirma tomlik mukammal asarlari to'plamining 15-jildida “Nasr ul-laoliy” “Hazrat Ali qalamiga mansub hikmatlar majmuasi” deb sharhlangan [1, 164].

“Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” asarining manbalari va badiiyati” mavzusida tadqiqot olib borgan M. Rajabova esa oldingi tadqiqotchilar, jumladan S. G'anieva fikrlaridan farqli ravishda “Nasr ul-laoliy” degan nomni “mazkur majmuaga Hazrat Ali bergan emas. Bunday sarlavha IX asrda Hazrat Ali hikmatlarini bir joyga to'plagan mashhur olim va adib Al-Johiz tomonidan qo'yilgan. XIII asrda Rashididdin Vatvot bu to'plam tarkibidan yuzta hikmatni ajratib olgan, ularning yoniga o'zining forsiy she'riy talqinini qo'shib, uni boyitgan. Ammo asarning an'anaviy nomi “Nasr ul-laoliy”ni saqlab qolgan” degan xulosaga kelgan [3, 21]. Undan oldin tadqiqotchi adabiyotshunos M. Hakimovning “Navoiy aforizmlarining manbalariga doir” maqolasida “Nazm ul-javohir” asaridagi “ruboiylar folklordagi hikmatli so'zlar zamirida yuzaga kelgan” [4, 88-90] mazmunidagi fikrlarini haqli ravishda qat'iy rad etgani ma'lum. Demak, bu tadqiqotda muallif sifatida Al-Johiz va uning tarjimasini amalga oshirgan Vatvot tomonidan an'anaviy nomi saqlab qolinganganligi ta'kidlanmoqda.

Ammo boshqa manbalarda Amr bin Bahr Johiz va Rashididdin Vatvot “Nasr ul-laoliy” nomli asar ta'rif etganlari qayd etilmagan. Hatto mashhur manbashunoslardan M. Donishpajuh, A. Munzaviy Johiz qisqa hikmatlardan iborat alohida to‘plam tuzmagan degan fikrlarni bayon etganlar [5,267]. Kitob shaklida nashr etilgan va Amr bin Bahr Johizga nisbat beriladigan to‘plam “Nasr ul-laoliy” emas, “مائة كلمة من (ع) كلمات الامام على (ع)” (“Imom Ali (a)ning so‘zlaridan yuzta so‘z”) deb nomlangan. Rashididdin Vatvotning tarjimasiga ham mutlaqo boshqacha “مطلوب كل طالب من كلام اميرالمومنين على بن ابي طالب” (“Matlubu kulli tolib min kalomi Ali ibn Abitolib”) yo qisqaroq shaklda “Matlubu kulli tolib” deb nom berilgan. Yorali bin Abdulloh Tabriziy tarjimasini Johizga nisbat beriladigan (“Imom Ali (a)ning so‘zlaridan yuzta so‘z” asari bilan birga nashrga tayyorlagan Ali Safariy Oqqal’a yuzta qisqa hikmatlarni Vatvotning o‘zi to‘plam holiga keltirgan degan fikrlar ham yo‘q emasligini ta’kidlagan [6,12]. Vatvotdan keyin Ashraf Marog‘aiy, Odil Xurosoniy va boshqalar “Sad kalima” nomi bilan Ali ibn Abitolib (a) qisqa hikmatlari asosida nazmiy tarjimalar amalga oshirganlar.

Ali bin Abitolib qisqa hikmatlari to‘plamlari haqidagi bunday, gohida bir-birini inkor etuvchi ma’lumotlar tadqiqotchi va kitobxonlarni hayratga solishi tabiiy. Musulmonlar imomining qalam ahli bilan bo‘lganini Sayid Raziyning “Nahj ul-balog‘a” asarida keltirilgan xatlari, xutbalari va Husayn Boyqaroga Ali (a) devoni forsiy tarjimasini taqdim qilinganligi [7, 51-62] misolida bilishimiz mumkin. Alisher Navoiyning “durrfishon xoma (qalam)” iborasini ishlatgani S. G‘anievaning asar muallifi Ali (a)ning o‘zi deb o‘ylashiga sabab bo‘lgandir. M. Rajabovanning mazkur majmuaga “nomni Hazrat Ali bergan emas” deb ta’kidlagani haqiqatga yaqinroq. Lekin uning asar muallifi haqidagi fikrlariga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki qisqa hikmatlarni alifbo tartibida berish an’anasi XII asrdan keyin vujudga kelgan.

“Nasr ul-laoliy” asari muallifi aslida kim bo‘lganligi haqidagi fikrlarni davom ettirishdan oldin yana bir savol, u ham bo‘lsa Navoiy qisqa hikmatlarni forsiy tarjimalari, masalan Ibn Sovajiy tarjimasini yo arabiy asliyat asosida nazmga solganmi degan savolga javob izlab ko‘rishiz lozim. Misol uchun forsiy tarjimalarda “Saodatli bo‘lish uchun bomdodda uyg‘on” deb sharhlangan “بَاكِرٌ بِالْخَيْرِ تَسْعُدُ” hikmatini Ibn Sovajiy va Ashraf Marog‘aiy ham tarjima qilganlar. Lekin bu hikmat tarjimasini “Nazm ul-javohir”da ham, “Nasr ul-laoliy” nashrida ham mavjud emas. Yoki “Nazm ul-javohir”dagi 75 hikmat “Nasr ul-laoliy” nashrida, Ashraf Marog‘aiy tarjimasida nazarga tashlanmaydi. Gap quyidagi ruboiy haqida ketmoqda:

Har kimsakim, burch ranjining darhamidur,
G‘amning yoriyu dardning hamdamidur,
Ko‘rmaklik vomxohni motamidur,
Alqissaki, burch odamining g‘amidur.

Ibn Sovajiy tarjimasining nashr etilgan nusxasida “Dol” harfi bilan boshlanadigan hikmatlar mavjud emasligi sababli aynan shu hikmatni u nazm qilgani yo qilmagani xususida aniq fikr bildirish qiyin.

Ibn Sovajiyning “Durratu-l-maoliy” asaridagi 46-, Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir”idagi 45-hikmat tarjimasini “Nasr ul-laoliy” nashrida ham, Ashraf Marog‘aiy tarjimasida ham mavjud emas. Bular tasodufiy holatmi yo kotiblar aybi bilan yuz berganmi hozircha qat’iy javob berish qiyin. Arab tilidan “Кишининг ҳамсухбати унинг ўзи каби бўлади” deb tarjima qilingan جَلِيْسُ الْمَرْءِ مِثْلُهُ hikmatini Ibn Sovajiy fard janrida quyidagicha tarjima qilgan:

Qarini mard boshad darxuri o‘
Ba neku bad hamesha hamsari o‘.

Tarjimasini:

Erkakning yaqin kishisi o‘ziga munosib bo‘ladi,

Har qanday (yaxshi yo yamon) vaziyatda ham u bilan birga bo'ladi.

Navoiy hikmat tarjimasini hammasi qofiyadosh bo'lgan to'rt misrada bergan:

Yo'q olam ichinda fardliq mehnatidek
Kim, kimsaga qilsa yorliq nisbatidek.
Bo'lg'usi xisoli yorining xislatidek,
Bordur kishining chu fe'li hamsuhbatidek.

Ikki asarda shunday o'xshashkilar mavjud bo'lishiga qaramay, alifbo harflari tartibi asosida amalga oshirilgan tarjimalarni qiyosiy o'rganish jarayonida umumiy tartibda tafovutlar borligi aniqlandi. Bundan Alisher Navoiy na faqat forsiy tarjimalar, balki "Nasr ul-laoliy" risolasi muallifi hayoti va ta'lifotlaridan yaxshi boxabar bo'lganini taxmin qilishimiz mumkin. U "Nazm ul-javohir" dan keyin ta'lif etilgan o'zining avtobiografik xususiyatga ega "Majolis un-nafois" tazkirasida yoshligida, "Sulton Abusaid Mirzo zamonida Mashhadda g'arib va xasta bir buq'ada" bemor yiqilib qolib imom (Imom Rizo – shi'alarining sakkizinchi imomi) ravzasi tavofi yo ziyoratiga kelgan Shayx Kamol Turbatiy bilan qanday uchrashgani, bemor holiga qaramay bahs qilgani tafsilotlarini yozgan [2,36]. Navoiy tazkirasining 1997 yilgi nashrining izohlar qismida "Navoiy vazirlik davrida Imom Rizo maqbarasining janubiy qismida go'zal bir ayvon qurdirgan va undagi ustunlarning biriga Husayn Boyqaro nomini o'ydirgan"ligi haqidagi ma'lumotlar mavjud [2,210]. XII asrda yashagan "Nasr ul-laoliy muallifi Fazl ibn Hasan ibni Fazl Tabrisiy Imom Rizonang Qatlgoh nomi bilan mashhur bo'lgan mug'tasil (g'usl qilinadigan joy)igaga ko'milgani va qabri ziyoratgohga aylangan [8,9]. U davrda fazl va adab ahli ichida mazkur asar muallifi ismini eshitmagan kishi bo'lmaganligi sababli Navoiy o'z asari muqaddimasida ortiqcha izohga hojat yo'q deb o'ylagan bo'lishi mumkin.

"Nasr ul-laoliy" muallifi Amin ul-islom Tabrisiy nomi bilan mashhur bo'lgan Abuali Fazl bin Hasan bin Fazl Tabrisiy haqida qisqacha shuni ilova qilishimiz kerakki, u taxminan 468/1075 – 469/1076 yillarda Mashhad yo Tabris shahri (Tehronning 160 kilometr janub-g'arbida joylashgan Tafrish shahri. Tabris mazkur shaharning arabcha talaffuzi)da tug'ilgan. 523/1129 yilgacha Mashhadda yashagan. O'sha yili Sabzavorga ko'chib o'tgan va umrining oxirigacha mazkur shaharda yashagan. Axiri 548/1153-54 yilning qurbon hayiti oqshomida dunyodan ko'z yumgan. Uning yigirmatadan ziyod Qur'on va hadis sharhi, imomlar hayoti, fiqh haqidagi asarlar ta'lif etganligi manbalarda keltirilgan. "Nasr ul-laoliy" uning mashhur risolalaridan biridir. Uning eng mashhur ustozlari sifatida Abuali ibn Shayx Tusiy, Shayx Abulvafo Abduljabbor Roziy, Shayx Jalilulqadr Hasan bin Husayn bin Hasan bin Bobuya Qumiy, Shayx Muvaffaquddin Husayn bin Voiz Bakrobodiy Jurjoniy, Ubaydulloh Bayhaqiylar tilga olinadi. Uning shogirdlari va ishining davomchilari farzandi Raziuddin Abunahr Hasan bin Fazl, Abuja'far Muhammad bin Ali Shahrosho'b, Shayx Muntajabuddin, Qutb Rovandiy hisoblanishadi.

"Nasr ul-laoliy" Abdulvohid ibn Muhammad Tamimiy Omidiyning "G'urar ul-hikam va durar ul-kilam" ("Eng sara hikmatlar va so'z durdonalari") kitobi uslubida Ali ibn Abitolibning qisqa so'zlari keltirilgan qisqacha risola nomidir. Hikmatlar "Alif" harfidan boshlanib, "Yo" harfi bilan tugaydigan alifbo tartibida joylashtirilgan. Shayx Tabrisiyning tuzgan to'plami shu jihati bilan boshqa asarlardan farq qiladiki, unda "Nahj ul-balog'a", "G'urar ul-hikam", "Alhukm al-mansura", "Matlubu kulli tolib" va boshqa asarlarga kiritilmay qolgan hikmatlar ham o'rin olgan. Mazkur asrning 1384 /2005-06 yilgi nashri muqaddimasida tanqidiy matnini tayyorlagan Muhammad Hasan Qoyiniy risolani 10 ta nusxalari asosida nashrga tayrlangani va har bir qo'lyozmaning kitobat qilingani yili va saqlanayotgan joyi haqida ma'lumot

bergan [8, 25-29] . Bu nashrga Ali ibn Abitolibning 313 ta hikmatlarining arab tilidagi asliyati va ham Hamidrizo Shayxiy tomonidan amalga oshirilgan forsiy tarjimasini kiritilgan. Tarjimona hikmatlar hozirgi forsiy tilida so'zlashuvchi kitobxon uchun tushunarli bo'lishiga harakat qilgan. "Nasr ul-laoliy"ni Alisher Navoiydan tashqari Ibn Sovajiy nomi bilan mashhur bo'lgan Abulmahosin Muhammad bin Sa'd Naxjevoni (8/14 asr) "Badratul-ma'oni (Durratul-ma'oliy)" fi tarjumat ul-laoliy", Ashraf Marog'aiy (XV asr) "Nazmi nasr ul-laoliy", Nadimiy (XV asr) "Ganji guhar" nomlari bilan she'riy tarjima qilganlar.

Xullas, XV asrda Hirotda "Nasr ul-laoliy" risolasi va muallifi ismi mashhur bo'lganligi sababli "Nazm ul-javohir" muqaddimasida Navoiy ortiqcha sharh berishni lozim ko'rmagandek nazarga tashlanmoqda. Bu tadqiqotchilarning asar manbalari haqida turli xil fikrlar bildirishlariga sabab bo'lgan. Ali (a)ning "Nasr ul-laoliy" nomli asari mavjudligi boshqa manbalarda qayd qilinmagan. Amr bin Bahr Johizga nisbat beriladigan "Imom Ali (a)ning so'zlaridan yuzta so'z" deb nomlangan to'plamida islom imomi qisqa hikmatlari joy olgan, Rashididdin Vatvot "Matlubu kulli tolib" asarida ularni tarjima qilinib, qit'a janrida nazmga solgan bo'lsada, "Nasr ul-laoliy" shakl va mundarija jihatidan mazkur asarlarga mutlaqo o'xshamaydi. "Nazm ul-javohir" Abuali Fazl bin Hasan Tabrisiy risolasida o'rin olgan Ali ibn Abitolibning qisqa hikmatlari she'riy tarjimasidir.

ADABIYOTLAR

1. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 15-жилд: Назм ул-жавоҳир.—Т.: "Фан", 1999. Нашрга тайёрловчи С. Ғаниева. Б. 150–224 .
2. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис/ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 13-жилд. — Т.: Фан, 1997 йил. Матнни изох ва таржималар билан нашрга тайёрловчи С. Ғаниева. —300 б.
3. Ражабова М. Алишер Навоий "Назм ул-жавоҳир" асарининг манбалари ва бадиияти. Диссертатсия. — Самарқанд, 2006 йил. — 160 б.
4. Ҳақимов М. Навоий афоризмларининг манбаларига доир // Адабий мерос. 1971. № 2.Б. 88 – 90.
5. ابو على اشرف مراغى. نظم نثر اللئالى. به تحقيق محمود طيار مراغى. نشریه ميراث حديث شيعه. دفتر سوم، صفحات: از 265 تا 328
6. جاحظ، عمرو بن بحر. كلمات قصار امام على (ع). جلد ۱ با مقدمه على صفرى آق قلعه. — تهران: مركز پژوهشى ميراث مکتوب، ۱۳۸۹. — ۴۷ ص.
7. مجتهدى، مهدى. نثر اللئالى به ترکی جغتانى؛ نسخه ی خطی نظم الجواهر و متن منتشر شده ای به نام این اثر. شریه « بساتین» پاییز و زمستان ۱۳۹۳، سال اول — شماره ۲. صفحات: از ۵۱ تا ۶۲.
8. طبرسى، فضل بن حسن. نثر اللألي. تحقيق و تصحيح محمد حسن زبرى قاينى. ترجمه حميد رضا شىخى. — مشهد: بنياد پژوهش های اسلامى، ۱۳۸۴. — ۱۱۶ ص.

QISHLOQ XO'JALIGIGA OID MATNDA DEYKSISNING MOHIYATI

Bozorova Munisa Mamadiyor qizi

SamDChTI doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada pragmalingvistikadagi deyxsis hodisasi va uning qishloq xo'jaligiga oid matnlarda uchrashi haqida ma'lumotlar berilgan. Deyksis hodisasi til birliklarining nutq vaziyatida muallifning fikriga ishora qiluvchi uning g'oyalarining ko'rsatkichi bo'luvchi so'zlarni o'z ichiga oladi va ular uch asosiy guruhga bolinadi: shaxs, zamon va makon. Qishloq xo'jaligiga oid matnlarda deyxsis hodisasining asosiy uch turi qanday holatlarda kelishi mazkur maqolada misollar yordamida keltirib o'tilgan.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о феномене дейксиса в прагмалингвистике и его встречаемости в текстах, связанных с сельским хозяйством. Явление дейксиса включает в себя слова, которые обозначают мысли автора в речевой ситуации языковых единиц и делятся на три основные группы: лица, времени и пространства. В этой статье основные три типа дейксиса встречаются в сельскохозяйственных текстах на примерах.*

Abstract: *This article provides information about the phenomenon of deixis in pragmalinguistics and its occurrence in texts related to agriculture. The phenomenon of deixis includes words that denote the thoughts of the author in the speech situation of language units and are divided into three main groups: person, time and space. In this article, the main three types of deixis are found in agricultural texts with examples.*

Ilmiy uslubning funksiyasi tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini, u yoki bu fikrning mantiqiy isbotini aniq ta'riflash va izohlashdan iborat. Ilmiy uslubning mantiqiy xarakteri uning leksik- frazeologik va grammatik xususiyatlarida o'z ifodasini topadi. Bu uslubda narsa va hodisalarni aniq belgilovchi va to'g'ri ma'noda ishlatiluvchi terminologik harakterdagi so'z, iboralar ko'pchilikni tashkil etadi. Har qanday lisoniy struktura ma'lum bir maqsadni ko'zlab tuziladi. Ilmiy matnlarda ham berilayotgan faktlarni o'quvchiga tushunarli va ravon tarzda yetkazishga harakat qilinadi [1,24]. Demak, nutqiy faoliyatda doimo lisoniy shaklni voqelik bilan bog'lash hamda unga nisbatan shaxsiy fikr bildirish ehtiyoji tug'iladi. Mazkur vazifani esa deyxsis bajaradi. [2,87]

Deyksis atamasi yunon tilidagi "ko'rsatish", "ishora qilish" degan ma'noni bildiruvchi so'zdan kelib chiqqan bo'lib, u to'g'ridan to'g'ri til strukturasi va u asosida tuzilgan kontekst bilan bevosita bog'liqdir. Buni tildagi leksik va grammatik ma'noning nutq vaziyatida yoki matnning ma'no kasb etishidagi shifrlanishi sifatidagi fenomen deya ta'riflash mumkin [5,132].

Kontekst qurshovining kuchi, ayniqsa, deyxsis hodisasi talqinida yaqqol namoyon bo'ladi: «Til tizimidagi qator hodisalarni faqatgina ularning yuzma-yuz muloqot sharoitida shakllanishi inobatga olingandagina tavsiflash mumkin. Bu ayniqsa, deyxsis hodisasi talqinida yaqqol ko'zga tashlanadi» [7,68]. «Til tizimi va kontekst o'rtasidagi bog'liqlikning lisoniy strukturalarda aks etishini yaqqol ko'rsatuvchi yagona hodisa – bu deyxsis hodisasidir» [6,54].

Deyktik birliklar deya ifoda etiluvchi til birliklariga odatda ko'rsatish olmoshlari, birinchi va ikkinchi shaxs kishilik olmoshlari, zamon ko'rsatkichlari, o'rin va paytni anglatuvchi ravishlar va harakat fe'llari kiradi. Deyksis universal lisoniy fenomen bo'lib, barcha tillar o'zida deyktik atamalarga egaligi bilan ajralib

turadi. Nega bunday holat? Javobi oddiy: muloqot jarayonlarida deydik birliklarsiz soʻzlovchilar nutqi ularni qoʻllaganchalik samarali va mahsuldor boʻla olmaydi [5,134].

Ilmiy uslubning grammatik qurilishi mantiqiy bogʻliqlikni, izchillikni, sintaktik aniqlikni talab etadi. Barcha turdagi deydik iboralar koʻrsatish, ishora maʼnosini ifodalaydilar hamda koʻrsatish maydonining markazida soʻzlovchi shaxs turishi sababli ishoraning boshlangʻich nuqtasi ham uning koʻz oʻngida turgan voqelik parchasidir [2, 85].

Anʼanaviy holatda tilshunoslikda deysis uch turga boʻlinadi: shaxs, makon va zamon deysisi. Buning ortida turgan va uning paydo boʻlishiga xizmat qilgan sabab esa voqealarning bayon etilishida doimo kerak boladigan uni ifoda etuvchi shaxs, voqeani aks ettiruvchi payt va makon deya koʻrsatiladi [3,114].

Deysisning turlaridan boʻlmish shaxs deysisi ham ilmiy matnning ajralmas qismlaridan hisoblanadi. Qishloq xoʻjaligiga oid matnlarda ham shaxs deysisi hodisasi uchrasa ham bu koʻproq muallifning berilayotgan munosabatini bildirish fikridan yiroqda ushlab turadi, sababi muallif oʻzini taʼkidlashi ilmiy matnlar uchun xos xususiyat boʻlmaganligi tufayli mazkur holat uchrashi ham koʻp hollarda kuzatilmaydi:

The new structure will allow us to focus even more intently on key growth areas with plant genetics and biotechnology, agrochemicals and urban pest management and better positions us to innovate in this very competitive global industry. 7 (New AG international 2002 December p.14)

Uchinchi shaxs deysisi ilmiy uslub uchun eng mahsuldor vositalardan boʻlib hisoblanadi. Odatda, ilmiy matnlarda, 3- shaxs olmoshining quyidagi birlik va koʻplik shakllari uchraydi: he, his, they, their.

Ho says he and his co- workers hope to publish their findings rapidly online, and they will present data from case at a large U.S. AIDS meeting in Boston this week. (Science vol307 1183.p30)

3- shaxsga axborot manbai sifatidagi havolalar maqolada talqin qilingan maʼlumotlarning aniqlik va obyektivlik talablari bilan bogʻliq. Muallif u yoki bu tadqiqotni bajarishda oʻzining oʻtmishdoshlari kim boʻlganligi haqida mazkur ishda xabar bermasligi mumkin emas. 3- shaxs vositasida ifodalanayotgan shaxs muloqot matnidagi ishtiroki 1- shaxs, yaʼni soʻzlovchiga nisbatan belgilanadi, chunki “u”, asosan, nutqiy faoliyatning obyekti, hikoya qahramoni sanaladi. Shuning uchun 3- shaxsning nutqiy nomlanishi ham iki xil koʻrinishda yaʼni stereotip (anʼanaviy qolipli) va stereotipsiz (subyektiv) koʻrinishda boʻlishi mumkin.

We would like to offer a different opinion on the ideas presented in the article by Keshava and Caldwell (2006). The authors indicated that their article summarized scientific literature published since an earlier U.S. Environmental Protection Agency (EPA) risk assessment of trichloroethylene (TCE) with an emphasis on the possible role of proliferators- activated receptor α (PPAR α) agonism relevant to TCE risk assessment. (Ehp Jan 2007 P.36)

Zamon deysisi nutq berilayotgan paytga nisbatan bolayotgan hodisalarni ishora qilish ajratib koʻrsatish bilan belgilab beradi va uning grammatikalashuvi ayni shu jarayonda namoyon boʻladi. Fillmor vaqt bu oʻlchovli va bir tomonlamadir degan qarashni bildirib oʻtgan [4,6].

Qishloq xoʻjaligiga oid matnlarda zamon deysisining qoʻllanilish holati koʻp boʻlmasa uchrab turadi va bunda u matn yozilgan vaqtning egosentrik qilib belgilab shu asosda fikr mazmuni bayon etilishini koʻrsatib beradi:

Recently the *Candida albicans* genome sequence provides new insights into this important fungal pathogen.1323.(C&Gen 2005 45.)

At present there are no data on the national emissions of the indirectly acting greenhouse gases NO_x and CO through agriculture. For this reason only nitrous oxide, methane, and carbon dioxide were taken

into account in determining agriculture's contributions effect by gas. (Plant Research and Development 1996. P38).

Deyksisning uchinchi asosiy kategoriyalaridan biri bu makon deyksisidir. Makon deyskisi ham muloqot jarayonida nutq so'zlovchining vaziyatiga qarab unga nisbatan makonni aniqlab beradi [5,149]. Qishloq xo'jaligiga oid matnlarda makon deyksisi qo'llailish hodisasi ham birmuncha ekanligi ko'rinadi. Yuqorida aytib o'tilganidek makon deyksisi muallif tomonidan qay makonda ekanligiga nisbat berilgan holatda ko'rinadi, ba'zi vaziyatlarda mazkur holat muallif tomonidann berilganda deyktik birlik hisoblansada, lekin tinglovchi tomonidan bunday qabul qilinmasligi ham mumkin.:

In this context the procedures of integrated pest management which have long been known, are gaining in importance.

Epidemiologic studies suggest that there may be an association between environmental exposure to persistent organic pollutants and diabetes.(EHP Jan 2007, 25p)

Yuqorida bildirilgan misollardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, deyksis hodisasi qishloq xo'jaligiga oid matnlarda ham uchratish mumkin. Bunda deyksisning vazifasi matnda muallifning fikrlarini o'quvchiga yetkazish jarayonida o'z qarashlarinin turfa jihatdan asoslashga va zamon va makonda anglatishida ko'makchi bo'ladi. Shaxs deyksisi ilmiy matnlarda qo'llainish darajasi mahsuldor bo'lmasada, muallifninf ba'zi holatlarda fikrini bayon etishiga va mualliflarni eslatishiga sababchi bo'lib namoyon bo'ladi. Zamon va makon deyksisi esa ko'p holatlarda aynan ilmiy ish berilgan yoki tajribalar olib borilgan vaqt yoki tajriba o'tkazilgan joyga nisbatan ifoda etilishi bilan o'ziga xosdir. Deyksisning asosiy uch turi ham qishloq xo'jaligiga oid matnlarda ishtiroki muhim hisoblanib, ular vositasida matnni o'quvchilarga yetkazishda ma'noning uzviyligi ta'minlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008. - 285b.
2. Ўзбек тили стилистикаси (ўқув қўлланма) / Тузувчилар: А.Шомақсудов, И.Расулов, Р.Қўнғуров, Ҳ.Рустамов. – Тошкент, 1983.- 248б.
3. Betty J.Birner Introduction to Pragmatics.Oxford:. Blackwell Publishing, 2013. – 342p.
4. Fillmore Ch. Santa Cruz Lectures on Deixis. Indiana: University linguistic Club, 1975.- P.87.
5. Huang Yang Pragmatics. – Oxford:. Oxford University Press, 2007. – 367p.
6. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1984. – 419p.
7. Lyons J. Semantics, vol. 1 and 2. - Cambridge: Cambridge University Press, 1977. - 897p.

ZAMONAVIY LINGVISTIK KORPUSDA: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA
INNOVATSION YONDASHUVLAR

Mavlanova Nargiza Rustam qizi

*Ishtixon tumani 89-umumiy o'rta ta'lim maktabida ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Samdchti kompyuter lingvistikasi yo'nalishi 1-kurs magistri*

Ma'lumki, tilshunoslik fani XIX (1816-yilda) asrda mustaqil fan sifatida shakllandi. Shundan boshlab u turli aspektlarda, yo'nalishlarda rivojlanib kelmoqda. Kompyuter lingvistikasi matematik lingvistikaning mantiqiy davomi bo'lib, u amaliy tilshunoslikning eng muhim qismini tashkil etadi. Kompyuter lingvistikasi 1954-yil AQSH da Jorjtaun universitetida mashina tarjimasini bo'yicha dunyoda o'tkazilgan birinchi tajriba asnosida yangi yo'nalish sifatida shakllana boshladi, 1960-yilga kelib mustaqil fan sifatida shakllandi. Kompyuter lingvistikasi inglizcha «computational linguistics» so'zining kalkasidir.

Kompyuter lingvistikasining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- avtomatik o'qitish tizimini ishlab chiqish;
- bilimlarni tekshirish;
- matnlarni turli jihatdan avtomatik tahrirlash;
- matnlarning avtomatik tarzda morfologik, sintaktik va semantik tahlilini (inglizcha parsing) ta'minlovchi tizimlar yaratish (parser dasturlar);
- mashina tarjimasini uchun mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqish;
- lug'atlarni va kompyuterdagi matnni statistik tahlil qilish;
- lingvistik muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan optimal dasturlar yaratish;
- muloqotning kompyuter modelini ishlab chiqish;
- matn strukturasi gipertekst texnologiyasini yaratish;
- elektron lug'atlar va tezauruslar yaratish;
- sun'iy intellekt tizimini ishlab chiqish;
- matnlar korpusini yaratish;
- matnni avtomatik referatlash;
- sujet strukturasi modelashtirish;
- nutqni avtomatik tushunish tizimini ishlab chiqishdan iboratdir. Bundan tashqari, Kompyuter lingvistikasining asosiy yo'nalishlari:

I. Amaliy yo'nalishlar.

1. Mashina tarjimasini.
2. Avtomatik tahrir.
3. Avtomatik tarzda tilga o'rgatish.
4. Statistik tadqiqotlar.

II. Nazariy yo'nalishlar.

1. Tabiiy tilni qayta ishlash.
2. Syujet strukturasi modelashtirish.
3. Matnni gipertekst texnologiyalarida berish.
4. Tabiiy tilni qayta ishlashdan iboratdir.

O'zbek tili materiallari bo'yicha kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqot olib borgan olimlar sifatida H.Arziqulov, S.Rizayev, S.Muhamedov, A.Po'latov, S.Muhamedova, N.Jo'rayevalarni ko'rsatish mumkin. Olimlar asosan statistik tahlil, algoritmlash, o'zbek tilining aksiomatik nazariyasi, fe'llarning kompyuter analizi va sintezi kabi yo'nalishlar bo'yicha izlanishlarni amalga oshirganlar.

O'zbek tilining kompyuter uslubi aynan kompyuter lingvistikasi bo'yicha mutaxassislar, kompyuter dasturchilari va tilshunos filologlar hamkorligida yaratiladi. Uning ijobiy jihati ham aynan shunda ko'rinadi: u filolog va kompyuter mutaxassislarining birgalikda ishlashini taqozo qiladi. Bundan tashqari kompyuter lingvistikasi nafaqat o'zbek tilini, balki boshqa tillarni, xususan rus va ingliz tillarini o'rganishda ham asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, tarjimonlar tayyorlashni yo'lga qo'yishda, o'zbek tilida ingliz tilini va ingliz tilida o'zbek tilini to'liq o'rgatadigan o'quv qo'llanmalari va kompyuter dasturlarini yaratishda ham kompyuter lingvistikasi bizga beminnat yordamchi bo'la oladi.

O'zbekistondagi kompyuter lingvistikasi sohasiga doir muammolar:

- Oliy ta'lim muassasalaridagi kompyuter lingvistikasi laboratoriyalarini tashkil etish va texnik jihatdan ta'minlash

- Kompyuter lingvistikasi sohasidagi yetuk kadrlarni yetishtirish

- Kompyuter lingvistikasi sohasidagi kadrlarning har ikkala soha, dasturlash va tilshunoslik bilimlarini egallashlarini ta'minlash

- kompyuter lingvistikasiga doir ta'lim yo'nalishi mavjud oliy ta'lim muassasalari sonini ko'paytirish

- o'zbek kompyuter modellarini yaratish va kompyuterda o'zbek tili matnini avtomatik tahrirlash

- o'zbek tilini boshqa xorijiy tillar bilan tarjima bazasini yaratish

- o'zbek tilini o'rgatishga doir kompyuter dasturlarini yaratish

- kompyuter lingvistikasini o'rgatishga doir darsliklar, dasturlar, ma'ruza matnlarini yaratishdir.

Shu bilan birga korpus lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash, mashina tarjimasi, matnga qayta ishlov berish tizimlari, kompyuter lingvodidaktikasi, kompyuter leksikografiyasi, semantik tizimlar va lingvistik ontologiyalar, kompyuter lingvistikasida terminologiya va terminografiyasi kabi sohalarga alohida e'tibor qaratish, texnik laboratoriyalar, kompyuter lingvistikasi markazlari bilan ta'minlash, sohada ta'lim olayotgan talabalar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochish, xorijiy tadqiqot va yangiliklarni o'rganish hamda sohaga keng tatbiq etish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyo kompyuter lingvistikasida milliy til korpusining mavjudligiga tilning yashovchanlik va kompyuter tiliga aylanish mezon sifatida qaralmoqda. Kompyuter va korpus lingvistikasi globallashtirish sharoitida tillarga immunitet baxsh etuvchi asosiy vositalardir. Shunday ekan, yuqori mutaxassisli lingvistlar guruhi bilan birgalikda xatolar va kamchiliklardan holi bo'lgan o'zbek tili korpusini yaratish orqali kompyuter lingvistikasiga doir muammolardan birini yo'qotgan bo'lamiz.

O'zbekistonda kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqot olib borgan olimlar sifatida S.Rizaev va S.Muhamedovlarni alohida korsatish mumkin. Olimlar asosan statistik tahlil yonalishi bo'yicha izlanishlarni amalga oshirganlar. O'zbek tilshunosligidagi kompyuter lingvistikasining boshqa yo'nalishlari esa o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Kompyuter lingvistikasida nazariy yo'nalishlar amaliyga nisbatan ancha murakkab. Ayniqsa, NLP (Natural language processing) - inson bilan kompyuterning tabiiy yoki cheklangan tilda munosabatga kirishuvi (so'zlashuv) ni ta'minlovchi sistema yoki texnologiyalarni yaratish bilan shug'ullanuvchi soha - katta mablag' va bilimni talab etadi.



Komyuter lingvistikasiga doir muammolarni o'zbek kompyuter lingvistikasining xalqaro tadqiqotlar bilan boyishi, yosh va yetuk mutaxassislar qamrovining kengayishi, xorijiy ilg'or tajribalarning o'zlashtirilishi, til masalalarini kompyuter dasturlari orqali yechish yo'nalishlarining rivoji va taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etishi, korpus lingvistikasining rivojlantirilishi, tabiiy tilni qayta ishlash yo'nalishida samarali tadqiqotlar, yirik kompyuter lingvistikasi laboratoriyalari va kafedralari tashkil etish, yuqori texnologik kompyuter va dasturlardan foydalanishni yo'lga qo'yish orqali yechish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Kompyuter lingvistikasi" A.Rahimov
2. KOMPUTER LINGVISTIKASI: MUAMMO, VAZIFA HAMDA ISTIQBOL
Bekmurod Yo'ldoshev,
filologiya fanlari doktori, professor
"Ma'rifat" gazetasidan olindi
3. KOMPYUTER LINGVISTIKASI»
fanidan O`QUV - USLUBIY MAJMUA Z.To'ychiyeva

PROZANING POETIK XUSUSIYATLARI

Tursunkulov Sanjar Dilmurod o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ispan va italyan tillari o'qituvchisi

sanjar01061991@gmail.com

Испанский вариант не отличается от перевода Абдуллы Ибн Мукаффы, во всяком случае испанский вариант ближе арабскому оригиналу, чем греческому. Наряду с «Калилой и Димной» на кастильский язык был переведен сборник «Женские хитрости и уловки». Тематика данного сборника была узкой, не обозначались дидактические выводы. Данное произведение не оставило значительного следа ни в испанской, ни в европейской литературе вообще.

Испанский правитель Альфонсо X Кастильский (Альфонс Мудрый) помимо научных трудов создавал и художественные произведения, содействовал развитию литературы. Во времена его правления (1252-1284гг.) были созданы морально-политические и морально-философский трактаты как «Двенадцать мудрецов», «Цветы философии», «Бониум или золотые блюда», «Тайна тайн» и др. В основном эти произведения созданы как подражания восточным трактатам о морали. Но самое главное они имели огромное воздействие на развитие литературы, культуры Европы. Вышеуказанные произведения и композиционно, и содержательно, и дидактически являлись характерными образцами литературы Востока.

В введениях к «Калила и Димна» и к «Советы клирикам» авторы обращаются к читателям с просьбой не прочитывать книги по просту, а вчитываться, читать глубоко вникая в суть, делать для себя выводы.

Точно такому же обращению следуют в дальнейшем в испанской литературе (Хуан Мануэль «Граф Луканор», Хуан Руис де Аларкон «Книга благой любви» и др.) В испанском фольклоре были широко распространены небольшие смешные, поучительные рассказы типа анекдотов об узбекском Насреддине Афанди или казахском Алдаре Косе (самые характерные рассказы о Санчо Панса из «Дона Кихота»). Такие произведения встречаются и в литературе других европейских стран.

Поучительный дух «Калилы и Димны» определил успех данного жанра для европейского читателя. Несмотря на то, что первоначально рассказы считались предназначенными, преимущественно, для простых читателей, впоследствии они имели огромное значение в формировании рассказа как литературного жанра в европейской литературе вообще.

Вначале было широко распространено в Испании, позже и в литературе других народов создание подражательных восточным традициям произведений: «Книга о рыцаре Сифаре» короля Санчо (начало XIV века), «Граф Луканор» Хуана Мануэля (1328-1334). Позже в Италии «Новеллино» (XIII век), в Англии «Рассказы Кентерберии», «Декамерон» Бокаччо (1313-1375), во Франции «Гептамерон» Маргариты Навварской (1492-1549 гг).

Своеобразный сплав чистых и общеевропейских традиций можно обнаружить в литературах

⁴⁰ [Калила и Димна](#) // [Казахстан. Национальная энциклопедия](#). — Алматы: [Казак энциклопедиясы](#), 2005. — Т. III. — ISBN 9965-9746-4-0. (CC BY-SA 3.0)

⁴¹ С. Ф. Ольденбург. Индийская литература. «Литература Востока. Сборник статей», вып. 1. Пг., «Всемирная литература», 1919, стр. 21.

Востока, Африки, Латинской Америки. Это характерно для тех стран, которые со значительным историческим запозданием стали на общеевропейский путь или же восприняли европейскую культуру извне. Их отличает особый, «неклассический», «ускоренный тип литературного развития с характерными для него “сжатием”, стяжением основных ступеней и стадий и, одновременно, распространением одной стадии на несколько; преобладание гибридных, смешанных форм»⁴².

Хотя и имеются сведения о произведениях, написанных на греческом языке представителями народов Востока, не сохранилось ни одного произведения. Правда, в создании греческой литературы в Александрии и Пергаме принимали участие и писатели из восточных стран, но сейчас невозможно определить, какой народ представляют эти писатели.

В заключении, хотели бы обратить ваше внимание на мнение известного ученого-литературоведа Фозилы Сулаймоновой: В последние годы передовые представители человечества пришли к выводу, что если практический опыт, достижения науки и техники Запада будут обогащены высокой духовностью Востока и чувством глубокого понимания тонкостей психологии человека, наука может достичь истинного прогресса⁴³.

Использованная литература:

1. Вестник КРАСГАУ. 2014. №8//Худолей Н.В. Восток и Запад: Культура, ментальность, литература (на примере сравнительного анализа художественных текстов средневековья).
2. Калила и Димна // Казахстан. Национальная энциклопедия. — Алматы: Қазақ энциклопедиясы, 2005. — Т. III. — ISBN 9965-9746-4-0. (CC BY-SA 3.0)
3. С. Ф. Ольденбург. Индийская литература. «Литература Востока. Сборник статей», вып. 1. Пг., «Всемирная литература», 1919
4. Салохи Д. Великий мыслитель и поэзия. – LAP LAMBERT Academic Publishing, 2018
5. Уотт У.М. Влияние ислама на средневековую Европу. - М: Наука, 1976.
6. Фозила Сулаймонова. «Шарқ ва Ғарб». – Т: "Узбекистан", 1997

⁴² Литературный энциклопедический словарь. М.: Сов. энциклопедия, 1987. С. 232-233.

⁴³ Фозила Сулаймонова. «Восток И Запад». Издательство "Узбекистан". — 1997 700129, Ташкент, Навои, 30.

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA MUSTAQIL VA YORDAMCHI SO'ZLARDA
TRANSPOZITSIYA HODISASI

Usanova Sevara O'ktamovna

Samarqand davlat chet tillar institute magistranti

*Koreys va o'zbek tillarida so'z turkumlarining tasnifidagi
mushtarak va farqlar*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ikkala til ham bir til oilasiga mansub bo'lsa ham lekim ma'lum farqli va umumiy tomonlarga ega hisoblanadi. Koreys tilida bog'lovchi, sifatlovchi so'zlar va undob so'zlar ham mustaqil so'z turkumi vazifasini bajarib so'z turkumi sanaladi, lekin bunday ko'rsatkich o'zbek tilida mavjud emas. O'zbek tili so'z turkumlari paradigmasi o'rtasidagi geneologik, ierarxik va tafakkuriy aloqalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, til va nutq dixotomiyasining asosiy birligi leksema - grammatik so'zdir, til birliklari – so'z turkumlari nutqda funktsiyasi, morfemik shakli (fonetik-akustik obrazi) va sintagmatik munosabatlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'zlarining nominativ, semantik-funksional xususiyatlarining asosiy qismini saqlab qoladilar, shu tufayli so'z turkumlari va gap bo'laklari masalasi o'rtasiga tenglik belgisi qo'yib bo'lmasa-da, leksemalar guruhi va sintaktik birlik (sintagma) orasida qalin aloqalar mavjudligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Lisoniy manzaraning har qanday ob'ekti, xoh u moddiy, xoh ma'naviy bo'lsin, so'z turkumlari orqali ifodalanadi va lisoniy manzaradagi eng mayda ob'ektlarga qadar tasvirlash uchun so'z turkumlarining nominativ funktsiyasi yetarlidir.*

Kalit so'zlar: *so'z turkumlari, mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar, til sistemasi, semantik, formal, agglutinativ tillar*

IN THE CLASSIFICATION OF WORD GROUPS IN KOREAN AND UZBEK LANGUAGES
COMMONALITIES AND DIFFERENCES

Annotation. *In this article, although both languages belong to the same language family, they have certain differences and common aspects. In Korean, conjunctions, adjectives and adverbs are also counted as independent word groups, but such an indicator does not exist in Uzbek. The analysis of the geneological, hierarchical and ideological connections between the paradigm of Uzbek language word groups shows that the main unit of the dichotomy of language and speech is lexeme - grammatical word, language units - word groups function in speech, morphemic form (regardless of their phonetic-acoustic image) and syntagmatic relations, they retain the main part of their nominative, semantic-functional properties, due to which the issue of word groups and sentence fragments is solved by putting an equal sign in the middle however, it cannot be denied that there are strong connections between a group of lexemes and a syntactic unit (syntagma). Any object of the linguistic landscape, be it material or spiritual, is represented by word groups, and the nominative function of word groups is sufficient to describe even the smallest objects in the linguistic landscape.*

Key words: *word groups, independent words, auxiliary words, language system, semantic, formal, agglutinative languages*

Til tizimi sathlarida lisoniy belgilarning iyerarxik tartibi umumiy tarzda biri quyi, boshqasi yuqori darajada tashkil topgan ikki mikrotizimning yonma-yon hukm surushi bilan xarakterlanadi. Bunda har qanday quyi birliklar yuqori birliklarning tarkibiy qismi bo'lsa, yuqori birliklar bilan chambarchas bog'liqdir.⁴⁴ Har qanday til unsure singari so'z turkumi paradigmasida ham ushbu tartibning amalda bo'lishi kuzatiladi. Hozirgi jonli tillarning so'z turkumi tizimiga e'tibor berilsa, ular a) mustaqil so'zlar, b) yordamchi so'zlar,) alohida so'z turkumlaridan iborat ekanligi ko'zga tashlanadi. Bu ham tilning, so'z turkumi tizimining tadrijiy taraqqiyotining qonuniy mas'uli bo'lib, yordamchi so'zlar va alohida turkumdagi so'zlar so'z turkumi paradigmasidagi iyerarxiyali aloqalar max'suli o'laroq vujudga kelgan.

Ma'lumki, til sistemasidagi har bir xususiy birliklardan iborat ekanligi hamda til sistemasining geterogenligi (yangi birliklarni vujudga keltira olishi; Eng. heterogeneity; rus. geterogenosty) hozirgi zamon lingvistikasida isbot talab qilmaydigan haqiqat sifatida qabul qilinadi⁴⁵. Inson ongi, jamiyatning taraqqiyotiga mos ravishda tilda mustaqil turkumlarning shakllanishi natijasida ob'ektiv borliqni diskret holda tasavvur qilish hamda ifodalashning nutqiy imkoniyati vujudga keldi. Shunga ko'ra mustaqil so'z turkumlari ko'proq predmet, belgi, miqdor, harakat (holat) kabi tushunchalarni anglatish uchun xizmat qiladi. Tilning tadrijiy taraqqiyoti borliqdagi (ongdagi) ko'p qirrali munosabatlarni ifodalash imkoniyatini vujudga keltirdi. Moddiy substansiya (predmet, belgi...) bilan bevosita emas, bilvosita aloqada bo'lgan munosabat kategoriyasini ifodalovchi yordamchi so'zlar turkumi (guruhi) substansiyaning nutqdagi son-sanoqsiz aloqalarini, munosabatlarini ifodalaydi. Yordamchi so'zlar ana shu ehtiyoj tufayli amalda bo'ladi hamda ularning til - nutqdagi miqdori tobora oshib bormoqda. Yordamchi so'z turkumlari va alohida so'z turkumlarining geneologiyasi, yuqorida qayd etib o'tilganidek, so'z turkumlari tizimining geterogen xususiyati bilan bog'liq. Mustaqil so'z turkumlari (asosan ot va fe'l) vakillarida yuz bergan leksik-semantik, fonetik va morfologik o'zgarishlar tufayli asta-sekin yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama) hamda alohida turkumdagi so'zlar (undovlar, modal so'zlar, taqlidiy (tasviriy) so'zlar shakllana boshladi. Qayd etish lozimki, mazkur shakllanish jarayoni mustaqil so'z turkumlarining tarixiy-geneologik aloqasi (geneologiyasi)dan tubdan farq qiladi. Mustaqil so'z turkumlari tizimi substansiyaning mohiyatini anglatuvchi belgilar nominatsiyasi sifatida vujudga kelgan bo'lsa, yordamchi so'z turkumlari mustaqil so'zlardan ba'zilarining desemantizatsiyasi tufayli vujudga keldi hamda substansiyaning munosabatlarini ifodalashga xizmat qila boshladi. Mazkur jarayon tildagi so'z turkumlari paradigmasining ierarxiyali aloqasining tipik namunasidir; biz bu o'rinda bir til sathidagi nisbatan takomillashgan qurilma (mustaqil so'z turkumlari) materialidan (uning fonetik-akustik shakli va mavhumlashgan semantikasidan) birmuncha sodda hamda semantik (lisoniy) yuklanishi "yengilroq" bo'lgan unsurlar shakllanishining guvohimiz. Mazkur jarayonlar ma'lum shart-sharoitlar va qonuniyatlar ta'sirida yuz berdiki, ular xususida alohida to'xtalish lozim bo'ladi.

So'z turkumlariga kiruvchi barcha so'zlarni bir xil qimmatga ega deb bo'lmaydi. Har bir turkumda shu turkumning kategorial mohiyatiga to'la mos kelmaydigan so'zlar ham mavjud bo'ladi. So'zlarning bunday darajalanish xususiyati ularni tasniflashda ma'lum bir qiyinchiliklarni tug'dirishi tabiiy. Chunki so'zlarni grammatik tasniflashda bugungi kunda barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan semantik, sintaktik va morfologik belgilarni "markaziy" so'zlarda aniq kuzatish va aniqlash mumkin. Tilshunosning asosiy maqsadi ham, bosh vazifasi ham turkumlar aro tebranib turadigan shunday hodisalarni oydinlashtirish, ular

⁴⁴ Зарецкая Е.Н. Риторика, 2000 – <http://www.i-u.ru/biblio/archive/ritorika/18.aspx> (январь, 2005)

⁴⁵ Aksan, Doğan. Her yönüyle Dil. Cilt 2. – Ankara: Türk Tarih Kurumu basımevi, 1990, s. 110-117; Общее языко-знание. Внутренняя структура языка. – М.: Наука, 1972, с. 73-74.

zamidagi ushbu holatlarga sabab bo'luvchi ichki va tashqi omillarni tushuntirib berishdan iborat bo'ladi. Atoqli tilshunos L.V.Shcherba ta'kidlaganidek, "надо помнить, что ясно лишь крайнее случаи. Пожегужточное же в самом первоисточнике - сознании говорящих - оказывающая колебляющимся, неопределенному. Однако это-то неясное и колеблюющийся и должно больше всего привлекать внимание лингвиста."⁴⁶ Demak, so'z turkumlari sirasida markaziy o'rinni egallaydigan so'zlarning semantik-sintaktik yoki morfologik xususiyatlari shu turkumning tipik mohiyatiga mos keladi. Ammo turkumlar chegarasidagi so'zlarning mohiyatida turli turkumga xos belgilarning u yoki bu darajada aks etganligi (albatta, bu muqarrar til tabiatidagi ijobiy holat bo'lib, uning ichki strukturasi uzviylik va uzluksizlikni, umuman olganda, tilning yaxlit sistemaviyligini o'zida ifodalaydi) ular semantik-sintaktik vazifasi darajalarining qaysi mohiyatga tegishli ekanligini belgilashda qiyinchilik tug'diradi⁴⁷.

Koreys tilida ham agglytunativ tillar oilasiga mansubdir. Shu jihati bilan o'zbek tilidagi xususiyatlar koreys tilida ham uchraydi. O'zbek tilidagi so'z turkumlarida farqli koreys tilida 9 ta so'z turkumi bor. Ikkala til ham bir til oilasiga mansub bo'lsa ham lekin ma'lum farqli va umumiy tomonlarga ega hisoblanadi. Koreys tilida bog'lovchi, sifatlovchi so'zlar va undob so'zlar ham mustaqil so'z turkumi vazifasini bajarib so'z turkumi sanaladi, lekin bunday ko'rsatkich o'zbek tilida mavjud emas. Koreys tilida yordamchi so'zlar mustaqil so'zlarga qo'shimcha ma'no beradi. Yordamchi so'zlarga bog'lovchi undalma va taqliq so'zlar kiradi. Shuningdek, koreys tilida Mustaqil so'zlarga (체언): ot - 명사, olmosh - 대명사, son - 수사 kiradi.

국어의 품사 체계 (Koreys tilida so'z turkumlarining tizimi)

- 체언: 명사, 대명사, 수사
- 용언: 동사, 형용사
- 수식언: 관형사, 부사
- 독립언: 감탄사
- 관계언: 조사

XULOSA : So'z turkumlarining tadriji til taraqqiyoti bilan barobar borganligi hamda tilning semiotik tizim sifatida shakllanishining birlamchi shartlaridan biri bo'lganligi til birligi leksema va nutq birligi grammatik so'z doimo dialektik aloqada ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni so'z turkumlarining shakllanishi ularning gapdagi funktsiyalariga kelib bog'lanadi, bu funktsiyalarning o'zgarishi, gap (semantik maydon)dagi munosabat, qurshov va hokazolarning ta'sirida grammatik so'z yangi kategorial ma'no kasb etadi, til/nutq dixotomiyasining panaxronik va panalokatsion aloqasi tufayli yangi nutqiy birliklar til birliklariga aylanadilar. Gap bo'laklaridan so'z turkumlarining shakllanishi va so'z turkumlari vositasida gap bo'laklarining ifodalanishi, aslida, til va nutqning bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishgan va bir-birini to'ldiruvchi, geterogen tizimlar ekanidan darak beradi. Bu aloqalar, yuqorida ta'kidlanganidek, panaxron (zamonda cheklanmagan) va panalokatsion (makonda, ya'ni til/nutq tizimining biror sathi bilan cheklanmagan) bo'lgani uchun tadqiqotchi uni bevosita kuzatishi qiyin. So'z turkumlarining geneologik aloqasining umumiy tahlili shundan dalolat beradiki, ism-fe'l ayniyatidan keyin tizim tusini olgan so'z turkumlari paradigmasi ichida geterogenetik jarayonlar kuchaydi va bu hol sifat, son, ravishning vujudga kelishiga yo'l ochdi. Ism turkumining o'rinbosari bo'lgan indeksal (deyktik) so'z turkumlari - olmoshning

⁴⁶ NIGMATOV, X. G., (1989). Funktsionalnaya Morfologiya Tyurkoyazichix Pamyatnikov XI-XII vv. Tashkent: Fan.

⁴⁷ BORTE, L. V., (1973). Vliyanie Sintaksicheskoy Funktsii na Prosess Vzaimodeystvie Chastey Rechi. Problemi Teorii Chlenov Predlozheniya. Kishinev: Shtiintsa.

shakllanishi ham til/nutq tizimining jadal rivojiga, nutqiy kommunikatsiyaning qulaylashuviga ko'maklashdi.⁴⁸

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eltazarov.J.D “O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro aloqasi va ko'chishi”- TOSHKENT-2008.
2. BORTE,L.V. (1973). Vliyanie Sintaksicheskoy Funktsii na Prosess Vzaimodeystvie Chastey Rechi. Problemi Teorii Chlenov Predlojeniya. Kishinev: Shtiintsa.
3. NIGMATOV, X. G., (1989). Funktsionalnaya Morfologiya Tyurkoyaziqnix Pamyatnikov XI-XII vv. Tashkent: Fan.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. энциклопедия 1966,
5. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990, (мақола муалли-фи – В.Г. Гак)
6. Ким Мук Ук. Корейс тили грамматикаси.- Т., 2007.
7. Ким Ф. Грамматика современного корейского языка. Алматы. КазГУ, 2002; 남궁억 (南宮億). 조선어법. 서울. 1913.
8. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. –М.: Иностранной литературы. 1955.
9. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент Ўқитувчи, 1985,

Internet saytlar:

1. Never.com
2. Riss.kr

⁴⁸ Eltazarov.J.D “O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro aloqasi va ko'chishi”- TOSHKENT-2008.

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA ADABIY TIL MEYORLARI VA SHEVALARNING
TO'TGAN O'RNI

Axrorova Munajat Oqnazar qizi
Samarqand Davlat Chet tillar Instituti
Email: munajat0886@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola koreys va o'zbek tilidagi adabiy til va ularning qo'llanilishi, shevalarning og'izdan og'izga o'tishda o'zgarishlarga uchrashi, koreys va o'zbek tilidagi tilidagi adabiy tilning ishlatilishi o'rganilib, ularning tildagi o'rni va ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: til, sheva, dialectizm, meyor, fonetik o'zgarish, ma'no o'zgarishi, matn, adabiy til, izohli lug'at.

Annotation: This article discusses the use of Korean and uzbek standart langage and their using, changes in dialects from mouth to mouth, the use of Korean and uzbek sandart languages and their importance in the language.

Key words: language, dialect, dialectism, norm, phonetic change, meaning change, text, standard language, explanatory dictionary.

Adabiy til tilning shevalaridan, oddiy so'zlashuv va jargonlardan farq qiladi. Davlat idoralari, radio va televideniye, o'quv muassasalari, madaniy muassasalar, gazeta va jurnallarda adabiy tilda ish yuritiladi. Adabiy til me'yorlari darsliklar, tilga oid qo'llanma va ilmiy asarlar, turli lug'atlarda o'z ifodasini topadi. Adabiy til davlat tili hisoblanadi va shu millat uchun umumiy bo'ladi. U qabul qilingan qoida-qonunlar bo'yicha ish ko'radigan. bir xalq yoki millatning barcha vakillari uchun umumiy bo'lgan, umumxalq yoki umummillat tilining yuqori shaklidir. Adabiy til yozuv bilan ta'minlangan, mutaxassislar tomonidan qayta ishlangan bo'lishi hamda ma'lum qoidalarga bo'ysunishi lozim. Dars, ma'ruza kabilar adabiy tilda olib boriladi.

Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari mavjud. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakli 3 ko'rinishga (me'yorga) ega:

- leksik-semantik ko'rinish (me'yor);
- fonetik-orfoepik ko'rinish (me'yor);
- grammatik ko'rinish (me'yor).

Adabiy tilning leksik-semantik me'yori so'z shakllarining ma'nolarini bilgan holda to'g'ri tanlash va o'rinni ishlatishni talab etadi. Masalan, koreys adabiy tilidagi 옥수수 (makkajo'xori) so'zi o'rnida shevaga xos bo'lgan 옥시기 so'zini qo'llash noto'g'ridir. Xuddi shuningdek, o'zbek adabiy tilidagi sigir so'zining o'rniga shevaga xos inak so'zini ishlatish mumkin emas. Adabiy tilning fonetik-orfoepik me'yori so'zlardagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni, urg'ularni to'g'ri qo'yishni talab etadi. Jumladan, dayra emas, daryo tarzida talaffuz qilish, shuningdek, atlas — atlas kabi so'z urg'usi bilan farqlanuvchi so'zlarda urg'uni to'g'ri qo'yish lozim. Koreys tilida ham 밤(tun)- 밤(yong'oq), 고기 (go'sht)- 괴기 kabi so'zlarni bunga misol tariqasida keltirib o'tishimiz mumkin. 밤 (tun) so'zida 아 tovushi qisqa talaffuz qilinsa, 밤(yong'oq) so'zida esa 아 tovushi cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Morfologik—sintaktik me'yor so'z o'zagiga qo'shiladigan

qo'shimchalarni qabul qilingan normaga asosan qo'llashni talab etadi. Masalan, koreys tilidagi **옵서** (keling) so'zidagi **-서** qo'shimchasi aslida buyruq shaklini yasovchi **-세요** qo'shimchasining shevadagi varianti hisoblanadi. Biroq biz adabiy tilda **옵서** emas **오세요** deb ishlatishimiz lozim. Bularga shuningdek **오데강-오셨습니까** **뵙** **갑서- 보고 가세요** kabi so'zlarni ham keltirib o'tishimiz mumkin. O'zbek tilida ham oldimiz emas, oldik; olopti emas, olayapti; bolala emas, bolalar tarzida so'zlarni ishlatish talab qilinadi. Har bir madaniy kishi adabiy til me'yorini buzmasligi shart. Chunki tilning tozaligi, ma'no jihatdan aniqligi va o'tkirligi uchun kurashda adabiy til muhim ahamiyatga ega. Paydo bo'lishiga ko'ra og'zaki adabiy til yozma adabiy tildan oldin vujudga kelgan. Buni xalq og'zaki ijodi namunalari — **lapar**, **qo'shiq**, **topishmoq**, **ertak** va **boshqalar** yaqqol ko'rsatadi. Yozma adabiy til ham boy merosga ega. Bizgacha o'tmish o'zbek adiblaridan katta adabiy meros qolgan. Bu borada Lutfiy, Navoiy, Bobur, Muqimiy va boshqalarning asarlarini eslash kifoya. Eski o'zbek tilida yozilgan asarlar orasida nasrga nisbatan nazm ustun turadi. Uning g'azal, muammo, ruboiy, masnaviy, tuyuq, muxammas, musaddas kabi ko'pgina xillari boy adabiy manbalarimizdir. Bular yozma o'zbek adabiy tilining rivojlanganligidan darak beradi. Koreys xalqi orasida ham koreys adiblari katta yozma adabiy meroslarni qoldirganlar. Bunday ijodkorlarga Yang Mi Kyong, Che Myong Hi, Kim Yong Jik, Kim Van Jinlarning adabiy asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Eski koreys tilidagi yozma manbalarda huddi o'zbek tilidagi kabi nasrga nisbatan nazm ustun turgan. Yozma adabiy til umumxalq so'zlashuv, ya'ni og'zaki til negizida vujudga kelgan, shu tilning yagona talaffuz normasi va yagona yozuv tizimida rivoj topgan, birlashgan tildir. Yozma adabiy til barcha mahalliy dialekt va shevalar uchun umumiy tildir. Adabiy tilning badiiy, publitsistik, ilmiy, rasmiy-idoraviy va so'zlashuv uslublari mavjud.

O'zbek adabiy tili uchun o'zbek tilining shevalari asos qilib olingan. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun Toshkent shevasining fonetik, Farg'ona shevasining esa morfologik xususiyatlari asos qilib olingan. Adabiy til leksikasi, grammatikasi o'zbek tilining uch asosiy shevasi—qipchoq, o'g'uz, qarluq shevalari asosida boyib boradi. Koreys adabiy tili uchun esa 1988-yilgi til haqidagi qabul qilingan qonunga ko'ra Seul shevasi asos qilib olingan hamda hozirgacha amalda foydalanilib kelinmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'zbek va koreys tillarida adabiy tilida adabiy til meyorlari hamda shevalarning ishlatilishi mezonlarida deyarli o'xshash tomonlar juda ko'p. Har ikkala tilda ham dialektlar foydalanilsa ham, adabiy til meyorlariga amal qilish va ularning qoidalarida istisnolarni deyarli uchratmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Koreys tili gramatikasi” Kim Chun Sig. Toshkent, 2007. –38-bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz» – T., 2016. 2-bet.
3. M.Asqarova, R.Yunusov, M.Yo'ldoshev, D.Muhamedova. O'zbek tili praktikumi. – T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2006. – 304 bet.
4. M.A.Hamrayev (2009). Ona tili. Toshkent. 2003. 56 – bet.
5. Ogura, S.(1940) The Outline of the Korean Dialects, Memoirs of the Research Department of the Tokyo Bunko No. 12, Tokyo: Toyo Bunko
6. 김병제(1988) “조선언어지리학시교”, 과학백과사전종합출판사
7. 김성근 “조선어방언학”, 조선어학전서 38, 사회과학출판사, 2005. 135p.



8. 교사용 지도서 문법. - 교육 인적 자원부, 2007. 78p.

TILSHUNOSLIKDA ONIMLARNING O'ZIGA XOSLIGI

G. B. Sattorova

Sam DChTI magistranti

Davlat tillarida nomlar asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Nomlar Sharqda ham, G'arbda ham qadim zamonlardan beri ko'plab olimlarning qiziqish mavzusi bo'lib kelgan, onomastika tilshunoslikning otlarni o'rganuvchi tarmog'i sifatida faqat XIX asrning 30-yillaridagina fan maqomini olgan. Onomastika yunon tilidan onomastike so'zidan olingan bo'lib, "nom qo'yish san'ati" degan ma'noni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu atama ikki ma'noda qo'llaniladi: 1. Ma'lum bir til, xalq tarkibida qo'llanilgan barcha atoqli otlarning yig'indisi. 2. Atoqli otlar, ularning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi. Onomastika fanining o'rganish ob'yekti nomning paydo bo'lish tarixi va nomlash motivlari, muayyan onimlar sinfidagi ularning rivojlanish tarixi, shakli va tabiati jihatidan har xil bo'lgan onimlarning o'tishlari, nomlar shakllanishining semantik va tipologik xususiyatlaridir [Qorayev: 88].

Onomastika yapon tilida 名称学 mey sho:gaku deyiladi. Onomastikaning bo'limi antroponomika jimmeigaku 人学 va toponimika 地名学 timeygakularning tadqiqi ham Yaponiyada keng ko'lamda olib borilmoqda.

Onomastika inson hayotining barcha sohalari bilan bog'liq. Shunday qilib, 1) tilshunoslikning asl tilda uzoq muddatli qo'llanish natijasida yoki boshqa muloqot tillaridan o'zlashtirilishi munosabati bilan xos nomlar, ularning kelib chiqish va o'zgarishi tarixini, shuningdek, ularning shakllanishi, rivojlanishini, qo'llanish shakllarini o'rganuvchi bo'limi; 2) tor ma'noda onomastika - har xil turdagi o'ziga xos nomlar (onomastik lug'at) [Enazarov: 51]. Atoqli nom (onim) (lotincha nomen proprium; onym - yunoncha onoma, onyma - ism, nom) - ob'ektni bir qator o'xshashlardan ajratib olishga xizmat qiladigan so'z, ibora yoki gap. Onomastik tadqiqot turli xalqlarning migratsiyalari va ilgari yashagan joylari, madaniy va til aloqalari, tillarning eng qadimiy holati va ular shevalarining nisbati usullarini topishga yordam beradi [O'rinboyev: 77]. Ijtimoiy vazifasi tufayli - ma'lum bir ob'ektni oddiy individuallashtiruvchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Turli nomlarning etimologik tushuntirishlari orqali tegishli nom shakllangan tilning tabiatini aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Onomastika zamonaviy tilshunoslikning o'ta muhim bo'limini, atamalar apparati, alohida vazifalar doirasi, tadqiqot tarixi va o'ziga xos tadqiqot usullari bilan jihozlangan murakkab ilmiy lingvistik fanni o'z ichiga oladi.

Onomastika - bu mutlaqo barcha turdagi to'g'ri nomlar, ularning shakllanish va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari haqidagi fan. Lingvistik onomastika asosan geografik, tarixiy, madaniy, etnografik, adabiy, sotsiologik elementni o'z ichiga oladi, bu nomlarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi, ob'ektlar va ularning nomlari bilan bog'liq an'analar onomastikani tilshunoslik chegarasidan tashqariga olib chiqadi, uni asosan lingvistik usullardan foydalanadigan avtonom fanga aylantiradi. [Qilichev: 52.].

Onomastikaning eng muhim bo'limlaridan biri - toponimikaga batafsil to'xtalib o'tamiz. Toponimika - geografik nomlarni, ularning kelib chiqishini semantik ma'nosi, rivojlanishi, hozirgi holati, imlosi va talaffuzini o'rganuvchi fan. Toponimika integral ilmiy fan bo'lib, ilmning uchta sohasi: geografiya, tarix va tilshunoslik ma'lumotlaridan foydalanadi [Enazarov: 89].

Toponimikaning semantik xususiyatlari leksikda ifodalanadi. leksema yasashda qatnashgan toponimlarning ma'nolari. Agar toponimlarning tarkibi intralingvistik omillar bilan belgilansa, bu holda

ularning semantikasi ko'p jihatdan ekstralingvistik omillarga bog'liq. Omillarga atrof-muhit (o'simlik va hayvonot dunyosi) hamda insonning iqtisodiy faoliyati, uning kosmogonik g'oyalari va estetik qadriyatlarini kiradi. Umuman olganda, toponimlarning semantikasida shaxsning tarixiy dunyoqarashi ochiladi deyish mumkin. Shunga ko'ra, semantik tamoyilga ko'ra, barcha toponimlarni ikki guruhga bo'lish odatiy holdir:

1) ob'ektning fizik-geografik xususiyatlarini aks ettiruvchi nomlar

2) shaxsning amaliy faoliyatiga bevosita aloqador nomlar. O'z nomining til xususiyatlariga ko'ra onomastika adabiy (adabiy til sohasi) va dialektalga bo'linadi; haqiqiy va she'riy (ya'ni, badiiy onomastika matnlar), zamonaviy va tarixiy, nazariy va amaliy) [Qorayev: 56].

Toponimikaning umuminsoniy sifatlaridan biri bir ob'ekt nomini boshqasiga o'tkazish qobiliyatidir. Qoidaga ko'ra, landshaft ob'ektlari, gidroob'ektlarning nomlari xronologik jihatdan eskiroqdir; ko'pincha bu nomlar o'tmishdoshlar tomonidan qoldirilgan. Ushbu mashhur diqqatga sazovor joylarga aholi punktlarining nomlari birlashtirilgan. Nomning ko'chish jarayoni toponimning o'zgarishiga olib keladi. Yangi ob'ektning murakkab nomida determinant yo'qoladi, ya'ni. mulkning nomi. Ekstralingvistik omil - nom ko'chirish toponimning lingvistik va struktur modeli bilan to'qnashadi. Toponimika bo'yicha material to'plashda toponimning kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarni ma'lumot beruvchilardan yozib olish nihoyatda muhimdir ya'ni toponimning tuzilishi va semantikasidan kelib Bundan tashqari, ular birgalikda, xalq psixologiyasini ham aks ettiradi. Oddiy, ko'pincha sodda shaklda xalq etimologiyasi odamlarning g'oyalari, orzulari, intilishlaridan dalolat beradi [O'rinboyev: 23].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Эназаров Т. Топонимларни этимологик тадқиқ қилишнинг илмийназарий ва амалий-усулий асослари (Туркий топонимлар мисолида), I китоб. – Тошкент, 2001.
2. Ўринбойев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. – Самарқанд: Зарафшон, 2003, 177.
3. Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Бухоро, 2009, 67 б.
4. Қораев С. Географик номлар маъноси.- Т.: Ўзбекистон, 1978, 11-б.
5. Qorayev S. Toponimika. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti". Toshkent, 2006, 318 b.

“ШАМОИЛИ МУҲАММАДИЯ” АСАРИНИНГ МУХТАСАР ЎРГАНИЛИШИ

Мавлонов Жамол

Самарқанд давлат Чет тиллар институти
Яқин Шарқ тиллари кафедраси 2-босқич
магистранти
e-mail: soqiy79@mail.ru

Аннотация: Буюк муҳаддис Имом Термизийнинг “Шамоили Муҳаммадия” асарини ўқиб ўрганиши нафақат мусулмон киши учун, балки ҳар бир инсон ўз ҳаёти учун амалда татбиқ қилиши аҳамиятлидир. Чунки Набий соллаллоҳу алайҳи васалламнинг сифатлари, ахлоқлари, одоблари ҳар замону ҳар маконда чин инсонийлик фитратини соф ҳолда сақлаб қолишида сабаб бўлади.

Калим сўзлар: шамоил, сийрат, имом термизий, ахлоқ, одоб, қўлёзма, шарҳ

Аннотация: Важно не только мусульманину прочитать и изучить труд великого мухаддиса Имама Тирмизи «Шамаили Мухаммадия», но и каждому человеку применить его на практике в своей жизни. Потому что качества, нравы и манеры Пророка, да благословит его Аллах и дарует ему мир, являются причиной сохранения природы истинного человечества в чистом виде во все времена и во всех местах.

Ключевые слова: Шамаил, Сират, имам Тирмизи, нравы, рукопись, комментарий.

Abstract: It is of great importance to read and learn the work of the great muhaddith Imam Tirmidhi "Shamoili Muhammadiyah" not only for a muslim but also for everyone to apply it in practice for their life. Because the qualities, morals, manners of the Prophet, may God bless him and grant him peace, are the reason for keeping the true human nature pure in every time and place.

Key words: Shamail, Sirat, Imam Tirmidhi, morality, mannerism, manuscript, commentary

“Шамоил” арабча “шамил” сўзининг кўплиги бўлиб, “фазилат”, “табиат”, “хулқ-атвор” маъноларини англатади⁴⁹.

Шамоил икки хил хусусиятни ўз ичига олади: 1. Ташқи сурат. 2. Ички сурат.

Ташқи суратга тана ранги, бўйнинг баланд-пастлиги, соч ҳолати, юриш-туриш, аъзолар каттакичкилиги ва шу кабилар киради. Ички сурат эса феъл-атвор: мулойимлик, сабр-тоқат, авф, ҳаё, меҳрибонлик ва ҳоказолардир⁵⁰.

Суфён ибн Уяйна раҳматуллоҳи алайҳ шундай деган:

عن سفيان بن عيينة رحمه الله ، أنه كان يقول : « إن رسول الله صلى الله عليه وسلم هو الميزان الأكبر ، فعليه تعرض الأشياء ، على خلقه وسيرته وهدية ، فما وافقها فهو الحق ، وما خالفها فهو الباطل »

“Ҳақиқатан, Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам энг катта мезондирлар. Ҳамма нарса у зотнинг хулқларига, сийратларига, йўлларига қиёсланади. Агар (бирон иш, ҳолат ёки фикр у зот суннатларига) мувофиқ бўлса, ҳақдир. Борди-ю, зид келса, ботилдир”⁵¹.

⁴⁹ Неъматуллоҳ И. Ал-Қомус арабча-ўзбекча қомусий луғат. Т. Фафур Ғулом. 2022 йил. Ж-2. Б-704.

⁵⁰ Раҳим З. Шамоили Муҳаммадия таржимаси ва шарҳ муаллифи. Т. “Ўқитувчи”. 2021 й. Ж-1. Б.-7.

⁵¹ Хатиб Бағдодий. Ал-Жомеъ ли-ахлоқир ровий ва одобис сомеъ. – Байрут. Дорул кутубил илмия. 1996й. Ж-1. Б-9.

Яъни, ҳар бир сўз, ҳар бир амал ва хулқ учун суннат ўлчов ҳисобланади. Уларнинг тўғри ёки нотўғрилиги суннат тарозисида тортилади. Кимнинг сўзи, хатти-ҳаракати, ўзини тутиши суннатга мувофиқ бўлса, у ҳақ йўлдадир. Кимники хилоф бўлса, унинг йўли нотўғри.

Китобнинг номи: “Шамоил” сўзи ишлатилганда инсоннинг хислатлари, сифатлари, ўзига хос хусусиятлари, ахлоқлари, одоблари ва шунга ўхшаш маънолар назарда тутилади. Фалончи гўзал шамоил эгаси дейилганда гўзал ахлоқ эгаси деган маъно тушунилади. Олийжаноб шамоил эгаси дейилганда олийжаноб ахлоқ эгаси деган маъно тушунилади. Шунинг учун Имом Термизий ва у зотдан бошқа аҳли илмлар Набий соллаллоҳу алайҳи васалламнинг сифатлари, ахлоқлари, одоблари ва шунга тегишли бўлган бошқа нарсаларни “Шамоил” деб номлаганлар.

Имом Термизийнинг “Шамоил” китоби турли номлар билан нашр қилинган. Нусха кўчирувчи хаттотлар, китобни ривоят қилувчилар ва олимлар унга турли номларни ишлатганлар. Бу номлардан энг машҳурлари “Шамоили Набавийя” ёки “Шамоил Набий соллаллоҳу алайҳи васаллам” бу номлар энг кўп ишлатилган. Баъзан “Шамоили Муҳаммадия”, “Шамоили Мустафо” номлари ҳам ишлатилади. Гоҳо олимлар китобни муаллифига ҳам нисбат бериб “Шамоил Термизий” ёки “Шамоил Термизийя” деб ҳам ишлатганлар⁵².

Китоб номи турли ҳил номланишига сабаб китобни умумий муқаддимаси йўқлигидир. Чунки муаллифларнинг китоб ёзишдаги одатлари китобни қайси мавзу борасида ёзилганини, китоб номи нима экани ва ундаги йўналишни баён қилиб сўнгра китобни бошлаганлар. Имом Термизий бўлса, басмала ва ҳамд айтгандан сўнг тўғридан тўғри китобни бошлаб кетган. Шундан сўнг китобни номи турли ҳил номлана бошлаган. Эҳтимол муаллиф ўзи ёзган нусхада китобни исмини ёзган бўлиши мумкин. Китобни ундан ривоят қилганлар ва нақл қилганлар китобни ўзлари турли ҳил номлаганлари учун аниқ бир ном қарор топмаган бўлиши ҳам мумкин. Модомики ҳозиргача бу ихтилоф бор экан демак, имом Термизий китобга қандай ном қўйганини ҳеч ким аниқ келтира олмайди.

Муҳаммад ибн Абдурауф Муновий (в.1031 х.) “Шамоили Муҳаммадия” китобига ёзган шарҳининг муқаддимасида шундай дейди: “Ривоят ва диroyт олими Имом Термизий (Аллоҳ таоло у зотнинг қабрини хушбўй мискнинг хидидан муаттар бўлган жаннат боғчаларидан қилсин) нинг “Шамоили Муҳаммадия” китоби ўз бобида тенгсиз ва тузилиш ва маълумотларни қамраб олиш жиҳатидан якка-ю ягонадир. Бирон киши бу китобга тенг бўлувчи ёки ўхшашини ёзмаган. Муаллиф китобни ёзишда гўзал услуб тутган. Ҳадис ва хабарларнинг чашмаси билан нақш солган. Ҳатто бу китоб Аллоҳ таоло тарафидан инъом этилган иқтидорнинг самараси деб ҳисобланган ва машриқ-у мағрибда донғи кетган”⁵³.

Мулла Али Қори китоб ҳақида; “Набий соллаллоҳу алайҳи васалламнинг ахлоқлари ва шамоиллари борасида ёзилган китобларнинг энг гўзали Термизийнинг Расулulloҳ соллоллоҳу алайҳи васаллам сийратлари борасида мукамал тарзда ёзилган жоме мухтасар китобдир. Бу китобни ўқиган киши у жанобнинг ташқи кўринишини ўқигандек ва ҳар бобда У зотнинг шарафли хислатларини кўрганадек бўлади”⁵⁴ деган.

Китобнинг кўлёзма нусхалари: Имом Термизийнинг шамоил китоблари ислом оламида энг кўп тарқалган китоблардан бири ҳисобланади. Термизийнинг “Аш-шамоил ан-набавия” (“Пайғамбарга

⁵² Ҳассон Ҳолий. Шуруҳ Мағрибийя. – Рибот, Манбаату Абу Рақроқ, 2012. – Б.30.

⁵³ Имом Муновий. Шарҳ Шамоил. – Миср, Матбату-л-адабия, 1317 х. Ж.1. –Б.2.

⁵⁴ Али қори. Жаму-л-васоил. – Миср, Матбату-л-адабия, 1317 х. Ж.1. –Б.2.

хос сийрат ва фазилатлар”) асари дунё миқёсида энг кўп нашр этилган асар сифатида ҳатто Гиннеснинг рекордлар китобидан ҳам ўрин олган⁵⁵.

Ўзбекистондаги “Шамоиلى Муҳаммадия” китобининг қўлёзма нусхалари қуйидагилар:

1. “Шамоил ун набий” хат тури: насх. Асар 880 йил 17 шаъбон ойи/ 1475 йил 24 декабрда кўчирилган. Шарқ қоғози. **باب** ва **حدثنا** сўзлари қизил сиёҳда ёзилган. Бошланиши йўқ. 1 б варақ четига бошқа шахс қўли билан басмала ва асарнинг ҳамд ёзилган қисми кўчириб қўйилган. Ён хошияси турли даврларда ёзилган қайдлар мавжуд. Ҳажми 64 варақ. Ўлчами: 17,5 х 12,5. Сақланётган жойи: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтидаги кутубхонаси

2. “Шамоил ун набий” Хат тури: насх. Кўчирилган йили 920/1510 (йилнинг охири рақами йўқ). Котиби: Мир Мавло ибн Нуриддин Аҳмад ибн Абдулжалил ал Қойиний. Китобнинг аввалидан бир неча варақ етишмайди (9 варақдан 15 варақ ораларидаги варақлар йўқолган). Ўрта Осиё қоғози. Хошияда кўплаб ёзувлар ва тушунтиришлар бор. Тушунтиришлар учун 12 та кўшимча варақлар жойлаштирилган. Муқовадаги муҳра (**مير عادل**) Мир Одил номи ёзилган. Ҳажми: 162 варақ. Ўлчами: 17х12. Сақланётган жойи: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтидаги кутубхонаси. № 2976⁵⁶.

3. “Шамоиلى Муҳаммадия” китобига ёзилган арабча шарҳ. Шарҳловчи исми номаълум чунки қўлёзманинг аввалги ва охири варақлари йўқ. Қўлёзма 639 варақдан иборат. Хар бир бетда 19 та қатор бўлиб, № 461 рақам остида сақланади. Ҳижрий беш юз эллик бешинчи ҳижрий санада Ушбу қўлёзма 555 ҳижрий санада ёзилган. Ўзбекистон мусулмонлари идорасидаги кутубхонада сақланади.

4. “Шамоиلى Муҳаммадия” китобига ёзилган форс тилидаги шарҳ. Шарҳловчи Абул Хайр Фазлуллоҳ ибн Рузибахондир. Бу китоб “Шамоиلى Муҳаммадия” асарининг форс тилига таржимаси бўлиб, аввал арабча матн ёзилган. Сўнгра ёзув остидан форсча ёзилиб, кенг услубда шарҳланган. Қўлёзманинг охириги 10 варақга яқин қисмига бир оз шикаст этган. Ҳаммод ибн Саламадан ривоят қилинган ҳадис билан тугаган бўлиб, тўлиқ ҳолатда эмас. 299 варақдан иборатдир. Китоб № 2351 рақам остида Ўзбекистон мусулмонлари идорасидаги кутубхонада сақланади⁵⁷.

5. “Шамоиلى Муҳаммадия” бошланиши бошқа нусхалардан фарқ қилмайди. Қоғози- Самарқанд тут қоғози. Нуқсон: қўлёзма таъмирталаб, йиртилган варақлари муқовадан ажралган. Кўчирилган вақти – 996/1588 й. Кўчирувчиси: Нрудавлат Муҳаммад ибн Нурҳайдар. 83 вв. 14х14. Сақланётган жойи: Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқ қўлёзмалари маркази

6. “Шамоиلى Муҳаммадия” бошланиши бошқа нусхалардан фарқ қилмайди. **باب** ва **حدثنا** сўзлари қизил сиёҳда ёзилган. Баъзи саҳифаларда **أخبرنا** сўзи ишлатилган. Матн ҳаракатларга эга. Пойгирлари мавжуд. Хошияда ва матн остида кўплаб тушутиришлар берилган. Хат тури – насх. Қоғози – шарқ қоғози. Кўчирилган вақти – 1007/1598 й. Ўратепада. Кўчирувчиси: Бобо ибн Мавлоно

⁵⁵ <https://xs.uz/uzkr/post/ginnesning-rekordlar-kitobidan-zhoj-olgan-termizij-alloma-haqida-bilasizmi>

⁵⁶ Муҳаммадаминов С. Термизлик олимлар асарларининг жаҳон фондларидаги қўлёзмалар каталоги. Тошкент. “Фан” нашриёти. 2018 й. – Б. 71.

⁵⁷ Мирҳамидов О. Имом термизийнинг “шамоиلى муҳаммадия” асаридаги ҳадисларнинг илмий таҳлили. БМИ. Т.И.И. 2015й. Б-29.

Боқий Туркистоний. 97 вв. 12,5x19,5. Сақланётган жойи: Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқ кўлёмалари маркази⁵⁸

Булардан ташқари яна бир қанча тошбосма ва кўлёмна нусхалари жаҳон кутубхона фондларида ва Ўзбекистон кўлёмналар сақланадиган марказларда мавжуд.

Имом Термизий “Шамоиلى Муҳаммадия” китобни диққат-эътибор билан тартибга солган ва аъло даражада тақсимлаган. Юқорида китобнинг 56 бобининг номи зикр қилинди. Унда Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам ҳақларидаги 415 ҳадис келтирилган. Имом Термизий китоб бобини тақсимлаш жараёнида Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам ҳаётларини ҳар тарафлама очиб беришга ҳаракат қилган. Китоб бобларини тартиблашда мантиқий кўриниш бор.

Имом Термизий китобни Набий соллаллоҳу алайҳи васалламнинг бўйларини, баданларини рангини, сочларининг қандайлигини, юзларининг васфи ва ундан бошқа ташқи тузулиш сифатлари билан бошлаган. Шундан сўнг Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг қилич, либослари ва шунга ўхшаш буюмлари ва ҳар хил жиҳозларига оид ҳадисларни келтирган. Ундан сўнг У зот соллаллоҳу алайҳи васалламнинг шамоил, ахлоқ, одоб ва муомалалари ва ибодатлари ҳақидаги ҳадисларни келтирган.

Муаллиф китобни Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламни тушда кўриш ҳақидаги боб билан яқунлади.

Китобдаги энг катта боб “Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг нонга кўшиб танаввул қиладиган нарсаларининг сифати ҳақидаги боб” бўлиб, 34 та ҳадисдан иборат. Энг кам ҳадис келган боб “Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламнинг уйдаги нафл намозлари ҳақида” бўлиб, унда бир дона ҳадис келтирилган.

Шу пайтгача “Шамоиلى Муҳаммадия” асарига 84 та шарҳ ёзилган, 6 тилда таржима қилинган, 16 та олим уни мухтасар қилган, 3 тилда назмга солиб шеърӣ тарзда тасниф қилинган.

Набий соллаллоҳу алайҳи васалламга эргашиш ва У зотдан ўрнак олиш шамоиллари ва ҳислатларини ўрганишдан келиб чиқади, чунки У зотга эргашиш, йўлларида изма-из юриш, ҳидоятларини лозим тутиш фақат шамоилларини ўрганиб, сийратларини билиш орқали амалга ошади. Шунинг учун ҳам Набий соллаллоҳу алайҳи васалламнинг шамоил-у сийратларини ўрганиши шарт ва лозим.

Шамоилнинг яна аҳамиятли томони шундаки, киши унда Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи ва саллам сифатларини кўради, у зотнинг Аллоҳ билан муносабатлари, оила аъзолари, саҳобалари билан муомалалари қандай бўлганини билади, махфий ва ошқора ҳолатларидан, фаровон ва қийин дамлардаги аҳволларидан воқиф бўлади. Шамоилни ўқиган киши Набий алайҳиссалом уйкудан қандай турганларини, кулги ва йиғиларини, юришларини, кундузги ва тунги ибодатларини, қандай таом еб, ичимлик ичишларини билади. Суннатга амал қилиш, Ислom динининг туб моҳиятини англаш истагидаги ҳар бир мўмин банд шамоилни ўрганиши зарур. Чунки Расули акрам Ислom дини йўл-йўриқларини муборак ҳаётларида мукамал кўрсатиб, ўрнак бўлганлар. Комил мўмин, етук раҳнамо, масъулиятли ва меҳрибон оила бошлиғи қандай бўлишини ўргатганлар.

⁵⁸ Қориев О. Термизлик алломалар асарларининг кўлёмналари каталоги. Тошкент. “Munis desing group” босмаҳонаси. 2015 й. – Б. 148.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Раҳим З. Шамоили Муҳаммадия таржимаси ва шарҳ муаллифи. Тошкент. “Ўқитувчи”. 2021 й.
2. Чўтматов Ж. “Имом Абу Исо Термизий” Тошкент. Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси 2019 й.
3. Неъматуллоҳ И. Ал-Қомус арабча-ўзбекча қомусий луғат. Тошкент. Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2022 йил.
4. Одилжон Н. Ан-Наъим арабча-ўзбекча луғат. Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти 2003 йил.
5. Аминов Ҳ. Сунани Термизий шарҳи. Тошкент. Ирфон нашр. 2021й.
6. Имом ал Божурий. Ал Мавоҳибул ладуния алаш шамоилил Муҳаммадия. Мадинаи мунаввара. Дорул юср матбаа. 2015 й.
7. Юсуф ибн Исмоил Набаҳоний. Васоилул вусул ила шамоилир росул. Жидда. Дорул минҳож матбаа. 2004 й.
8. Шайх Сулаймон Ажилий. Ал мавоҳибул Муҳаммадия би шарҳи шамоили Муҳаммадия. Байрут. Дорул кутубил илмия. 2015 й.
9. Имом Миракшоҳ. Шарҳу шамоили Муҳаммадия. Байрут. Дорул лубоб матбаа. 2019 й.
10. Мулло Алиюл Қорий. Жамъул васоил фи шарҳи шамоил. Риёз. Дорул ибн Қаюм матбаа. 2018 й.
11. Шайх Муҳаммад Фажротий. Маъдинул фазоил фи шарҳил шамоил. Байрут. Дорул кутубил илмия. 2021 й.

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA DEHQONCHILIKKA OID MAQOLLARNING SEMANTIK AHAMIYATI VA TEMATIK KLASSIFIKATSIYASI

Ramazonova Mahzuna Beg'am qizi

SamDCHTI magistranti

ramazonovamahzuna@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada koreys va o'zbek tillarida dehqonchilikka oid maqollarning semantik ahamiyati tahlil qilinib, ushbu mavzuga oid maqollarning tematik klassifikatsiyasi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *dehqonchilik, semantika, lingvostatistika, klassifikatsiya, sinonimiya, antonimiya, parafraza.*

Abstract: *The article analyzes the semantic significance of proverbs about of farming in Korean and Uzbek, and discusses the thematic classification of proverbs related to this group.*

Keywords: *Farming, semantics, linguostatistics, classification, synonyms, antonyms, paraphrasing.*

Bir necha ming yillar davomida madaniyat va til almashinilishi faol ravishda amalga oshirilib kelingan koreys-o'zbek xalqining maqollari til o'rganuvchilar uchun ushbu tadqiqotning foydasi albatta bo'ladi deyish mumkin. Koreys xalq maqollarining shakli yoki mazmuni o'zbek xalq maqollari bilan o'xshash tomonlari ko'p bo'lib, o'xshamaydigan tomonlarini ham bir qancha topishimiz mumkin. Har bir davlatning maqollarining paydo bo'lishi va hozirgacha yetib kelishi jarayonida o'zgarishlar ham bo'lgan albatta. Biroq, maqolning millat madaniyatining o'ziga xos tomoni ekanligini inobatga olib qaraydigan bo'lsak. Har bir madaniy o'zgarishga ko'ra maqollarning ham o'zgarib shakllanib borganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Shu sababdan ikki mamlakatning madaniyati va tilining farqli jihatlarini aniqlay olsak maqollarning mazmunini to'liq tushuna olishimiz mumkin bo'ladi. Shunga ko'ra maqollarni to'g'ri tushunib olish uchun kishilar muloqotga kirishganidagi fikrlash usuli, so'zlash usuli, til ifodalash usuli, til shakllanishining asosi yoxud tarixi va boshqalar haqida avvalo umumiy tushunchaga ega bo'lishimiz lozim. Maqollar bizning jamiyatimizda yo'q bo'lishi mumkin bo'lmaydigan darajadagi muhim o'ziga xos til shakli hisoblanadi. Maqollar shaklan qisqa bo'lsada, ko'p ma'nolarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda har bir millatning xususiyati, qadriyati aks ettirilib millatning tarixi va madaniyatini nafaqat o'z ichiga oladi balki kishilar hayoti haqidagi qarashlar, hayot tarzi usuli va fikrlash usullarini o'zida mujassam etadi.

Shuning uchun har bir mamlakatning tilini chuqur o'rganmoqchi bo'lsak albatta shu davlatning maqollarini yaxshi o'zlashtira olishimiz kerak. Til madaniyati va tarixining ildizi, millatlar madaniyatining tirik gavhari-maqollar hisoblanadi. Turli xil sohalardagi maqollar orasida dehqonchilikka oid maqollar eng ko'p qismni tashkil etadi. Oziq-ovqat insoniyat uchun eng muhim narsa bo'lib, jamiyatda ilmiy texnologiyalar rivojlanayotgan hozirgi davrga kelib ham dehqonchilik hanuzgacha muhim o'rnini saqlab kelmoqda. O'tmishda dehqonchilik asosidagi jamiyat hukmdorlari ham barchasi dehqonchilikni mamlakatning asosi sifatida belgilab, davlatni boshqarib kelganlar. Dehqonchilikni qadimdan insoniyatning tiriklik manbayi hisoblanib, o'tmishda ko'p bora ozuqa yetishmaslik holatlar sodir bo'lganligi sababli dehqonchilikni rivojlantirish insoniyatning tirikligi uchun bajarilishi kerak bo'lgan asosiy vazifa hisoblangan. Bir necha ming yillar davomida amalga oshirilib kelingan dehqonchilik faoliyati jarayonlarida davomiy izlanishlar olib borish orqali yetarlicha dehqonchilikka oid tajriba va bilimlar yig'ilib kelingan va

ushbu muhim jarayon til orqali avloddan avlodga yetkazilgan. Bunday jarayonda tabiiy ravishda dehqonchilikka aloqador maqollar ko'plab paydo bo'lgan deyish mumkin. Dehqonchilik haqidagi maqollar dehqonchilik hayotidan olingan tajriba va tasavvurlarni o'z ichiga olib mazmunan boy qisqa hajmdagi til manbasi sifatida bizgacha yetib kelgan.

Koreys va o'zbek tillarida dehqonchilikka oid maqollarning semantik ahamiyati haqida so'z borarkan, avvalambor maqollarni o'rganishning asosiy sabablarini sanab o'tish lozim. Bunda koreys tilshunosi Kim Von Ju quyidagi sabablarni sanab o'tadi: 1. Maqollar tilning bir parchasi; 2. Maqollarni o'rganishning ahamiyati ular orasidagi semantik bog'liqlik bilan izohlanadi. Shuningdek, Kim Von Ju maqollarning semantikasini o'rganishda asosiy aspektlarni yoritadi.

Maqollarning matnda va suhbat chog'ida qo'llanilishi va ma'nosi jihatdan o'rganilishi. Bunda maqollarning adabiyotda va matbuotda ishlatilishi hamda maqollarning folklorning ajralmas qismi sifatida o'rganilishi haqida yoziladi. Maqollarning lingvistik nuqtai nazardan tadqiq etish ularning leksiko-semantik ahamiyatini ochib berishni taqazo etadi. Koreys va o'zbek tillaridagi dehqonchilik guruhiga mansub maqollarning semantik ahamiyatini berishda O'zbek xalq maqollari va 표준국어대사전 manbalaridagi maqollardan foydalanildi. Koreys tilidagi dehqonchilik guruhiga mansub maqollarning semantik ahamiyatini ko'rsatish uchun avvalo maqollarning paydo bo'lishi asosida yotgan dinning ahamiyati izohlandi. Bunda Konfutsiy ta'limotidan olingan va keng ko'lamda iste'molga kirgan hikmatlar xalq durdonalaridan ham o'rin olganligi isbotlandi. Ijobiylik va salbiylik jihatlari hisobga olinganda koreys tilidagi ushbu guruhga kiruvchi maqollarning aksariyati ijobiy chunki mantiqiy jihatdan dehqonchilik tushunchasi bilan bog'liq maqollarda ijobiylik jo'sh urishi insonni ajablantirmasligi kerak. Shuningdek, sinonimik juftlari mavjud va parafraza yo'li bilan hosil bo'lgan maqollar ham aniqlandi. Shu bilan birga, koreys maqollarida antonimlardan juda mohirona foydalanigani ularning semantik ahamiyatini yanada oshirganini e'tirof etib o'tish lozim. O'zbek tilidagi dehqonchilik guruhiga oid mansub maqollarning semantikasini yoritish maqsadida maqollarning sinonimik, antonimik juftlari, parafraza yo'li bilan hosil bo'lgan maqollar, ijobiy va salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan maqollar aniqlandi. Ushbu semantik bo'linish natijasida, sinonimik juftlarga ega va parafraza yo'li bilan hosil bo'lgan maqollar, ijobiy va salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan maqollar soni ko'pchilikni tashkil etishi aniqlandi. Shuningdek, o'zbek maqollarining qadimiy yozuvlarda va asarlarda ishlatilganligi keltirildi. Bular jumlasida, "Alpomish" va "Ravshan" dostonlari. Mahmud Ko'shg'ariyning "Devoni lug'oti turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", O'rxun-Enasoy obidalari va boshqa asarlar kiradi.

Phraseological phrase refers to frozen phrases that have a completely different meaning than their original meaning. Phraseological expressions and proverbs have common and different aspects, for example, a phraseological phrase is a phrase that is no less than two words and means other than its original meaning, while a proverb is a collection of hardened words left by our forefathers or wisdom. It is said to contain metaphoric compounds.

Methodology. An idiomatic expression is an expression that has been hardened into a new meaning different from the original meaning and has been used. Idioms and proverbs are included here. An idiom is an expression in which two or more words are used together to have a completely different meaning from the original meaning, and a proverb refers to a figurative expression containing the wisdom of ancestors passed down from time immemorial. If you use idiomatic expressions to talk about, you can see several effects.

First, using an idiomatic expression before starting a full-fledged story has the effect of focusing the attention. In addition, the person listening to the story was able to predict the future story of the presenter through the presented idiomatic expression, which is helpful in listening to the story. For example, by quoting a proverb, "There is a saying that gathering dust makes a great mountain," you will predict that the presenter will talk about savings and listen to what the presenter is saying.

Second, if you use idiomatic expressions when you finish a story, it gives the effect of simply summarizing it with one or two short words. For example, after giving a presentation on cooperation, if you conclude with a proverb, "Just as there is a saying that it is better to work together, difficult tasks can be easily accomplished if we join forces."

Third, since idiomatic expressions are not direct expressions, you can say what you want to say without hurting the listener's feelings when you convey what you want to say. For example, if you directly say "close the door" to a friend who does not close the door after entering the classroom on a cold winter day, you may hurt the friend's feelings. If you tell your friend, "Malaka has a long tail," using the idiom "long tail," your friend will not be offended and will close the door.

Since idiomatic expressions are used with different meanings from their original meanings, it is difficult to grasp the meanings with the meanings of individual words. Also, idiomatic expressions are expressions that are customarily used in everyday life, so you should not replace some words with the words you want. For example, the idiom «wide feet» means having a lot of friends, but if you replace 'foot' with 'hand', people will not understand. If you know the meaning, there are many more interesting idiomatic expressions. For example, I would like to look at the idiomatic expression «The bean pod is covered».

Discussion.

콩깍지가 썩었다.

It means falling in love with someone and not seeing them objectively and liking them unconditionally. If you have corneas in your eyes, you cannot see properly because of the corneas. This expression is used when you cannot see a person or object properly because your eyes are blocked because you cannot see anything.

말짱 도루묵이다.

It is an expression used when you have done something but the result has become useless. The origin of this is related to King Seonjo. King Seonjo first ate a fish named Muk during the war. King Seonjo, who ate the fish so deliciously, renamed it 'Sweet Fish'. King Seonjo, who returned to the palace after the war, said that he ate the 'sweet fish' he had enjoyed at that time, but it was too tasteless. So, this expression is said to have been suggested in the story that the disappointed King Seonjo said, «Let it be called Muk again».

진이 빠지다.

It's when you're doing it so hard that you're about to collapse. Gin is a sticky liquid that comes from the stems or barks of plants such as flowers. Plants dry up and die when the gin is gone. That's why when people talk about the tired situation after working so much that they faint, they say that they are exhausted.

Conclusion.

To sum up, by using phraseological phrase, description and expressiveness of language increases and helps in colorful expression of words. In addition, idiomatic expressions can be seen as a more economical use of language because new meanings are given by dividing or combining existing words.

References:

1. Altenberg, Bengt. 1998. On the Phraseology of spoken English: The Evidence of recurrent. Oxford.
2. Amanova N.N. 1963. Osnovi angliskoy frazeologii. Leningrad.
3. Soloduho, E.M. 1985. Problemi internacional'noy frazeologii. Kazan'.
4. 상면대학교 국제언어문화 교육원 교재 개발팀 조항록, 김은경, 김경희 (2019). 문화가 있는 한국어 4.알아 두면 유용한 관용 표현.77-84.
5. 법무부 출입국. 외국인 전책본부장 한 무근(2009).이민자를 위한 한국어와 한국문화.
6. V. Teliya, N. Bragina, E. Oparina. Phraseology as a language of culture: 1998.-55p
7. <http://www.dracwon.co.kr>.
8. <http://koreanbooks.darakwon.co.kr>
9. <http://7universum.com/en/philology/item/11938>

“TAKETORI MONOGATARI” ASARIDA O‘ZIGA XOS KONSEPTLAR TAHLILI

Jalolova Laylo Shavkatovna

*Samarqand davlat chet tillar instituti, Sharq tillari fakulteti. 2- kurs talabasi.
laylojalolova@icloud.com*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yapon folklorshunosligi asosida vujudga kelgan “Taketori monogatari” asaridagi tabiatga oid konseptlar, ularga nisbatan tarixiy va diniy qarashlar o‘rganilgan. Shu bilan birga, tabiatga oid konseptlarning asar syujetini tashkil qilishdagi roli yoritilgan. Yapon adabiy janri hisoblangan monogatari va ular asosidagi milliy yapon estetik qadriyatlar tasviri keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *konsept, kyu kanazukai, monogatari, Oy, bambuk daraxti, Fuji tog‘i, budda piyolasi, ramz(simvol).*

Abstract: *In this article, the concepts related to nature in the work “Taketori monogatari”, which was created on the basis of Japanese folklore studies, as well as historical and religious views on them are studied. At the same time, the role of concepts related to nature in organizing the structure of the work is highlighted. Monogatari, considered a Japanese literary genre, and the national Japanese aesthetic values based on them are described.*

Keywords: *concept, kyu kanazukai, monogatari, Moon, bamboo tree, Mount Fuji, Buddha bowl, symbol.*

Аннотация: *В данной статье исследуются понятия, связанные с природой в произведении “Такэтори моногатари”, которое создано на основе японских фольклорных исследований, а также исторические и религиозные воззрения на них. При этом выделяется роль понятий, связанных с природой, в организации структуры произведения. Описаны моногатари, считающиеся японским литературным жанром, и основанные на них национальные японские эстетические ценности.*

Ключевые слова: *концепция, кю каназукаи, моногатари, луна, бамбуковое дерево, гора Фудзи, чаша Будды, символ.*

KIRISH

“Taketori monogatari” asarining o‘ziga xos tushunchalarni anglatadigan va boshqa asardan farqlanishiga sabab bo‘ladigan konseptlari mavjud. Har bir asar o‘z konseptlariga ega bo‘lib, asardagi asosiy g‘oyani shakllantirishga xizmat qiladi. Konsept so‘zi lotincha “conceptus” – tushuncha so‘zining kalkasidir. Konsept ikki tomonlama xususiyatlarga ega bo‘lib, madaniyat konsept ko‘rinishida insonning ongiga kirsa, ikkinchi tomondan, inson konsept orqali madaniyatga kiradi. Yapon milliy konseptlari o‘ziga xos bo‘lib, uning madaniy urf – odatlari, estetik qadriyatlari zamonaviy adabiyotning badiiy matnlarida sezilib turadi. Yapon madaniyati va dunyoqarashida inson ichki dunyosining universal emotsional konseptlari muhim ahamiyat kasb etadi. “Taketori monogatari” asarida ham yapon xalqining milliy estetik madaniyatlarini hosil qiladigan konseptlar bo‘lib, ular asosan tabiat bilan bog‘liq. Asardagi muhim konseptologik tushunchalar bular: fuji tog‘i, bambuk daraxti, Oy kabilardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

IX asr o‘rtasida bo‘g‘indan iborat kana yozuvining paydo bo‘lishi yapon adabiyotida ijod qilish imkoniyatini kuchaytirdi. Aynan o‘sha davrda yapon adabiyotida ona tilda yozilgan monogatari atamasi

bilan nomlanuvchi hikoyaviy nasriy janr yaratildi. Bu janr keyinchalik adabiyotning alohida bir qismi bo'lib qoldi. Heyan davri yapon zodagonlar adabiyotida vujudga kelgan hikoyaviy nasrning ko'rinishi⁶².

“Taketori monogatari” asarining g'oyasi ostida ijtimoiy hayotdagi kamchiliklar, insoniy yuksak fazilatlar, adolatsizlikni qoralash, siyosiy davlat tizimi kabi g'oyaviy qarashlar yotadi. Asar nomi “Taketori monogatari” yoki “Okina no monogatari” deb nomlanadi. Okina bu asardagi Kaguyahimeni topib olgan va uyiga olib kelib otalik qilgan shaxsning ismi. Okina bu asardagi Kaguyahimeni topib olgan va uyiga olib kelib otalik qilgan shaxsning ismi. Asarning bosh qahramoni Okina chol deb hisoblaydiganlar ham bor chunki, asarda chol va kampirning farzandsizligi o'sha davrdagi jamiyatdagi mavjud bo'lgan hodisa va Kaguyahime oyga qaytib ketganida, ota va onasining xafa bo'lishi chin insoniy fazilatlarini ochib beradi. Horiuchi o'z tadqiqotlarida Okina personaji “Manyoshu” asarida ham uchrashini yozgan. Bu she'riy asarda Okina bambuk kesuvchi kishi to'qqizta samoviy qizlarni uchratishi va ularning hammasi ikki tomonlama bir-birlarini tushinishi haqida bayon etilgan⁶³. “Taketori monogatari” asariga ham o'sha she'riy asarning davomi sifatida ham qaraladi va bosh obraz Okina ham aynan she'riy asar qahramoni. Asarda Kaguyahime Oyga qaytishida Imperatorga maktub va abadiy hayotga sabab bo'luvchi dorini qoldiradi. Imperator dorini ichmay uni maktub bilan birgalikda Fuji tog'ida yoqib yuboradi. Kaguyahime ketganligi sabab abadiy hayot unga Kaguyahimesiz kerak emasligi va tasvirlay olmasligi sabab Fuji tog'ida yoqib yuboradi. Asarning oxirida Fuji tog'idan vulqon tutuni tutab turganligi aytilgan. Tarixiy hujjatlarda vulqon 864-yildan tutashni boshlagan ekan. 905-yilda esa vulqondan tutun chiqishi to'xtaganligi yozilgan. Demak, asar 864-905-yillarda oralig'ida yozilgan⁶⁴.

Asardagi Kaguyahime Imperatorga abadiy hayot baxsh etuvchi dori qoldiradi o'sha dorining nomi “fushi” (abadiy hayot) bo'ladi, dorini Imperator tog'da yoqib yuborgani uchun o'sha tog'ning nomi keyinchalik Fuji deb nomlanadi. Qadimda yaponlar uchun Fuji tog'i muqaddas ibodat va e'tiqod qilinadigan joy bo'lgan. Bu tog' yuksak hayrat va e'tiqod ramzi bo'lib kelgan. Fuji tog'i sig'inish uchun muqaddas joy bo'lgan, hamda yapon xalqining tabiatga bo'lgan qarashlariga ijobiy ta'sir etgan. “Manyoshu” asaridagi she'rlarning birida qor bilan to'qnashayotgan olovli vulqon xuddi “tirik xudoga” o'xshatilgan. Bundan tashqari, mashhur yapon

shoiri Matsuo Basho Zenning bir oyog'i shu dunyoda va ikkinchisi esa boshqa dunyoda ya'ni u Fuji tog'ida, uning kuch qudrati ham yuksak ma'nosidagi haykusi mavjud. Fuji tog'i buddizm va sintoizmning ramzi sifatida qaralgan va ulug'langan⁶⁵. Fuji tog'ining o'z xudosi mavjud bo'lib, Konohanasakuya deb nomlangan, bu ayol xudo bo'lib, yapon miflarida barcha vulqon va Fuji tog'ining xudosi deb qaraladi. Konohanasakuyaning ramzi navqiron hayot va sakuradir. Yapon xalqi uchun go'zallik ramzi Fuji tog'i va sakura ekanligining asosiy sababi bu yapon milliy qadriyatlari va ularning dini, mental dunyoqarashi va o'z e'tiqodlarida aks topganligidir.

Asardagi Oy konseptiga oid bir necha qarashlar mavjud. “Taketori monogatari” dagi Oy dunyosi abadiy hayotdir, boshqa tomondan esa Yerdagi hayot jirkanch deb atalib, Buddizm va Daoism ta'limotiga asosan “kitanaki tokoro” ya'ni “jirkanch joy” deb nom olgan. “Taketori monogatari” da Oy osmonda, bunga qarama-qarshi insoniyat hayoti Yerdaligi ideal tarzda tasvirlangan. “Taketori monogatari” asari o'z ichiga

⁶² Ивасита Мицую, Курода Юко. Хэйан дзидай моногатари рон(теоретическое исследование моногатари эпохи Хэйан). Токио: 2006.-С.104.

⁶³ Dube J.A., A Textual Analysis and Comparison of the Taketori Monogatari and Cupid and Psyche. The University of Columbia. 1996 year. 24 p.

⁶⁴ D. Keene The Tale of the Bamboo Cutter (Taketori Monogatari). 1999 year. 434-435 p.

⁶⁵ Franz Lidz., Mount Fuji: icon of Japan (Studies in Comparative Religion). Smithsonian Magazine.; 2023.

olgan materiallari va g'oyalari Buddizm yoki Xitoy klassik xarakteriga asoslangan Oy tasviri san'atning bir bo'lagidir. Yozuvchi asarni yozishining asosiy maqsadi Oy va insoniyat dunyosini taqqoslashdir. Asarda Oyning muqaddas hisoblanishiga sabab Oy odamlar uchun sig'inish, ibodat qilish joyi hisoblanadi. Qadimdan odamlar Oyga qarab bashorat qilishgan, odatda yapon xalqi uchun Oy vaqtning ritmi va boqiy omil bo'lib kelgan. "Taketori monogatari" asarining oxirida Kaguyahimening ortga qaytishini "Tsuki no miyako" ya'ni "Oy dunyosi" ga qaytishi tasvirlangan. Asarda aytilishicha, Kaguyahime jazolanish, gunohini yuvish uchun Yerga yuborilgan. Musaffo, boqiy, og'riqlarsiz va tashvishlarsiz hayot bilan Yerdagi qiyinchiliklardan va g'am-tashvishlardan iborat dunyo tasvirlangan. Noodatiy sifatlarga ega bo'lgan Kaguyahime, va kuch qudratga to'la Imperator tomonidan unga turmush qurish taklifi berilishi, insoniyat olamidagi ya'ni Yapon Imperiyasining jasoratli Imperatori tasvirlangan. Turli xil qiyinchiliklarga qaramay, Kaguyahime donoligi va g'ayritabiiy kuchi sabab o'z mamlakatiga qaytadi. Kaguyahime ota-onasi tomonidan ardoqlansa ham, Kaguyahime va inson tabiati namoyish etiladi. Kaguyahime o'z mamlakatiga qaytishini xohlamaydi aksincha, uning mehri tufayli insonlardagi adovat va adolatsizlik yo'q bo'lishiga ishonadi. Nanba Hiroshining tadqiqotiga ko'ra "Taketori monogatari" asarida real hayotdagi fantastik yoki romantik voqealar tasvirlanib qolmay, hamma kulgili va xunuk tasvirlar orqali ochiqcha tasvirlangan. Asardagi Fuji tog'i tabiat ramzi bo'lib, yapon madaniyatining ruhi hisoblanadi. Imperator ham Kaguyahime qoldirgan dorini yoqib yuborishi orqali tiriklik va o'limning fasllar o'zgarsada, tabiatda namoyon bo'lishi tasvirlangan. Muallif bu tasviri orqali Oydagi hayotda o'lim yo'qligini abadiylikni isbotlagan. 1873-yilgacha yaponiyaliklar Oy taqvimidan foydalanishgan, Oyning to'laligini "otsukimi" deb nomlashgan⁶⁶. Oy to'lin bo'lgan kechada Buddha Kaguyahimega ortga qaytishiga ruxsat beradi va Yerdagi ko'rgan kechirganlarini unutishini talab qiladi. Kaguyahime so'nggi marta ortga qarab, ota onasiga sokin yig'laydi. Aynan shu tasvirlar xalq orasida mashhur bo'lib, ushbu asar o'zgacha ruh bag'ishlagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

"Taketori monogatari" asarining asosiy xarakterli predmeti va hodisasi "ovoz" va "bambuk" bo'lib, bu haqida Gennette o'z tadqiqotlarida izlanish olib borgan⁶⁷. U tadqiqotda "Taketori monogatari" ning klassik folklorlik va to'qima ertak variantlarini solishtirgan, ularning farqlarini taqqoslagan hamda "ovoz" va "bambuk" konseptlarining o'zaro bog'liqligiga oid dalillar keltirgan. Klassik folklor asarlarning xususiyatlari:

- asosan voqea og'izdan og'izga o'tiladi;
- hayoliy fantastik va sehrgarlik kabi omillarni o'z ichiga oladi;
- aniq ko'rsatilgan muammo hal qilinishi kerak (Kaguyahimening oyga qaytishi);
- madaniy qarashlar va qadriyatlar asosida qurilgan bo'lishi kerak⁶⁸.

Folklorlik an'analariga mos ravishda yaratilgan asarlardan biri bu "Taketori monogatari" dir, ushbu asarning boshqa ko'rinishlari mavjud bo'lsa ham yuqoridagi qoidalar asosidagi syujetlardan tashkil topadi. Muallif nima sababdan ushbu asarni yaratganligini, qanday g'oya ostida vujudga kelganligini aytib o'tishi lozim. Asarda "bambuk" va "ovoz" konseptlari aniqlangan va ovozga nisbatan "kim gapirdi" Kaguyahimega nisbatan "kim ko'rdi" hamda Okina bambuk kesayotgan paytda chaqaloqning ovozi qay tarzda eshitgani, uni ko'rgani haqidagi hodisalar muammoga qo'yilgan. Ovozga nisbatan syujet tasvirlanib,

⁶⁶ <https://en.japantravel.com>

⁶⁷ Saito M. From Tale of Bamboo Cutter to Princess Kaguya: Metamorphoses of the tale in Manga and Beyond; Japanese Language and Literature; Vol.55 N1.; 2021.

⁶⁸ <http://quizlet.com/23074770/six> characteristics of folktales\anahata-adaro.livejournal.com

“kim gapirdi” savoli ostida hikoyaga bog‘liq holatlar keltirilgan. Bunda uchta bosqich bo‘lganligi taxmin qilingan:

- ichki olamda tasvirlangan matn;
- tashqi olam ta’sirida tasvirlangan matn;
- matn ichida matn tasvirlanishi.

“Taketori monogatari” asarida matn ichida matn paydo bo‘lib, tadqiqotchi Allenning fikrlariga ko‘ra aniq bir strukturaviy qolipga ega. Asardagi qahramonning xususiyatlari voqea markaziga aylanganini yoki voqealar qahramonlarni bir nuqtaga birlashtirganini monogatarining xususiyatlaridan ya’ni voqealar markazidagi personajning qay darajada ishtirokidan bilish mumkin. Aynan “Taketori monogatari” asari uchun yaratilgan mangalar “shoujo manga” deyiladi. Bunga sabab, voqealar markazida ayol obrazi turganligidir. Heyan davridagi ayollarning zakovati rivojlanganini, ularning savodxonligi va donoliklarini ko‘rsatib beruvchi asar sifatida talqin qilingan. Dube Kaguyahimeni ilhomlanib, “Sharqning ona qirolichasi” deb atadi. Kaguyahime “utsukushii” ya’ni “chiroyli, go‘zal” deb ta’riflandi, ammo asarda u sovuqqon, chiroyli ranglardagi kimonolar bilan o‘ralgan ideal ayol sifatida tasvirlanishini aytib o‘tadi.

Asarning nomi bilan bog‘liq bo‘lgan “bambuk” o‘simligi qadimdan yapon xalqi uchun boylik, katta omad, sog‘lik va yorqin kelajak ramzi bo‘lib keladi⁶⁹. Gennete tadqiqotiga ko‘ra, “bambuk” ya’ni “yog‘och” konsepti “kim ko‘rdi” savoli ostida tahlil qildi va masofa bilan bog‘liqlik jihatlarini muallif tartib bilan (strukturaviy) hodisani yoritganligini isbotlagan. Chol bambuk kesish bilan mashg‘ul vaqti ovozni qanday eshitganligi yoki masofalar qanchalik yaqinligini, voqealar ketma-ket ulanganini tabiiy vositalar orqali yoki tabiat orqali tushuntirgan. Asarda syujetlarni bog‘laydigan va turli mifologik xususiyatga ega, yapon milliy an’anasi asosidagi tabiatga oid omillar muhim ahamiyat kasb etgan. Tadqiqotchi Keene va Yoda o‘z ilmiy ishlarida “Taketori monogatari” asarining muallifi noma’lum ekanligini, bu asarni erkak kishi yozgan degan xulosaga kelishgan Chunki, tilshunoslik yuzasidan qaralganda, asarda kambun ya’ni xitoy yozuvini uchratishimiz mumkin o‘sha davrda kambun yozuvida faqat erkaklarning savodxonligi bo‘lgan.

Asar yozuvi tarixiy kana orfografik yozuvi asosida yozilgan bo‘lib, bu yozuv turi “rekishiteki kanazukai” (tarixiy yozuv) yoki “kyu kanazukai” deb nomlanadi. Ushbu yozuv “sei kanazukai” yozuvi asosida shakllangan degan qarash bor. “Kyu kanazukai” yozuvining xususiyatlari harflarning o‘qilish talaffuzi hozirgi yozuv bilan farq qilishidir. Masalan: wa -ha; ki-kyu; fu-yu kabi o‘qiladi. “Kyukanazukai” yozuvidan keyin paydo bo‘lgan yozuv “shin kanazukai” (yangi orfografik yozuv bo‘lib, hozirgi hiragananing orfoepik me’yoridagi yozuvidir. “Kyukanazukai” yozuvida faqat harflar boshqacha o‘qilibgina qolmay, grammatik vazifa ham bajargan. Masalan: hiragana alifbosidagi “nu” harfi (kyu kanazukai) eski yozuvda gap oxirida kelib, darak va inkor ma’nolarni bildirgan.

XULOSA

“Taketori monogatari” tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan ilk asar hisoblanadi. “Taketori monogatari” asari ham tarbiyaviy, siyosiy, ijtimoiy va ilk monogatari nomini olgan asardir. Har ikkala asarda tabiatga oidlik kuchli bo‘lib, jozibador ta’riflarga boy.

“Taketori monogatari” asaridan tanlab olingan konseptlarning har biri yapon madaniyatining shakllanishi, milliy estetikasini ko‘rsatib beradi. Milliy mentalitetning asosini tashkil etuvchi va yorqin milliy o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan konseptlar majmuasini aks etgan asardir. Odatda, bu kabi konseptlarni boshqa tillarda ifodalash va tahlil qilish murakkablikni keltirib chiqaradi. Asar to‘qima monogatari bo‘lsa

⁶⁹ <https://housing.com.news/>; Bamboo plant benefits: Vastu Shastra tips for keeping lucky.



ham uning g'oyaviy mazmuni, asardagi qahramon va voqelik orqali nimalar tasvirlanganligi haqida juda ko'p fikr va mulohazalar mavjud. "Taketori monogatari" asarida ijtimoiy, tarixiy kichik dunyoni yaratish mumkin. Asarning asrlar davomida o'qilishi hattoki unga ishonish yoki personajlar asosida yangilik yaratib, tarixga serjilo rang berish yapon milliy qadriyatlarini va tarixida o'chmas iz qoldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dube J.A., A Textual Analysis and Comparison of the Taketori Monogatari and Cupid and Psyche. The University of Columbia. 1996 year. 24 p.
2. D. Keene The Tale of the Bamboo Cutter (Taketori Monogatari). 1999 year. 434-435 p.
3. Franz Lidz., Mount Fuji: Icon of Japan (Studies in Comparative Religion). Smithsonian Magazine.; 2023.
4. Saito M. From Tale of Bamboo Cutter to Princess Kaguya: Metamorphoses of the tale in Manga and Beyond; Japanese Language and Literature; Vol.55 N1.; 2021.
5. <http://quizlet.com/23074770/six-characteristics-of-folktales> \anahata-adaro.livejournal.com
6. Ивасита Мицую, Курода Юко. Хэйан дзидай моногатари рон(теоретическое исследование моногатари эпохи Хэйан). Токио: 2006.-С.104.

INTERNET ILOVALAR

7. <https://www.washingtoninformer.com>
8. <https://housing.com.news>
9. <https://en.japantravel.com>



ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARNING XALQARO TALABLAR ASOSIDA
O'QITISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

Xayriniso Jo'rayeva Shavkat qizi
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti
"Xalqaro jurnalistika" yo'nalishi talabasi

Annotasiya: Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda pedagogning o'qitish masalasining bugungi kundagi ahamiyati, ta'lim olayotgan talaba-yoshlarning dars jarayonida olayotgan ko'nikmalarining qay holatda bo'lishi, pedagogning texnik ko'nikmalari, xalqaro baholash dasturlarini, yoshlarning ta'lim olishdagi global tendentsiyalarini va ta'limda zamonaviy va an'anaviy qiyoslanishlarni ko'rishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Metodika, innovatsiya, chet tili, pedagogik mahorat, texnik ko'nikmalar, Xalqaro baholash dasturlari, global tendentsiyalar, XTSK (Xalqaro Ta'lim Standart Klassifikatsiyasi)

Kirish. Zamon rivojlangani sari juda ko'plab sohalarda yosh-kadrlarning har jabhada o'rni ahamiyat kasb etmoqda. "XXI asr texnologiyalar asri" hisoblangani uchun barcha yo'nalishlar bo'yicha yetuk kadrlarni tayyorlash, ularning bugungi kungachabo'lgan ko'nikmasini shakllantirish va ommaga taqdim etishdek ma'suliyatli ish bupedagog ustozlarimiz qo'lidadir.

Hammaga ma'lumki, bugungi kunda eng rivojlangan davlatlarda tahsil olish yoshlar orasida tobora ommalashib bormoqda. Buning sababi esa, chet davlatlaridagi o'qitish tizimining mustahkamligi va yoshlarning bilim salohiyatini oshirishdagi eng ilg'or tizimdir. 1997-yilda XTSK (Xalqaro Ta'lim Standart Klassifikatsiyasi) asosida ta'lim olishning 7 bosqichi sanab o'tiladi va bu bosqich hozirgi kunda ko'plab davlatlarda ham qo'llanilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O'quvchi-yoshlarning qanday ta'lim olishi, ulargao'rgatilayotgan darslarning metodlari, innovatsiyalarida, avvalambor, o'qituvchi pedagoglarimizning o'rnibe qiyosdir.

Yosh avlodga zamon talablari asosida bilim berish uchun pedagog o'zining professional kompetentligiga ega bo'lishi kerak. Bu pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo'lgan, kasbiy va shaxsiy sifatlar yig'indisidir.

Xorijiy tillardan sharq tillarining o'rganilish metodlari bilan tanishar ekanmiz, bu metodlarning bugungi kundagi qo'llanilishi va uning talaba-yoshlar orasida qay darajada ta'sir qilishini o'rganib chiqish lozim. Avvalo, Chet til o'qitish metodi – deyilganda chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi ta'lim usullari yig'indisi” va ta'limning yo'nalishi” ma'nolarida qo'llanadi.

Til tajribasi termini Yevropa tillarida chop etilgan metodik adabiyotlarda deyarli uchramaydi, chunki rus (Rossiya Federatsiyasi nazarda tutiladi), ingliz, nemis, fransuz maktablarida yagona ona tili chet til o'rganishda hisobga olinadi. O'zbekiston yagona ona tili chet til o'rganishda hisobga olinadi. O'zbekiston maktablarida esa ona tili va ikkinchi tildan hamda o'rganilayotgan chet tilning o'zidan to'plangan yaxlit til tajribasi xususida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. [1]

Bugungi kunda yaxshi pedagog xodim talaba-o'quvchilarga til o'rgatishda quyidagilarga e'tibor berishi lozim.

1. Talabaga o'tilayotgan darslarda zamonaviy jihozlardan foydalanishi.
 2. Talabalarning ta'lim olayotgan vaqt davomida e'tiborini jalb etish maqsadida dars davomida turli xil qiziqarli metodlar orqali talabaning darsdagi olgan bilimini mustahkamlashi.
 3. O'tilayotgan dars mobaynida talabaning o'zlashtirgan bilimlarini so'rash orqali yanada mustahkamlash va "quloq solish" emas balki "ishtirok etish" mahoratini shakllantirishdan iborat.
- Bunday tuzilma davomida pedagog uchun texnologik jadval ham muhim ahamiyatga egadir.

Muhokama va natijalar. Pedagog faqat talabalarga dars beribgina qolmay, o'z ustida ham shug'ullana olishi lozim. Shundagina, o'tkazilayotgan darslar davomida ustozning mahorati ochib beriladi. Dars davomida pedagog zamonaviy texnologiya va metodlarni qo'llay olishi lozim. Bu orqali pedagog o'zi o'tayotgan dars mobaynida talabalarga fanning usullarini kengroq tushuntira oladi.

Shuningdek, o'tilayotgan darslar mobaynida ham talaba quyidagilarga egabo'lmog'i kerak.

1. Talaba o'tkazilgan dars davomida deductiv bilimlarni egallashi.
2. Mavzu bo'yicha o'z xulosa va mulohazalariga ega bo'lishi.
3. Olingan bilim va ko'nikmalarini ifodalab bera olishi.
4. Darslarda to'laqonli ishtirok etish orqaligina yanada ko'proq bilim va ko'nikmaga ega bo'lmog'i lozim.

Dunyoda tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalari talabalariga chet tillarni o'rgatish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borilmoqda: Umumyevropa CEFR talablari asosida talabalarga chet tillarni o'rgatishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish; o'qitish mazmuni, ta'lim texnologiyalari, nazorat obyektivligini kuchaytirish, auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limni tashkil qilish. [2]

So'nggi 20 yil davomida maktab, oliygoh yoshlari tahsil olayotgan ta'lim tizimida bir qancha susayishlar kuzatiladi. Buning asosiy sababi shundaki, bizning ta'lim tizimimizda ko'proqbudjet mablag'i uchun raqobat bo'lsa, chet el davlatlarida esa talabalar soni va ularning bilim salohiyatini yuqorilashga qaratilgan tizim ustunligidadir. Shuning bilan hozirgi talaba-yoshlarning qator ta'lim tizimi rivojlangan Angliya, Kanada, Yangi Zelandiya, Janubiy Koreya, Fransiya kabi davlatlarda o'qishi orqali ular bilim salohiyatini oshiradilar va chet el muhiti, urf-odatlarini, tarixini o'rganadilar. Bu orqali ular kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishi, yaxshi maosh topishi va o'z biznesini yo'lga qo'yishi mumkin.

Metodikaning asosiy tushunchalari – metod, usul, prinsip. Didaktika- nimani o'rgatamiz? o'qitish mazmuni hisoblanadi. Metodika – qanday o'rgatamiz? ta'lim usullari va metodlari demakdir. Metod – metodika tushunchasi grek-lotinchada "metodos-" "metodus" so'zidan olingan bo'lib, ma'lum maqsadga eltuvchi yo'llar, usul ma'nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma'nosini uchratish mumkin. "Metodika" atamasi tor ma'noda ta'limning konkret dars jarayoni bilan bog'liq tushunchani anglatadi. Mashg'ulotlarni rejalashtirish va o'quv materiallarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi.[3]

Xulosa. Albatta ko'p chet tilini bilish insonga katta marralarni egallashga yordam beradi. Yana shuningdek boshqa chet tillarini o'rganish orqali boshqa davlatlarning noyob adabiyotlari bilan tanishishi, ko'plab sohalardagi bilimlarini o'rganishi mumkin. Bu borada yunon faylasufi Aristotelilimli insonlar haqida "Ma'lumotli va ma'lumotsiz odamning tirik bilan o'lik o'rtasidagi farqibir xil. ",- degan ekan.



Xalqaro ta'limni o'rganayotganda ,albatta, iloji boricha o'zlashtirilgan bilimni faqat nazariy emas, amaliy mustahkamlash ham kerakdir. Ko'proq o'z bilimiga solishtirish orqali o'rganilgan bilim ko'nikmasi xotirada qolmasligi va tez unutilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun, bilim o'rganish davomida ko'proq turli xilusullar, metodlardan foydalanish o'rganilgan tilning mustahkamegallanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Chet tili o'qitish metodikasi Jamol Jalolov „0 ‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI „0 ‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI 4-5bet
2. TILLARGA IXTISOSLASHMAGAN OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TILI O'QITISHNING MAQSADI Karshiyeva Tursunoy Shodiyorovna, SamDChTI tayanch (PhD) doktoranti Karshiyeva Tursunoy Shodiyorovna, SamDChTI tayanch (PhD) doktoranti
3. CHET TIL O'QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY METODLAR
Zayniddin Sanaqulov, Baxromjon Jo'raboyev
ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021

O'zbek va koreys tillarida fe'l yasovchi qo'shimchalar turlari va ularning qiyosiy tahlili

Kamalova Shirin

SamDChTI o'qituvchisi

Shirinov Dostonbek

SamDChTI talabasi

Annotasiya: Ushbu ilmiy maqolada o'zbek va koreys tillaridagi fe'llar va fe'l yasovchi qo'shimchalar va fe'l yasalish usullari o'rganilib, ularning chet tillarni o'qitishdagi ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: morfologik usul, sintaktik usul, yasama fe'llar, qo'shma fe'llar mustaqil fe'l, yordamchi fe'llar, fe'l yasovchi suffikslar, prefikslar fe'llar, affiksatsiya, kompozitsiya.

O'zbek tilida so'z yasalishining bir qancha usullari bo'lib, shulardan quyidagi ikki usul asosiy va yetakchi usullar hisoblanadi: 1. Morfologik (affiksatsiya) usuli; 2. Sintaktik (kompozitsiya) usuli.

O'zbek tilida fe'l yasashning eng keng tarqalgan turi qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan, ya'ni affiksatsiya usuli bilan fe'l yasashdir. Bunday usul bilan fe'l bo'lmagan so'zlardan fe'l yasaladi. Masalan, sifat so'z turkumiga oid tekis so'ziga -la qo'shimchasi qo'shilishi natijasida tekisla fe'li, ot so'z turkumiga oid bo'z so'ziga -r (ar) qo'shimchasi qo'shilishi natijasida bo'zar fe'li, sen olmoshiga -sira qo'shimchasi qo'shilishi natijasida sensira fe'li, ravish so'z turkumiga oid bo'lgan kech so'ziga -k (-ik) qo'shimchasi qo'shilishi natijasida kechik fe'li, xayr undov so'ziga -lash qo'shimchasi qo'shilishi natijasida xayrlash fe'li, shildir taqlid so'ziga -a qo'shimchasi qo'shilishi natijasida shildir a fe'li yasaladi.

Koreys tilida ham asosan ikki xil fe'l yasalish usuli mavjud. Birinchisi, fe'llarga -치 qo'shish orqali. Masalan, 밀다()+치= 밀치다(), 넘다()+치=넘치다(). Ikkinchi usulda o'zbek tilida bo'lganidek boshqa turkum so'zlariga qo'shimcha qo'shish orqali fe'l yasaladi. Masalan, 밥- ovqat, 공부- o'rganish kabi ot so'z turkumiga oid so'zlarga -하다 qo'shimchasini qo'shish orqali 밥하다- ovqat qilmoq, 공부하다- o'qib o'rganmoq, sifat so'z turkumiga oid 밝다- yorug', 좁다- tor, 맞다- mos kabi so'zlarga -히, -추 qo'shimchalari qo'shilishi natijasida 밝히다- aniqlashtirmoq, 좁히다- rasmni yaqinlashtirib olmoq, 맞추다- o'rnatmoq, 철렁- ovozga taqlid so'z, 마둥마- tebranish bilan kabi ravishlarga esa -거리, -하다 qo'shib 철렁거리다- dumalamoq, 마둥마둥하다- kurashmoq fe'llari yasaladi.

Ammo ikkinchi usulda yana bir fe'l yasalish usuli borki unda qo'shimcha qo'shilgan so'z yangi ma'no anglatmaydi. Balki, gapdagi sintaktik vazifasini o'zgartiradi.

Ko'rinib turganidek o'zbek tilida fe'l yasash holati faqatgina boshqa turkum so'zlariga qo'shimcha qo'shgan holda amalga oshadi. Ammo fe'l so'z turkumiga oid so'zlardan yangi bir fe'l yasash imkonsiz. Chunki o'zbek tilida fe'ldan fe'l yasalmaydi. Yuqoridagi qo'shimchalarni orasida eng faol yasovchi qo'shimcha bo'lgan -la qo'shimchasi fe'l asosga qo'shilganda so'z yasovchi qo'shimcha emas, lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha hisoblanadi: sava- savala, quv- quvla, buk-bukla, opich- opichla, qashi- qashila kabi.

Koreys tilida esa buning aksini ko'rishimiz mumkin. Fe'l yasalish usullarining birinchisi ya'ni fe'l so'z turkumidagi so'zlarga qo'shimcha qo'shish orqali yangi fe'l yasalish holati va fe'llarga qo'shimcha qo'shib gapdagi sintaktik vazifasini o'zgartirish holati ham fe'l yasash deb qaralishi alohida ahamiyatlidir.

Koreys tilida fe'l yasalishining birinchi usulida fe'lga “-치-” qo'shimchasi qo'shib, boshqa ma'noli fe'lga aylanadi. Shuning uchun fe'l lug'aviy yasalish usuli bilan yasalgan hisoblanadi. Ushbu shaklga kiruvchi fe'llarga 걸치다- osmoq, 감치다- bulutli bo'lmoq, 놓지다- qo'yib yubormoq, 덮치다- hujum qilmoq kabilar ham kiradi.

Grammatikasiga qarab ikkinchi fe'l yasash usulida birinchidagi “-하다” oddiy fe'l sifatida qaralishi mumkin, lekin “-되다” bilan birga orttirma va majhul nisbatdagi fe'l hosil qilgani uchun uni affiks sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir. U 밥- ovqat, 공부- o'rganish, 생산- ishlab chiqarish kabi harakatli otlarga keng qo'shiladi va “qilmoq, bajarmoq” deb tarjima qilinadi. Koreys tilidagi ushbu qo'shimchar o'zbek tilidagi qilmoq va bo'lmoq fe'llariga to'g'ri keladi. Ammo o'zbek tilidagi ushbu fe'llar koreys tilidagi kabi fe'l nisbatlari yasamasligi bilan farqlanib turadi.

Ravishdan fe'l yasalganda ovozga taqlid yoki holatga taqlid so'zni fe'lga aylantirib -거리 qo'shilgan payt o'z xususiyatini yo'qotadi. Bunday qoida qo'llaniladigan ravish 4 bo'g'inli “기웃기웃/ 가웃가웃, 달랑달랑/ 덜렁덜렁, 넘실넘실/ 남실남실” kabilarni o'z ichiga oladi. Ammo bu qoida bir xil bo'lsa ham ikki bo'g'inli “땡땡, 졸졸” larga taalluqli emas.

To'rtinchi holda affiksning qo'shilishi gap qismlarini o'zgartirmaydi. Ammo ot so'z turkumidagi shaxs otlariga qo'shiladigan -님 kabi sintaktik tuzilishga ta'sir qilgani uchun u sintaktik hosila sifatida qaraladi.

Koreys tilida fe'l yasalishining yana bir muhim jihati 먹이다, 올리다, 깨뜨리다 kabi fe'llarning -이(리), -뜨리- qo'shimchalari o'timli fe'l yasaydi va 먹히다, 올리다, 깨지다 fe'llarining -히-, -이(리)-, -지- qo'shimchalari o'timli fe'llarni passiv fe'llarga aylantirishidir. Masalan:

요즘 나는 밥이 잘 먹히지 않는다. Bu kunlarda men yaxshi ovqatlanmayapman.

어머니는 동생에게 밥을 먹이신다. Onam ukamni ovqatlantiryapti.

요즘 나는 밥을 잘 먹지 않는다. Bu kunlarda men yaxshi ovqatlanmayapman.

동생이 밥을 먹는다. Ukam ovqatlanyapti.

Bir qarashda yuqoridagi -히-, -이- qo'shimchalari qatnashgan gaplar bilan ushbu qo'shimchalar qatnashmagan gaplar mazmuni bir xildek tuyilishi mumkin. Biroq, qo'shimchalar qatnashgan gaplarning -히-, -이- bilan ifodalangan ma'nosi ular qatnashmayotgan jumlaning ma'nosi bilan bir xil deyish qiyin. Chunki majhul va orttirma nisbat qo'shimchalari ham umumiy yakuniy qo'shimchalarga o'xshaydi. U bir vaqtning o'zida muntazam ravishda kelmasligi sababli fe'l hosil qiluvchi affiks sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

12. Erkaboyeva N. “O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami”, “Yosh kuch”-2019. 486 bet.
13. Turniyozov N. Matn lingvistikasi.-Samarqand,2005
14. 한국어 문법 1 대한민국 서울 커뮤니케이션북스 2005.
15. 남기심, 고영근. 표준국어문법-서울, 탐출판사, 2010. - 459 페.
16. Koreyscha-o'zbekcha lug'at. 30000 도서출판문예림 2009.
17. Kamalova, Shirin, & Nazarova, Maxliyo (2022). KOREYS TILIDA KO'MAKCHI FE'LLAR TASNIFI VA XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 24), 284-291.
18. Sh. Kamalova (2022). KOREYS TILIDA FE'LLARDA NISBAT KATEGORIYASI VA QO'LLANISH XUSUSIYATLARI. Ученый XXI века, (4 (85)), 10-13.



19. Kamalova Shirin, & Nazarova Maxliyo Ruzikulovna. (2023). COMPARATIVE TEACHING METHODS OF "ADJECTIVE DEGREES" IN THE KOREAN LANGUAGE CLASSES WITH UZBEK LANGUAGE. International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 34–38. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue03-07>

Foydalanilgan internet veb sahifalari

3. <http://koreanbooks.ucoz.ru>.
4. <http://www.Koreaaward.com>.

NUTQNING PAYDO BO'LISHI VA UNING AHAMIYATI

Nasimova Ozoda

*Samarqand davlat chet tillar instituti
Sharq filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Quyida sizga taqdim etilayotgan maqolada nutq va uning rivojlanish bosqichi haqida so'z yuriltilarkan nutqning asrlar davomida shakllanishi hamda qay darajada ijtimoiy hayotda muhimligi, davrlar osha rivojlanishi turli bosqichlarda amalga oshganligi haqidagina bo'lib qolmasdan uning fiziologik tomonlari haqida ham to'xtalib o'tildi.*

Kalit so'zlar. *Nutq, yozuv, grafema, fonema, ibora, gap*

Аннотация. *В представленной вам ниже статье при разговоре о речи и стадии ее развития, становлении речи на протяжении веков и ее значении в общественной жизни обсуждались также ее физиологические аспекты.*

Ключевые слово. *Речь, письмо, графема, фонема, словосочетание, предложение*

Abstract. *In the article below, when talking about speech and the stage of its development, the formation of speech over the centuries and its significance in public life, its physiological aspects were also discussed.*

Keys words. *Speech, writing, grapheme, phoneme, phrase, sentence*

Inson o'tmishda ham, hozirda ham umuminsoniy tajribadan foydalanishida keng imkon bergan eng muhim omil bu- mehnat faoliyati asosida rivojlangan nutq aloqasidir. I.P.Pavlov ta'kidlaganidek "Nutq harakatdagi tildir"⁷⁰. Faqat nutq faoliyati insonga mavhumlash va umumlashtirish imkoniyatini beradi, bu esa inson tafakkurining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Fikrni ifodalash vositasi bo'lgan nutq, ontogenezda rivojlanish jarayonida inson tafakkurining asosiy (lekin yagona bo'lmagan) mexanizmiga aylanadi.

Nutq-so'zlashuv shaklini amalga oshishini ta'minlaydigan fiziologik mexanizmlar (gapirish yoki yozish) jismoniy jarayonidir. Nutq - kishilar o'rtasidagi aloqa almashinuv vositasi, ma'lum qoidalar asosida yaratilgan til tuzilmasi, odamlar o'rtasida shakllangan muloqot shakli hisoblanadi. Lingvistik nazariyada ushbu tushuncha muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositasi bo'lib, ijtimoiy borliqning eng xarakterli ko'rinishiga ega bo'lgan umumiy til tushunchasi sifatida talqin qilinadi. Ensiklopediyada esa bu borada quyidagicha ta'rif beriladi: "Nutq – ma'lum qoidalar asosida yaratilgan til orqali odamlar o'rtasida tarixan shakllangan muloqot shaklidir. Nutq jarayoni, bir tomondan, til(nutq) vositasi orqali fikrni shakllantirish, ikkinchi tomondan, tilni idrok etish va uni tushunish kabilarni o'z ichiga oladi. Nutq og'zaki muloqot vosutasi hisoblanadi."⁷¹

Avvalo, nutq nima sababdan paydo bo'lganiga e'tibor qaratish lozim, sababi til munosabatini ochib berish lingvistik tadqiqotda qanchalik muhim ahamiyaga ega bo'lsa, nutq munosabati ham shunchalik muhimdir. Nutq birliklarining yuzaga kelishi bevosita so'z valentligi bilan chambarchas bog'liqdir. Nutq qachon va qay tarzda paydo bo'lganligi bizga ma'lum emas, biroq dastlabki davridayoq kishilar ibtidoiy

⁷⁰ Павлов И. П. Полное собрание сочинений / АН СССР. - Изд. 2-е, доп. - М. : Изд-во АН СССР, 1951 - 1954
Т. 3, кн. 2

⁷¹ Большая российская энциклопедия, 2015

to'lda jamolariga, urug' jamoalariga birlashib atrof-muhit tafsilotlariga e'tiborli bo'lishi kerak bo'ladi, natijada nutqqa bo'lgan ehtiyoj ham paydo bo'la boshladi.

Nutq masalasi nafaqat sistem tilshunoslikning muammosi balkim zamonaviy tilshunoslikning diaxron hamda sinxron bosqichida ham eng jiddiy muammo bo'lib qoladi. Negaki, tilshunoslikning o'ta murakkab va dolzarb muammosi sanalgan nutq masalasini umumnazariy tilshunoslikda mukammal va ob'yektiv hal qilib bo'lmaydi. Shunga ko'ra til va nutq dialektikasi jahon tilshunosligi fanining doimiy muammolaridan biri bo'lib qolaveradi – deydi tilshunos R.Rasulov.⁷²

Nutq - avvalo, tinglovchiga bo'lgan ehtiyojga asoslanadi. Biror kishi birinchi navbatda, boshqa shaxsning e'tiborini ma'lum bir narsaga jalb qilish uchun foydalanadi.

Dastavval, kishilar mimikalar ya'ni imo-ishoralar hamda belgilar orqali muloqot qilishdan boshladilar. Asboblardan foydalanish va ularni o'z qabiladoshlari bilan bo'lishish, ov jarayonlarida va boshqa holatlarda turli xil obyektlarga e'tibor berish uchun aynan mimikalardan foydalangan holda o'zaro axborot almashinib, o'zining holati, hissiyoti, ehtiyoji hamda talablarini tinglovchiga yetkazib berishgan. Keyinchalik esa noaniq yoki noto'g'ri ma'lumotlar tushunilishi qiyinchiliklar va turli anglashilmovchiliklarni yuzaga keltirishi oqibatida sodda, aniq va ravon nutqqa bo'lgan ehtiyoj ortib boravergan, shuningdek ushbu tushunmovchiliklar nutq paydo bo'lishiga turtki bo'lgan. Vaqt o'tgan sari esa mavjud bo'lgan tovushlar va signallar to'plamini kengaytirishga majbur bo'ldilar. Shu tariqa nutq paydo bo'lib asrlar davomida olimlar tomonidan sayqallanib, boyitilib kelinmoqda. Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy o'zining Geodeziya⁷³ nomli asarida fanlarning va sohalarining paydo bo'lishi, tarmoqlanib ko'payishi haqida so'z yuritarkan: - "Har bir fan inson hayotidagi zarur ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi"- deganidek, nutq ham noto'g'ri axborot almashinuvining oldini olish maqsadida paydo bo'lgan.

Nutqning rivojlanishi taxminiy ehtimollarga ko'ra quyigichadir: Murakkab kinetik nutq (taxminan 0,5 million yil oldin) - tana harakati yordamida ma'lumot uzatish; shu bilan birga, aloqa harakatlari va mehnat bilan bog'liq harakatlar bir-biridan farqlanmaydi; Kinetik nutq (imo-ishora tili) ko'proq farqlanadi (va endi u kar va soqovlar tomonidan faol qo'llaniladi); Ovozli nutq (100 000 yildan ortiq) - alohida so'zlar shaklida; Tasviriy piktografik yozuv (miloddan avvalgi 4000- yillar); Ideografik yozuv (ierogliflar yordamida) masalan, xitoycha "inqiroz" ieroglifi ikkita belgidan iborat: biri xavf, ikkinchisi imkoniyat degan ma'noni anglatadi; Aslida alifbo yozuvi (u qadimgi Finikiyaliklar tomonidan ixtiro qilingan va alifbo yozuvi nomini olgan va og'zaki nutq bilan chambarchas bog'liq: grafema (harf) fonemani (nutq tovushini) bildiradi.⁷⁴ Bulardan tashqari, kommunikatsiya, vizual muloqot ya'ni ko'zlar orqali aloqa, va boshqa turlari ham mavjud bo'lishiga qaramasdan har qanday nutq maqsadli amalga oshiriladi. Shuningdek, muloqot shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni yaratib, ularni amalga qo'llashdayordam beradi. Bundan tashqari nutq, tez yoki sekin, passiv yoki aktiv, baland yoki past, qo'pol yoki yumshoq, yorqin yoki tushunarsiz bo'lishi ham mumkin.

Bizning nazariy faoliyatimizni belgilovchi og'zaki belgining ob'ektiv xususiyati so'zning ma'nosi bo'lib u belgining shaxsda qanday namoyon bo'lishidan qat'i nazar, belgilangan obyektga munosabatlidir. Agar ma'no so'zning ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyatlarini o'zida mujassam etgan bo'lsa, unda shaxsiy ma'no uning mazmunining subyektiv tajribasidir".

⁷²[https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Umumiy%20tilshunoslik%20\(Ravshanxo'ja%20Rasulov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Umumiy%20tilshunoslik%20(Ravshanxo'ja%20Rasulov).pdf)

⁷³ <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-rayhon-beruniyning-geodeziya-faniga-qo-shgan-hissasi/viewer>

⁷⁴ Столяренко Л.Д., Самыгин С.И. Сто экзаменационных ответов по психологии. 2001

Jamiyat rivojlangan sari odamlar o'rtasidagi munosabatlar ham murakkablashadi, jamiyat rivojlangan sari nutq ham rivojlanib, murakkablashib boraveradi. Asrlar o'tib borgan sari nutq ham tilda barqarorlashib boraveradi. Ayniqsa, yillar o'tib yozma nutq rivojlangandan keyin esa og'zaki nutq o'zining eng yuqori darajasiga ko'tarildi.

Nutq munosabati haqidagi nazariyalar bizga A.Navoiy asarlaridan ma'lum bo'lib kelgan. Alisher Navoiy so'z(til birligi) sohibi ixtisos (so'zlovchi) tomonidan turli xil jilvalantirilishi mumkinligini bayon qiladi. "Muhokamat-ul lug'atayn" asarida ta'kidlanishicha so'z go'yo durdir. Durning joylashish o'rnini dengiz tubi bo'lsa, so'zning joylashish o'rnini ko'ngildir. Dur g'avvos yordamida dengiz tubidan tashqariga chiqarilib, jilvalantirilsa va g'avvosning qiymati javharni jilvalantira olish qobiliyatiga qarab belgilansa, so'z sohibi ixtisos tomonidan ko'ngildan tashqariga olib chiqiladi va notiqning qiymati so'z qo'llash mahoratiga uni jilvalantirish qobiliyatiga qarab belgilanadi.⁷⁵ Ko'rib turganingizdek so'zlashuv natijasida nafaqat so'zning qiymatini balki kishi imkoniyat darajasidan kelib chiqib so'z qo'llay olish mahorati orqali so'zlovchining ham qadr-qiymatini anglab olish mumkin. Zero, so'zning boyligi - odamning chiroyligi qabilidagi asrlar osha o'z qiymati yo'qotmagan fikrlar ham bejiz aytilmagan.

Ma'lumingizki, til va nutq paydo bo'lishi, shakllantirish va farqlanishi Vilgelm Gumboldt, F.De Sossyur, Gegel kabi olimlardan bir necha ming yillar ilgari buyuk mutafakkir A.Navoiy asarlarida o'z aksini topgan edi. Shuningdek, so'z paydo bo'lishi haqida juda ko'plab olimlar izlanishlar olib borishgan, xususan, Darwin, Svetlana Burlak, Alvin Liberman shular jumlasidandir.⁷⁶ Har bir kishining nutqi individual o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Binobarin, asosiy til unsurlari - lug'at tarkibi va grammatik qurulishi yakka shaxslarga tegishli bo'lmay, umiydir, ya'ni muayyan til jamoasiga taalluqli bo'ladi.

"Nutq kishi tafakkuri, uning ongi bilan chambarchas bog'liqdir" - deydi Abduvahob Mavdaliyev.⁷⁷ Nutq qo'llanish sohasiga qarab badiiy, ilmiy, rasmiy, publisistik nutq kabi shakllarga ega bo'ladi. Har qanday shaklda va har qanday holatda ham aniqlik, ifodalilik, ravonlik, soddalik, ta'sirchanlik eng muhim omillar bo'lib qolmog'i lozim.

O'zining yuksak ilmliligi bilan ma'lum va mashhur bo'lgan vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish naqadar ahamiyatliligi haqida shunday deydi: - "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'zlash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda bu haqidagi bilimlarning eng birinchisi jismlarga substansiya (narsalar) va aksidensiya (hodisalar)ga ism beruvchi nutq haqida ilmlar deb tasdiqlayman".

Inson nutqi faqat ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan tovushlarni ishlab chiqarish emasdir, shu bilan birgalikda nutqning moddiy tarafdin ham yuzaga kelishi haqidagi ma'lumotlar, albatta, turli izlanishlar natijasida ma'lum va mashhurdir. Nutqning tovush tomoni murakkab tartibga solingan bo'lib, nutq shakllanishining fiziologiya faoliyati bilan bog'liqdir.

Inson nutqini boshqa turlarning aloqa tizimlaridan ajratib turadigan asosiy xususiyatlari orasida, shubhasiz, artikulyatsion (ovozli) nutq hisoblanadi. Ovozli nutqdan foydalanish uchun nafasni nozik, ravon nazorat qilinish bir xil darajada muhimdir. Kishi nutqi tovushlar oqimi, tovush zanjiri orqali hosil bo'ladi. Bu oqim nutqning fonetik birliklari deb ataladigan alohida sigmentlarga bo'linadi.

Bularga, ibora(jumla), nutq, bo'g'in, tovush kiradi.

Nutqning qurilishi quyidagicha bo'ladi:

⁷⁵ E.Begmatov, A.Boboyev, M.Asomiddinova, B.Amirqulov "O'zbek nutqi madaniyati ocherklari" Toshkent. "Fan", 1988

⁷⁶ U. Sanaqulov, Tilshunoslik Nazariyasi

⁷⁷ O'ZME, Birinchi jild, Toshkent, 2000

*harf-> bo'g'in -> so'z -> so'z birikmasi -> gap -> qo'shma gap = nutq

*harf + harf = bog'in;

*bo'g'in + bo'g'in = so'z;

*so'z + so'z = so'z birikmasi;

*so'z birikmasi + so'z birikmasi = gap;

*gap + gap = qo'shma gap.

Ta'bir joiz bo'lsa, nutq qurilishida, avvalo, harflar birikib bo'g'inni, bo'g'inlar birikib so'zlarni, so'zlar birikib gaplarni, gaplar birikib esa qo'shma gaplarni hosil qiladi, bularning og'zaki shakli esa nutq (og'zaki nutq)ni yozma shakli bo'lsa matnlar(yozma nutq)ni hosil qiladi.

Til qurilishi qoidalari etnografik o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular ma'lum tildagi fonetik, leksik, grammatik va stilistik vositalar tizimi va muloqot qoidalarida ifodalanadi. Nutq insonning barcha psixik jarayonlari bilan chambarchas bog'langan. Inson nutqi xulq-atvorining lingvistik tomoni psixolingvistika tomonidan o'rganiladi.⁷⁸

Nutq xususiyatlari:

1. Nutq mazmuni - unda ifodalangan fikr, tuyg'u va intilishlar soni, ularning ahamiyati va voqelikka mosligi;

2. Nutqning tushunariligi - gaplarni sintaktik jihatdan to'g'ri qurish, shuningdek, tegishli o'rinlarda pauza qo'llash yoki so'zlarni mantiqiy urg'u yordamida ajratib ko'rsatish;

3. Nutqning ekspressivligi uning emotsional to'yinganligi, til vositalarining boyligi, rang-barangligidir. O'zining ekspressivligida u yorqin, baquvvat va aksincha, letargik (harakatsiz), kambag'al bo'lishi mumkin;

4. Nutqning ta'sirchanligi - bu nutqning o'ziga xos xususiyati bo'lib u boshqa odamlarning fikrlari, his-tuyg'ulari va irodasiga, ularning e'tiqodlari va xatti-harakatlariga ta'sir qilishdan iborat.⁷⁹

Norvegiyalik olimlar Are Brean va Geir Skeyening fikriga ko'ra, Homo Sapiens evolyutsiyasining dastlabki bosqichlarida nutqning paydo bo'lishidan oldin musiqiy tabiatning noaniq tovushlari: ritm, tembr, eng oddiy ohanglar va shunga o'xshash usullardan foydalangan holda muloqot sodir bo'lgan.⁸⁰

Mavzuni xulosalar ekanmiz, ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan nutqni puxta o'rganishimiz, ichki va tashqi ko'rinishiga, shakl va mazmuniga, lug'aviy boyligiga birday e'tibor berish va o'rinli hamda maqsadga muvofiq ishlatish kabi jihatlariga alohida e'tibor bermog'imiz lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Павлов И. П. Полное собрание сочинений / АН СССР. - Изд. 2-е, доп. - М.:Изд-во АН СССР,1951-1954Т. 3, кн. 2
2. Большая российская энциклопедия, 2015
3. www.ziyouet.uz.
4. Beruniy, "Geodeziya"
5. Столяренко Л.Д., Самыгин С.И. Сто экзаменационных ответов по психологии. 2001,

⁷⁸ Hotam Umurov, "Adabiyotshunoslik nazariyasi"

⁷⁹ Жинкин Н. И. Речь как проводник информации. — М.: Наука, 1982

⁸⁰ Большая российская энциклопедия, 2015)



6. E.Begmatov, A.Boboyev, M.Asomiddinova, B.Amirqulov “O’zbek nutqi madaniyati ocherklari”
Toshkent. “Fan”, 1988
7. U.Sanaqulov, Tilshunoslik nazariyasi
8. O’ZME, Birinchi jild, Toshkent, 2000
9. Hotam Umurov, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”
10. Жинкин Н. И. Речь как проводник информации. — М.: Наука, 1982
11. Большая российская энциклопедия, 2015

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI
OSHIRISH YO'LLARI

Radjabova Madinabonu Raimovna,

Samarqand davlat chet tillari instituti, Sharq tillari fakulteti 2-kurs talabasi.

E-mail: raimovna03@mail.ru

Annotatsiya : *Ushbu maqolada bugungi kunda ommalashib borayotgan sharq tillari ya'ni kores, xitoy, yapon va arab tillarining o'qitilishi borasidagi metod va muammaolar yuzasidan tahlil olib borilgan hamda nazariy va amaliy fikrlar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, ta'lim, metod, an'anaviy, noan'anaviy, interfaol, aqliy "hujum", og'zaki va yozma nutq, tanqidiy fikrlash, motiv.*

Abstract: *In this article, an analysis of the methods and problems related to the teaching of today's popular oriental languages, i.e. Korean, Chinese, Japanese and Arabic languages, and theoretical and practical opinions are presented.*

Keywords: *technology, education, method, traditional, non-traditional, interactive, mental "attack", oral and written speech, critical thinking, motivation.*

Аннотация: *В данной статье представлен анализ методов и проблем, связанных с преподаванием популярных сегодня восточных языков, т.е. корейского, китайского, японского и арабского языков, а также теоретические и практические мнения.*

Ключевые слова: *технология, обучение, метод, традиционный, нетрадиционный, интерактивный, ментальная «атака», устная и письменная речь, критическое мышление, мотивация.*

KIRISH

Hozirgi kunda yoshlarga shunday ta'lim-tarbiya berilishi kerakki, ular nafaqat ma'naviy merosimizni o'rganibgina qolmasdan, ular o'zlarining ilmlari va bir necha progressiv chet tillarni bilishlari bilan mamlakatni yanada rivojlantirishlari joizdir. Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy harakatlaridandir.

Ilm-fanni esa hozirda chet tillarni o'rganish orqali yanada mukammal egallash mumkin. Chunki, ilm va til o'rganish odamni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. O'sib kelayotgan avlodning har tomonlama barkamol bo'lishini ta'minlash uchun til o'rganishning ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlari birligini kuchaytirish zarurdir.

Bugungi kun til o'qitilishiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?

Yoshlarda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladigan ijodiy qobiliyatlarni o'stirib borish, fikrlashga undovchi, doimiy ravishda bilimlarini to'ldirib borish – darslar samaradorligining birinchi galdagi vazifasidir.

Fikrimizning eng oldingi qatoriga talabalarning til o'rganishdagi bilish jarayonini sursak bo'ladi. Bilish jarayoni shunday faoliyatki, u o'qituvchidan o'zganing faoliyatini tashkil qilishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Talabalarga dars davomida nafaqat yangi bilimlarni berish bilan kifoyalanib qolmasdan, ularda ilm olishga ehtiyojlarni (motiv) kuchaytirish, turli bilim manbalari bilan ishlashni, ularga o'z harakatlarini

rejalashtirishni yo'lga qo'yishni, bilish jarayoni harakatlari, operasialari haqida ma'lumotlar berishni, fikrni bir joyga to'play bilishni, maqsadni yo'naltira bilish, intizomlilikka, erishilgan natijani to'g'ri baholay olish ko'nikmasini shakllantirish muhimdir.

Talabalarning faolligini oshirish, ta'lim samaradorligini oshirish, talaba va o'qituvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, talabalarda erkin va ijodiy fukrlash ko'nikmalarini shakllantirish lozimligi, hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi.

**FAN BO'YICHA MAVZULARNI INTERFAOL
USULDA LOYIHALASH NAMUNASI**

Darsning mavzusi: Xitoy iyeroglifi kelib chiqish tarixi

Darsning maqsadi:

Talabalarga xitoy iyerogliflari xususiyatlari, uning kelib chiqish tarixi va oson o'rganish yo'llari haqidagi bilimlarni shakllantirish.

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: an'anaviy va interfaol metodlar.

Darsning rejasi:

1. Iyeroglif turlari haqida tushuncha.
2. Xitoy iyerogliflarining kelib chiqish tarixi.
3. Xitoy iyerogliflarining sharq davlatlari madaniyatiga bo'lgan ta'siri.
4. Xitoy iyerogliflarini oson eslab qolish yo'llari.

Darsning borishi:

I. Darsning dastlabki bosqichi quyidagi savollar asosida talabalarning "Xitoy iyerogliflarining kelib chiqish tarixi" mavzusining o'zlashtirilganlik darajasi aniqlanadi:

1. Iyeroglif tushunchasiga ta'rif bering.
2. Xitoy iyerogliflarining sharq davlatlari madaniyatiga bo'lgan ta'siri haqida gapiring?
3. Xitoy iyerogliflarining inson hayotiga bog'liqligi haqida gapiring.

I. Kichik guruxlarda ishlash.

II. Talabalarni kichik guruxlarga bo'lish asosida «Aqliy xujum» nomli interfaol metoddan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

III. «Aqliy xujum»ni qullashda quyidagi xarakterlik amalgah oshiriladi:

1. Guruxlarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarini bildirishlariga erishish.

2. Xar bir gurux tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag'batlanitirilib boriladi. Bildirilgan fikrlar orasidan makbulariga ballar qo'yiladi. Fikrlarning rag'batlantirilishi navbatidagi yangi fikrlarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Metodni qo'llashdan asosiy maqsadni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga undashdir.

III. Suxbat-munozarani tashkil etish.

IV. “Beshinchisi ortiqcha” metodi yordamida o‘zlashtirilgan bilimlarni mustaxkamlash.

Talabalarga quyidagi vazifani bajarish topshiriladi:

Berilgan tushunchalar ro‘yxatidan mavzuga taaluqli bo‘lmagan tushunchalarni aniqlang va ularni ro‘yxatdan chiqaring. Harakatlaringiz mohiyatini izohlang.

V. “Qarama-qarshi munosabat” metodi yordamida bilimlarni mustahkamlash.

Mazkur metod yordamida “Xitoy iyerogliflari mening xayotimda” va “Men xitoy iyerogliflari xayotida” mavzularida matn tuziladi. Eng muhim tushunchalar jadvalga kiritiladi. Har bir talabaga jadval blanki tarkatiladi.

№	Xitoy iyerogliflari mening xayotimda	Men xitoy iyerogliflari xayotida

VI. Darsni yakunlash. Jadvallar ygib olinadi va xar bir jadvalga ball kuyiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1 U.Tolipov, M.Usmonboyeva Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T.FAN. 2006 y.
2. N.Shodiyev. Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma’ruzalar matni. Samarqand, SamDU nashri, 2003.
3. Sh.O`roqov, Sh.Eshapo`latov Yangi pedagogik texnologiyalar. Uslubiy qo`llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2007.
4. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Yangi pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: 2006.
5. Sultanova L.A., Ziyamuhamedov J.T, Turatova A.M. Xitoy tili. (1 qism) - T. 2013y.
6. Saydaliev, T. K., Erkaev, E. T., & Djuraev, D. M. (2021). Review of abdulla kadiri's poetics in the novel " Days Gone By" in Russian translations. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 754-763.
7. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).

**BIR QISHLOQ TARIXI: SIJJAK QISHLOG'INING KELIB CHIQUVIDAN AFSONA
RIVOYATLARI VA XALQ ICHIDA SAQLANIB QOLGAN MAROSIMLAR**

Ilmiy rahbar: Sobitova Tojixon

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti

Raximberdiyeva Sevinch Sanjar qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi

Annotasiya: *Bu maqolada Sijjak qishlog'ining kelib chiqishi haqidagi afsonalar va oddiy xalq ichida qadimdan saqlanib qolgan urf-odat va marosimlar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar; *Sijjak qishlog'i, Navolisoy, Sijjaksoy, Qaynarsoy, Jarboshi Avliyo ziyoratgohi, Toli Buva masjidi, Qizkuydi Mingchuqur*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются легенды о происхождении села Сиджак и традиции и обряды, сохранившиеся с незапамятных времен среди простого народа.*

Ключевые слова; *Деревня Сиджак, Наволисой, Сиджаксой, Кайнарсой, храм Джарбоши Авлиё, мечеть Тولى Бува, Кизкуйди, Мингчукур*

Abstract: *This article discusses the legends about the origin of the village of Sijjak and the traditions and rituals that have been preserved from time immemorial among the common people.*

Keywords; *Sijjak village, Navolisoy, Sijjaksoy, Kaynarsoy, Jarboshi Avliyo shrine, Toli Buva mosque, Kizkuydi, Mingchukur*

O'zbekiston Respublikasidagi joy nomlari nihoyatda ko'p va rang – barang bo'lib, ular mazmunan boy hamda tarixiy sanaladi. Shunday manzarasi rang barang va ikkinchi Shveysariya nomini olgan go'zal joylardan biri bu Sijjak qishlog'idir. Sijjak qishlog'ining ma'nosi forscha “se”- uch, “jak”-jar ya'ni uch jar degan ma'noni bildiradi . Afsonalarda keltirilishicha bu qishloqni milodiy IX-XII asrlarda kelib chiqqan deyiladi lekin boshqa ma'lumotlarda esa bu qishloq juda qadimda milodiy II-III asrda kelib chiqqan deyilgan. Sijjak qishlog'i uch jar bilan ajralib turadi bular, Qaynarsoy, Navolisoy, Sijjaksoy . Har bir jar bilar turli xil ma'lumotlar bor. Bu qishloq qadimiy qishloqlardan sanaladi misol qilib 1960- yilda qishloq hududidan topilgan 2 humcha , oltinlar va bilak uzuk topilgan . Yu.F.Boryakov Xazinalarning kattaligi va turli xil tanga zarblari ahamiyati haqida gapiradi.Bu shaharda savdo va sudxo'rlik operatsiyalarining muhim ko'lami.Vaqt va taxminan – ko'p jihatdan uning savdo-iqtisodiy salohiyati.Bo'shatish kapitali ham bir xil bo'lmagan bilaguzuklarni o'z ichiga oladi Choch-Iloq hududida klado tarkibida bir necha uchraydi. Xuddi shunday kumush bilaguzuk XI tangalar bilan birga topilgan.XII asr Dukentda, Angren yaqinida va boshqa bezaklar bilan birga – Sijjakda, ustiga yozilgan hum ham topilgan . Humning ustiga yozilgan yozuvdan Sijjakda yashovchi xalqni kelib chiqishini so'g'd degan fikrga ham borish mumkin. Rivoyatlarda aytilishicha 7 hunarni mukammal bilgan joylarga shahar maqomi berilgan ekan va hozirgi Sijjak qishlog'i ham shahar deb ham atalgan. Yana rivoyatlarda shunday deyiladiki, bu qishloqda yasalgan qilichlar Bog'dod-u Qashg'argacha mashxur bo'lgan . Chunki bu yerda yasalgan qilichlar toshni ham kesgan. Bu haqida Yu.F. Boryakov “Toshkent vohasining tarixiy topografiyasi” kitobida aytib o'tgan.

Yana qishloqda Jarboshi Avliyo degan ziyoratgoh ham mavjud. Bu joyni qishloqdagi insonlar juda qiziq Balogardon soy nomi bilan ham atashadi . Bu joyda g'or ham bor va g'orni ustidan suv oqib tushadi .

Oqib tushadigan suvni turli dardga davo deyishadi. Qishloqda yana Tole Buva nomi bilan ataladigan masjid ham bor . Bu masjidda chaqiriladigan azon ovozi atrofdagi qishloqlarga ham eshitilib turadi. Qishloqqa kiraverishda yana bir Kizkuydi deya ataladigan joy ham bor . Rivoyatlarda aytilishicha bu yerda bir qiz o'zini yoqib yuborgani va tubda yo'ldan o'tadigan insonlarni bu qiz chiqib yo'lini to'shishi haqida aytishadi.

Har bir hal o'zining urf-odat marosimlariga ega . Marosim namunalari folklorning eng qadimgi namunalariga kiradi. Folklorshunoslikda marosim folklori ikkita katta guruhga ajratish mumkin. 1.Mavsumiy marosimlar; 2.Oilaviy marosimlar. Shuningdek bu qishloq ham o'z marosimlariga ega. Dunyoda birorta xalq yo'qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlar nishonlanadigan. Bayramlar butun butun tayyorgarligi bilan o'tkaziladi. Maxsus taomlar pishiriladi, bayram liboslari tikiladi, o'yin-kulgular, sayilar,tomoshalar, musobaqalar uyushtiriladi. Shuning uchun milliy bayramlar tizimida xalq tarixi, milliy xususiyatlar haqida tasavvurlar hosil qilinadi. Bu tasavvurlarni oilaviy, muayyan hudud aholisi o'rtasidagi marosimlar, qolaversa, milliy urf-odatlar to'ldiradi, mukammallashtiradi. Qishloqda nishonlanadigan mavsumiy marosimlardan biri bu qadimdan xalqlar o'rtasidan o'tkaziladigan umumxalq Navro'z bayramidir. Bu ayyom o'zgacha ko'tarinki ruxta o'tkaziladi. Bayramda turli o'yinlar misol uchun, "Shribom", "Oq terakmi – ko'k terak", " Arqon tortish" shu kabilar va turli ham laparlar , she'rlar aytish o'yinlari bo'lib o'tadi. Oldinlari yomg'ir chaqirish uchun keng tarqalgan "Sust xotin " marosimini 1990-yillardan beri o'tkazib kelishgan buni biz Sijjak qishlog'ida olinga "Tangalik bolalar filmidan " ham bilishimiz mumkin ;

Sust xotin, suzma xotin,
Ko'lankasi maydon xotin .
Yomg'ir yog'dir ko'l bo'lsin,
Yer-u, jahon xo'l bo'lsin,
Maysalar quloq yoysin.
Sut-u qatiq mo'l bo'lsin,
Sust xotin, suzma xotin,
Sust xotin, suzma xotin.
Yomg'ir yog'dir ko'k bo'lsin
Qurg'iqchilik yo'q bo'lsin
Arpa, bo'g'doy bosh o'tsin ,
Pay onalar osh tortsin
Sust xotin, suzma xotin,
Sust xotin, suzma xotin.
Yomg'ir yog'dir xo'l bo'laylik,
Bizlar senga kerak bilaylik .
Ko'klamda o'ynab kulaylik,
Ham sho'x-u, ham zo'r bo'laylik.

Sust xotin, suzma xotin. Tarzida kuylanib kelingan. Oilaviy marosimlar ham keng nishonlanib kelinadi bunga misol qilib motam marosimlarini olishimiz mumkin. Motam marosimlarida marsiyalar kulangan buni biz "To'ydagi aza" filmidan bilishimiz mumkin . Lekin hozirgi kunga kelib bunday marosimlar o'tkazilinmaydi. Yana, to'y marosimlari bo'lmish; beshik to'yi, sunnat to'yi ,nikoh to'yi marosimlari ham tantanali tarzda nishonlanib kelinadi.



Hozirgi kunda ko'pgina urf-odatlar faqatgina qishloqlarda saqlanib qolyapti. Biz yoshlar o'z qadriyatlarimizni saqlab qolishimiz kerak chunki , bu orqali boshqa xalqlarga o'rnak bo'lishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”[Matn]:lug‘at tuzuvchilar. R.Y.Xudoyberganov(va bosh).- Toshkent:”Donishmand ziyosi”, 2022-624b

2.O.Madayev, M.Jo‘rayev, T.Sobitova, N.Muxitfinova. “O‘zbek folklori” (o‘quv darsligi). – Toshkent “Zebo print”,2022-400b.[73,99]

3.Ю.Ф.Боряков.”Историческая топография дверних городов Ташкентского оазиса”. – изгательство”ФАН” Узбекиской ССР Тошкент-1975

FRAZEMALARNING O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDAGI QIYOSIY TAHLILI

Rayimova Z. X

*Samarqand davlat chet tillar instituti
3-bosqich talabasi*

Kamarova M. U

*Samarqand davlat chet tillar instituti
koreys tili o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va koreys tillaridagi frazeologik birliklar o'rganib chiqildi va qiyosiy tahlil qilindi. Frazemalar ko'chma ma'noda ishlatilishi sababli juda ham qiziqarli va yorqin ma'nolarga egadir. O'zbek va koreys tillarining ikkalasi ham Oltoy tillari oilasiga mansubligi sababli o'xshash jihatlari ko'pdir. Jumladan, frazemik birliklardagi ko'plab o'xshash tomonlar aniqlandi.

Kalit so'zlar va iboralar: frazema, o'z ma'no, ko'chma ma'no, frazeologik sinonimiya

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Frazemaning mazmuni uning nimanidir nomlashi, ifodalashi, anglatishidir. Masalan, "og'zi-qulog'ida" frazemasining mazmunida "xursand" ma'nosi ifodalangan. Frazemaning mazmun plani albatta ko'chma ma'noga asoslanadi, aks holda uning to'g'ri ma'noli turg'un birikmalardan farqi qolmaydi. Masalan, "tepa sochi tikka bo'lmoq" frazemasini yaxlit holda "g'azablanmoq" ma'nosini — umumlashgan ko'chma ma'noni anglatib keladi. Bunday ko'chma ma'noga esa, kishi darg'azab bo'lganida uning badanidagi tuklarning sezilar-sezilmas harakatga kelishi (psixo-fiziologik holat) asos bo'lgan, demak, frazemaning ko'chma ma'nosini frazema tarkibidagi so'zlarning o'z ma'nolari bilan izohlash mumkin. Yana, "ona suti og'zida" frazemasini yaxlit holda "hali yosh", "tajribasiz" ma'nosini anglatib keladi, bunday ko'chma ma'noni esa frazema tarkibidagi so'zlar ma'nosi bilan izohlash mumkin: «Mahmadona, shumsanda. Ona suting og'zingda-yu, soqolimning oqiga qaramay aql o'rgataman deysan». Frazeologik sinonimiya bir necha frazemaning bitta frazeologik ma'no atrofida birlashib kelishidir. Masalan: 1) "pixini yorgan" — ayyor, 2) "ilonning yog'ini yalagan" — "ayyor" kabilar, va 1) "yer bilan osmoncha" — "juda katta farq", 2) "ot bilan tuyacha" — "juda katta farq" kabildir. Leksik sinonimiyada bo'lganidek, frazeologik sinonimiyada ham sinonimik qatorlar yuzaga keladi: birinchi misoldagi "pixini yorgan" va "ilonning yog'ini yalagan" frazemalari "ayyor" ma'nosi bilan bitta sinonimik qatorni; ikkinchi misoldagi "yer bilan osmoncha" va "ot bilan tuyacha" frazemalari esa "juda katta farq" ma'nosi bilan bir sinonimik qatorni hosil qilib kelmoqda. Frazeologik sinonimiya hodisasi ko'proq har bir tilning o'z frazemalari doirasida uchraydi: "Qilidan quyrug'igacha" — "Ipidan ignasigacha"; "quvonchi olamga sig'maydi" — "sevinchi ichiga sig'maydi" kabilar. Boshqa tildan frazema o'zlashtirish juda passiv bo'lganligidan, o'zlashma iboralarning frazeologik sinonimiya doirasiga tortilishi juda kam uchraydi.

Koreys tilida ham shunday frazemalar mavjud. Quyida ba'zi iboralar va ularning o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimasini keltirib o'tamiz:

귀가 얇다— bu ibora ishonuvchan (kim nima desa ishonib ketaveradigan) degan ma'noni anglatadi.

Ya'ni, o'zining shaxsiy fikri yo'q bo'lib boshqa odamning fikriga qarab harakat qiladi.

-이로다 씨가 또 텔레비전 광고를 보고 몇십만 숨짜리 물건을 사왔대요.

-이로다 씨는 귀가 얇아서 정말 큰일이예요.

-Iroda yana televizor reklamasini ko'rib bir necha yuz ming sumlik narsa sotib olgan deyishdi.

-Irodaning ishonuvchan (laqma)ligi bu juda katta muammodir.

귀가 가렵다 - bu ibora "qulog'i qichimoq/qizarmoq" – "qulog'im qiziyapti, kimdir g'iybat qilayotgan bo'lsa kerak" degan ma'noda ishlatiladi.

-왜 이렇게 귀가 가렵지?

-그래? 누가 네 말을 하고 있나 봐.

- Qulog'im nega bunday qiziyapti?

-Yog'e? Kimdir sen haqingda gapiryotganga o'xshaydi.

입이 무겁다 - bu ibora "og'ziga mahkam", "hech kimga sir boy bermaydigan" degan ma'noni anglatadi.

-친구에게는 비밀 이야기를 해도 안심이 된다. 아주 입이 무겁기 때문에 믿을 수 있다.

-Do'stinga sirimni aytсам ham ko'nglim xotirjam bo'ladi. Og'ziga juda mahkam bo'lganigi uchun ishona olaman.

입이 짧다 - bu ibora ikki ma'noda, birinchisi, "nozikta'b- ovqatni tanlab yeydigan" ma'nosida, ikkinchisi esa, "kam ovqat yeydigan" degan ma'nolarda ishlatiladi.

-수민은 입이 짧아서 아무 음식이나 많이 먹지 않습니다.

-Sumin nozikta'b bo'lganligi sababli har qanday ovqatni ko'p yemaydi.

가슴이 벅차다 - bu ibora "ta'sirlanmoq", "qalbi to'lib-toshmoq" degan ma'nolarni anglatadi.

어머니의 사랑을 깨닫고 가슴이 벅차다. Onamning sevgisini anglab yetib yuragim to'ldi(qalbm to'lib-toshdi).

발을 끊다 – "oyoqni uzish" -"aloqani uzish" degan ma'noda ishlatiladi. Bir- biri bilan aloqa qilmaslik yoki aloqalarni uzish.

-제임스 씨는 요즘 술집에 안 가요? Janob Jeyms, shu kunlarda barga bormayapsizmi?

-네, 건강이 나빠져서 발을 끊었어요. Ha, sog'ligim yomonlashgani uchun oyog'imni uzdim.

귀가 아프다 - bu ibora "bezmoq", "bir necha bor eshitgani uchun eshitishni xohlamaslik" degan ma'nolarda ishlatiladi.

-아직도 그 일을 안 했어? 오늘까지 끝내야 한다고 몇 번이나 말했는데...

-Hali ham bu ishni tugatmadingizmi? Bugungacha tugatishingiz kerak deb bir necha marta aytgandimku...

-그만해. 너무 들어서 귀가 아파.

-Bo'ldi, to'xtating. Juda ko'p eshitganim uchun eshitishni xohlamayman.

Xulosa

O'zbek va koreys tillaridagi frazemalarni o'rganishdan olingan xulosalar quyidagicha: koreys tilidagi iboralar ham xuddi o'zbek tilidagi iboralar kabi ko'chma ma'noni anglatib keladi. O'z ma'nosida qo'llaniladigan ikki yoki undan ko'p so'zlar birikib butunlay boshqa ma'noni anglatadi. Koreys tilida ham iboralar nutqning tugal fikrini bildiruvchi, odatda gapga teng keluvchi mustaqil birlik sifatida ham qo'llana oladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.H.Jamolxonov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". 2005
- 2.Akobirov S." Til va terminologiya". -T., 1968.
- 3.Shavkat Rahmatullayev. " Hozirgi adabiy o'zbek tili". 2006
- 4.한국어 교육용어 사전 (Korean-English Education Terminology Dictionary)
- 5.교육용어 5000 (5000 Educational Terms)
6. 한국어 교육용어 입문서 (Introduction to Korean Education Terminology)
- 7.한국어 교육용어 해설집 (Korean - English Education Terminology Explanation Book)

АЖРАТИЛГАН БЎЛАКЛИ КОНСТРУКЦИЯЛАРНИ СТРУКТУРАЛ ГУРУХЛАРГА
АЖРАТИШ ҲОДИСАСИ

АЗИМОВА Н.Ш
САМДЧТИ

Annotation: This article discusses the phenomenon of separation of separable constructions into structural groups in the syntax of the German language.

Key words: construction, separation phenomenon, structural group, semantic partner, separated clause, component, interpretable, modeling, syntactic relation.

Аннотация: В данной статье рассматривается явление разделения отделяемых конструкций на структурные группы в синтаксисе немецкого языка

Ключевые слова: конструкция, явление разделения, структурная группа, смысловой партнер, отделяемое предложение, компонент, интерпретируемый, моделирующий, синтаксическая связь.

Ажратиш ҳодисасини ўрганишга бағишланган кўп сонли илмий-тадқиқот ишларида, ажратилган бўлакли конструкцияларни структурал гуруҳларга ажратишда тилшунос олимлар турли хил методларга таянишган. Улардан баъзи бирлари ажратилган бўлакли конструкцияларни структурал гуруҳларга ажратишда семантик партнерни асосий мезон қилиб олишган бўлсалар, қолганлари эса ажратилган бўлакли конструкцияларнинг грамматик ифодаланишини ва синтактик функцияларини асосий мезон сифатида танлашганлар. Бироқ улар томонидан қўлланилган бундай мезонлар ёрдамида ажратилган бўлакли конструкцияларни маълум даражада тўлиғича структурал гуруҳларга ажратиш бўлмайди, чунки бу ерда қайд қилинган мезонлардан ташқари бошқа мезонлар ҳам мавжуд. Бунинг учун шундай йўл танлаш лозимки, унинг ёрдамида кўзланган мақсадга эришиш мумкин. Бундай йўл – бу ажратилган бўлакли конструкцияларни ва улар бевосита боғлиқ бўлган изоҳланувчи компонентларни моделлаштиришдир. Фақат моделлаштириш туфайли ажратилган бўлакли конструкцияларни тўлиғича структурал гуруҳларга ажратиш мумкин. Шунини эътироф этган ҳолда, ажратилган бўлакли конструкцияларни қуйидаги моделлар ёрдамида структурал гуруҳларга ажратиш лозим деб топамиз: P_r+P_r (Pronomen+ Pronomen); P_r+S_g (Pronomen+Gattungsnamen); P_r+S_e (Pronomen+Eigennamen); S_g+S_g (Gattungsnamen+Gattungsnamen); S_g+S_e (Gattungsnamen+Eigennamen); S_e+S_g (Eigennamen+Gattungsnamen); S_e+S_e (Eigennamen+ Eigennamen); $P_r+S_e+P_r$ (Pronomen+Eigennamen+Pronomen). Демак бу ерда қайд этилган моделлар ёрдамида ажратилган бўлақларнинг структурал гуруҳларини қуйидагича моделлаштириш мумкин. Моделлаштиришда биз изоҳланувчи билан изоҳловчи компонентнинг бир-бирларига бўлган синтактик муносабатларини асосий мезон қилиб танладик, бу эса ажратилган бўлақларнинг қуйидаги моделларини юзага келишига сабаб бўлди: $P_r + P_r$; $P_r + S_g$; $P_r + S_e$; $S_g + S_g$; $S_g + S_e$; $S_e + S_g$; $S_e + S_e$; $P_r + S_e + P_r$.

Энди ана шу моделлар ёрдамида ажратилган бўлақларга хос бўлган айрим хусусиятларни изоҳлашга ўтамиз.

I. $P_r + P_r$ модели бўйича:

1. Wir hatten getrunken, er und ich (L.Feuchtwanger. Narrenweiβheit, S.227).
2. Es muβten viele sein, vielleicht alle (H.Fallada. Wer einmal aus dem Blechnapf frisst, S.417).

3. Wir haben alle an Hitler geglaubt, auch er und ich (A.Seghers. Die Entscheidung, S.286).

II. $P_r + S_g$ модели бўйича:

4. Da ist sie also, die Mutter des jungen Hartwig (I.Harder. Die Frau vom Ziegelhof, S.92).

5. Sie war, die Neunjährige, schwarz gekleidet (I. Harder. Die Frau vom Ziegelhof, S.337).

6. Wir, deine Frau und ich, helfen uns gegenseitig (I. Harder. Die Frau vom Ziegelhof, S.248).

III. $P_r + S_e$ модели бўйича:

7. Sie haben also recht, die Tirschenreuth und der Hravliczek, der tückische Zwerg (L.Feuchtwanger. Die Brüder Lautensack, S.201).

8. Sie saß auf ihrem Schloß, Maultasch (L.Feuchtwanger. Die häßliche Herzogin Margarete Maultasch, S.151).

IV. $S_g + S_g$ модели бўйича:

9. Die Bevölkerung wird an der Suche beteiligt, sogar die großen Schulkinder (I.Harder. Die Frau vom Ziegelhof, S.260).

10. Zwischen beiden auf dem Schreibtisch ist ein Gewusel von Papieren, aber auch Bierflaschen, eine Kognakbudel, Gläser (H.Fallada. Wer einmal aus dem Blechnapf frisst, S.236).

11. Ein fremdes Paar stieg aus, gutgekleidete Stadtleute (A. Seghers. Die Entscheidung, S.574)

V. $S_g + S_e$ модели бўйича:

12. Zwei Weißhaarige sind unter ihnen Sophie Jaroslavski und Solonjenko (A.Seghers. Aufstand der Fischer von St. Barbara, S.138).

13. Die Fernstehenden, Josephs Leute hier und das Jaakobsvolk dort, hatten dem nahvertrauten Gespräch der beiden ehrfürchtig zugesehen (T. Mann. Joseph und seine Brüder, S.478).

14. Zwei Angestellte des Kossin Werkes, Müller und Fierlap, fuhren mit dem Ingenieur Riedel nach Rödersheim (A.Seghers. Die Entscheidung, S.298).

VI. $S_e + S_g$ модели бўйича:

15. An der Tür steht Hans, sein Ältester (K.Grünberg. Cloria Victoria, S.249-250).

VII. $S_e + S_e$ модели бўйича:

16. Papsts und Bollions steigen aus ihren Kutschen, Vogts aus dem Auto (I.Harder. Die Frau vom Ziegelhof, S.222).

VIII. $P_r + S_e + P_r$ модели бўйича:

17. Wir, Martchen und ich, freuen uns (I.Harder. Die Frau vom Ziegelhof, S.199).

18. Wir, Ilse und ich, müssen ja auch so fruh raus (I.Harder. Die Frau vom Ziegelhof, S.305).

19. Wir wollen zusammen ins Biebricher Schloßcafe gehen, Nora und ich und Helmut und Vatorel und seine schöne Frau (I.Harder. Die Frau vom Ziegelhof, S.418).

Энди бу ерда келтирилган мисолларнинг таҳлиliga тўхталамиз. Ажратилган бўлақларнинг матнлар таркибида қўлланилиши ва ёйилиши даражасига, шунингдек уларнинг ифодаланиш хусусиятлари ва ниҳоятда изоҳланувчи компонентларига нисбатан билдириб келаётган синтактик, стилистик ва маъно хусусиятларига қараб моделлаштириш уларни саккизта структурал гуруҳларга бўлиб ўрганишни тақозо этмоқда.

Бироқ моделлаштириш орқали ажратилган бўлақларни структурал гуруҳларга ажратиш бу билан чегараланиб қолмайди, аксинча бундай гуруҳлар сон жиҳатдан ҳам сифат жиҳатдан ҳам кенгайтирилиши мумкин, чунки биринчидан уларнинг кенгайишига матнлар устида олиб борган кузатишларимиз асос бўлса, иккинчидан эса бу ерда намоёиш этилган ажратилган бўлақларнинг

синтактик, семантик, стилистика ва коммуникатив хусусиятлари сабаб бўлади. Мисоллар таҳлилига кўра, ажратилган бўлақлар ўзлари бевосита боғлиқ бўлган изоҳланувчи компонентларга, яни семантик партнерларга нисбатан қўшимча маъно изоҳлаб келади. Улар томонидан семантик партнерларга нисбатан изоҳланаётган қўшимча маъно орқали изоҳланувчи компонентларнинг маъно хусусиятлари конкретлаштирилади, аниқланади, яъни номаълум характердаги маъно аниқланади, маъно характердаги маъно эса конкретлаштирилади. Ажратилган бўлақларга хос бўлган бундай маънолар уларга хос бўлган стилистик функциялар ёрдамида кенгайтирилади, ажратилган бўлақларга хос бўлган стилистик функциялар турлича шаклланиши мумкин: биринчидан мураккаб фикрни содда, ихчам ва таъсирли ифодалайди; иккинчидан, семантик партнерга нисбатан турли позицияларда келади: жумладан, №3, 5, 6, 10, 13, 14, 15, 18 – рақамли мисолларда ажратилган бўлақлар семантик партнерларга нисбатан ёнма-ён турса; № 1, 2, 7, 8, 9, 11, 12, 16 – рақамли мисолларда эса ажратилган бўлақлар ўзлари бевосита боғлиқ бўлган изоҳланувчиларга нисбатан маълум масофада туради, яъни улар орасида қандайдир оралик унсурлари келади; учинчидан ажратилган бўлақлар, ёлғиз яъни якка ҳолда ифодаланиши мумкин: № 5, 8, 11, 15-рақамли мисолларда; кенгайтирилган шаклларда келиши мумкин - №1, 2, 3, 4, 6, 7, 9, 10, 12, 13, 14, 16, 17, 18; тўртинчидан ажратилган бўлақлар изоҳланувчи компонентларга нисбатан интерпозиция ҳолатида келиши мумкин, №5, 6, 7, 13, 14, 17, 18-рақамли мисолларда, ё бўлмаса, постпозиция ҳолатида келиши мумкин, №1, 2, 3, 4, 9, 10, 11, 12, 15-рақамли мисолда.

Ажратилган бўлақларни моделлаштириш орқали структурал гуруҳларга бўлиб ўрганиш куйидагича хулосаларга олиб келиши мумкин: а) моделлаштириш ажратилган бўлақларнинг ва изоҳланувчи компонентларнинг қайси гап бўлаги ёрдамида ифодаланиб келишини аниқ кўрсатувчи омилдир; б) ажратилган бўлақларнинг содда гап таркибида иштирок этиши натижасида содда гаплар янги синтактик табиатга эга бўлади, улар бундай ҳолатларда содда гап шаклида эмас, балки мураккаб гап шаклида таҳлил қилинади; бу билан немис тили синтаксиси доирасида янги бир мустақил соҳанинг юзага келишига сабаб бўлади, аниқроғи мураккаб гап синтаксиси пайдо бўлади; в) ажратилган бўлақларни кўп сонли фактик материаллар асосида ўрганиш, уларга хос бўлган, бироқ ҳозирги кунгача бирон-бир илмий-тадқиқот ишининг текшириш объекти бўлган томонларини очишга яқиндан ёрдам беради.

АДАБИ ЁТЛАР:

1. Потапова Ж.Е. К вопросу о стилистическом изучении повторной номинации. – Вестник Харьковского университета, 1977, № 159, вып. 10, с.85-88.
2. Потапова Ж.Е. О стилистическом аспекте изучения обособленного приложения. – Вестник Харьковского университета, 1978, № 170, вып. 11, с.64-68.
3. Потапова Ж.Е. Стилистическая функция повторной номинации. – Вестник Харьковского университета, 1981, № 220, с.72-77.
4. Морару Ю.С. О некоторых типах присоединительных конструкций // Грамматические и лексические исследования по романским и германским языкам. – Кишинев: Штинца, 1981. – С. 107.



OLIIY TA'LIM BOSQICHIDA ARAB TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY
METODLARDAN FOYDALANISH

Toirova Mehribon Odiljonovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Sharq tillari fakulteti Arab tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

mehribontoirova7@gmail.com

Annotatsiya: *Har bir tilni o'rganish uni jamiyatga tadbiq qilish va albatta rivojlanishi yo'lida o'z hissamiz instituti qo'shishimiz uchun avval tanlangan chet tillarini puxta va mustahkam o'rganishimiz kerak. Buning uchun esa biz to'g'ri o'qitish usuli va metodlarini tanlashimiz kerak bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Metodika, innovatsiya, chet tili, kommunikatsiya, ko'nikma, malaka, leksik material, lug'at boyligi.*

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion-inglizcha "yangilik kiritish" "tarqatish ma'nolarini anglatadi. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o'zaro farqlanadi. Yangilik – bu vosita yangi metod, metodika, texnologiya atamasini anglatadi. "Innovatsiya" bu- ta'lim ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Dunyo ilm-fani taraqqiyoti kundan kunga rivojlanib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorumizga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Ilm dunyomizga ilg'or innovatsion texnologiyalar tadbiq etilmoqda. Shulardan biri til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biridir. Muloqot vositasi bo'lgan tilni tabiiy muhitdan ya'ni oilada jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda egallash mumkin. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyatga ega hisoblanadi. Chet tili bu- xorijiy mamlakat tildir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari, Sharq (arab, turk, fors, xitoy , hind) tillari o'qitib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassasalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Chet tilidagi muloqot bu odamlar orasida, darsda, ko'chada, sinfda bo'lishi mumkin. Chet tili o'qituvchisi Metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchini til bilish me'yori tajribasini aniq bilishga va uni yana takomillashtirishga erishadi. Xorijiy tillarni samarali o'rganish bevosita uni o'qitish metodikasini bilishni talab qiladi. Metodikaning predmeti- chet tili predmeti orqali ta'lim berish jarayoni va usullarini chet tilini o'rgatish ilmi va o'quvchi faoliyatini o'rganish metodikaning predmeti hisoblanadi. Biz metodikaning asosiy tushunchalarini metod, usul, prinsip deb bilamiz. Metod , metodika tushunchasi grek lotincha "metodos" -metodus so'zidan olingan bo'lib ma'lum maqsadga olib boruvchi yo'llar, usul ma'nosini bildiradi. Shu o'rinda shuni aytib o'tishimiz mumkinki chet tilini o'qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega hisoblanadi. Aynan bu davr ichida chet tili o'qitish metodikasiga turlicha munosabatlar bildirilgani kuzatish mumkin.

Ana shunday qarashlardan biri: L.V. Shcherbaga qarashli dir. Uning fikricha har qanday fanni o'qitish metodikasi fan bo'lishiga qaramasdan nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy tomonlarni ham o'z ichiga oladi. Xorijiy tillarni o'qitish usuli ham bundan mustasno emas, albatta. Uning metodi umumiy xususiy tilshunoslikka asoslanadi. Umumiy deb istalgan tilni amaliy va nazariy jihatdan til sifatida uning atrofida o'rgansak, xususiy deb esa tilni amaliy va nazariy tomonlarni unga qo'shimcha qilib ilmiy tomonlarni ham atroflicha emas har bir detaligacha o'rganish desak bo'ladi.

Xuddi shundaylardan yana biri bu- Arab tilini o'qitish metodi va usullaridan. Arab tilini o'qitish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ta'lim faoliyatining asosiy shakllari sifatida turli usullar hisoblanadi.

Arab tilini o'qitishning asosiy shakllaridan biri bu mustaqil ish.

- A) Auditoriya darslarida mustaqil ishlash
- B) Ta'lim muassasalaridan tashqarida mustaqil ishlash
- C) Qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish

Yana leksik materialni aniqrog'i tildagi muayyan so'zlarni o'rgatish 3 bosqichning o'z ichiga oladi;

- 1) Leksikaning taqdimoti
- 2) Leksika mashqlari
- 3) Leksikaning qo'llanilishi

Islom ilmlarining butun terminologik kontseptual apparati Arab tilida rivojlangan. Adabiy Arab tili butun dunyo musulmonlarini birlashtiradi. Aynan aytadigan bo'lsak Islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar tillari lug'atida arabcha leksemalarni ko'p uchratish mumkin. Olimlar Arab tilining Islom tili sifatidagi ilmiy mohiyatini uning aniqligi, atamalar semantik sohasining kengligini alohida o'rinda aytishimiz mumkin. Arab tili umuman hamma sohada har bir o'qituvchi o'z bilimini mustaqil ravishda oshirishi va darslarga tayyorgarlik ko'rishda tarmoqning boy resurslaridan foydalanish juda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga fanga oid Internet sahifalaridan, saytlardan albatta foydalanish kerak. Chunki ularda qiziqarli ma'lumotlar, ulardan foydalanish va multimediali taqdimot larni yaratishni amalda qo'llash mumkin. AKT dan foydalanish dars samaradorligini oshirishni ta'minlashda, ta'lim tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini jadallashtirish, o'quvchini har tomonlama rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki til o'rganishda uni lug'at boyligi va imkoniyatlari bilan yaqindan tanishish, puxta o'zlashtirish muhim omillardan biridir. Nima bo'lsa ham o'rganayotgan tilga muhabbat, qiziqish va ixlos bo'lsa harakat bilan ko'p narsaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) J.Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi"
- 2) Djumali Shabonov : " Chet tili o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar" Toshkent 2009
- 3) <https://bridge.edu>

KOREYA DAVLATIDA TA'LIM SOHASIGA OID TERMINLAR (O'RTA VA OLIY
TA'LIM TIZIMIGA OID TERMINLAR VA ULARNING TAHLILI)

Tursunov B. Z

Samarqand davlat chet tillar instituti 4-bosqich talabasi

Kamarova M. U

Samarqand davlat chet tillar instituti koreys tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Koreya davlatida ta'lim sohasiga oid terminlar (o'rta va oliy ta'lim tizimiga oid terminlar va ularning tahlili) turli xil manbaalar va adabiyotlarga tayangan holatda o'rganilib chiqildi. Ta'lim va pedagogikaga aloqador terminalogik lug'at va ularning tahlillariga oid ko'p uchraydigan oddiy va murakkab misollari mavjud bo'lib, ushbu maqolada ularning har biri o'ziga xos yondashuv va ularning izohli tarjimasi bilan taxlil qilindi.

Kalit so'zlar va iboralar: 모교, alma mater, 교육어, ta'lim, o'qishga qabul qilinish.

Koreys tilida ta'lim sohasi, “교육어” (kyoyugo) yoki “학문어” (hakmuno) deb ataladi. Bu so'zlar ta'lim sohasiga oid so'zlar tushunchasini ifodalaydi. Koreys tilida ta'lim sohasi, o'qish, yozish, e'tibor qaratish, axborot sohasi, tibbiyot, ilmiy tadqiqot va boshqa sohalar uchun foydali bo'lgan ko'plab so'zlar va iboralar tashkil qiladi.

Ta'lim sohasi haqida Koreys tilida barcha so'zlar va iboralar, talabalar va o'qituvchilar uchun ma'lum, aniq va qulay bo'lishi kerak. Bu sababli, Koreys tilida ta'lim sohasidagi so'zlar terminologiyasi mustaqil va aniq tuzilgan bo'lishi lozim. Ta'lim sohasidagi so'zlar terminologiyasi, belgilangan qoidalarga rioya qilinishi va belgilangan prinsiplarga amal qilinishi lozim.

Koreys tilida ta'lim sohasidagi so'zlar va iboralar, ta'lim sohasiga oid turli sohalarda foydali bo'lgan barcha so'zlar va iboralar tarkib qiladi. Bular o'qish, yozish, e'tibor qaratish, axborot sohasi, tibbiyot, ilmiy tadqiqot va boshqa sohalar bo'lishi mumkin. Ta'lim sohasi Koreyada rivojlanmoqda va uni o'rganishning talabasi har kuni ko'proq oshmoqda.

Koreys tilida ta'lim sohasida ko'plab foydali so'zlar va iboralar mavjud. Quyida ba'zi foydali so'zlar va ularning ma'nolari keltirilgan:

모교 (母校, Lotincha: alma mater 알마 마터) - siz ilgari qatnagan va hozirda bitirgan ilk maktabingizni bildiradi. Lotinchada “alma mater” ya'ni siz o'tmishda o'qib ilm olgan va sizga eng birinchi ta'lim bergan universitet yoki maktabni anglatadi.

그는 자신의 모교에 장학금을 기부했다.

(U o'zining bolaligida qatnagan ilk maktabiga hayriya sifatida pul taqdim etdi.)

숙제(宿題) - Bu sinfdan tashqari tayyorgarlik ko'rish yoki uyda o'qish yoki maktabga borishdan oldin oldindan o'qishni anglatadi. Oldindan o'rganish tayyorgarlik, o'rgangan narsangizni qayta o'rganish esa takrorlashni anglatadi.

학교에 입학하다 – talabalar ro'yxatiga muvaffaqiyatli kirib universitet talabasi bo'lganligini anglatadi.



그는 강원도에 있는 학교에 입학하여 이 년 동안 동교에 다니다가 서울로 전학했다. (U Kangwon-doda joylashgan universitetga qabul qilinib 2 yil davomida o'qigandan so'ng o'qishini Seulga ko'chirib o'tkazdi.)

거꾸로 교실 Teskari ta'lim (Flipped Learning) - Teskari ta'limning bir turi sifatida bu ma'ruzalar va boshqa o'quv qo'llanmalari onlayn tarzda taqdim etiladigan va o'quvchilar dars mazmunini oldindan o'rganadigan, so'ngra o'qituvchi bilan oflayn ma'ruzalar orqali munozaralar yoki amaliyot kurslari o'tkaziladigan ta'lim usulidir. Dars soatida asosan o'quvchilarga qiyin tushunchalarni tushunishga yordam beriladi yoki tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

교육 현장에서 거꾸로 교실 담론의 중심이 되고 있고, 학부모들의 관심도 높다.

(Ta'lim muassasalarida teskari ta'lim metodiga asoslangan o'qitish uslublari tadbiriq etilmoqda va bunga ota-onalarning qiziqishi yuqori.)

유학을 가다 – chet elda malum bir muddat davomida yashagan holda ta'lim olish.

친구는 내일 파리로 유학을 간다고 한다.

(Do'stim ertaga Parijga o'qishga ketyapman deb aytdi.)

유아교육 (Erta bolalik ta'limi) – boshlang'ich maktabga borishdan avval bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim turi.

유아원이나 유치원 같이 유아교육을 담당하는 시설이 증가하였다.

(Bolalar bog'chasi yoki maktabgacha ta'lim muassasalariga o'xshash bolalarga ko'rsatilayotgan erta ta'lim qulayliklari ko'payib bormoqda.)

평생교육 - Inson tarbiyasi butun hayot davomida uyda, maktabda va jamiyatda amalga oshirilishi kerakligi haqidagi ta'lim nuqtai nazari. 1967-yilda YuNESKOning kattalar ta'limi bo'yicha konferentsiyasida odamlar ijtimoiy madaniyatdagi buyuk o'zgarishlarga moslashish uchun doimo ta'lim olishlari kerak degan maqsadda taklif qilingan.

많은 국립 학교가 지역 주민의 평생 교육의 역할을 떠맡고 있다.

(Ko'pgina milliy maktablar mahalliy aholi uchun uzluksiz ta'lim rolini o'z zimmalariga oladilar.)

기초학력 – Ta'lim o'quv dasturi orqali talab qilinadigan minimal yutuqlar standartlariga javob beradigan akademik tajriba.

초등학교에 입학하기 전에 아이들의 기초 학력을 점검해 보자.

(Boshlang'ich maktabga kirishdan oldin bolalarning asosiy akademik ko'nikmalarini tekshirib ko'raylik.)

학습지원교육 - Talabalar uchun individual sharoit va xususiyatlarga mos keladigan mazmun va usullar bilan o'quv qo'llab-quvvatlanishi kerak bo'lgan moslashtirilgan ta'lim.

입학식 – o'qishga yangi qabul qilingan talabalarni yig'ib uyushtiriladigan tadbiri.

전국 대부분의 초등학교에서 오늘 입학식이 열렸다.

(Bugun mamlakatdagi aksariyat boshlang'ich maktablarda o'qishga endi kirgan talabalar o'rtasida tadbiri bo'lib o'tdi.)

졸업(卒業) - Talaba nizomga muvofiq belgilangan o'quv kursini tamomlashi.

학기 (學期) – O'quv yilidagi akademik talablarga ko'ra bo'lingan davrlar tushuniladi. Odatda mart-avgust va sentyabr-fevral oylarini o'z ichiga olib ikki semestrda bo'linadi.

K-MOOC - (Korean Massive Open Online Course) Cheklanmagan miqdordagi talabalar uchun bepul tarzda Koreyaning eng nomdor, TOP universitetlari tomonidan taqdim etilayotgan turli xil sohalarga oid onlayn ochiq ma'ruzalarini tinglash imkonini beruvchi K-MOOC (<http://kmooc.kr>) koreya ommaviy ochiq onlayn kurslari.

Xulosa

Janubiy Koreya davlati ta'lim sohasiga oid so'zlar terminologiyasini o'rganishdan olgan xulosalar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Janubiy Koreya davlatida ta'lim sohasi juda rivojlangan va so'zlar terminologiyasi esa o'ziga xosdir. Koreys tilida ta'lim sohasiga oid so'zlar terminologiyasi o'zida qiyosiy ravishda muhimdir va ta'lim sohasida amalga oshiriladigan barcha faoliyatlar uchun foydali bo'ladi. Koreys tilida ta'lim sohasi davomiy o'zgaruvchan bo'lib, shuningdek, ta'lim sohasiga oid so'zlar va iboralarning muvofiqligi jiddiy ahamiyatga ega. Koreys tilida ta'lim sohasida foydali bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab terminologiya so'zlar mavjuddir va ularga tegishli iboralar juda kam. Koreys tilida ta'lim sohasi o'zida moliyaviy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa muammolarga oid bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab terminologiya so'zlar mavjud. Koreys tilida ta'lim sohasida turli xil ta'lim usullari mavjud, shuning uchun har bir ta'lim usuli uchun alohida terminologiya mavjud. Koreys tilida ta'lim sohasida jamiyat taraqqiyotida ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qituvchilar, talabalar va boshqa bo'limlar bilan muloqot qilish uchun barcha zarur terminologiya so'zlar ham mavjud.

Jamiyatda ta'lim sohasining rivojlanishi bilan birga, Koreys tilida ta'lim sohasiga oid so'zlar terminologiyasi rivojlanishni davom ettirilishi kerak bo'lgan muhim aspektlardan biri.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akobirov S. Til va terminologiya. -T., 1968.
2. Hakimov M.X. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatic xususiyatlari.-T., 1993
3. Halliday M.A.K., R Hasan. Language, context and text: Aspect of Language in a Social - Semiotic Perspective. - O., 1991. P.126.
4. Holmes, J.S., The name and nature of translation studies. Third international congress of applied, linguistics. Copenhagen, 1999.
5. 한국어 교육용어 사전 (Korean-English Education Terminology Dictionary)
6. 교육용어 5000 (5000 Educational Terms)
7. 한국어 교육용어 입문서 (Introduction to Korean Education Terminology)
8. 한국어 교육용어 해설집 (Korean - English Education Terminology Explanation Book)

INTEGRATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES INTO CURRICULA: ADVANTAGES AND CHALLENGES

Valieva Nargizakhon Zamirkizi

Student of 3rd English faculty

Uzbekistan State World Languages University

Abstract. *Information technologies (IT) have become an integral part of modern society, revolutionizing various fields, including education. The integration of IT into curricula has gained significant attention as educators strive to enhance the learning experience and prepare students for the digital age. This article explores the advantages and challenges associated with the integration of information technologies into curricula, highlighting its impact on teaching and learning processes.*

Keywords: *information technologies, educational technology, curriculum integration, student engagement.*

In today's digital era, traditional educational practices face the challenge of meeting the needs of digitally literate students. The integration of information technologies into curricula has emerged as a response to this challenge. By incorporating IT tools, such as computers, software applications, online resources, and multimedia, into curricula, educators can create engaging and interactive learning environments. However, the integration process comes with its own set of advantages and challenges, which need to be thoroughly examined.

Advantages of Integrating Information Technologies:

Enhanced student engagement: Information technologies offer interactive and multimedia-rich learning experiences, making the learning process more engaging and motivating for students. Incorporating multimedia elements, such as videos, simulations, and interactive quizzes, can capture students' attention and facilitate better understanding of complex concepts.

Access to vast educational resources: Integration of IT enables students and teachers to access a wealth of educational resources available online. This includes e-books, academic journals, educational websites, and online libraries, providing a broader range of learning materials and facilitating independent research.

Personalized learning experiences: Information technologies support adaptive learning, allowing students to learn at their own pace and according to their individual needs. Learning management systems and educational software can track students' progress and provide personalized feedback, helping them focus on areas that require improvement.

Collaboration and communication opportunities: IT integration promotes collaborative learning by facilitating communication and interaction among students and teachers. Online discussion forums, virtual classrooms, and collaborative document editing platforms enable students to work together, exchange ideas, and engage in meaningful discussions, irrespective of their physical location.

Real-world connections: Information technologies enable students to connect classroom learning with real-world applications. Virtual field trips, video conferences with experts, and online simulations provide opportunities for students to experience real-life scenarios, enhancing their understanding of theoretical concepts and fostering critical thinking skills.

Challenges of Integrating Information Technologies

